

A.G'.SODIQOV

YOSH SUZUVCHILARNING  
TAYYORGARLIK BOSQICHLARIDAGI  
MASHG'ULOT YUKLAMALARINI  
REJALASHTIRISH



TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT  
ISHLARI VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA INSTITUTI**

**A.G'.SODIQOV**

**YOSH SUZUVCHILARNING  
TAYYORGARLIK BOSQICHLARIDAGI  
MASHG'ULOT YUKLAMALARINI  
REJALASHTIRISH**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan oly o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT – 2015**

**UO'K: 797.2**

**KBK 75.713**

**S-21**

**S-21 A.G'.Sodiqov. Yosh suzuvchilarning tayyorgarlik bosqichlaridagi mashg'ulot yuklamalarini rejalash-tirish. –T.: «Fan va texnologiya», 2015, 200 bet.**

**ISBN 978-9943-983-35-9**

Hozirda jahon sport sohasida suzishning rivojlanishi, ushbu turning o'sib borayotgani, suzuvchilar tayyorgarligining muntazam tako-millashayotgan mashg'ulot yo'nalishlarini o'zgartirish zaruriyatini taqozo etadi.

Mazkur o'quv qo'llanmada yosh suzuvchilarning tayyorgarlik jarayonini jadallashtish metodikasi yoritib berilgan.

O'quv qo'llanmada ilk bor yosh suzuvchilar – sprinterlar, o'rta masofada suzuvchilar va stayerlarning tayyorgarligini jadallashtirish dasturi berilgan. Dastur suzishda maxsus yuklamalarini tizimlashtirish hamda tavsiflash, kattaliklarini me'yorlash, shuningdek, tanlagan (ustuvor) yo'nalishdagi yuklamalarini qo'llash asosida tuzilgan.

O'quv qo'llanmada bolalar va o'smirlar sport maktablari murabbiy o'qituvchilari, jismoniy tarbiya instituti, pedagogika oily o'quv yurtlari jismoniy tarbiya fakultetlari talabalari, malaka oshirish fa-kultetlari tinglovchilari va suzish murabbiylari uchun mo'ljallangan.

**UO'K: 797.2**

**KBK 75.713**

***Taqrizchilar:***

**R.D.Xolmuhamedov** – pedagogika fanlari doktori., professor;

**F.K.Turdiyev** – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

**ISBN 978-9943-983-35-9**

**© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2015.**

## KIRISH

Suzish eng ommabop va jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan sport turlaridan biri hisoblanadi. Bu suzish mashqlarining inson organizmiga, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlod organizmiga nisbatan butkul sog'lomlashtiruvchi va umum rivojlantiruvchi ahamiyati bilan belgilanadi.

Suzishning turlari Olimpiya va Osiyo o'yinlari, jahon, Osiyo championatlari hamda boshqa yirik musobaqalar dasturlaridan keng o'rin olgan.

O'zbekiston Respublikasida sportning, jumladan, suzishning rivojlanishiga Hukumat va shaxsan Prezident I.A. Karimov tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda ko'p sonli sport inshootlari ishga tushirildi. Ular orasida eng yangi, jahon talablariga javob beradigan standart suzish havzalari ko'pchilikni tashkil etadi. Bu yerda yosh sportchilar shug'ullanib, o'z mahoratlarini oshirmoqdalar.

Jahon sport maydonlarida o'zbekistonlik suzuvchilarining ham g'alabalari ortib bormoqda. Biroq jahonda raqobatchilikning ortishi shunga olib keldiki, vatanimiz suzuvchilarining erishgan yutuqlari so'nggi yillarda avvalgiga qaraganda aytarli ko'zga tashlanmay qoldi.

Suzishda sport natijalarining to'xtovsiz o'sib borishi, jahon birinchiligi uchun kurash olib borishdagi keskin raqobat mashg'ulot jarayoni sifati hamda samaradorligini muntazam oshirib borishni taqozo etadi.

Suzishda natijalarining yanada o'sishi yirik musobaqlarda muvafaqiyatlari qatnashish imkoniyati yuqori malakali va zaxira sportchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishni talab qiladi.

Ushbu jihatdan sportchilarining moslashish imkoniyatlarini inobatga olish, mashg'ulot jarayonini jadallashtirish muammosini hal etish juda dolzarb sanaladi.

Ushbu o'quv qo'llanmada ko'p yillik tayyorgarlik tizimida chuqurlashtirilgan va ixtisoslashgan bosqichida muallif tomonidan olib borilgan.

Yosh suzuvchilar o'quv-mashg'ulot jarayonini jadallashtirish metodikasini ishlab chiqishga yo'naltirilgan tadqiqotlar natijalari hamda zamonaviy qarashlar umumlashtirilgan.

Mazkur bosqichda (13-15 yosh) biologik rivojlanishning individual sur'atlari katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun yosh suzuvchilarni tayyorlash davomida mashg'ulot hamda musobaqa yuklamalarini rejalashtirishda oqilona me'yorga rioya qilish zarur.

Buning uchun mashg'ulot mikrotuzilmalari: vazifalari, mashg'ulotlari va haftalik mikrosikllar (MS) uchun yuklamalar kattaliklari me'yorlariga, shuningdek, yosh suzuvchilarning musobaqa va mashg'ulot faoliyatini, organizm tizimlari holatini baholash, ularning jismoniy ish qobiliyatlarini baholash uchun barqaror hamda axborotli testlar kompleksiga ega bo'lish lozim.

Mashg'ulot jarayonini jadallashtirish va yo'nalishni o'zgartirish zaruriyati yuqorida muammoni hal etish bo'yicha yangi ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Vatanimiz va xorijiy adabiyotlarni tahlil qilish davomida suzish bo'yicha yuqorida aytib o'tilgan tavsiyalarning yo'q ekanligi aniqlandi. Chuqurlashtirilgan ixtisoslashish bosqichida o'quv-mashg'ulot jarayonini jadallashtirish muammosini hal etishga imkon beradigan metodikalar ham mavjud emasligi aniqlandi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, mualif o'z tajriba tadqiqotlari natijalariga asoslanib, chuqurlashtirilgan ixtisoslashish bosqichida mashg'ulot jarayonini jadallashtirish metodlarini taklif etadi.

---

---

## I. YOSH SUZUVCHILAR MASHG‘ULOT JARAYONINI JADALLASHTIRISH METODIKASINING NAZARIY ASOSLASH

### 1. Suzishda mashg‘ulot jarayonini jadallashtirish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlar

Sport suzishining ommaviyligi va keng tarqalganligi, uning yirik xalqaro musobaqalar dasturidan joy olganligi rivojlangan va yuqori sport natijalariga erishish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan davlatlarda uning rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilishi dasturning hamma turlarida natijalarning doimiy o’sib borishini belgilab bermoqda.

Sport suzishi jarayoni uchun yana bir ahamiyatli jihat shuki, ushbu sport turida fundamental va amaliy tadqiqotlar juda ko‘p. Aynan sport suzishi materialida oxirgi yillarda mashg‘ulot jarayonini tuzish, mashg‘ulot va musobaqa faoliyatini boshqarish, sport fiziologiyasi, biokimyo, biomexanika sohasida qiziqarli tadqiqotlar olib borilgan.

Bu tadqiqotlar natijalari ko‘p jihatdan suzuvchilar tayyorlash nazariyasi va metodikasini ancha oldinga yo‘naltirdi.

Jahoning eng kuchli suzuvchilarini tayyorlash amaliyoti mashg‘ulotlarini umumlashtirib tahlil qilish asosida mashg‘ulot jarayonini jadallashtirish va yo‘nalishni o‘zgartirish borasidagi asosiy yo‘nalishlar ajratib olindi. Bu quyidagi yo‘nalishlar:

– yil davomida bajariladigan mashg‘ulot ishining umumiylajimi oshirish;

– o‘z vaqtida sport ixtisoslashuvi;

– mikrosikllarda katta yuklamalni mashg‘ulotlarni ko‘paytirish;

– organizmning funksional imkoniyatlarining chuqurroq safarbar qilinishini keltirib chiqaruvchi bir tomonga yo‘naltirilgan yuklamalardan yoki tanlab yo‘naltirilgan yuklamalardan iborat bo‘lgan mashg‘ulotlar sonini oshirish;

– maxsus chidamlilikning o‘sishiga bosim beruvchi qat’iy mashg‘ulot rejimlaridan foydalanishi, shuningdek, sport takomil-

lashuvi bosqichining oxirlarida musobaqa amaliyotini muhim darajada kengaytirish;

- ish qobiliyatini rag‘batlantiruvchi va shiddatli yuklamalardan so‘ng tiklanish jarayonlarini jadallashtiruvchi qo‘srimcha vositalarni kiritish;
- mashg‘ulot jarayonining psixik shiddatini oshirish, har bir mashg‘ulotda musobaqadagi vaziyatni va keskin raqobatni yaratish;
- tayyorgarlik jarayonida turli xil ustuvor yo‘nalishdagi ish nisbatlarini o‘zgartirib turish;
- musobaqa faoliyatida (MF) asosiy yuklama ko‘taradigan mushaklarning tezlik-kuch sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan quruqlikdagi va suvdagi maxsus ish hajmini oshirish;
- suzish texnikasini va MF tuzilishining asosiy tarkiblarini (start va burilish) takomillashtirishga yo‘naltirilgan ish hajmini ko‘paytirish;
- mashg‘ulot jarayoniga yangi, noan‘anaviy vositalar, trenajyor moslamalarni kiritish, o‘rtacha balandlikdagi tog‘ sharoitlarida mashg‘ulotlar o‘tkazish;
- suzuvchilar organizmi holatini tekshirish uchun eng yangi metodik apparaturalardan foydalanish asosida tezkor nazoratni takomillashtirish va shu asosda mashg‘ulot yuklamalari rejimini optimallashtirish;
- mashg‘ulotlar metodikalari va dasturlarini, ixtisoslikni obyektiv asoslangan holda almashtirib turish, o‘z vaqtida boshqa murabbiya o‘tish.

N.V. Kleshnev va I.A. Tveryakov (2008) fikricha, o‘quv-mashg‘ulot jarayonini rejalashtirishda moslashish davomida zaxiraning kamayishi hamda uning tiklanishi sikllarini e’tiborga olish zarur.

Sportchi mushak tiziminining mashg‘ulot yuklamasiga moslashishi mushaklarning funksional imkoniyatlariga mushakning harakat va me’yor birliklari xususiyatlariga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi.

Maqola mualliflari suzuvchilarning moslashish imkoniyatlarini aniqlash natijalariga ko‘ra yettita tipdagi suzuvchi sportchilarni ajratishgan.

**1-tipi – portlovchan sprinterlar.** Ushbu tipga mansub sportchilar 50 m masofadagi eng yuqori natijalarni ko‘rsata olishga qodirdirlar. 100 m masofada ularning natijalari pastroq, asosan masofaning ikkinchi yarmida suzish tezligi jiddiy pasayib ketadi, («tekis» suzish qismlarida 7% dan va undan ko‘proq). Sport natijalari dinamikasi va

mas'uliyatlari musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish jarayonini baholash shuni ko'rsatadiki, ushbu tipga mansub sportchilar qisqa moslashish muddatlariga ega – 3 oy atrofida.

Boshqacha aytganda, 12-14 haftada sikl cho'qqisiga chiqib olishlari mumkin. Demak, bu tipga mansub sportchilar uchun 4 siklli yillik tayyorgarlik davrini rejalashtirish o'zini oqlaydi.

**2-tipi – klassik sprinterlar.** Ushbu tipga mansub sportchilar 100 m masofada yuqori natijalarni ko'rsatishadi, biroq 50 m masofada ularning natijalari darajasi birmuncha pastroq bo'ladi va ular ko'pincha portlovchan sprinterlarga yutqazib qo'yadilar.

Maxsus shiddatli anaerob-alaktat energiya ta'minotining cheklanganligi ushbu tipga mansub sportchilarni chekllovchi bo'g'in hisoblanadi. Anaerob-alaktat yuklamalardan foydalanish uzoq vaqt davom etmasligi hamda qat'iy me'yorlangan bo'lishi lozim. Ushbu tipga mansub sportchilar 4-5 oylik tayyorgarlik siklida sport formasi cho'qqisiga chiqib olishlari hamda yaxshi natijalar ko'rsatishlari mumkin.

Ushbu tipga mansub sportchilarning yillik tayyorgarligini rejalashtirishni 3 siklda tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunda sikllar orasida samarali tiklanish ham amalga oshiriladi.

**3-tipi – masofa sprinterlari.** Ushbu tipga taalluqli sportchilar 100, 200 va 400 m masofalarda qatnashadilar, biroq 200 m masofada eng yaxshi natijalarga erisha oladilar. Bu guruh sportchilari, birinchi navbatda, yuqori anaerob-alaktat qobiliyatlari bilan ajralib turadilar.

Sportchi havo yetishmovchiligi ancha katta bo'lgan hollarda ham maxsus ishning berilgan shiddatini saqlab turishga qodir bo'ladi. Ushbu tipga mansub sportchi psixologik xususiyatlarni, ya'ni organizmning ichki muhitidagi muhim o'zgarishlariga chiday olish, shuningdek, harakat faoliyatining psixomotor boshqaruvining ancha barqarorligi bilan ham ajralib turadi.

Mashg'ulotda sportchilar anaerob almashinuv ostonasiga (AAO) yaqinlashuvchi anaerob yuklamalar va aerob yuklamalarning uyg'unligidan samarali foydalanishlari mumkin.

Ushbu tipga mansub sportchilarning moslashish davri 4-5 oyni tashkil etadi. Bu vaqt ichida ular sport formasi cho'qqisiga chiqib olishlari va eng yaxshi natijalarga erishishlari mumkin. Shu sababli yillik tayyorgarlik siklini ikki siklli qilib rejalashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**4-tipi – o'rta masofaga suzuvchilar.** Ushbu tipga mansub sportchilar 400 m masofada muvaffaqiyatli qatnashadilar, shuningdek, 100 m hamda 200 m masofalarda yuqori natijalarni ko'rsatishga qodirlar. Shu tufayli ularni universal suzuvchilar deb atash mumkin.

Ushbu guruh sportchilar 200 va 1500 m masofalarda ham yaxshi qatnashishlari mumkin. Ularning o'ziga xos xususiyatlari past puls zonalarida yetarlicha yuqori shiddatni (suzish tezligini) ushlab turish imkoniyatining mavjudligi.

Ushbu tipga taalluqli sportchilarning ajralib turuvchi jihat:

– psixomotor funksiyalarining yuqori darajada rivojlanganligi (harakatlarni kuch, vaqt va makon parametrlari bo'yicha aniq boshqara olish qobiliyati). Shu narsa texnik mahoratning rivojlanishida turli xil masofalarda va bitta masofani suzib o'tish jarayonida texnika parametrlarini, jumladan, «sur'at» va «qadamni» almashlash imkoniyatida ularning ustunligini belgilab beradi.

O'rta masofaga suzuvchilarning moslashish sikli 5-6 oyni tashkil qiladi. Shu sababli ularning yillik tayyorgarlik siklini ikki siklli qilib rejalashtirish maqbul hisoblanadi.

**5-tipi – anaerob stayerlar.** Ushbu tipga mansub sportchilar 400, 800 va 1500 m masofalarda, keyin esa ushbu ko'rsatkichni barqaror ushlab turish yoki kamaytirishda muvaffaqiyatli qatnashadilar. Biroq marradan uzunroq masofalarda ularning natijalari bir o'z pastroq. Ularning ajralib turuvchi jihatlari shundan iboratki, zarbagacha (YuQT daqiqaga 120 dan 170 zarbagacha) bo'lgan zonada maxsus ish bilan bajarish paytida kislород iste'mol qilishni keskin oshirish imkoniyatiga egalar.

Bu tipga mansub sportchilar energiya ta'minotining anaerob-glikositik mexanizmlarining yuqori darajasi bilan ajralib turadilar. Bu sportchilarga harakat faoliyatining psixomotor boshqaruvi yuqori darajada barqaror bo'lishi xosdir.

Ularning moslashish sikli 6-7 oyni tashkil etadi, bu davr ichida ular sport formasi cho'qqisiga hamda eng yaxshi natijalarga erishishlari mumkin. Shu sababli yillik tayyorgarlik jarayonini ikki siklli qilib rejalashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda individual moslashish siklining davomiyligi e'tiborga olinadi.

**6-tipi – klassik stayerlar.** Ushbu tipga mansub sportchilar 800, 1500 m hamda marafon masofalarda muvaffaqiyatli qatnashadilar va

yuqori natijalar ko'rsatadilar. 3-5 km masofalarda juda yuqori natija ko'rsatishlari mumkin.

Ushbu tipga taalluqli sportchilarga maxsus ishning tejamkorligi xosdir. Turli xil tomir urishi zonalaridagi bajariladigan maxsus ishda ( YuQT daqiqaiga 120 dan 185 zARBAGACHA) maxsus ishda kislorod iste'mol qilishdagi o'zgarishlar nisbatan bir tekis bo'ladi. Ushbu tipga mansub sportchilarning moslashish sikli 8-10 oyni tashkil etadi.

Shuni e'tiborga olgan holda mavsumning mas'uliyatli musobaqalariga tayyorlash jarayonini bir siklli rejalashtirish yoki sportchining individual moslashish sikli asosida olimpiya doirasida sikli (4 yillik) rejalashtirish maqsadga muvofiq.

**7-tipi – marafonyalar.** Bu tipga mansub sportchilar ko'proq marafon masofalarida yuqori natjalarga erishadilar. 6-tipga mansub suzuvchilar singari, bu guruh sportchilari maxsus ishning yuqori darajadagi tejamkorligi bilan ajralib turadi. Biroq maxsus shiddatning (suzish tezligining) tomir urish qiymati bu sportchilarda 6-tipga mansub sportchilarga nisbatan birmuncha yuqori.

Ularning ajralib turuvchi qobiliyatlari bo'yicha maxsus shiddatning aerob va anaerob energiya ta'minotining yuqori qiymatlaridir.

Ushbu tipga mansub suzuvchilarning moslashish sikli chegaralari yorqin ifodalanganmagan (taxminan 10-12 oy). Bu guruh sportchilari butun yil davomida mashq qilishlari va yilning istalgan vaqtida tegishli tayyorgarlikda yetarlicha yuqori natija ko'rsatishlari mumkin.

Biroq yilda 2-3 marta ishtirok etish maqbul hisoblanadi (undan ortiq qatnashishlar organizmning moslashish zaxirasini va kelgusida sportchining individual natjalari darajasini pasaytirib yuboradi).

Sportchilarning tayyorgarliklari tuzilishiga qarab ularni yettita tipga ajratilishini tahlil qilish muayyan sportchini identifikasiyalashga hamda uni ma'lum bir tipga mansubligini belgilab berishga imkon yaratadi.

Bunday identifikasiya birinchi navbatda mashg'ulot jarayonini tabaqalashtirishga, sportchilarning individual sikllariga asoslanib suzuvchi sportchining tayyorgarlik jarayonini rejalashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Sportchining psixologik individual davomiyligiga asoslanib sportchining moslashish sikllarini aniqlash hamda yillik siklini rejalashtirish, sportchining tipologik xususiyatlariga tayanib tayyorgarlik vositalari va metodlarini individual

tanlab olish tayyorgarlik samarasini oshirishga imkon yaratadi, bu asosiy musobaqalarda yaxshi natijalarga erishishga olib keladi.

Biroq mualliflar N.V. Kleshnev va I.A. Tveryakov (2008) o‘z ishlarida mashg‘ulot jarayonini tuzishda mashg‘ulot vositalari, ulardan foydalanish metodikalari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirmaganlar. Sportchilar tipini identifikatsiyalashni e’tiborga olgan holda tanlab yo‘naltirilgan mashg‘ulot yuklamalarini tashkil qilish tizimi to‘g‘risida ham ko‘rsatmalar yo‘q.

Bizningcha, yuqorida aytib o‘tilgan muammolarni hal etish har bir tipga mansub sportchining muayyan MF xususiyatlari uchun xos bo‘lgan tanlab yo‘naltirilgan yuklamalardan foydalangan holda mashg‘ulotlarni ko‘paytirishni, shuningdek, yillik tayyorgarlik siklining tuzilmaviy qismlarida yo‘nalishi, maxsuslashganligi va koordinatsion murakkabligi jihatidan ustuvor bo‘lgan turli xil yuklamalar kattaliklari nisbatlarini o‘zgartirib turishni taqozo etadi.

V.M. Korbut (2012), V.G. Nikitushkin (2003) fikricha, o‘smirlar sportining ahamiyati o‘sib bormoqda. Bolalar va o‘smirlar sportida yuqori hamda barqaror sport natijalari poydevori yaratila boshlandi.

Bu pedagoglar va boshqa mutaxassislarni yangi, yanada samaraliroq ish shakllari va metodlarini izlab topishni talab qiladi. Muallif o‘quv dasturlarini tuzishning ilmiy konsepsiyasida tadqiqotlarni quyidagi yo‘nalishlarda olib borishni tavsiya qiladi:

- yosh sportchilar tayyorgarligini boshqarish tizimini oqilona tashkillash oliy sport mahorati talablaridan kelib chiqishi lozim;

- yosh sportchilarni tayyorlashning ma’lum bir tashkiliy shakllari nuqtayi nazaridan ilmiy tavsiyalar va ishlanmalarning yo‘nalishlарini kuchaytirish zarur. Bunda maxsus sifatlar rivojlanishining optimal yoshi va optimal davriga (sensitiv davrga) alohida e’tibor qaratish joiz;

- o‘smirlar guruhidan katta yoshdagi sportchilar tayyorlash tizimiga o‘tishda yuklamalar, vositalar va metodlarning zarur darajada munosibligini ta’minlash kerak;

- yuqori malakali sportchilar uchun qabul qilingan tasniflash bilan o‘zaro bog‘langan holda yosh sportchilarning mashg‘ulot yuklamalari hamda jamoaviy nazorat qilish tizimini hisiobga olish shakllarini unifikatsiyalash zarur;

- zamonaviy mashg‘ulot va musobaqa yuklamalari darajasiga yosh sportchilar organizmining moslashish imkoniyatlarini e’tiborga

olgan holda yosh sportchilar tayyorlash tizmini tibbiy biologik asoslab berish.

Tadqiqotlarni yo'lga qo'yishda kompleks yondashish zarur, u pedagogik, psixologik, tibbiy-biologik va boshqa tadqiqot metodlarini umumiylashtirishni, birlashtirishni nazarda tutadi.

Yosh sportchilarni tayyorlash jarayonida mashg'ulot yuklamalarini puxta me'yorlashni tavsiya etadi. Shu jihatdan yuklamalar kattaligi yosh sportchilarning yoshiga xos xususiyatlariga mos bo'lishi, boshqa tomongan esa, oliy sport mahorati darajasiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Biroq yuklamalar kattaliklarining miqdoriy tavsiflarini yoki me'yor qiymatlarini aniqlash bo'yicha aniq tavsiyalar keltirilmagan.

Sport suzishida mashg'ulot yuklamalarini, me'yorlarini ishlab chiqish va asoslab berishga qaratilgan ilmiy ishlar mavjud. Masalan, V.M. Korbut (2012), O.I. Popovlar (1987) standartlashtirilgan mashg'ulot ta'sirlarida natijalar va ish qobiliyatি o'shining miqdoriy tavsiflarini o'rganish asosida mashg'ulot yuklamalarini hajmi hamda shiddatini me'yorlash metodikasini ishlab chiqqanlar.

Muallif yuklamalar me'yorlashning uchta variantini ajratadi:

- a) suzish tezligi doimiy bo'lganda yuklama hajmini (suzib o'tiladigan masofa sonini) oshirish;
- b) yuklama hajmi doimiy bo'lganda tezlikni oshirish;
- c) suzish tezligi va hajmining doimiy qiymatlari.

Bu variantlar uchun me'yorlarni hisoblab chiqargan bo'lib, u suzib o'tish bo'laklari uzunligida, takrorlash sonida, suzish tezligida, dam olish oraliqlarida ifodalilanildi.

Mualliflar yuklama hajmi va shiddatini me'yorlagan holda oraliqli mashg'ulot mashqlarini hisoblab chiqarib, malakali suzuvchilar tayyorgarligi makrosiklini tuzish imkoniyatini asoslab beradi.

Biroq ishda qo'llaniladigan yuklamalar hajmi va shiddati kattaliklarining sportchilar organizmining toliqish darajasi bilan o'zarobog'liqligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilmagan, mashg'ulot jarayonining mikro-, mezo- va makro-tuzilmalarini rejalashtirish uchun yuklamalar kattaliklari me'yorlarining miqdoriy qiyatlari berilmagan.

A.Juravik (1990) organizmning yuklamaga javoban fiziologik reaksiyalari xususiyati va kattaligiga qarab suzishda qo'llaniladigan mashg'ulot mashqlarini tizimlashtirgan. Bunda tezkor mashg'ulot

samarasining maksimum aerob va anaerob imkoniyatlar rivojlanishining individual darajasiga bog'liqligi aniqlangan.

Shu ma'lumotlardan foydalaniib, yuklama kattaliklari me'yorlarini suzuvchilar organizmi toliqishi bilan o'zaro bog'liqlikda aniqlash imkoniyati yuzaga keladi.

Hozirgi paytda sport tayyorgarligida zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelinmoqda. Shuningdek, o'qitishdan modulli reyting tizimi asosida, mashg'ulot jarayonining dasturlashtirish hamda tashkil etishdan foydalaniilmoxda.

Modulli reyting tizimi asosida o'qitishda butun o'quv jarayoni shaxsiy tayyorgarlik dasturlari va axborot ko'rsatkichlariga ega bo'lgan alohida mustaqil modullarga bo'linadi.

Modul ko'p ish bajaruvchi blokning tarkibiy elementi sifatida taqdim qilinishi mumkin. U quyidagi tarkiblarini o'z ichiga oladi:

- o'quv maqsadi;
- o'quv materiali mazmuni;
- amaliy mashg'ulotlar;
- bilimlarning o'zlashtirilishini nazorat qilish.

O'quv materiali mazmuni kontingentning o'ziga xos xususiyatlari qarab o'zgarib turadi. Bunda modullar metodi o'quv materiali mazmunini tabaqaqlashtirilgan tarzi boshqarish vositasini hisoblanadi.

Yu.V. Verxoshanskiy (1985) ishlarida mashg'ulot yuklamalarini birgalikda ketma-ket tashkil qilish asosida mashg'ulot jarayonini dasturlashtirish va tashkil qilish metodikasi taklif qilinadi. Muallif yuqori malakali sportchilar uchun blokli yuklamalar tizimini ishlab chiqishni taklif etadi.

Blokli mashg'ulot tizimi muayyan blokda tanlangan yo'nalishdagiga mashg'ulot yuklamalarini jamlash tamoyiliga asosan qurilishi lozim. Avvalgi yuklamalar ta'siridan hosil bo'lgan samara keyingisiga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi kerak.

Yu.V. Verxoshanskiy (2005) bo'yicha blokli konsepsiyaning eng muhim tamoyili sportchilar organizmining moslashish jarayonlari rivojlanishiga muvofiq holda stimullarni muntazam oshirib borish zarurati hisoblanadi.

Yuqorida fikrlarga xulosa yasab aytish mumkinki, mashg'ulot jarayonini jadallashtirish asosida yosh suzuvchilar mashg'ulotlarini

takomillashtirishdagi asosiy yo'nalishlar quyidagi ilmiy-metodik holatlarni ishlab chiqishni hamda isbotlab berishni nazarda tutadi:

– kattaligi va yo'nalishi bo'yicha rejalashtiriladigan yuklamalar tayyorgarlik maqsadlariga, sportchilarning moslashish imkoniyatlariga, sportdagi amplitudasiga (vazifasiga), shuningdek, ularning joriy holatiga mos kelishi lozim;

– mashg'ulot jarayonining ayrim bosqichlarida tanlangan yo'nalishdagi rivojlantiruvchi yuklamalarning jamlab qo'llanilishi sportchilarning ixtisosligini hisobga olgan holda (sprinterlar, o'rta masofaga suzuvchilar, stayerlar) suzuvchilar tayyorlash vazifalari hamda strategiyasiga mos bo'lishi lozim;

– mashg'ulot yuklamalarini blokli-modulli va birgalikda ketma-ket tashkil etish bo'yicha zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishini asoslab berish zarur.

Yuqorida aytib o'tilgan muammolarning hal etilishi quyidagi masalalar bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etadi:

– o'quv-mashg'ulot yuklamalarining miqdoriy hisobini olib borishning unifikatsiyalashgan metodikasini ishlab chiqish va asoslash;

– mashg'ulot jarayonining tuzilmaviy qismlarida tanlangan yo'nalishdagi yuklamalarni qo'llash bo'yicha metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish va joriy etish.

## **2. Sport suzishida mashg'ulot jarayonini tuzish va mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish asoslari**

Har xil sport turlarida mashg'ulot jarayonini tuzish masalalari har doim ham dolzarb bo'lib kelgan va ko'pgina tadqiqotlar hamda o'qituvchi murabbiylarning diqqat markazida turadi.

Mashg'ulot jarayonini rejalashtirish va tuzish bo'yicha asosiy holatlar L.P. Matveyev (1999) ishlarida bayon qilingan. Uning ishlarida ko'p yillik tayyorgarlik sikli, yillik sikl tuzilmalarida mashg'ulot jarayonini rejalashtirish va tuzishning umumiy asosiy shart-sharoitlari bayon qilingan.

Muallif olimpiya sikkidagi, sportchilar yillik tayyorgarlik sikkidagi va boshqa tuzilmalardagi mashg'ulotlar jarayonining davrlanishini ko'pgina sport turlari misolida asoslab bergen.

V.N. Platonov (2004) faoliyatida sportchilar organizmi moslashishining har xil turlarini: tezkor va uzoq vaqt davom etadigan moslashishi qilish asosida mashg'ulot jarayonini tizimli taklif qiladi.

Moslashish jarayonlari dinamikasini tahlil qilish asosida mashg'ulot darslari, kunlari, mikrosikllari va h.k. yuklamalarini rejalashtirish taklif etiladi.

Muallif yillik tayyorgarlikning davrlanishini sportchilar organizmining uzoq vaqt samarali moslashishini shakllantirish asosi sifatida ta'kidlaydi.

Qator ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sportchilar tayyorgarligini takomillashtirish masalalarining hal etilishi mashg'ulot jarayonining ma'lum qonuniyatlariga va yuqorida ta'kidlangan tamoyillarga asoslanadi.

Ushbu yuklamalarni rejalashtirishda va ularni nazoratini tashkil qilishda oqilonqa ketma-ketlikni aniqlab olish eng asosiy xususiyat hisoblanadi.

Ko'p yillar davomida suzishda mashg'ulot jarayonini tahlil qilayotib shuni e'tirof etadiki, bu sport turida o'tgan asrda (XX asr) rekordlarning o'sishi asosan aerob shiddat va anaerob sig'im ko'rsatkichlarini (loqal mushak chidamliligin) yaxshilashga qaratilgan metodlar samaradorligini oshirish bilan bog'liq.

So'nggi yillarda suzuvchilarning aerob chidamliligini yuqori darajada rivojlantirish asosida ularning anaerob ish qobiliyatlarini yaxshilovchi metodlarni izlab topishga katta e'tibor qaratilmoqda.

S.M. Vaysexovskiy (1985) shunday taxminni bildirganki, sport suzishida umumiyligi va maxsus jismoniy tayyorgarlikni ancha kengaytirish asosida mashg'ulot yuklamalari hajmini oshirish natijalarning o'sish sur'atlarini oshirishning samarali yo'li hisoblanadi.

Qator mualliflar har xil vazifani bajaruvchi sportchilar: sprinterlar, o'rta masofaga suzuvchilar va stayerlarda moslashish jarayonlarining kechish xususiyatlarini e'tiborga olish lozim deb hisoblaydilar.

Afsuski, suzishda shiddatli va kuchli mashg'ulot ishini bajarish davomida suzuvchilardagi moslashish jarayonlarini o'rganishga qaratilgan ishlar deyarli yo'q.

Insonning jismoniy yuklamalarga moslashish nazariyasi va metodikasida muayyan tibbiy biologik va sport-pedagogik vazifalarni hal etish kaliti yotadi.

Ushbu vazifalar sportchilar sog'lig'ini saqlash, ularning ish qobiliyatlarini oshirish bilan bog'liq.

Shu jihatdan sport suzishida turli yo'nalishdagi yuklamalarni ularning kattaligi bo'yicha tizimlashtirish va tasniflash lozim hamda shuning asosida mashg'ulot mikrotuzilmalarini rejalashtirish uchun yuklamalar kattaliklarini me'yorlash kerak.

Mashg'ulot yuklamalarini nazorat qilish uchun V.N. Platonov (2000) quyidagi ko'rsatkichlarni e'tiborga olishni taklif qiladi: mashg'ulot kunlari soni, umumiylashtirish soatlar soni, mashg'ulotlar, bajariladigan elementlar soni, musobaqalar, musobaqa kunlari, startlar soni, yuklamaning shiddat zonalari bo'yicha mashg'ulot hajmi miqdori, UJT, MJT, musobaqa tayyorgarligi bo'yicha ishlar hajmi va h.k.

M.A. Godik (1982) kombinatsiyalashgan shkala bo'yicha ballarda yuklamani hisobga olib borishni tavsiya etadi. Bunday tavsiyalar mashg'ulot tuzilmalarida, vazifalarida, mashg'ulotlarda, mashg'ulot kunlarida va haftalik mikrosikllarda yo'nalishi, maxsuslashganligi hamda koordinatsion murakkabligi har xil bo'lgan yuklamalar kattaliklarini hisobga olib borish imkonini beradi.

Sport suzishi bo'yicha dasturlarda ko'p yillik sport tayyorgarligida yillik sikl tuzilmalarida mashg'ulot jarayonini rejalashtirish, L.P. Matveyev (1999), V.N. Platonov (2000), John Leonard (1992) va boshqa tavsiyalariga ko'ra mashg'ulot jarayonini davrlash sharoitlarida amalga oshiriladi.

Yillik mikrosiklda tayyorgarlik musobaqa va o'tish davrlari mavjud. Yildagi asosiy musobaqalar soniga qarab yillik sikl makrosikllarga (katta bosqichlarga) bo'linadi. Yillik siklda 1, 2, 3 va undan ortiq makrosikllar bo'lishi mumkin.

Yuklamalarni (hajmini) hisobga olish suzib o'tiladigan masofalar kattaliklariga ko'ra, mashg'ulot kunlari miqdorida olib boriladi.

Afsuski, ushbu dasturlarda yuklamalarni ularning kattaliklari bo'yicha tasniflash va tizimlashtirish to'g'risida ma'lumotlar, shuningdek, yuklamalar kattaliklari me'yorlari yo'q.

V.S. Manin (2000) ishlarida yillik sikldagi mashg'ulot yuklamasi har bir makrosikllar uchun taqsimlab berilgan. Ushbu ishda jismoniy tayyorgarlik hamda suzish tayyorgarligi nisbatlarining optimal tartibi, shuningdek, asosiy va tayyorgarlik musobaqalari tuzilmasi berilgan.

Mashg‘ulot jarayonining turli xil tuzilmalari uchun yuklamalar tuzilmasi, umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni, shuningdek, suzuvchilararning funksional imkoniyatlarini rivojlantirish metodlari keltirilgan.

D.A. Voytenko (1985) ishlarida ish qobiliyatining yoshiga xos dinamikasi va mashg‘ulot yuklamalari hamda 11-15 yoshdagি suzuvchilararning mashg‘ulot jarayonini boshqarish metodlari o‘rtasidagi o‘zarо bog‘liqlik o‘rganilgan.

Mualliflar yuklamalar hajmlarining optimal taqsimlanishini belgilab berganlar (quyidagi sxema bo‘yicha soatlarda): birinchi tayyorgarlik davrida (114,4 soat) aerob yo‘nalishdagi yuklamalar hajmi 72,9 soatni, aralash aerob-anaerob yo‘nalishdagi yuklamalar 32,2 soatni, anaerob-alaktat yo‘nalishdagi yuklamalar 3,6 soatni tashkil etadi.

Ikkinchi tayyorgarlik davrida (144,2 soat) yuklamalar hajmlari quyidagicha: aerob yo‘nalishdagi yuklamalar hajmlari 94,7 soat, aralash aerob-anaerob yo‘nalishda 13,3 soat, anaerob-alaktat yo‘nalishda yuklamalar hajmi 4,1 soatni tashkil etadi.

Musobaqa davrida (99 soat) yuklamalar hajmlari quyidagicha: aerob yo‘nalishdagi yuklamalar hajmi 70,0 soat, aralash aerob-anaerob yo‘nalishdagisi 17,8 soat, anaerob-glikolitik yo‘nalishidagisi 8,2 soat, aerob-alaktat yo‘nalishdagi yuklama hajmi 2,4 soatni tashkil etadi.

Bu ishlardagi umumiy kamchilik shundan iboratki, anaerob-alaktat va anaerob-glikolitik yo‘nalishdagi yuklamalarni rejalashtirish yetarli darajada amalga oshirilmoqda. Yosh suzuvchilarning yosh toifalari bo‘yicha yuklamalar kattaliklarini me’yorlash to‘g‘risida ham hech qanday ma’lumotlar yo‘q.

S.N. Morozov (1989) suzishdagi natijalarning suzuvchilar tayyorgarligi ko‘rsatkichlari bilan o‘zarо bog‘liqligini tekshirayotib, nazorat uchun quyidagi ko‘rsatkichlarni qo‘llashni tavsiya qiladi: yoshi, gavda usti, yelka va boldir-kaft bo‘g‘imlarining harakatchanligi, boylab qo‘ylganda suzish paytida suzuvchining tortish kuchi, kuch imkoniyatlaridan foydalanish koeffitsiyenti (%) tezlik-kuch imkoniyatlari ko‘rsatkichlari (shart. bir.), kuch chidamliligi indeksi (shart. bir.), kislorodni maksimal iste’mol qilish (KMIQ, min/l), masofada kislorod iste’mol qilish (l), kislorod qarzining alaktat qismi (l), foydali harakat koeffitsiyenti (%).

Qator mualliflar sport suzishida nazorat qilish uchun masofani suzib o'tish natijalaridan tashqari harakatlarning har xil variantlari samaradorligidan, suzuvchi tayyorgarligining pedagogik va psixologik ko'rsatkichlari dinamikasidan foydalanishni va shuning asosida musobaqlarga tayyorgarlikni, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik: texnik, kuch, chidamlilikni aniqlashni tavsiya qiladilar.

Bu ishlardagi umumiy kamchilik yosh suzuvchilar tayyorgarligining har xil tomonlarini nazorat qilish uchun dasturiy-me'yoriy bazaning yetarlicha asoslab berilmaganligidan iborat.

Ayniqsa, suzuvchilarning musobaqa faoliyati ko'rsatkichlari tuzilmasini kesib nazorat qilishda: turli xil bo'laklarni suzib o'tish tezligi, startlar, burilishlar vaqt, sur'at, sikllar, qadamlar ko'rsatkichlarining miqdoriy qiymatlari, ergometriya tavsiflari yetarlicha asoslanmagan.

Yuklamalarning turli xil tavsiflari kattaliklari to'g'risida ham me'yoriy axborotlar yo'q.

### **3. Sportchining funksional imkoniyatlarini rivojlantirishdagi tavsiyalar**

«Jismoniy tayyorgarlik va suzish manbalari bilan birgalikda sportchining funksional va kuch quvvati imkoniyatlarini rivojlantrish» bo'limiga o'tamiz.

Bu qo'llanmaning asosiy bo'limlaridan biri. Ma'lumki, har bir sportchining moslashish hajmining chegarasiga yetishish uchun sikldan siklga kattalashtirish lozim (V.S. Manin):

1. Suzish hajmi.
2. Oraliqdagi suzishning tezligi.
3. Har bir aniq zonaga tavsiya etilgan kattalikni maromiga yetkazib, seriyalarda dam olish rejimini qat'iy qo'yish.

Bu barcha kattalashuvlar sportchining yoshi bilan mos ravishda va uning sport tayyorgarligini e'tiborga olib, ongli ravishda amalga oshiriladi. Agar sportchi qandaydir sababga ko'ra, reja qilingan yuklanishni bajara olmasa, unda yaxshisi to'xtashi yoki orqaga qadam tashlashi kerak.

Bu bilan siz sportchining zo'riqishidan saqlab qolasiz. Sportchi organizmining energoresurslarini yetarlicha bajarilishida yuklar kattalashuvini o'lchang.

Bu sportchilar nimalarni ko‘proq iste’mol qilishadi? Ishda mikrosikl bo‘yicha yuklanishning taxminiy hajmi berilgan.

Sizning imkoniyatingizdan kelib chiqib, (zalda, suv havzasidagi vaqt miqdori), aqliy chegarada yuklanishni u yoki bu tomonga aralashtirish mumkin. Tayyorgarlikning bazasi davrida III-IV-V mikrosikllarda yuklanish, sikldan siklga doimiy o‘sib, to hajmga yetib borishi shart, qachonki, u ikki martali mashg‘ulotlarda qabul qilmay qoladi.

Qachon tiklanish bunday ishdan so‘ng yetarli bo‘lmasa, undan tавсиya qilinayotgan uch marotabali mashg‘ulotlarga o‘tinglar. Unda hajmiy, texnik qism alohida mashqlarga olib chiqiladi.

Qolgan mashg‘ulotlarda, o‘sha payt xarakteristikasi, suzishlarni kompensatsiyalashda va rivojlanayotgan ma’lum sifatlarda faqat yuklanish qoladi.

U yoki boshqa sifatlarni rivojlantirish uchun intensivlikda zona ishida, biz boshidan oxirigacha o‘rganib oldik.

Mikrosiklning mashg‘ulotlar jarayonida boshqa sxemalar tizimida qo‘llash mumkin, faqat davriy tiklanish va talab qilinayotgan sifatlarning rivojlantirishda o‘rnini egallab saqlanishi lozim bo‘ladi. Qонунлар saqlangan holda birga mashg‘ulotlar jarayoni shu qонун асосида quriladi.

Bu:

1. Umumiy chidamlilikning rivojlanishi.
2. Maxsus chidamlilikning rivojlanishi.
3. Sifat tezligining rivojlanishi.
4. Chidamlilik tezligining rivojlanishi.
5. Startga tayyorgarlik.
6. Amalga oshirish.

Ikki siklli rejada foydalanish mumkin, ya’ni ikki bosqichli 24 mikrosiklda ko‘rsa bo‘ladi. Bu tayyorgarlik yo‘nalishi bo‘yicha barcha masalalarni yechishda o‘ta chuqur imkoniyatni yaratadi. Murabbiylarga yana bir tавсиya. Sportchi katta bazali tayyorgarlik davrida charchaydi. Bu nafaqat jismoniy toliqish, balki ruhiy toliqishdir. Suvning bir turidan sportchida noxushlik holati paydo bo‘ladi. Bunday paytda unga 2-3 mashg‘ulotdan keyin dam berish, yaxshisi faol dam, tiklanuvchi manbalar qo‘llash bilan barchasini normal holga keltirish mumkin.

Shunday paytlar bo'ladiki, sportchi rejadagi topshiriqni o'z usulida bajara olmaydi. Bunday holatda sportchida qo'shimcha uslub bo'lishi kerak, boshqasiga o'tgan holda bu topshiriqni o'sha intensiv zonada bajarishi mumkin. Aks holda, bu boshqa energota'minoti va maqsadi zonasasi ishi bo'lib, mashg'ulotda qo'yilgan maqsadga erisha olmaymiz. Amaliyotimizda, ba'zi tayyorgarlik davrida men ilg'or suzuvchilarga katta e'tiborimni qaratdim yoki murabbiy muhitida – «paravozli» suzish, bunday mashg'ulotlar haftada 2-3 marta o'tkazildi. Ayniqsa, biz brasschilar brigadasida yaxshi amalgam oshdi.

Ilg'orlardan so'ng, boshida 3 sekund oralig'ida birin-ketin sportchilar oraliqni yoki seriyali oraliqlarda belgilangan rejimda topshiriqni bajarish bilan suzdilar.

Ruhiy nuqtayi nazardan, bu juda muhim, o'sha soniyada malakasiz yosh sportchi yetakchidan keyin o'zini ko'rsatar ekan.

Yetakchilar topshiriqni bajara oladigan malakali sportchilardan tanlab olinadi. Seriyalardan so'ng ular joylarini almashtiradilar. Topshiriqni bajarishga ko'ra bir necha mashg'ulotlarda, sportchilarda uзilish 1 soniyaga kattalashadi.

Demak, sekin-asta sportni «qayta bajarish»dan so'ng «tinch» suv holatiga o'tadi, oraliqlarda belgilangan tezlikni saqlab, o'zi ishlashi kerak.

U sportchiga uzoq kelajakda, balki hozir, bugun o'z kuchiga ishonch, topshiriqni bajarishi uchun qo'shimcha kuchni o'zidan doim qidirib topish imkoniyatlarni beradi.

Yosh birinchi razryadililar shuning ortidan tutush mushkul, bu esa uni safarbar bo'lismiga sabab bo'ladi. U topshiriq yaxshi bajarilsa, ko'zlarida qanday chaqnash, ehtiroslar, xursand bo'ladi. Shuning uchun ham o'zini sinab ko'rishi kerak. Bu uslubni o'zi uchun keraklilagini yetakchilarga zarurligini tushuntirishga urinish albatta qiyin.

Ortda suzayotgan sportchi har doim yetib olishga intiladi va shunday holatda harakat qiladi.

Oldiga qo'yilgan topshiriqni aniqlagan holda, raqibi bilan barobar suradi. Mana shu o'rinda uning jangovarligi ortadi va shunday ko'nikma hosil bo'ladi. Ana shudagina sportchi natijalarga erishadi.

Misol: 25 m suv havzasida suzish SU V.Xonekin bilan L.Belokon seriyada: 3x200 m brass R-4' 400 m erkin qo'shimcha uslub.

2x200 m brass R-4<sup>1</sup> ko'rsatgan natijalari: 2.41.2-2.35.1-2.33.5.  
2.34.4-2.32.4.

Bu Stanbul sh., Yevropa Kubogidan 15 kun oldin, u (25 m suv havzada) brass bilan 200 m ni 2.27.68 vaqtida suzib o'tib, 1 chi o'rinni egalladi. Yaxshi natijasi – 2.31.06 bo'lgan holda musobaqalar oldi tayyorgarligi davrida oddiy mashg'ulotlar usuliga o'tishi kerak, sportchiga ruhiy dam berish zarur.

### Intensivlik zonası

*I-jadval*

<b>I zona</b>	<b>Kompensatorli</b> <b>R dan 22. Yog' hisobiga suzish (lepid almashuv).</b> Bu zonada almashuv mashqlarni hisobga oladi, boshqa zonalarda oraliq tezligida o'zaro cho'milish va suzish. Erkin suzishdagi katta hajmlar asosan har bir mikrosiklning boshida. Element bo'yicha suzish mashqlari o'z usulida bajariladi. Jismoniy tarbiyaning (JT) manbalari kuchlar sifati ustidan kuchli ishlar fonida bajariladi. Qo'shimcha uslubda bajariladi.
<b>II zona</b>	<b>Aerob-anaerobli</b> <b>R 22-25. Uglevodlarning parchalanishi hisobiga suzish.</b> Baza chidamliligi rivojiga ko'maklashadi. Bu intensivligini o'ylanish bilan suzish. O'sha tezliklarda R kamayadi, shug'ullanlanganlik me'yoriga ko'ra, yuqori bo'limgan puls bilan «qattiq» rejimda qo'shimcha usulda bajariladi. Oraliq mashg'ulotda dam olish pauzasining kamayishi mashg'ulotga aerob yo'naltirilishi unchalik o'zgartirmaydi, ammo sportchini yana qattiq ish rejimiga ruhiy tayyorlaydi. 2-zonada yuklanishning davomiyligi sportchining organizmida ijobiy o'zgarishga erishishda imkon beradi. Bu quvvatlovchi zona.

<b>III zona</b>	<b>Aerob-anaerob aralashganda</b> <b>R 26-28. Maxsus chidamlilikning funksional asosini tarbiyalash.</b> 800-1500 m masofaga maxsuslashgan sportchilar uchun – stayer chidamlilikini tarbiyalash uchun asosiy zona. Bu zonada ishlab, sportchi hali chuqur toliqishni his qilmayapti, biroq berilgan intensivlikni tutib turishda kuchni sarflaydi. Ish kisloroddan maksimal darajada foydalanilyapti. Ko'pincha seriyalar va oraliqlar asosiy uslubda bajariladi. Bu mashg'ulotlar ishining asosiysi, chunki unda kelajak natijalarga fundament qo'yadi. Rivojlanayotgan zona.
<b>IV zona</b>	<b>Glikolitik-anaerobli</b> <b>R 29-32. Uglevodlarning parchalanishi hisobiga suzish (glikogen).</b> Asosiy masala – o'rta va qisqa masofalarda maxsus chidamlilikni rivojlantirish. Bog'liqligi: a) anaerob unum-dorligi; b) toliqish sharoitida barcha masofalarda texnikaning barqarorligi; d) chidamlilikning tezlik kuch darajasi; e) toliqishning noxushlikni sezishi bilan kurashuvga suzuvchining qobiliyati; f) masofaning oxirigacha suzish tezligini tutib turishga tayyorligi; g) masofalarda kuchni to'g'ri taqsimlashni bilishi; h) qo'yilgan yuklarni sportchining a'zolari qanchalik tez ishlay olishi. Tezkor musobaqalarda suzish. Seriyalar faqat o'z uslubida bajariladi. Texnikasi mana shu tezlik ostida qo'yiladi.
<b>V zona</b>	<b>Anaerob-alaktatli</b> <b>R 30 va o'tk. Fosfogenlar hisobiga suzish.</b> Sportchining barcha aspekti, barcha imkoniyatlarini maksimal safarbar qilish bilan suzish. Tezkorlik imkoniyatlarining zaxiralarini rivojlantirish. Bu o'z uslubi kabi, qo'shimcha uslublarda bajariladi.

#### **4. O‘quv-mashg‘ulot guruhlari yosh suzuvchilarining sport tayyorgarligini takomillashtirish**

Suzish turlari – krol, brass, batterflyay (delfin), chalqancha suzishda sport mashg‘ulotini tuzish turli xil masofalarda, yillik siklning tashkiliy tuzilmalarida deyarli farq qilmaydi. Suzuvchilar tayyorgarligining alohida tomonlarini rivojlantirish jarayonida texnika va taktikaga o‘rgatish metodlarida moslashish jarayonlarining kechishi xususiyatlarda farq kuzatiladi.

Moslashishning rivojlanish qonuniyati sportchilar organizmi funksional tizimlarining (FT) shakllanishi qonuniyatlar bilan chambarchas bog‘liq. Funksional tizimlar (FT) deganda organizm tuzilmalari va jarayonlarining shunday dinamik tashkil qilinishi tushuniladiki, u bu tarkiblarni, ularning anatomik, to‘qima va fiziologik yo‘nalishidan qat’i nazar, bitta jarayonga jaib qiladi.

Funksional tizimning shakllanishi yuklamaning kattaligi, yo‘nalishi maxsuslashganligi va koordinatsion murakkabligi xususiyatlarga bog‘liq.

Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi hamda amaliyotda, shuningdek, sport suzishida shunday ishlar borki, ularning mualliflari funksional tizimlarni nazorat qilish uchun quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanishni tavsiya qiladilar: jismoniy ish qobiliyati, nafas olish tizimi, organizmning energiya ta’minati tizimi, sportchining o‘rganishga psixik tayyorgarligini baholovchi ma’lumotlar.

Biroq mualliflar shu haqda ogohlantiradilarki, sportchi organizmiga bajariladigan ish hajmi va shiddatini asossiz oshirishga qaratilgan talablarni ortiqcha tez-tez qo‘yish moslashish jarayonlarining o‘rnatilgan muvozanatini buzadi va moslashishning buzilish holatiga olib keladi.

Bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun ular sportchilarning tegishli holatini tezkor va joriy nazorat qilish metodlarini takomillashtirishni, tavsiya etadilar.

Yosh suzuvchilarda ularning jismoniy va funksional rivojlanishi xususiyatlarini, jumladan biologik rivojlanish maromini (bir me’yorda yoki sekin yetilish, akseleratlar), jismoniy sifatlar rivojlanishining sensitiv darvlarini e’tiborga olish zarur.

Maturatsiya darajasi va morfiologik hamda bioenergetik ko‘rsatkichlarining o‘sish sur’atlari yuqori bo‘lgan yosh davrlarida

shu ko'rsatkichlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni o'tkazish maqsadga muvofiq.

O'smir bolalarda chidamlilikni rivojlantirish uchun 13-15 yosh, kuch chidamligi va anaerob ish mahsuldorligini rivojlantirish uchun esa biologik rivojlanishning individual sur'atlarini e'tiborga olgan holda 14 yoshdan keyin optimal davr hisoblanadi.

Sensitiv davrning boshlanishi shu davrda tez sur'atlarni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulot yuklamalarini munosib tarzda qo'llash uchun signal hisoblanadi. Bunday vaziyat suzuvchilar tayyorlash o'quv rejalarini va dasturlariga zarur pedagogik tuzatishlar kiritishni kerakli dasturiy-me'yoriy baza yaratishni taqozo etadi.

Mashg'ulot jarayonini takomillash muammosini hal etish mashg'ulot jarayonini dasturlash va tashkil etish, tanlab yo'naltirilgan mashg'ulot yuklamalarining jamlashishi bilan ko'p jihatdan bog'liq.

Ushbu holda dasturlash deganda, mashg'ulot jarayonining mazmunini sportchilar tayyorlashning maqsadli vazifalariga va o'ziga xos tamoyillarga muvofiq tartibga solishdir.

Mashg'ulotni dasturlash metodlarining qo'llanilishi blokli mashg'ulot tizimidagi hamda modulli o'qitishdan foydalanish bilan bog'liq.

Blokli mashg'ulot tizimi harakatchan mushak faoliyatiga nisbatan organizmning uzoq vaqt moslashish jarayonini, sport jarayonining hosil bo'lish jarayoni qonuniyatlarini yuklamalarining qoldirilgan mashg'ulot samarasini o'rghanish asosida quriladi.

Har bir blokda tanlangan yo'nalishdagi jamlangan yuklamalar shunday qo'llaniladiki, avvalgi mashg'ulot samarasini keyingi ishga ijobjiy ta'sir qilishi lozim.

Shu jihatdan o'qitish jarayoniga tizimli yondashish sifatida modelli maqsadli yondashuv texnologiyasidan foydalanish zarur. Bu holda murabbiy shakllantiruvchi va nazorat qiluvchi vazifalaridan tashqari maslahatchi hamda muvofiqlovchi vazifalarini ham bajaradi, o'quvchi esa taklif etilgan dastur bilan ishlashda katta mustaqillikka ega bo'ladi.

Sport suzishida mashg'ulot jarayonini tuzishda yillik tayyorgarlik sikli davomida quyidagi metodik qoidalarga e'tibor qaratish lozim:

1. Qo'llaniladigan yuklamalar yo'nalishi va hajmining tayyorgarlik maqsadlariga, sport ixtisosligiga, suzuvchining moslashish imkoniyatlariga uning joriy holatiga mosligi.

2. Mashg'ulot jarayonining alohida bosqichlarida tayyorgarlikning asosiy vazifalari va strategiyasiga muvofiq jamlangan yo'naliishdagi rivojlantiruvchi yuklamalarni jamlangan holda qo'llash.

3. Organizmning u yoki bu tomonlariga har xil ustuvor ta'siriga ega shiddatli yuklamalarni vaqt oralig'ida taqsimlash.

4. Mashg'ulotning tayyorgarlik bosqichida maxsus mashqlarni anaerob ostonasi darajasida bajarish va bir vaqtning o'zida quruqlikda kuch tayyorgarligini amalga oshirish. Shu orqali keyingi bosqichlarda III, IV va V shiddat zonalarida bajariladigan kuchli yu'klamalarga o'tish.

5. Yil davomida (mikrosikldan mikrosiklga) o'rta masofaga suzuvchilar, sprinterlar uchun IV va V zonalarda bajariladigan rivojlanitruvchi yuklamalar uzoq masofalarga suzuvchilar uchun III, IV va V harakatchan zonalarida bajariladigan yuklamalar hajmini asta-sekin oshirib borish. Bunda ularning I va II zonalar yuklamalari hajmlari bilan mutanosibligini saqlab qolish.

Yuqorida aytib o'tilgan muammolarning hal etilishi 13-15 yoshdagi suzuvchilarni tayyorlash samaradorligini oshirishga imkon beradi. Afsuski, hozirgi vaqtgacha ushbu muammoni hal etish maxsus tadqiqotlarni talab etadi.

### **Suvni his etish (sezish)**

Suvni sezish – mushaklar his qilishining nozikligi, sportchi terisining retsepti, qaysiki u ishlaydi (sezadi). Sportchilar bu haqda turlicha gapiradilar.: «Suvni his qilmayman», «suvni tuta olmayman», «yota olmayman», «bota olmayman». Buning barchasi – suvni sezish va his qila bilish deyiladi.

Agar bu baza mikrosiklida ko'rinnmasada, sportchining barcha mushaklari «yuklangan» va u jismoniy hamda funksional munosabatlarda tetiklikdan uzoqda, unda start oldi tayyorgarligi davrida «suvni his qilish», yengillik, tetiklikni izlash asosiydir.

Bunday sezgilarni topib, sportchi va uni o'rab olgan suv bir maqsad bo'lib turadi, u mehnat qilmaydi, harakatlanish uchun katta kuchni tavsiya etmaydi, suvning o'zi uni olib boradigandek.

Suv osti davrida (sportchining so'nggi uch mikrosiklida, qolaversa, mashg'ulotlar ishini quvvatlovchi va sifat tezligini rivojlantirishda, «suvni his etish» va izlanish bilan shug'ullanadi.

Beshinchi mikrosiklda «suvni ushlash», «suvga ilashish», «uni yorib o'tmaslik», «suvda yog' kabi suzish» qisqa vaqt oralig'ida sinab ko'rish – bu suvni his etish, ta'sir etish shart, biroq bu hissiyotdan sportchi juda ehtiyotkorlik bilan foydalanishi kerak.

VI mikrosiklda – bu suvning hissiyoti o'ta uzun vaqtida ko'rsatishi shart.

VII mikrosiklda siz o'z istagingizga ko'ra xohlagan daqiqada bu hissiyotni sezishingiz lozim va 1-2 kunda suvni sezish har doim siz bilan bo'lishi shart, mashg'ulotlarda suvni his etishni saqlagan holda oralilarda u tezlanishni asta oshirib, tezlikni musobaqalardek yetkaziladi.

Agar L.Belokon «suvni his etishda» bir necha oraliqni suzish kerak bo'lsa, Ye.Klimentevga suvni his qilish yetarli bo'lgan va u hisobga olgan qolganlar buni mashg'ulotlarda bajardi deb o'z mashg'ulotini tugallagan.

Men bu borada isbotlab yana nimanidir qilishga ularni ishontirishga intildim. Bu faqat uni asabini buzishga majbur etdi, start oldidan bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Va o'zining natijalari bilan u isbotladi, startga tayyorgarlikda o'zimizning yondashishimizni topdik.

L.Belokonda – suv qulqlari orqasida bo'lganda shovqin bo'ladi. Ye.Klimentevda – suv qulqlari orqasida bo'lganda qo'shiq aytadi. Biroq bu faqat bir sportchiga xos xususiyatdir.

Agar sportchi yuklamadan ketmagan bo'lsa, bu his, nima qilmasin, paydo bo'lmaydi va bunday hollarda masofa qatorgacha aylanadi va sportchida faqat suzib o'tish fikri ustun turadi.

Suvni his etish, bu shunday narsaki, buni so'z bilan tushuntirish qiyin. Birlari aytadilarki, baza davridan ish bilan solishtirganda, bu xushkayfiyatki xuddi suvning o'zi seni ko'tarib boryapti. Boshqalar aytadilarki, qalbda qandaydir ko'tarinkilikni his qiladilar, tog'ni aylantirib yuboradigandek his qiladilar, mushaklar ishslashni so'ragandek bo'ladir.

Sportchilarning qanchasi, turli hissiyotda bo'ladir. Ammo sportchi biladi, agar u suvni masofalarda «tutsa» va uni «ushlasa» unda uning shaxsiy rekordi, balki boshqacha bo'lishi mumkin. Biroq bu sport darajaga bog'liq.

### **Sportchini murabbiy his qila bilishi**

Sportchini sezish, uning holati – professional murabbiyning asosiy sifatlaridan biri. Sportchini his eta bilmaslik muhim

musobaqalarda so'nggi etapda uni tayyorlash juda qiyin. Sportchini his etish qanday paydo bo'ladi?

Sportchi va murabbiy, murabbiy va sportchi, bu qiziq uyushmadir. Bu odamlar bir maqsad bilan yashovchi, birga intiluvchilar. Birlari o'yaydilar, insoniy intellekti va o'zining professional bilimini qo'llab, bu o'ta muhim masalani qanday yechish kerak? Ikkinchilari uni qanday bajarishni o'yaydilar.

Uzoq yillarda bir xayol bilan yashab, yaqinlariga qaraganda ular ko'paya boradilar va birga yutuq-kamchiliklardan kuyinishlar ularni yanada mustahkam bog'laydi va bu hissiyot start oldi tayyorgarligidagi davrda, ayniqsa, kuchayadi.

Bu davrda juda ko'p muammolarni yechish kerak, yuklanishdan keyin tiklanish, «suvga yotib», yengillikni tutish, kerakli tezlikni takrorlash, uni tutib turish, barcha aspekt bo'yicha ruhiy muammolarni maishiy muammolarni hal etish kerak.

Ha, bu davrda qachonki moral va jismoniy kuchlar potensialini amalga oshirishda yaxshi yechim topishda funksional imkoniyatiga yo'naltirishni bo'lishi shart. Va ixtiyoriy ravishda murabbiy sportchining qirralarini juda e'tibor bilan ko'rishi, uning ko'zini, qomatini, xulqi va texnikasiga diqqat-e'tiborini jalb qilishi kerak.

Kompyuter kabi miyasining bir joyida kelayotgan axborotlarni qanday bajarish kerak bo'lsa, shunday tavsiyalar beradi. Bularning barchasi mistik chegarada yoki aniqrog'i bu psixologiyaga taalluqli. Biroq nima bo'lishidan qat'i nazar, oldindan tayyorlangan mashg'u-lotlar dasturi so'nggi 6-7 kunda o'zgaradi, sportchining holatiga ko'ra tanlanadi.

Sportchiga qarab, murabbiy uning muammolarini yechishga to'g'ri keladi, «ko'p emasmi»? Tez emasmi? Kam emasmi? Murabbiyning masalasi shundan iboratki, sportchini bosh musobaqalarga o'zining pik (cho'qqi) norma holatiga olib kelish, qaysiki tayyorgarlikka bog'liq holda bir necha kunga cho'ziladi.

Keyinroq sport formasining pik holatidan sport forma holatiga o'tadi va u ikki hafta davom etadi, ammo bu daraja yuqori bo'lsa ham, biroq pik holatga nisbatan past.

Jamlanish paytida potensial to'plana boradi. Oraliqlar tezligining miqdorini sportchiga nisbatan kerakli miqdorda ko'paytirishni o'ylamang. Sportchi bu davrda ko'proq hordiq olganman, deb o'yarkan, tez harakatlana olaman, degan xayolga boradi. Uni bundan

to‘xtating va ahyon-ahyonda uni bir-ikki qisqa oraliqda kuzating. Murabbiyga yana sportchisi qanday holatdaligi va uning nima istashini tekshirib ko‘rishni tavsiya qiling.

Qolgan vaqtida tayyorgarlikning ruhiy aspekti bilan shug‘ullaning. Murabbiy uchun kuzatish barcha aspektlarda yaxshi variantlarni izlash, shu bilan birga, ko‘p narsani o‘rganish yoki eslash, ruhiyatini bilish kerak.

Murabbiy yutuqlardan g‘ururlanib ketmay, balki ertangi g‘alabalar haqida o‘ylashi lozim.

### Sportchi vazni

Musobaqlarda yaxshi ishtirok etish uchun sportchining vazni alohida o‘rin egallaydi. U optimal bo‘lishi kerak. Qon aylanish tizimi yurakni og‘ir yuklarsiz ta’min etadi. Vazn, qaysiki sportchi o‘zini o‘ta qulay his qiladi va o‘ta yuqori yutuqlarni namoyish etadi.

Bu sportchining jangovar vaznidir. Shuni aytish kerakki, o‘tish tayyorgarlik va bazaviy mikrosiklida, qachonki vaznli yoki asosiy rolni o‘ynamaydi, u musobaqalar oldidan va ayniqsa, musobaqalar mikrosiklida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

«Siqilish» davrida vaznni jangovar darajaga yetkazish muhim, zaxirada 0,5 dan 1 kg ni qoldirish mumkin. Start oldidan start oldi qo‘zg‘alish hisobiga bu kilogramm «kuyadi» (yo‘qoladi). Agar start oldidan jangovar vazn normadan past bo‘lsa, ko‘pincha yomon ko‘rsatkichni ko‘rsatadi. Bunga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Yo‘qotgan vaznni suv bilan to‘ldirishni o‘ylamang, unda mushaklar bo‘shashadi. Va sportchilar aytadilarki: «Kuch qaytadi» keltirish davrida va suyuqlik bilan musobaqlarda yurakka, pochkaga og‘irlik tushurmasdan juda aniq e’tibor bering.

To‘liq yetilish davrida vazn tez kattalashadi, kuch vazn va bo‘ydan orqada qoladi. Bu disproporsiyani yo‘qotish uchun jismoniy tarbiya bilan ko‘proq shug‘ullanish kerak.

S.M. Vaytsekovskiy(1985) fikricha, bolalarda mushaklarni 50 dan 70% gacha ortiqcha vaznni qayta ishlash, qizlarda 15 dan 25% gacha va ortiqcha vaznni qayta ishlash mumkin. Agar bolalarda bu savol vaqtinchalik, biroq qizlarda bu jiddiy.

Ortiqcha vaznli suzuvchining markazga tortilishi suriladi, demak, uning suzuvchanligi yomonlashadi. Tananing bo‘ylama oqimi katta-

lashadi, koordinatsiya buziladi va o'sgan og'irlikni hech nima bilan «tortib» bo'lmaydi.

Murabbiyning masalasi – bu davrda vaznning o'sishini katastrofik darajaga yetkazmaslikdan iborat, unda hech narsa qilib bo'lmaydi. Bu davrda barcha uglevodlarni iste'mol qilishni, ayniqsa, turli pishiriqlar, tortlar, pirojniylarni taqiqlab qo'yish kerak.

Ayniqsa, o'tish va tortuvchi mikrosiklda, qachon ish kichik bo'lsa va barcha uglevodlar sportchining a'zolarida yog'ga aylanadi. Mamlakat terma jamoasida e'tiborga olib, bu katta biroq barcha bolalarga ba'zida pirojnih yeyishga ruxsat berilgan.

Ammo bundan so'ng sportchilar junli kostyumlar kiyib, ustidan nimcha bilan 5 km yuguradilar, negaki Ortiqcha kaloriyalar yo'qtoladi. Oqibatda qizlarni avaylash mumkin bo'lmay qoladi. Misol uchun terma jamoaning Monrealida Olimpiya o'yinlaridagi qatnashuvlari. Jamoa musobaqalarga o'ta jiddiy tayyorlandi, biroq Olimpiya shaharchasida bo'lib, startdan bir necha kun oldin ba'zi qizlar 4-5 kg vaznni ortishga yo'l qo'yanlar. Aytish mumkin emas, lekin bu sportchilar mamlakatda – eng yaxshilaridir.

Ularni to'xtatib qola olishmaydi: moddiy cheklar, chet elga chiqishni cheklashlar, jamoadan o'chirib yuborish kabilar. Terma jamoaning rahbarlari buni muhokama qila olmadи.

Terma jamoaning barcha zaruriy narsalar bilan ta'minlangan. Balki sportchilarning cheklovlargacha o'rganib qolganligidir. Bu yerda shvedcha stol, taomlarning ko'pligi, nimani xohlasang o'shani yegin. Hech kim og'ziga qaramay va kaloriyani hisoblamay, qancha taom yeydi, qancha kerakligini o'ylamadi. Ayollar jamoasining tarkibi moslashuv bilan yiqildi. Eng mas'uliyatlari daqiqada jamoa ovqatdan o'zini tiya olmasligi o'zining boshiga yetdi. Ko'pchilik sportchilar uchun bu so'nggi Olimpiya o'yinlari bo'ldi.

### **Sportchining immun tizimi**

Ko'pincha savol beramiz, nimaga sportga to'liq tayyorlangan holda kelib, yuqori jismoniy holatda chiqib, funksional va ruhiy darajasi yuqori bo'lsa-da, ko'zlangan natijani ko'rsata olmaydi, balki kasallikka uchraganmi degan shubhaga borasiz. Ayniqsa, kasallik bosh musobaqaga 2-3 kun qolganda paydo bo'ladi.

Sportchining mutaxassisligi qanchalik yuqori musobaqalarning darajasi yuqori bo'lsa, shunchalik kasallik ehtimoli yuqori bo'ladi. Bu

muammoni barchasi immun tizim bilan bog'liq. Immun tizimining holatiga ko'ra olimlar sportchilarni 3 ga bo'ladilar.

1 chi – qachonki jismoniy va ruhiy holat va immun tizim yuqori darajada bo'lsa, sportchi musobaqlarda a'lo darajada qatnashadi, start oldidan kasallik unga xavf tug'dirmaydi.

2 chi – qachonki jismoniy va ruhiy holati yuqori darajada bo'lib, immun tizimi o'rta bo'lsa, sportchi yaxshi qatnashadi, ammo kasallik ehtimoli paydo bo'lib turadi.

3 chi – bu «tavakkal gruppasi», qachonki jismoniy va ruhiy holati yuqori darajada, immun tizim, energetik potensialni yo'qotish hisobiga past bo'ladi. Bunday hollarda sportchi kasallikka uchragan bo'lishi mumkin, musobaqlarda qatnashib natija ko'rsata olmaydi. Olimlarning aniqlashicha, sportchining bunday holatini stupor deb ataydilar.

Olimlar aytadiki, sportchi muhim musobaqlar oldidan o'zining barcha ruhiy va jismoniy imkoniyatlarini safarbar etib, ham yuqori natijalarни ko'rsata olmadilar, negaki immun tizimi o'zining energetik potensialini yo'qotdi.

Bu paytda sportchida kasallikka ehtimoli bor, negaki immun tizim sportchining a'zolariiga virusli infeksiya kirishini to'sib qola olmaydi. Bu savol nafaqat suzishda va dunyodagi barcha murabbiylarni qiziqtiradi.

Respublika Olimpiya zaxiralari bilim yurtining muammolar laboratoriysi ilmiy xodimi (O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh.) V.Yu. Lishik. Moskva shahrida xalqaro ilmiy konferensiyada bu savolga bergen ma'lumoti (axboroti) ko'p olimlarni qiziqtirib qo'ydi.

Murabbiylar uchun alohida qiziqish bu yerda V.A. Levando, R.S.Suzdalniskiyning potogenetik mexanizmida sport immun tanqisligi, adaptitsili kasallikning paydo bo'lishi bilan ularni yo'lda qo'yishning muhim jihatlari, immun tizimining tiklanishi, noxush ko'rinishning dinamik o'sishi, fazali ko'rinishi haqidagi ma'lumotlar yuzaga keladi.

Antigon metabolizmi va stress o'zaro munosabatlarini tushunish o'ta tabiiy hisoblanadi, sportchining jismoniy va ruhiy kuchlarning dinamikasini bajarishda immunoglobulinlarning asosiy klasslaridir.

A.P. Isayev, S.A. Kabanov va A.V. Nenasheva kabi olimlarning axborotlari qiziqishni orttirdi, qaysiki 10 yil davomida musobaqlar

davrida sportning har xil turlarida kategoriyasi yuqori bo‘lgan 2000 sportchilarda izlanishlar olib borildi.

Izlanishlardan maqsad sportchining immun statusini aniqlash va musobaqa jarayoniga o‘z vaqtida korreksiya kiritish. Olingan ma’lumotlar guvohlik beradiki, qancha bioenergiya immunitetining dia-pozoni keng bo‘lsa, shuncha dasturlangan kuchlarga a’zolar moslashgan bo‘ladi.

Olingan ma’lumotlar mashg‘ulotlar jarayonini boshqarishni optimizatsiya uchun qiziqish uyg‘otyapti. Startga ruhiy va jismoniy tayyorgarlikning eng yuqori cho‘qqisi sportchi a’zosida bo‘ladigan jarayonlarni to‘liq izohlash mening vazifamga kirmaydi.

Men faqat murabbiylarning e’tiborini qaratmoqchimanki, bunday muammolar borki, undan qo‘l siltab bo‘lmaydi hamda a’zolarning hayajonlangan holati nafaqat sportda uchraydi, «balki insoniy kundalik» hayotida paydo bo‘lib turadi.

Agar bu muammoni qisqa va ommaviy ko‘rilsa, unda kuchli jismoniy va hayajonli omillari a’zolarning pochka usti limfold terisiga ta’sirida garmon glyukortekoid ajralib, qaysiki u a’zolarning uglevod almashinuviga ta’sir etib, himoya reaksiyalarni bosadi, ya’ni limfotsitlar turli jismoniy va ruhiy ta’sirlarni immuniga reaksiyasini ta’minlaydi.

A’zolar, limfotsitlarning energetik potensialini yo‘qotib, bo‘shashtiradi, negaki har bir odamda, genotip jihatlari bilan bog‘liqligi, turli kasalliklarda avvaldan joylashuvi qo‘yilgan bo‘lib, infeksiyali virus kirib kelsa, uni zararsizlantirishni immun tizim har doim bajara olmaydi.

U a’zoning shunday zvenosiga kiradiki, qaysiki ko‘pchiligi kasallikka qarab joylashgan, genotipdagi antigen V-27 miqdori revmatik kasalliklarda joylashgan bo‘lib, V-8 qand diabeti kasalligining ehtimolida, bronxial astmada ko‘rinadi.

Jismoniy va stressli ta’sirning noxush oqibatini bartaraf etish uchun olimlar a’zoning shunday kritik kunida yordam qilishga maslahat beradilar.

Bunday oqibatlarni yengib o‘tib, energetik potensialni saqlash uchun ular oq ekstraktli immun dori vositalarini qo‘llashni tavsiya etishadi: Betta-karotin, A-vitamini, retin kislotasi, qaysiki ular immun tizimi aktivligini oshirishi uchun eng yaxshi manba bo‘lib hisoblanadi.

A vitamin va Betta-karotin immun tizimining tabiiy regulatori hisoblanadi. (Sabzi soki, treska balig‘ining jigari, hayvon jigari va barcha A vitaminli oziq-ovqatlar). Bundan tashqari, ular onkologik kasalliklarning profilaktik manbai hisoblanadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan preparatlarni qo‘llashda, yaxshisi mutaxassis shifokor bilan maslahatlashish lozim.

Yuqorida ko‘rsatilgan sabablarga ko‘ra, bir guruh ishlab, mashg‘ulot jarayonida individual korreksiya bilan xuddi o‘sma topshiriqni amalda bajarib, bir xil sportchilar yuqori natijalarni ko‘rsatyaptilar, boshqalari esa yo‘q.

Start oldi kritik kunining so‘ngida zaruriy profilaktik choralar qo‘llanilishi yuqorida eslatib o‘tildi. Bu muammolarni qiziqtirgan murabbiylar, yuqorida sanab o‘tilgan olimlarning ishlari bilan tanishib chiqishlari mumkin.

### **Start oldi mashg‘uloti**

Mashg‘ulotlar haqida mutaxassislar fikri bir xil. Quruqlikda faol mashg‘ulot, keyin suvda, yana massaj – bu startga sportchining bir butun tayyorgarlik jarayoni. Sportchining mashg‘uloti shu bilan harakatlanadiki, suv muhitida o‘zini startga tayyorlab, kompleks mashqlarni nafaqat suvda, balki quruqlikda bajariladi.

Nerv tizimining sezuvchanligi suzuvchining mashg‘ulot mazmuniga ta’sir etadi. Yuqori sezuvchanlikda me’yorli intensivlikda mashqlarni qo‘llash kerak; erkin suzish, nafas mashqlari, sovuq dush. Mashg‘ulotning toliqqa holatida intensivlikni oshirish, oraliqlar soni, tezlanish bilan suzish, unga mashqlar qo‘shish, oyoq va qo‘llar uchun yuklanishlar kuchini oshiruvchi hamda tez tempda bajariladigan mashqlar. Mashg‘ulotlar musobaqalar va mashg‘ulotlarda bir necha marotaba tekshirilgan, odatiy, standartli bo‘lishi kerak sportchi uning samarasiga ishongan bo‘lishi kerak.

Finalda suzish oldidan mashg‘ulot teng yarimga qisqarishi shart, (final oldi suzishga nisbatan). Umumiy metraj va intensivlik masofa uzunligi va ruhiy tayyorgarlikka bog‘liq. Mashg‘ulotlarning davomiyligi 15-20 daqiqa bo‘lishi mumkin.

Mashg‘ulotni shunday usulda tugatish kerakki, unda suzuvchi masofaga suzishi kerak. Mashg‘ulot oxiridan start boshidagi vaqtining davri 20-30 daqiqa bo‘lishi kerak.

## **Start oldi massaji**

Massaj orqali mushaklar ishlash samaradorligiga erishiladi. Mashg'ulotdan keyingi massajga ajratilgan vaqt 10 daqiqaga yetadi va start boshlangunga 15-20 daqiqada tugallanadi.

Massajning asosiy qabuliga: uqalash – 80% gacha, silkitish va ajratilgan vaqtgacha 10% gacha siypalash. Qo'shimcha kuchni o'tovchi mushaklar faqat silkitiladi. Massajda qo'llaniladigan priyomlar: uqalash, yumshatish, silkitish. Bir daqiqa davomida silash ijobjiy ta'sirini beradi.

1 daqiqadan oshsa sportchining holatini yomonlashtiradi. Start oldidan chuqur massaj qilish mumkin emas. 3 daqiqa davomida uqalash, mushaklar holatini yaxshilaydi, 3 daqiqadan oshsa, yomonlashadi.

Startga sportchini tayyorlashda o'ta qo'llaniladigan priyom bu uqalash bo'lib, qisqa vaqt oralig'ida (1 daqiqa davomida) massaj qilinayotgan mushaklar tonusini oshirishga qodir. Bu ayniqsa, suzuvchini startga tayyorlashda muhimdir, negaki vaqt chegaralangan.

Brasschilarning massaj uchun vaqtি ancha cho'ziladi, chunki o'ta baquvvat oyoq mushaklari massaj qilinishi kerak. Massaj qiluvchi qaysi mushaklarni massaj qilishni aniq tasavvur qilishi kerak. Suzishning har bir uslubida unga faqat bosh bo'lgan mushaklar massaj qilinadi:

1. Ko'krakda krol usuli: ikki boshli yelka, delto ko'rinish (orqa qism), uch boshli yelka, keng ko'krakli, keng bel.

2. Ko'krakda krol usuli: ikki boshli yelka, uch boshli yelka, delto ko'rinish (orqa qism), keng bel, keng ko'krakli, katta aylanali, to'rt boshli bel.

3. Batterflyay usuli: trapetsiya ko'rinishli, qorinning to'g'ri mushaklari, katta ko'krakli, ikki boshli yelka, uch boshli yelka, katta aylana.

4. Brass usuli: delto ko'rinish (old qismi), keng bel, ikki boshli yelka, keng ko'krakli, to'rt boshli bo'ksa, ikropichoqli, tizza va tovon paylari.

Silash bilan massaj o'tkazsa bo'ladi. Massajdan so'ng qolgan vaqt o'z tayyorgarlik darajasini jangovar holatga keltirish uchun ajratiladi. Sport amaliyotida massaj charchoqni ketkazish uchun, sport

natijalarini yaxshilash uchun qilinadi, limitlovchi bo‘g‘imlar massaj qilinadi.

Kuchli mashg‘ulotdan so‘ng yoki chiqishda charchoqni qoldiruvchi massaj. Bundan maqsad – kuchlarni tez tiklash. Bu massajning samarasi yetarlicha ortadi, agar dush ostida yoki saunada oldinroq qizib olinsa. Bu yumshoq, sekin massaj. Quyidagi priyomlar qo‘llaniladi: uqalash, silash va yengil mashqlar.

Zarbali priyomlar bundan mustasno. Davomiylilik 30 dan 40 daqiqagacha. Charchoq uncha katta bo‘lmaganda uni musobaqadan keyin 30 daqiqa, charchoq katta bo‘lganda 3-6 soatda massaj o‘tkazish kerak.

U musobaqalar oldidan qilinmaydi, chunki umumiy ish qobiliyatini pasaytirib yuboradi. Agar uni musobaqadan 7 soat oldin bajarilsa, unda ish qobiliyatি ortadi.

Massajning ikkinchi turi – tayyorlov, u limitli bo‘g‘im bo‘lishi mumkin, xuddi sportchining barcha tanasi kabi. Davomiyliliik 50-60 daqiqa. Barcha priyomlar qo‘llaniladi: uqalash, chigil yozish, zARBALI harakat, tebratish, silash.

### **Tuk olish yoki «skablejka»**

Suzishdan oldin sportchilar dam olish joylarida ko‘pincha shunday manzarani ko‘rish mumkinki, qachon sportchi kostyuminie yechib tuk bilan qoplangan terisini piska (soqol olish uskunasi) bilan tozalashga diqqatini jalb qiladi.

Ba‘zida unga murabbiy yordamlashadi. Biroq o‘ziga xavfsiz bo‘ladi, chunki uning o‘zi piska teriga tekganda, birovga qaraganda yaxshi his qiladi. Bu nima uchun kerak. Bu nima beradi?

Menga ma’lum bo‘lishicha, bu muolaja urushdan keyingi yillarda Vengriya suzuvchilaridan kirib kelgan bo‘lib, o‘sha davr dunyo suzuvchilarining favoritlarida bu narsa yanada mustahkamlanib kelgingan.

Startga sportchilarning ritual tayyorgarligi mustahkam kirib keldi. Bu muolajaga ko‘ra turli masofalarda vaqtning sezilarli miqdorini natijadan tashlashi mumkin. 70-yillarning kuchli butterflyaychilaridan biri bo‘lgan.

XSUT S.P. Konovning fikricha, tukni olish 200 m ga butterflyaydagi natijasini 2,5 soniyagacha pasaytirishga yordam berdi. Men bu muolajaning tarafdori bo‘lsamda, lekin haqiqat bilan so‘raganda, agar

tukni olinmasa nima bo'lardi? yoki agar tuk olinsa nima bo'lardi? Amaliyotda buni tekshirish mumkin bo'lmaydi.

Start oldidan bir xil holatlari sportchilar bo'lmaydi. U ko'p tayyorgarlik siklining davomiyligini barpo etadigan faktorlarga bog'liq. Bari bir sportchilarning ko'pchiligi bu muolajani qo'llashyapti, uning foydaliligin bilishadi. Bu katta ruhiy ta'sirga ham ega.

### **Tuk olish muolajasi**

Bu muolaja uchun piskali stanok (uskana) va o'tkir va o'tmas piskalar to'plami, vazelin, qo'l va yuz uchun krem zarur bo'ladi. Tuk olishning standart muolajasi 3 (uch) bosqichdan iborat:

1 chi bosqich muolajasi startdan 3-4 hafta oldin o'tkaziladi, sifat tezligi va iroda tezligining rivojlanishi mikrosikliga tushadi, bu o'ta qo'pol tuk olishdir. O'tkir lezviyada dush ostida bajariladi.

Tuklar juda ham tozalab olinmaydi, tananing butun qismi qoladi, negaki unga tegilmaydi, biroq bunday tuk olishda suvni his etish yaxshilanadi, oraliqlarda tezliklar ortib boradi. 2 chi bosqich startdan 10 kun oldin keltiruvchi mikrosiklga uchraydi. O'tkir piskada tukni tananing barcha yeridan olib tashlanadi. Tuk olish kichik piska bilan dush ostida sovun bilan amalga oshiriladi. 1 chi bosqichga taqqoslaganda.

3 chi bosqich start kuni ertalab uyda yoki mehmonxonada bajariladi. Muolaja o'tmas piska bilan quruq terida o'tkaziladi. Terining sirtqi qismi tuklari o'ta toza qilib olinadi. Muolaja vaqtini shunday hisobga olish kerakki, unda shoshib qolinmasin.

Tukni olish xuddi mushaklarni massaji kabi ta'sir etadi. Mashg'ulotlardan so'ng tozalashga mo'ljalangan yuzanining ozginasini qoldirish mumkin. Mashg'ulotda tanish bo'lgan narsalarga o'rganishga ko'nkish, biroq atrof-muhitni o'ta o'tkir his qila bilish kerak.

Suvni sezishni tutishga harakat qilib, tezlanishni bir necha marta oshirish kerak. Qizlarda ularning ko'pchiligidagi teri qoplamasini mayin tuklar qoplagan, ularni olish majburiy emas. Uch bosqichning barchasida o'tmas piskada o'sha chizmadagi xuddi o'tkir piska kabi bajarish mumkin. Ayrim sportchilar start oldidan sochni oldiradilar.

Aytadilarki, suvgaga yaxshi kirishish uchun, mashg'ulotdan so'ng, startdan oldin «viproteke» adjipan, nikofleks turi kabi tozalovchi

vositalar bilan qizigan badanni 15-20 daqiqa artiladi, vazelin yoki qo'l kremini 30-50% bilan silanadi. Ishlayotgan mushaklar tarkibini mushak uchun 1 daqiqadan ortiq artiladi.

Bu muolaja uchun shu kuni suzmaydigan sportchilar o'zi uchun sherik tanlaydi. Ish joyi, barmoqlar, yelka oldini ichki yuzasi, brasschilarda esa suv sathida sirpanmasdan, suv bilan yaxshi ilashish uchun tovонning ichki qismiga tegmaslik kerak.

Artinishdan so'ng sportchilarda teri qoplamasida gipertermiya paydo bo'lishi mumkin, suzishdan so'ng neytralsovun bilan yaxshilab yuviniladi va qizargan yerlarni qo'l kremlari bilan surib chiqiladi. Muolajaning har bir bosqichi, mashg'ulotdan so'ng faqat «skableja» (tuk olish) dan tashqari 40 daqiqadan 1 soatgacha davom etadi.

Mashg'ulotdan so'ng tozalash startdagi ishdan chalg'itishga yordam beradi va ruhiy rejada yaxshi ta'sir etadi. Malakasiz sportchilar har zamon ko'ramizki, asosan suhbatlarda bu muolaja haqida biladilar va uni albatta bajarish lozimligini aytadilar va shu tufayli natija cho'ntakda bo'ladi, deyishadi.

Bu muolajaning bir marotaba bajarilishi, hatto mashg'ulot oldidan bo'lsin, baribir suvda yangi notanish hisni chaqiradi. Agar sportchi mashg'ulotda bunga o'rganmagan bo'lsa, u suvni his eta olmaydi, uni bir necha oraliqlarda, hatto oraliqlar seriyasida mustahkamlay olmasa, harakatlar zoye ketadi.

Odatda sportchi yaxshi tezlikni sezib va uni mustahkamlamasdan mashg'ulotni tugatadi. Keyin masofada hech narsa qilmay, oddiyiga qaraganda katta kuch sarflamay tez o'ta boshlaydi. Biroq masofaning ikkinchi yarmida birdan oyoqlar ishlashdan bosh tortadilar, qo'llar qo'rg'oshin kabi og'irlashadi va u ko'radi, chap va o'ng yonidan raqiblar urib keta boshlaydilar.

Bu muolajani o'tkazishning bilmaslik natijasidir. Bu savolga har doim murabbiy bilan maslahat qilish kerak, agar u bo'lsa, unda har doim to'g'ri yo'lni o'rgatadi. Odatda, tukni o'z vaqtida olmaslik ishtirokni barbob qilishga olib keladi.

Agar bu ishonchszlik keltirib chiqarsa, unda ruhiy tomondan bu mag'lubiyatning o'zidir. Yaxshi ishni bajarganday bo'linsa ham birdan mag'lubiyat. Bu sportchining ruhiyatiga kuchli ta'sir etadi. Agar sportchi tuk olish muolajasini birinchi marta start oldidan kechqurun bajarsa, unda o'z malakasiga ishonib bilamanki, yangi

hissiyotlar bilan uqlash qanday qiyin (og'ir). Va ertalab sen tiklanmay startga borasan.

## **5. Sport suzishida umumiy va maxsus jismoniy ish qobiliyatini aniqlash usuliyati**

*Veloergometriya yordamida umumiy jismoniy ish qobiliyatini aniqlash usuliyati.*

Oyoqli veloergometrdan foydalangan holda veloergometrik testlar yordamida maksimal va submaksimal anaerob shiddatli yuklamalar ta'siri sharoitlarida, shuningdek, katta shiddatli aerob-anaerob yo'naliishdagi yuklamalar ta'siri sharoitlarida ( $PWC_{170}$ -testi) sportchilarning jismoniy ish qobiliyatlarini aniqlash mumkin.

Tez mushak tolalarining anaerob energiya mahsuloti shiddati tezlik xususiyatiga ega mashqlarni va sprinterlik tezlanishlarni samarali bajarish uchun shart-sharoit hisoblanadi.

Fiziologik nuqtayi nazardan maksimal anaerob shiddat mushak hujayralari fosfokreatin energetik tizimining adenozitrifosfat kislotasi (ATF)ning tez generatsiya qilinishiga bo'lgan qobiliyatini ifodalaydi.

Maksimal anaerob shiddatning mexanikaviy namoyon bo'lishi portlovchan kuchlanishlar quvvati orqali aks etadi. Bunday kuchlanishlar yugurish tezligi yoki qisqa vaqt ichida pedal aylantirish orqali maksimumgacha o'sib boradi.

Sportchi organizmining anaerob chidamliligi mushaklar energiya mahsuloti glikolitik tizimining metabolik zaxirasiga hamda organizmning gomeostatik o'zgarishlarga bo'lgan chidamliligiga bog'liq.

Submaksimal shiddatli tezlik mashqlarida jismoniy ish qobiliyatini cheklovchi yetakchi metabolik omil hisoblangan anaerob-glikolitik sig'imni laboratoriya sharoitlarida 1 daqiqa ichidagi maksimal mexanik ish miqdorining ergometrik mezoni yordamida baholash mumkin.

Katta shiddatli aerob-anaerob yuklamani bajarish sharoitida sportchilarning jismoniy ish qobiliyati  $PWC_{170}$  uslubi yordamida aniqlanadi. Ushbu holda YUQT ning zo'riqish darajasi eng katta chegaraga yaqin daqiqaga 170-180 zarbaga, ya'ni anaerob almashinuv ostonasi (ANAO) darajasida bo'ladi.

Katta shiddatli aerob-anaerob yuklamani bajarish sharoitlarida jismoniy ish qobiliyatini cheklovchi omillar quyidagilar hisoblanadi: jigar va mushaklar glikogenlari zaxirasining tamom bo‘lishi, qonda glukoza jamlanishining kamayishi, kislotaning oshishi, gomeostatik boshqarish tizimining zo‘riqishi, O<sub>2</sub> (kislorod) tashishni boshqarish tizimida motor-visseral koordinatsiyaning buzilishi.

Maksimal, submaksimal va aralash anaerob-aerob harakatchan yuklamalarini bajarish sharoitlarida sportchilarning jismoniy ish qobiliyatlarini ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun testlashni o‘tkazish sharoitlari hamda algoritmini ishlab chiqdik.

### ***Maksimal anaerob shiddatli yuklamani bajarish sharoitlarida suzuvchilarning jismoniy ish qibiliyatlarini aniqlash.***

Maksimal shiddatli yuklama zonasida jismoniy ish qobiliyatini aniqlash uchun 30 sekundli Vingeyt veloergometriya testidan foydalilanildi.

#### **Vingeyt testi algoritmi.**

1. Badan qizdirish mashqlari sharoitlarida va test yuklamasi vaqtida pedal aylantirish yuklamasida qarshilik kattaligini aniqlash. Bunda tana og‘irligining individual tavsiflaridan hamda tavsija qilinadigan quyidagi indekslardan kelib chiqish zarur: erkaklar va o‘smir yigitlar uchun -75 gr/kg, ayollar va qizlar uchun -65 gr/kg. Badan qizdirish uchun yuklama parametrlari mutanosib ravishda 30% ga kamaytililadi.

2. Badan qizdirish mashqlarigacha tinch holatda YUQT va ABni qayd etish.

3. Badan qizdirish mashqini o‘tkazish:  $t=4-5$  daqiqa, ishning oxirgi daqiqadan so‘nggi 10 sekundda tezlanishni bajarish. Har biri 4-6 sek. davom etadigan 3-4 martalik tezlanishlar bilan badan qizdirish mashqini bajarish.

4. Faol dam olish (yurish, nafas olish) 3-5daqiqa.

5. 30 sek. ichida maksimal tezlikda test ishini bajarish. Mazkur tekshiriluvchiga tezlashishning birinchi sekundi davomida yuklamaga qarshilik qilishni buyurish va pedal aylantirish tezligini «Olg‘a» buyrug‘i berilishi bilan qayd qilishni boshlash (taxeometriya).

6. Veloergometriyaning har bir 5 sekundli bo‘lagi davomida aylantirishlar sonini qayd qilib borish.

- Ish tugashi bilan YUQT va ABni qayd qilish.
- Testlash natijalari va keyingi hisob-kitoblarni bayonnomaga kiritish.

Natijalarni ishlab chiqish.

- Bir daqiqa ichida har bir 5 sekundli bo'lakdag'i pedal aylantirish tezligini quyidagi formula bo'yicha aniqlash:

$$V_{\text{ay/min}} = V_{5 \text{ sek}} \times 12 = (\text{ay/min}).$$

Bu yerda  $V_{5 \text{ sek}}$  - 5 sekund ichida pedal aylantirish tezligi.

$V_{\text{ay/min}} = 1$  daqiqa ichida pedal ayl. tezligi.

- 5 sekundli ish bo'lagi ichida amalga oshiriladigan mexanik ishning mutlaq shiddatini hisoblab chiqarish:

$$W_{5 \text{ sek}} = [ V_{5 \text{ sek}} (\text{ay/min}) \times \frac{R}{yuklama} \times l(\text{m}) ] : 6,12 = VT$$

Bu yerda  $\frac{R}{yuklama}$  yuklama qarshiligining individual qiymati.

1- g'ildirak chambaragi nuqtasining bir aylanishdag'i yo'li = 6m.

6,12 -KGM ish vaqtga o'tkazish koeffitsiyent ( $1 V = 6,12 \text{kgm}$ );

- Istalgan bo'lakdag'i mexanik ishning eng katta mutlaq shiddatini  $W_{\max}$  energiya mahsulotining individual anaerob shiddati ekvivalenti sifatida qayd qilish;

- 30 sek. ish davomidagi mexanik ishning o'rtacha shiddatini ( $W_6$ ) ( $Vt$  da yoki  $W_{\max}$ dan % larda aniqlash) 5 sekundli bo'laklar shiddati yig'indisining o'rtacha ko'rsatkichi sifatida.

$$W = \frac{\overline{W}_6}{W_{\max}} \times 100\%$$

- Maksimal va o'rtacha shiddat orasidagi farq sifatida tezlik va shiddatning pasayish gradiyentini hisoblab chiqarish ( $Vt$  va % larda).

$$\Delta W = W_{\max} - \overline{W}_6 = Bm$$

$$\Delta W = \frac{W_{max} - W_0}{W_{max}} \times 100$$

6. Tezlik va shiddatning pasayish gradiyentlarini har bir sekundda aniqlash.

$$W = \frac{\Delta W}{\text{s}} \text{ (Vm/sek)}$$

7. 30 sekund ish davomidagi anaerob yuklama shiddatining individual dinamikasi jadvalini tuzish va unda maksimal anaerob shiddat natijalarini qayd qilish.

8. Ishchi YUQTning tinch holatdagi darajasiga nisbatan va individual mumkin bo'lgan eng katta YUQT ko'rsatkichi bilan taqqoslagan holda oshish darajasini baholash asosida maksimal anaerob shiddatli yuklamaga tez moslashish jarayonida yurak- tomir tizimining fiziologik zo'riqishini aniqlash.

$$YUQT_{ish/yuklama} = \frac{YUQT_{ish} - YUQT_{tinch}}{YUQT_{max} - YUQT_{tinch}} \times 100\%$$

Bu yerda, YUQT.. = [220-yosh] ± 5 ud/min

9. Arterial bosim ko'rsatkichlarining o'sishiga qarab ushbu yuklamaga bo'lgan gemodinamik reaksiyani baholash va individual reaktivlik sifatini aniqlash.

Lozim bo'lgan me'yorlardan kelib chiqib, yuklamaga bo'lgan gemodinamik reaksiya sifatini baholash:

*Me'yoriy reaksiyalar* – sistolik AB ning sim/ust. 15-35 mm ga oshishi.

*Gipotonik reaksiya* – sistolik AB ning bir oz oshishi yoki pasayishi.

*Giperetonik reaksiya* – sistolik AB ning sim/ust. 60mm dan ko'proq, diastolik AB ning sim/ust. 30 mm dan ko'proq oshishi.

1-jadvalda 13-15 yoshdagi yosh sprinterlarni Vingeyt testi yordamida tekshirish bayonnomasi keltirilgan. Bayonnomada faqat ergometriya ko'rsatkichlari berilgan.


**13-15 yoshdagи yosh suzuvchilarda maksimal anaerob shiddatli  
yuklamani bajarishdagi jismoniy ish qobiliyatini testlash  
bayonnomasi (Vingeyt testi)**

**2-jadval**

№	Fami-liyasi, ismi	Yo-shi	R	V ob/min W Vt						W max	W <sub>6</sub>	ΔW mut
				5''	10''	15''	20''	25''	30''			
1	U-ov	14	4	156 611	156 611	120	96	96	72	611	454	157
2	L-ov	14	4,1	144 579	132 530	120	96	84	84	579	442	137
3	M-in	15	4,2	156 642	156 642	120	96	96	96	642	494	148
4	X-in	13	4	144 565	120 461	120	108	96	72	565	431	134
5	L-ov	14	4,2	156 642	144 593	144 593	120	72	72	642	486	156
6	M-ov	15	4,5	158 688	158 688	132	132	60	60	688	512	176
7	M-ov	15	4,2	132 544	120 494	132 544	120	120	120	544	511	33
8	T-ov	15	4,9	132 634	158 749	132 634	120	84	72	749	557	192
9	Kim	14	4,1	144 579	132 530	120	120	108	96	579	482	97
10	P-uk	14	3,4	144 480	132 440	108 360	108 360	84 280	60	480	353	127
11	T-in	13	3,5	144 494	120 412	120 412	108 371	90 329	74 254	494	379	115
12	J-ov	13	3,8	144 536	144 536	132 492	120 447	72 268	60	536	417	119
13	K-oy	13	3,6	144 508	120 423	108 381	108 381	72 254	72 254	508	367	141
14	K-ok	13	4,0	132 518	132 518	132 518	120 471	72 282	96 376	518	447	71

15	E-an	15	4,2	150	156	144	132	84	108	642	531	111
				618	642	593	544	346	445			
	X			576	552	500,5	452	342,5	322	585	458	127,6
	$\delta n$			60,2	96,5	76,7	73	68,04	81,2	74	58,8	38,7
	V %			10,5	17,5	15,3	16,15	19,9	25,2	12,7	12,8	30,3

Yosh suzuvchilarda mexanik ish shiddatining o'rtacha qiymatlari dinamikasi chizmasi 1-rasmda berilgan.



*1-rasm. 30 sekundli yuklamada mexanik ish shiddatining o'rtacha qiymatlari dinamikasi chizmasi.*

2-jadval va 1-rasmdagi chizma ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, 25-30 sek. ichida mexanik ish shiddati pasayadi. Bu (ATF) ning kreatinfosfokinaz tiklanish reaksiyalaridan glikolitik reaksiyaga o'tishi bilan tushuntiriladi. Kreatinfosfokinaziya reaksiysi glikolizga nisbatan ancha yuqori darajadagi mexanik shiddatni ta'minlashga imkon beradi. Maksimal tezlikni hamda mexanik shiddatni saqlab turish qobiliyati mushak tolalaridagi fosfogenlar zaxirasiga bog'liq.

Tinch holatda YUQT va AB ni tekshirish shuni ko'rsatdiki, barcha tekshiriluvchilarda ushbu ko'rsatkichlar bir me'yorda bo'ldi: YUQT daqiqasiga 60-70 zarba atrofida, AB daqiqasiga 118/60 - 126/70 zarba atrofida. Ishchi YUQT daqiqasiga 180-192 zARBAGACHA yetdi, Bu tanlangan shiddat zonasiga mos bo'ldi.

## **Submaksimal anaerob shiddatli yuklamani bajarish sharoitlarida suzuvchilarning jismoniy ish qobiliyatlarini aniqlash.**

Laboratoriya sharoitlarida submaksimal anaerob shiddatli yuklamani bajarish sharoitlarida jismoniy ish qobiliyatini bir daqiqa ichidagi mexanik ish maksimal sonining ergometrik mezonini yordamida baholash mumkin.

### ***1-daqiqali anaerob testlashni o'tkazish algoritmi.***

1. Tekshiriluvchining tana og'irligini hisobga olgan holda veloergometrik yuklama qarshiligini aniqlash.

$$R < 80 \text{ kg} - R \text{ yuklama} = 30 \text{ kgm/aylana}$$

$$R > 80 \text{ kg} - R_{\text{yuklama}} = 30 \text{ kg/aylana}$$

2. Tinch holatda YUQT va AB ni o'lchash.

3. 1 daqiqa davomida daqiqasiga 90 aylana tezlik bilan veloergometrda badan qizdirish mashqini bajarish.

4. 1 daqiqa davomida faol dam olish (yurish, nafas olish).

5. Tezlanishning birinchi sekundlari jarayonida yuklama qarshiligini aniqlash va «Olg'a!» buyrug'i bilan submaksimal tezlikda asosiy ishni bajarish.

6. 1 daqiqali ishning har bir 10 sekundli bo'lagida pedal aylantirish tezligining o'zgarishi dinamikasini (aylanishlar sonini) qayd qilish.

7. Ish tugashi bilan tomir urish reaksiyasi va AB o'zgarishini o'lchash.

8. Testlash natijalari va keyingi hisob-kitoblarni bayonnomaga kiritish.

### ***Natijalarни ishlab chiqish.***

1. 10 sek. davomida qayd qilingan aylanishlar ko'rsatkichlarini daqiqali tezlikka aylantirish:  $V_{\text{ayl/min}} = 10_{10} \times 6$

2. har bir 10 sekundli ish bo'lagida mexanik ish  $W_{10}$  ko'rsatkichini hisoblash:

$$W_c = (V_{10c} \times R \text{ yuklama}) : 612 \text{ (Vt)}.$$

3. 1 daqiqali ishning o'rtacha mutlaq shiddatini aniqlash:  $n = 6$

$$\overline{W}_{\text{mut.}} \text{ (VT/min)} = \frac{\sum_{i=1}^{10c} W_i}{6}$$

4. Erishilgan eng yuqori natijaning shiddatini qayd etish ( $W_{\max}$ ) va energiya ta'minotining glikolitik sig'imi tavsifi shiddatning pasayish gradiyentini ( $\Delta W$ ) aniqlash:

$$\Delta W_{\text{mut}} = W_{\max} - W \text{ o'rt}(Vt).$$

5. Shiddat pasayishi gradiyentining nisbiy ko'rsatkichlarini kelgusida individual jismoniy ish qobiliyatini qiyosiy baholash uchun aniqlash:

$$\Delta W \% = \frac{\Delta W}{W_{\max}} \times 100\%$$

6. Sportchi tanasi og'irligini hisobga olgan holda u tomonidan bajarilgan ish shiddatining nisbiy qiymatlarini aniqlash.

$$W_p^v = (VT/\text{tana kg})$$

7. Jismoniy ish qobiliyatining nisbiy ko'rsatkichiga, yurak urish sur'atining o'sishiga (yurak unumdoorigi ekvivalentiga) qarab yurak-tomir tizimining zo'riqish darajasini aniqlash:

$$YUQT_{\text{ish/zur}} = \frac{YUQT_{\text{ishchi}} - YUQT_{\text{tinch}}}{YUQT \left( \frac{\max}{\text{ind}} \right) - YUQT_{\text{tinch}}} \times 100\%$$

Individual YUQT max/ind. = (220-yosh) $\pm$  5 ur/min.

8. Arterial bosim (AB) ko'rsatkichlarining o'sishiga qarab gemodinamik tizimning zo'riqish darajasini aniqlash va individual gemodinamik reaksiyaga sifat jihatdan baho berish.

9. Anaerob yuklama shiddatining individual dinamikasi chizmlarini tuzish va turli xil sportchilar uchun ishning vaqt parametrlarini (t-kubmaksimal anaerob shiddatga erishish, t –erishilgan shiddatni saqlab turish), mutlaq shiddat ko'rsatkichlarini, shiddatning pasayish gradiyentini taqqoslash.

10. Barcha natijalarini bayonnomaga kiritish va sportchilarni tekshirishda ularning jismoniy ish qibiliyatlarini testlash natijalarini qiyoslash.

2-jadvalda submaksimal shiddatlari yuklamani bajarishda 1 daqiqali anaerob test yordamida tekshirish bayonnomasi berilgan. Ushbu


bayonnomada mexanik ish shiddati qiymatlari, o'rtacha qiymatlар va shiddatning pasayish gradiyenti keltiriladi.

### 1 daqiqali anaerob test yordamida testlash bayonnomasi

3-jadval

№	Fami-liyasi, ismi	Yoshi	Shiddat –W10 Vt						W	W mut	$\Delta W$ mut
			10''	20''	30''	40''	50''	60''			
1	S-ov	13	424	452	362	416	390	404	452	408	44
2	K-ov	13	416	410	348	362	370	428	416	389	27
3	T-ev	13	432	446	379	388	376	416	432	406	26
4	M-ov	14	430	402	382	374	392	452	430	405	25
5	A-пц	14	466	444	392	402	392	402	466	416	50
6	X-ov	15	450	436	410	382	376	408	450	410	40
7	O-ov	13	376	392	364	400	324	406	406	377	29
8	A-ko	13	422	418	442	324	314	314	442	392	40
9	O-ov	14	460	435	395	315	440	435	460	413	47
10	G-ov	14	436	466	422	416	380	394	466	419	47
11	K-im	14	430	420	500	520	400	410	520	447	73
12	N-ov	15	494	518	506	410	426	432	518	464	54
13	M-in	15	510	500	490	480	460	470	510	485	25
14	E-sv	15	500	490	580	400	480	490	580	490	90
15	R-ov	15	512	520	600	318	490	518	600	493	107
X			450,5	449,5	438	393,8	400,7	433,1	476,5	427,6	48,3
$\delta n$			38	39,6	76,8	53,6	49,14	34,4	55,7	37	23,7
V %			8,4	8,8	17,5	13,6	12,3	17,9	11,7	8,7	49,02

Submaksimal shiddatli yuklamani bajarishda yosh suzuv-chilarining mexanik ishi shiddatining o'rtacha qiymatlari dinamikasi chizmasi 2-rasmda berilgan.



**2-rasm. I daqiqalı yuklamada mexanik ish shiddatining o'rtacha qiymatlari dinamikasi chizmasi.**

YUQTni tekshirish shuni ko'rsatdiki, ishchi sur'at daqiqasiga 174-186 zarba atrofida bo'lidi, bu submaksimal yuklamali shiddat zonasiga mos keladi. 3-jadval va 2-rasmdan ko'rinish turibdiki, sportchilarda anaerob chidamlilik asosi hisoblanish anaerobglikolitik energiya mahsulotiga erishish va uni saqlab turish darajasi ancha yuqori.

Sportchilarda butun ish davri davomida – 1min. ichida anaerob-energiya mahsulotining barqaror darajasi saqlanib turdi, bu o'rta masofaga suzuvchilarning (400, 800m) sport ixtisosliklarga mos bo'lidi.

**Katta shiddatlari aerob-anaerob yuklamani bajarish sharoitlarida suzuvchilarning jismoniy ish qobiliyatlarini aniqlash ( $PWC_{170}$  uslubi).**

$PWC_{170}$  uslubi jismoniy ish qobiliyatini, YUQT ANAO daqiqasiga 170 zarba bo'lganda, yuklama harakati ekvivalentini belgilab beradi. Ishning eng uzoq davomiyligi -3 daqiqadan 20 daqiqagacha. Yuklama maksimal aerob chidamlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

$PWC_{170}$  testi yordamida jismoniy ish qobiliyatini aniqlash (nazariy jihatdan) mushak faoliyati fiziologiyasidan ma'lum bo'lgan ikkita omilga asoslanadi: 1-mushak ishida yurak urishining tezlashishi uning shiddatiga to'g'ridan-to'g'ri proporsional; 2 -har qanday (katta bo'lgagan) jismoniy yuklamada yurak urishining tezlashish darajasi tekshiriluvchining ushbu harakatchan mushak ishini bajarish qobiliyatiga, ya'ni jismoniy ish qobiliyatiga teskari proporsional.

Bundan kelib chiqadiki, mushak ishida YUQT inson jismoniy ish qobiliyatining ishonchli mezoni sifatida qo'llanilishi mumkin. PWC<sub>170</sub> testini aniqlash uslubiyati quyidagicha: tekshiriluvchiga veloergometrda o'rtacha shiddatli yuklama ketma-ket bajarish (masalan 500 va 1000 kgm/min) taklif qilinadi. Bunda pedalni aylantirish sur'ati daqiqasiga 60-75 aylana, ular orasida esa 3 daqiqali dam olish oralig'i bo'lishi kerak. Har bir yuklama 5 min. davom etadi, uning oxirida 30 sek. davomida YUQT hisoblanadi va EKG qayd qilinadi.

**PWC<sub>170</sub> uslubi yordamida veloergometrda ish qobiliyatini testlash algoritmi.**

- 1) Tekshiriluvchining tana og'irligini aniqlash;
- 2) Tinch holatda YUQT va AB ni o'lhash;
- 3) 3-jadval bo'yicha 1-darajali yuklama shiddatini tanlab olish.
- 4) Tekshiriluvchi tomonidan 5 daqiqa davomida V=60ay/min doimiy tezlik bilan va me'yorlangan W shiddatda ish bajarilishi;
- 5) har bir daqiqada YUQT o'zgarishi ni qayd qilib borish;
- 6) 3 daqiqa davomida dam olish: yurish, xotirjam nafas olish;
- 7) 4-jadval bo'yicha 5 daqiqqa oxirida ishchi YUQT ko'rsat-kichiga mos holda 2-darajali ish shiddatini tanlab olish.

**Ixtisosligi va vazni har xil bo'lgan sportchilarda PWC<sub>170</sub> ni aniqlash uchun tavsiya etiladigan birinchi darajali yuklama shiddati**

*4-jadval*

Sport turlari guruhi	(W kgm/min) Vazn, kg						
	55-56	60-64	65-69	70-74	75-79	80-84	85 va undan ko'p
Tezlik-kuch va murakkab koordinatsiyali	300	400	500	500	500	600	600
O'yin va yakkakurashlar	300	400	500	600	700	800	800
Chidamlilik uchun	500	600	700	800	900	900	1000

**PWC<sub>170</sub> ni aniqlash uchun tavsiya etiladigan 2-darajali (W2)  
yuklama shiddati**

*5-jadval*

1 chi yuklama shiddati (W1) kgm/min	2 chi yuklama shiddati (W2), kgm/min			
	W1 ur/min bo'lganda YUQT			
	90-99 ur/min	100-109 ur/min	110-119 ur/min	120-129 ur/min
300	1000	850	700	600
400	1200	1000	800	700
500	1400	1200	1000	850
600	1600	1400	1200	1000
700	1800	1600	1400	1200
800	1900	1700	1500	1300
900	2000	1800	1600	1400

8) V= 60 ayl./min yoki 75 ayl./min doimiy tezlik bilan 5 daqiqa davomida ish bajarish.

9) Ishning har bir daqiqasi oxirida YUQT dinamikasini qayd qilish.

10) Ish tugashi bilan AB va 3-4 min. davomida tiklanish davrida YUQT dinamikasini o'lchash.

**Testlash natijalarini ishlab chiqish.**

1.Bajarilgan ishning mutlaq shiddatini quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqarish:

$$PWC_{170} = W_1 - [W_2 - W_3] \times \frac{170 - YUQT_1}{YUQT_2 - YUQT_1} \text{ (kgm, VT)}$$

bu yerda, W<sub>1</sub> -1-darajali mexanik ish shiddati; W<sub>2</sub> -2-darajali mexanik ish shiddati; YUQT<sub>1</sub> -1-darajali yuklamalar oxirida yurak qisqarish tezligi; YUQT<sub>2</sub> -2-darajali yuklamalar oxirida yurak qisqarish tezligi.

2. Nisbiy ish shiddatini aniqlash:

$$PWC_{170} = \frac{ABC_PWC_{170}}{P(kg)} \text{ (Vt, kg)}$$

bu yerda, R – tekshiriluvchi vazni.

3.Bir yurak tizimi –vatt ichida amalga oshirilgan ish soni hisoblangan yurak ishi samaradorligining ergometrik ko'rsatkichini –ishning tomir urish qiymatini quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqarish:

$$\text{Vatt tomir ur.} = \frac{ABC * p_{WC170}}{ishchi * YUQT_2} (\text{Vt/zarba})$$

4.Yurakning aerob yuklamaga moslashishga bo'lgan funksional qobiliyatini ifodalovchi ikkinchi yuklamada yurak urish sur'atining nisbiy ishchi o'sishini aniqlash:

$$YUQT_{ishchi} = \frac{YUQT_{ishchi} - YUQT_{kur}}{YUQT_{max\ ind} - YUQT_{kur}}$$

bu yerda, a) YUQTishchi 2 va YUQT tinch mos ravishda 5-daqqa oxirida yurak urish tezligi, ikkinchi ish va tinch holatda yurak urish tezligi.

2)  $YUQT_{max/ind} = (220-yosh) \pm 5 \text{ ur/min.}$

5-jadvalda PWC<sub>170</sub> uslubi yordamida yosh suzuvchilarining jismoniy ish qobiliyatlarini tekshirish bayonnomasi keltiriladi.

### **PWC<sub>170</sub> uslubi yordamida yosh suzuvchilar –stayerlarning jismoniy ish qobiliyatlarini tekshirish bayonnomasi**

*6-jadval*

Nº	F.I.O.	Yoshi, vazni	YUQt tinch h.	W1 (Vt)	YUQT 1	W2 (Vt)	YUQT 2	PWC 170Vt/kgm	PWC 170 nisbiy (Vt/kg)
1	L-ev	14/62	66	124	135	185	156	225,7 1381,3	3,64
2	S-ev	15/66	62	120	140	190	160	225 1377	3,4
3	A-ov	15/72	74	115	125	200	168	204 1248	2,8
4	D-ev	14/64	62	115	144	190	176	156 1076,7	2,44
5	J-ov	15/58	66	100	134	180	166	190 1162,8	3,27

Ushbu tadqiqotlardan ko‘rinib turibdiki, jismoniy ish qobiliyatining eng yaxshi ko‘rsatkichlari 1 chi, 2 chi va uchinchi sportchida kuzatiladi, eng yomon ko‘rsatkichlar esa 4 chi sportchida qayd qilingan. Shunday qilib, PWC<sub>170</sub> testiga asoslanib quyidagilarga nisbatan xulosa berish mumkin:

- sportchi yurak-tomir tizimining katta o‘ta harakatchan yuklamalarni yengib o‘tishga moslashish qobiliyati;
- ANAO shiddat zonalarida aerob chidamlilikning rivojlanish tizimi;
- maxsus chidamlilikni (mashg‘ulot sikli yoki tayyorgarlik davri oxirida) mashq qilish samaradorligi;
- organizmning maxsus chidamlilikni rivojlantirishga tayyorligi.

Barcha individual baholashlarda organizmning yoshga xos va jinsiy xususiyatlarini, veloergometrda ish bajaruvchi mushaklarning maxsus mashqlanganlik darajasini e’tiborga olish zarur.

#### *Yosh suzuvchilarning maxsus jismoniy ish qobiliyatlarini aniqlash usuliyati.*

Yuqorida aytib o‘tilganidek, biz tomonimizdan maxsus jismoniy ish qibiliyatini aniqlash uslubiyati ishlab chiqildi. Mazkur uslubiyatda suvda tortish kuchini o‘lhashdan foydalaniлади.

Suvda tortish kuchlanishlarini o‘lhash uchun bog‘liq holda suzishlar qo‘llanildi. Sportchi belbog‘ taqib oladi va bu belbog‘ga cho‘ziluvchan tasma hamda dinamometr o‘rnatalgan bo‘ladi. Tortish moslamasining ikkinchi uchi bassein chetiga suv sathidan 20-100sm balandlikda mahkamlanadi. Sportchi tanlangan suzish rejimida (to‘liq koordinatsiya bilan, oyoqlar yoki qo‘llar yordamida) masofani suzib o‘tish hamda tasma to‘liq tortilganda berilgan yuklama shiddat zonasida ishlashi lozim: maksimal -30sek, submaksimal -1min va katta aerob va anaerob (ANAO chegarasida) -5 daqiqa.

Ma’lum bir vaqt oralig‘ida dinamometriya ko‘rsatkichlari olinadi. Maksimal yuklama shiddat zonasida tortish kuchlanishlarini aniqlashda (30 sek.) tortish kuchi qiymatlari har bir 5 sekunddan keyin, submaksimal shiddat zonasida esa (1 daqiqa) har bir 10 sekund dan so‘ng aniqlanadi. Ushbu holda sportchi, xuddi musobaqadagidek maksimal shiddatda eshish harakatlarini bajarib hamda maksimal kuch berib suzishi kerak.

Katta aerob-anaerob shiddat zonasida tortish kuchlanishlarini bajarishda sportchi 5 daqiqa ichida kompensator, ya’ni xotirjam suzish

sharoitlarida turgan joyida suzadi (YUQT daqiqasiga 120 dan 140 zARBAGACHA). Maxsus signal bo'yicha u maksimal sur'atda 3-6 sek. davomida eshish harakatlarni amalga oshiradi, bu vaqtida esa har bir daqiqada tortish kuchi o'lchanadi.

Suvda tortish kuchini o'lchash yordamida sprinterlar, o'rta masofaga suzuvchilar va stayerlarning maxsus va jismoniy ish qobiliyatlarini tekshirish bayonnomalari 6,7,8-jadvallarda berilgan.

### 13-15 yoshdagি yosh sprinterlarda tortish kuchini o'lchash bayonnomasi

*7-jadval*

№	F.I.O.	Tortish kuchi (kg) vaqtி – 30 sekund						F ma x	F o'rt.	$\Delta F$
		5''	10''	15''	20''	25''	30'			
1	U-ov	21	18	18	17	17	14	21	17,6	3,8
2	L-ov	23	20	21	21	18	14	23	19,45	3,3
3	M-in	16	19	16	14	17	16	19	16,1	3,0
4	X-in	16	20	13	16	20	18	20	17,3	2,9
5	L-ov	22	21	19	20	17	17	22	19,1	2,9
6	M-ov	20	20	18	19	16	17	20	18,4	2,1
7	M-ov	16	19	18	15	17	15	19	16,5	2,7
8	T-ov	23	20	25	19	18	14	25	19,8	4,7
9	Kim	20	17	18	14	18	15	20	17,0	2,9
10	P-uk	20	21	23	18	16	15	15	19,0	4,5
11	T-in	23	17	18	20	21	15	23	19,0	3,7
12	J-ov	17	21	19	16	19	16	21	17,9	2,7
13	K-oy	19	22	20	18	15	14	22	18,0	4,1
14	K-ok	21	20	18	17	14	16	21	17,6	3,0
15	E-an	22	19	18	20	16	17	22	18,6	3,1
X		19,9	19,6	18,8	17,6	17,3	15,5	20,9	18,1	3,3
$\delta n$		2,6	1,5	2,8	2,3	1,8	1,3	2,3	1,1	0,7
V %		13,1	7,4	14,8	12,9	10,6	8,4	11,0	6,0	21,9

**O'rta masofalarga suzuvchi 13-15 yoshdagি yosh suzuvchilarda tortish kuchini o'lchash bayonnomasi**

*8-jadval*

№	F.I.O.	Tortish kuchi (kg) vaqtি – 1daqiga						F ma x	F o'rt.	Δ F
		10''	20''	30''	40''	50''	60''			
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>7</b>	<b>8</b>	<b>9</b>	<b>10</b>	<b>11</b>
1	S-ov	20	17	16	19	15	17	20	17,3	2,3
2	K-ov	22	11	9	17	16	10	22	14,3	7,5
3	T-ev	17	19	19	17	16	17	19	17,3	1,2
4	M-ov	10	19	16	9	18	17	19	14,9	3,9
5	A-ov	22	15	17	18	10	13	22	16,0	5,9
6	X-ov	14	14	16	17	18	14	18	15,6	2,3
7	O-ov	22	24	13	19	19	19	24	19,4	4,7
8	A-ko	18	21	17	16	15	18	21	17,5	3,2
9	O-ov	25	22	19	21	16	22	25	20,9	3,8
10	G-ov	18	24	17	16	22	21	24	19,7	4,8
11	K-im	19	22	23	14	18	18	23	18,9	4,0
12	N-ov	19	21	21	16	16	18	21	18,5	2,5
13	M-in	19	18	18	16	16	17	16	17,3	1,3
14	E-ev	18	16	18	22	16	16	22	17,6	4,2
15	R-ov	20	18	18	18	12	17	20	17,2	2,8
X		18,9	18,7	17,1	17,0	16,2	16,9	21,1	17,5	3,6
δ n		3,6	3,7	3,2	3,0	2,8	3,0	2,5	1,8	1,7
V %		18,9	19,9	18,8	17,8	17,3	17,5	11,7	10,4	46,7

**Uzoq masofalarga suzuvchi 13-15 yoshdagи yosh suzuvchilarda tortish kuchini o'lchash bayonnomasi**

*9-jadval*

№	F.I.O.	Tortish kuchi (kg) vaqtি – 5 daqiga					F max	F o'rt.	Δ F
		1'	2'	3'	4'	5'			
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>7</b>	<b>8</b>	<b>9</b>	<b>10</b>
1	R-ov	17	17	14	17	15	17	16,0	1,0
2	A-ov	16	19	15	16	13	19	15,8	3,2

3	I-ov	16	17	14	17	16	17	16	1,0
4	M-ov	17	18	12	17	17	17	16,2	1,8
5	X-ov	19	18	15	16	17	19	17	2,0
6	F-ov	16	14	15	18	16	18	15,8	2,2
7	B-ov	16	17	14	20	17	20	16,8	3,2
8	I-ov	18	16	15	16	15	18	16	2,0
9	R-ov	18	19	15	17	18	19	17,4	1,6
10	M-iy	18	19	14	17	15	19	16,6	2,4
11	M-ev	19	17	17	17	17	19	17,4	1,6
12	L-ov	15	18	18	16	17	18	16,8	1,2
13	R-ev	16	17	14	16	16	17	15,8	1,2
14	B-ev	16	16	14	15	15	16	15,2	0,8
15	K-ov	16	16	16	15	17	17	16	1,0
X		16,87	17,20	14,80	16,67	16,07	18,00	16,32	1,75
δ n		1,25	1,37	1,42	1,23	1,28	1,13	0,64	0,77
V %		7,39	7,98	9,62	7,41	7,97	6,30	3,95	43,81

Shu narsa ko‘zga tashlanadiki, yosh sprinterlar, o‘rta masofaga suzuvchilar va stayerlarda umumiy va maxsus ish qobiliyati ko‘rsat-kichlarining dinamika chizmasi deyarli bir-biriga mos keladi.

Umumiy va maxsus ish qobiliyati ko‘rsatkichlari orasidagi korrelatsion o‘zaro bog‘liqlik darajasi qiymatlari ham yuqori ( $R= 0,7-0,95$ ). Suvda tortish kuchini o‘lchash yordamida maxsus jismoniy ish qobiliyatini baholovchi testlarning axborotliliginin tekshirish suzuvchilarining yaqin, o‘rta va uzoq masofalarga suzish natijalarini bilan o‘zaro statistik bog‘liqligi darajasini aniqlash yordamida o‘tkazildi. Bunda ushbu testlar ma’lumotlari va suzish masofalarini suzib o‘tishdagi natijalar orasida yuqori qiymatga ega korrelatsiya koeffitsiyentlari aniqlandi ( $R =0,65-0,85$ ).

### Savollar:

1. Suzishda mashg‘ulot jarayonini jadalashtirishning qanday yo‘llari bor?
2. Suzishda mashg‘ulot jarayonini tuzish va mashg‘ulot yukamlarini rejalashtirish asoslari.

3. Sportchining funksional imkoniyatlarini rivojlantirish uchun tavsiyalar.
4. Sport suzishda qanday shiddat zonalari bor va har bir shiddat zonasini nimani anglatadi?
5. Qanday mashg'ulot metodlari suzuvchilarning funksional tayyorlarliklarini oshiradi?
6. Suzuvchi startga chiqishdan oldin qo'llaniladigan to'g'ri massaj metodikasi qanday?
7. Sportchi suzishda tanani tuklardan tozalash muolajasi?
8. Suzuvchilar start oldi chigilyozdi mashqlarini qanday o'tkazadilar?
9. Sportchining suvni his qilish qobiliyati.
10. Sportchi va murabbiy o'rtaqidagi o'zaro munosabat.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Керимов Ф.А. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. – Т.: Lider Press, 2009. - В. 264.
2. Клешнев Н.В., Тверяков И.А. Особенности в аспекте планирования процесса подготовки высококвалифицированных пловцов// Теория и практика физической культуры. 2008.- №3. С 62-66.
3. Korbut. V.M. SUZISH. – T.:Darslik Lider Press, 2012. - В. 264.
4. Корбут В.М. SUZISH (sport-pedagogikik takomillashuvi). – Т.: Lider Press, 2012. - В. 142.
5. Манин В.С. Цена победы / Учеб метод пособие по подготовке пловцов группы спортивного совершенствования и высшего спортивного мастерства – Ташкент. «Шарк» 2000.-64с.
6. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпиуском спорте. Общая теория и её практические приложения – Киев: Олимпиусская литература, 2004 - 808 с.

---

## II YOSH SUZUVCHILARNING KO‘P YILLIK TAYYORGARLIGI

### 1. Yosh suzuvchilarning ko‘p yillik tayyorgarligi bosqichlari

Sport pedagogikasida sportchilar tayyorgarligining beshta bosqichga bo‘lish qabul qilingan.

**Birinchi bosqich** – boshlang‘ich tayyorgarlik. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi mazmuni sport suzish texnikasini o‘rgatishdan iborat. Bunda mashg‘ulotlar soni haftada 2 dan 6 tagacha ko‘payib boradi. Bu umumiy jismoniy yuklama hajmining asta-sekin oshib borishiga olib keladi. Ushbu tayyorgarlik bosqichida mashg‘ulotlarni boshlash uchun eng maqbul yosh – qizlar hamda o‘g‘il bolalar uchun 8-10 yosh belgilangan. Uning optimal davomiyligi -1-3 yil.

**Ikkinci bosqich** – dastlabki bazaviy tayyorgarlik. Bu bosqich vazifalariga har tomonlama jismoniy va funksional tayyorgarlikni shakllantirish, iqtidorli yosh suzuvchilarni saralab olish, kompleks suzish asosida texnik tayyorgarlik asoslarini takomillashtirish, suzishga ixtisoslashuvni chuqurlashtirish kiradi. Bosqich boshlanishing yoshga xos chegaralari qizlar uchun 10-11 yoshni, o‘g‘il bolalar uchun 11-12 yoshni tashkil etadi, bosqich davomiyligi -2-3 yil.

**Uchinchi bosqich** – ixtisoslashgan bazaviy tayyorgarlik. Bu bosqich vazifalariga funksional imkoniyatlar darajasini oshirish, ushbu bosqichga xos bo‘lgan maksimal yuklamalarga asta-sekin, yuqori natija va texnik tayyorgarlik kiradi.

Bosqichda biologik rivojlanish sur’atlari va harakat qobiliyatlarini e’tiborga olgan holda individual tayyorgarlik amalga oshiriladi. Ushbu bosqich boshlanishing yoshga xos chegaralari qizlar uchun 12-16 yosh, o‘g‘il bolalar uchun 13-18 yoshni tashkil etadi, uning davomiyligi 4-5 yil.

**To‘rtinchi bosqich** – yuqori natijalarga tayyorgarlik. Bu bosqichda jismoniy yuklamalar hajmi eng katta o‘lchamlarga yetadi, noan’anaviy tayyorgarlik vositalaridan (maxsus trenajyorlar model-lashtiruvchi qurilmalar, mashqlantiruvchi ta’sirga ega bo‘lmagan vositalar – farmakologik, fizioterapevtik tiklanish vositalari, adapto-

genlardan foydalangan holda sport mashqlari shiddatiga erishiladi. Ushbu bosqichning boshlanish chegaralari: qizlar uchun 17-19 yosh, yigitlar uchun 17-22 yosh. Bu bosqichning maqsadi sport natijalarini xalqaro darajaga ko'tarish.

**Beshinchi bosqich** – natijalarni saqlab qolish bosqichi. U o'zining eng yaxshi natijalarini ko'rsatish qobiliyatini imkon qadar uzoqroq saqlab turish maqsadida sport mashg'ulotini to'liq individual tarzda olib borishni nazarda tutadi. Bu bosqich boshlanadigan yosh: ayollarda 10-22 yil, erkaklarda 21-25 yosh (1-jadval).

Eng yuqori natijalarga erishish uchun maqbul bo'lgan yosh chegaralariga tayanish aksariyat suzuvchilar uchun to'g'ri va u ko'p yillar davomida o'zgarmay kelmoqda. Biroq jadvalni ayrim yetuk, yorqin individual mahoratga ega suzuvchilar uchun qo'llab bo'lmaydi. Bunday sportchilarning yoshta xos rivojlanishi, ular organizmida rivojlanayotgan moslashish jarayonlari ko'p yillik tayyorgartlik bosqichlarini individual rejalashtirishni taqozo etadi.

### **Suzuvchilar ko'p yillik tayyorgarlikning turli bosqichlaridan o'tadigan yoshga xos chegaralar**

*1-jadval*

Ma-sofa	Boshlan-g'ich tay-yorgarlik bosqichi	Dastlabki bazaviy tayyor-garlik bosqichi	Ixtisoslash-gan bazaviy tayyor-garlik bosqichi	Yuqori natijalarga tayyorgarlik bosqichi	Natijalarni saqlab qolish bosqichi					
						o'g'il	qiz	o'g'il		
100 m va 200m	8-10	8-10	11-12	10-12	13-18	12-16	19-22	17-19	23-25	20-22
400m	8-10	8-10	11-12	10-12	13-17	13-16	18-21	16-18	22-24	19-20
800m va 1500m	8-10	8-10	11-12	10-12	13-16	13-15	17-20	16-18	21-23	19-20

Yosh suzuvchilar bilan ishlash amaliyotida biroz boshqacharoq tuzilma mavjud va amal qildi. U birinchi navbatda, ko‘p yillik mashg‘ulot ishining tashkiliy muammolariga, bolalar sport maktablari ishini tashkil qiluvchi qonuniy hujjatlarga bog‘liq.

**Birinchi bosqich** – boshlang‘ich tayyorgarlik. Bu bosqichda o‘g‘il va qiz bolalarning yoshi 7 dan 9 yoshgacha, tayyorgarlik 2 yil davom etadi. Bu bosqichning vazifalari quyidagilardan iborat: sog‘liqni mustahkamlash, har tomonlama jismoniy tayyorgarlik, to‘rt xil usulda suzish harakatlari elementlarini egallab olish, start va burilishlarni egallahash, sport mashg‘ulotlariga qiziqish uyg‘otish.

**Ikkinci bosqich** – o‘quv mashg‘ulot tayyorgarligi davri. Qizlar uchun yosh davri -10 dan 13-14 yoshgacha, o‘g‘il bolalar uchun esa 10 dan 15 yoshgacha. Yoshlardagi farq o‘g‘il bolalarda pubertat rivojlanish davrining kechroq boshlanishi hamda uzoqroq vaqt davom etishi bilan bog‘liq. Bu davrning umumiy vazifalari – sensitiv rivojlanish davrlarini e’tiborga olgan holda jismoniy sifatlarni rivojlantirish, suzuvchilarning texnik mahoratlarini takomillashtirish, tor ixtisoslikni tanlash.

**Uchinchi bosqich** – sport takomillashuvi bosqichi. Qizlar uchun yosh davri 14 dan 16 yoshgacha, o‘g‘il bolalar uchun -15 dan 17 yoshgacha. Ushbu bosqichning umumiy vazifalari – tor ixtisoslashuv, qattiq mashq qilish rejimlarida mashg‘ulotlar olib borish orqali moslashish imkoniyatlarini rivojlantirish, qo‘srimcha vositalar yordamida tiklanishini jadallashtirish, umumiy va maxsus chidamlilikni rivojlantirish.

**To‘rtinchi bosqich** – sport mahorati bosqichi. Bu bosqichda eng asosiy vazifa suzuvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini yuqori darajada samarali rivojlantirishga yordam beruvchi mashg‘ulot topshiriqlarini individuallashtirish hisoblanadi. Bosqich maqsadi – eng yuqori sport natijalariga erishish va ularni imkon qadar uzoq vaqt saqlab turish.

Ko‘p yillik tayyorgarlikning birinchi ucta bosqichida, yosh sportchilarda kelgusida oliy sport mahorati bosqichida yanada maqsadli mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun poydevor yaratiladi.

Ushbu bobda bayon qilinadigan yosh suzuvchilarning ko‘p yillik tayyorgarligi to‘g‘risidagi material BO‘SM va IBO‘OO‘SM ishi uchun belgilangan tuzilmaga tayanadi.

Afsuski, BO‘SM IBO‘OO‘SM ishi amaliyotiga yuqori malakali sport ustalari tayyorgarligida qo‘llaniladigan kuchli sport mashg‘uloti

vositalari va metodlari keng joriy qilinmoqda. Shunday omillar ko‘p uchraydiki, 12-13 yoshdagi o‘smit o‘g‘il-qizlar yil davomida kuniga 2-3 soat mashq qiladilar va yiliga 2000 km masofani suzib o‘tadilar. Bunday tayyorgarlik natijalarining tez o‘sishiga, bolalar va o‘smitlar o‘rtasidagi musobaqalarda ma’lum bir natijalarga erishishga va ayni paytda optimal yoshda haqiqiy yuqori sport natijalariga erishish istiqbolining yo‘qolishiga olib keladi.

Ushbu qo‘llanmada bayon qilingan yosh suzuvchilarning ko‘p tayyorgarligi to‘g‘risidagi material BO‘SM va IBO‘OO‘SM ishi uchun belgilab berilgan tuzilmaga, ya’ni tuzilmaning ikkinchi variantiga tayanadi. Yosh sportchilarning ko‘p yillik tayyorgarligiga doir dolzarb masalalarni ishlab chiqish o‘tgan asrning 50-yillarning birinchi yarmida boshlanib, bunda xususiy muammolar hal etilgan ishlar paydo bo‘ldi. Mutaxassislarining asosiy e’tiborlari bolalar va o‘smitlarining yoshga xos xususiyatlari hamda tayyorgarlik bosqichlari bilan bog‘liq holda ularning tayyorgarligiga xos qonuniyatlarini o‘rganishga qaratildi.

70-yillarda V.P. Filin, L.P. Makarenko, M.Ya. Nabatnikova, N.J.Bulgakova, T.S. Timakova va boshqa mualliflarning yirik umumlashtiruvchi ishlari paydo bo‘ldi.

So‘nggi yillarda ko‘p yillik tayyorgarlikning har bir bosqichlarida mashg‘ulot jarayonining oqilona yo‘nalishini aniqlashda ijobjiy natijalarga erishildi, jismoniy sifatlarni samarali rivojlantirish vositalari va metodlari asoslab berildi, sport mashg‘ulotlarining yosh sportchi organizmiga ta’siri o‘rganildi, sportga saralab olish va layoqatni aniqlashga doir masalalar ishlab chiqildi, har xil yoshdagи va turli malakadagi yosh sportchilar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlar metodikalari xususiyatlari aniqlandi.

Olingen ma’lumotlar monografiyalar, ilmiy to‘plamlar, maqolalar, metodik ishlanmalarda o‘z aksini topdi. Ulardan sport mifikalari faoliyatini boshqarib turuvchi dasturiy- metodik hujjatlarni tuzishda foydalanildi.

Hozirgi paytda ilmiy yo‘nalishlar orasida sport mashg‘ulotlarining yosh sportchilar jismoniy rivojlanishi va sog‘lig‘iga ta’siri, ularning yoshga xos rivojlanish xususiyatlari ko‘proq tadqiq qilingan.

Sport natijalarining o'sish samaradorligi ko'p jihatdan ko'p yillik ishlarning barcha bosqichlarida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni oqilona tuzishga bog'liq.

Har xil malakaga ega suzuvchilar uchun jismoniy yuklamalar me'yorlariga kelsak, bilimning bu qismi ko'proq suzuvchilarni tayyorlashda amaliy tajriba toplash sohasida rivojlanmoqda hamda o'quv rejalarida, musobaqa taqvimlarida, yilning sport tuzilmasining tanlanishida amalga oshirilmoqda.

Metodik va ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi paytda yosh sportchilarning ko'p yillik tayyorgarligini boshqarish tizimining ko'pgina xususiy va umumiy masalalari yetarlicha yoritilmagan. Mazkur qo'llanmada muallif suzishda ko'p yillik tayyorgarlik tizimini tushunishga va shuning asosida jismoniy hamda boshqa turdag'i tayyorgarlikni bolalar, o'smirlar yuklamalari me'yorlarini rejalashtirish jarayonini aniqlashtirishga harakat qilgan.

## **2. Suzuvchilarning ko'p yillik tayyorgarligi tamoyillari**

Sport mashg'ulotiga tarbiyaning alohida shakli sifatida o'ziga xos qonuniyatlar mavjud. Ular sport mashg'uloti tamoyillarida o'z aksini topgan. Sport mashg'uloti tamoyillari yosh sportchilarning mashg'ulotlarini rejalashtirish hamda amalga oshirish keng qo'llaniladi.

L.P. Matveev bazaviy tayyorgarlik bosqichidan o'tayotgan yosh sportchilarga mo'ljallanmagan holda sport mashg'ulotining yettita tamoyilini tavsiflab bergan.

Murabbiy va sportchi ko'zda tutilgan maqsadga erishish yo'llari hamda shart-sharoitlarini ko'rsatib beradi (L.P. Matveev).

Shuning uchun L.P. Matveevning yettita tamoyillarini ularning suzuvchilar ko'p yillik tayyorgarligida qo'llanilishi jihatidan sharhlab o'tish zarur.

**Birinchisi** – maksimal natijalarga erishishga, chuqr ixtisosla-shuvga yo'naltirilganlik **tamoyili**. Yosh suzuvchilar mashg'ulotlarida alohida istiqbol sifatida qaraladi, chunki jadallashtirilgan mashg'ulot odatda yosh sportchi organizmining o'ta zo'riqishiga olib keladi hamda uning kelgusida rivojlanishiga yordam bermaydi.

**Ikkinchisi** – individuallashtirish tamoyili, u mashg‘ulotlarni sportchilar tayyorgarligining bo‘sh tomonlarini qattiq rivojlantirishni, tayyorgarlik darajasi, psixika xususiyatlari, energetik sarflarning tiklanish imkoniyatlari hamda sportchi tayyorgarligining boshqa tomonlarini e’tiborga olgan holda tashkil etishni nazarda tutadi. Bolalar va o‘s米尔 yigit-qizlar uchun individuallashtirish tamoyili yoshga xos xususiyatlarni, tayyorgarlik darajasini va qobiliyatlarni hisobga olishni taqozo etadi.

Mashg‘ulotni individuallashtirish uchun uni shunday rejalashtrish lozimki, bunda suzuvchining biologik yoshi, uning jismoniy faolligi darajasi, fiziologik xususiyatlari, asab tizimi tipi (bolalarda kattalarga nisbatan yorqinroq namoyon bo‘ladi) e’tiborga olinishi zarur.

**Uchinchisi** – umumiy va maxsus tayyorgarlikning birligi tamoyili, u yosh sportchilar mashg‘ulotlari nuqtayi nazaridan umumiy va maxsus tayyorgarlikning o‘zaro uyg‘unlashgan holda bog‘liqligini nazarda tutadi. Bunda ko‘p yillik tayyorgarlikning birinchi bosqichlarida umumiy tayyorgarlik ustuvor hisoblanadi.

Ko‘p sonli tadqiqotlar va bolalar hamda o‘smirlar bilan mashg‘ulotlar olib borishdagi amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, sport natijalarining yuksak darajada o‘sishi organizm funksional imkoniyatlari darajasining oshirilishiga, harakat ko‘nikma va malakalari jamlanmasining kengaytirilishiga asoslanadi.

Bolalar va o‘smirlarning har tomonlama jismoniy tayyorgarliklarining keng bazasi kelgusida tanlangan sport turidagi mashqlarni yuqori darajadagi texnika bilan, katta hajmda hamda yuqori shiddat bilan bajarishga imkon beradi. Bunda umumiy jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlari, asosan boshlang‘ich bosqichlarda, harakat ko‘nikmlarini o‘rganish va o‘zlashtirishga yo‘naltirilishi lozim.

Bunda mashg‘ulotlarga sport turning barcha tarkiblari kiritilishi zarur. Masalan, sport o‘yinlarida UJT jarayonida nafaqat uning texnika qismi o‘rganilishi kerak, balki mashg‘ulotdan tayyorgarlikning taktik tayyorgarlik, musobaqa tayyorgarligi kabi turlari ham o‘rin egallashi zarur. Bu mashg‘ulotda sportchilarning emotsiyonal darajasini, faolligini oshiradi.

**To‘rtinchisi** – mashg‘ulot jarayonining uzlusizligi tamoyili. Yosh sportchilarda ushbu tamoyilning amalga oshirilishi uchta yo‘nalish bo‘yicha o‘tkaziladi. Birinchidan, o‘quv-mashg‘ulot

jarayoni ko'p yillik bo'lishi va butun yil davomida olib berilishi kerak. Ikkinchidan, har bir keyingi mashg'ulotning ta'siri oldingisining iziga qatlam bo'lib yotishi kerak, ya'ni oldingi mashg'ulotlar ta'sirida yosh sportchi organizmida yuzaga kelgan ijobiy o'zgarishlar mustahkamlanishi hamda takomillashib borishi maqsadga muvofiq. Uchinchidan, dam olish tiklanish hamda ish qobiliyatining o'sishi uchun yetarli bo'lishi kerak.

**Beshinchisi** – yosh sportchilarni tayyorlashda o'zaro bog'liqlik, izchillik hamda eng katta yuklamalarga o'tib borish **tamoyili**. U mashg'ulot va musobaqa yuklamalari hajmi hamda shiddatining nafaqat sportchilar funksional imkoniyatlariga, balki mashg'ulot yuklamalari yo'nalishlariga yosh sportchining ushbu yoshdagi biologik rivojlanishi xususiyatlariga, albatta, mos kelishida aks etadi. Eng katta jismoniy yuklamalar vaqt bilan va faqat kritik rivojlanish davrlari tugagandan so'ng qo'llaniladi. Ushbu tamoyilga amal qilinishi sport natijalarining to'xtovsiz o'sib borishini ta'minlaydi.

**Oltinchisi** – mashg'ulot yuklamalarining to'lqinsimon o'zgarishi **tamoyili**. Uning zamirida organizm toliqishi va tiklanishi qonuniyatlari yotadi. Yosh sportchilarda kattalarga nisbatan moslashish hamda toliqishdan so'ng tezkor tiklanish jarayonlari kamroq namoyon bo'ladi. Bolalar va o'smirlarda 16 yoshgacha yurak-tomir tizimi reaksiyasi bo'yicha jismoniy yuklamaga moslashish kuzatilmaydi, tashqi nafas va to'qimalar metabolizmi tomonidan yuklamalarga moslashish yaqqol ko'zga tashlanmaydi. Bu yoshda jismoniy yuklamalar ko'proq organlar hamda funksiyalarning rivojlanishiga, ularning o'sishi va tabaqalashgan holda rivojlanishiga qaratilgan bo'ladi.

**Yettingchisi** – sikllilik **tamoyili**. Bu mashg'ulot qismlarining nisbatan tugallangan aylanasi bo'lib, bunda mashg'ulot bosqichlari, davrlari va hatto mashg'ulotlar takrorlanib keladi. Yillik mashg'ulot sikli mashg'ulot jarayonini tashkil qilishning ma'lum bir tuzilmasidan iborat. U mikro – (4-10 kun), mezo-(1-1,5 oy) va makrosikllarni – yillik hamda to'rt yillikni (Olimpiya sikli) o'z ichiga oladi. Yosh suzuvchilarda yillik sikllar tuzilmalari yosh hamda unga xos bo'lgan farqlar bilan bog'liq. Bolalar va o'smirlarning ko'p yillik tayyorgarligiga xos qirralarni tavsiflashga birinchi bo'lib M.Ya.Nabatnikova urinib ko'rgan.

U ilmiy ma'lumotlar va murabbiylarning ilg'or amaliy tajriba-lariga asoslanib, *yosh suzuvchilarning maxsus chidamliliginin takomillashtirish metodikasini uchta tamoyilini* ifodalab bergen:

1.Maqsadli ta'sir qilish tamoyili. Uning mazmuni mashg'ulot vositalari va metodlarini maxsus hamda tanlab ta'sir qilishni e'tiborga olgan holda kengaytirishdan iborat. U paytda ko'pgina ilmiy ishlarda shu narsa isbotlanar ediki, maxsus chidamlilikni oshirishda maxsus mashqlarning har xil va keng doirada variantlari qo'llanilganda yuqori natijaga erishish mumkin bo'ladi.

2.Jismoniy sifatlarning nisbatlaridagi mutanosiblik tamoyili. Muallifning fikricha, bu tamoyil mazmuni asosiy sifatlarning rivojlanishidagi ma'lum bir mutanosiblikning ta'minlanishidir. Ushbu tamoyilning amalda qo'llanilishini isbotlash tariqasida har xil mahorat darajasiga ega suzuvchilar guruhidagi «tezlik -vaqt» bog'liqligining logarifmik chizmasi keltiriladi. Erkin usulda 100 m. masofaga suzishda 51,2 -53,0 s. natija ko'rsatgan erkak suzuvchilarda 1500m. masofada tezlikning pasayishi 100 m. masofaga nisbatan 35,2% ni tashkil etadi, ayni paytda natijalari 55,1 – 58,5 s. atrofida bo'lgan suzuvchilarda bu kattalik 46,9% gacha yetadi.

Bunday vaziyat sprinter ayol suzuvchilar ko'rsatkichlari misolida ham kuzatildi. Bu ishlar orqali muallif shuni isbotlaydiki, eng kuchli suzuvchilardagi maxsus jismoniy tayyorgarlikning ajralib turuvchi belgilardan biri suzishda mahorat darajasini aniqlab beruvchi sifatlarning rivojlanishidagi mutanosiblikdir.

3.Maxsus sifatlar rivojlanishining mutanosibligi tamoyili. Muallifning fikricha, bu tamoyil yosh suzuvchilarni tayyorlashda alohida ahamiyatga ega. Ushbu tamoyil mazmuni shundan iboratki, mashg'ulot metodikasi yuklamani har qanday shiddat zonasida samarali bajara olishni, shuning asosida ularning birida eng yuqori ish qobiliyatini ta'minlashi zarur. Oxirgisi suzuvchining turli masofalardagi tayyorgarlik darajasi bilan uzviy bog'liq. Demak, yosh suzuvchining «masofaviy» tayyorgarligi sport mahorati o'sishi zaxiralaridan biri hisoblanadi.

Muallif ushbu tamoyillarga asoslanib *oltita umumlashtiruvchi dalillarni* ajratib olgan. Ularning har biri yuklama kattaliklaridan kelib chiqib aniqlanadi:

- 1) qisqa masofa bo'laklaridagi ish hajmi;
- 2) uzoq masofa bo'laklaridagi ish hajmi;

- 3) submaksimal shiddatli yuklama hajmi;
- 4) o'rta masofalardagi ish hajmi;
- 5) tezlik yuklamasi hajmi;
- 6) umumiy suzish hajmi.

Bu umumlashtiruvchi omillar yoki hozirda biz qo'llaydigan tushuncha turli shiddat zonalaridagi ish hajmlari har xil uzunliklagi masofalarda oqilona ta'minlashi zarur. Bunda asosiy masofaga nisbatan uzaytirilgan masofa bo'laklarida mashqlarni bajarishning tegishli tezlik rejimi zarur shart hisoblanadi.

80-yillar ilmiy ma'lumotlarni va murabbiylar ish tajribasini qayta anglash va yirik umumlashtirishlar bo'lganligi tufayli yosh sportchilar bilan mashg'ulotlar olib borishda asosiy ishlanmalar paydo bo'lishda davom etdi. 1980-yilda mualliflar tomonidan «Metodik qoidalar» deb nomlangan yosh suzuvchilarning ko'p yillik tayyorgarligi tamoyillari nashr etildi.

1. Bolalar, o'smir yigit-qizlar, o'spirinlar va katta yoshdagи sportchilarning mashg'ulot vazifalari, vositalari hamda metodlarining uzviyligi.

2. Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalari hajmining asta-sekin o'sib borishi. Ular orasidagi nisbat asta-sekin o'zgarib boradi: yildan-yilga maxsus jismoniy tayyorgarlik hajmi ulushi (umumiy mashg'ulot yuklamasi hajmiga nisbatan) oshadi va mos ravishda jismoniy tayyorgarlik hajmi kamayib boradi.

3. Sport texnikasining to'xtovsiz takomillashtirilishi. O'rgatishning birinchi bosqichida asosiy vazifa sport texnikasi asoslarini egallab olishdan iborat. Sport takomillashuvi bosqichida yuqori darajali koordinatsiyaga erishish, texnikaning ayrim detallariga sayqal berish.

4. Mashg'ulot va musobaqa yuklamalarini to'g'ri rejalashtirish. Mashg'ulot va musobaqa yuklamalari hajmi hamda izchil oshirib borish orqali ko'p yillik mashg'ulotlar jarayonida yosh sportchilarning funksional imkoniyatlari darajasini yuqori oshirish hamda harakat ko'nikmasi va malakalarini muvaffaqiyatli takomillashtirish ta'minlanadi. Navbatdagi yillik siklning tegishli davriga nisbatan yuqori darajadagi mashg'ulot yuklamalari bilan boshlanishi va yakunlanishi kerak.

Yillik sikllarda, sportchining holatiga va muayyan tayyorgarlik vazifalaridan kelib chiqib, yuklamalarning vaqtincha kamayishi va

ko‘payishi o‘rin olishi lozim. Ko‘p yillik tayyorgarlik asosida taxminan bir xil yillik sikllarning takrorlanishi yotadi, bunda mashg‘ulot va musobaqa yuklamalari hajmi hamda shiddati muntazam o‘sib boradi. Mashg‘ulot yuklamalari ko‘proq hajmning oshishi, kamroq ularning shiddati hisobiga o‘zgarishi kerak.

5. Yosh sportchilarning ko‘p yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlari jarayonida mashg‘ulot va musobaqa yuklamalarining asta-sekin o‘sib borishi tamoyiliga qat’iy rioya qilinishi. Agar ko‘p yillik tayyorgarlikning barcha bosqichlarida yuklamalar sportchi organizmining yoshiga va individual funksional imkoniyatlariga to‘liq mos kelsagina, sportchi tayyorgarligi yaxshilanishi mumkin. Mashg‘ulot yuklamalarini oshirib borish jarayonida asta-sekinlikka amal qilish sportchining funksional imkoniyatlari darajasini oshirishga va organizmining har xil vaqt davom etadigan jismoniy mashqlarni bajarishga moslashishini takomillashtirishga yordam beradi.

6. Ko‘p yillik mashg‘ulotlarning barcha bosqichlarida sportchilar jismoniy sifatlarini bir vaqtida rivojlanтирish hamda eng maqbul yosh davrlarida alohida jismoniy sifatlarni ustuvor rivojlanтирish. Bolalik va balog‘at yoshida oqilona tashkil etilgan pedagogik jarayon yordamida jismoniy sifatlarni rivojlanтирish uchun qulay imkoniyatlar mavjud bo‘ladi.

Maqsadli pedagogik ta’sir ko‘rsatish yo‘li orqali insonning harakat funksiyasi rivojlanishiga ijobiy ta’sir qilish mumkin. Biroq bunday ta’sirlar inson harakat funksiyasining u yoki bu tomonlarining yoshga xos rivojlanish qonuniyatlariga jiddiy o‘zgarishlar kiritmasligi lozim.

1980-yilda nashr etilgan, yosh sportchilarning ko‘p yillik tayyorgarligidagi asosiy yo‘nalishlar yoritib berilgan «Metodik qoidalar» o‘smirlar sporti nazariyasining rivojlanishiga asos soldi.

Biologik rivojlanishning kritik davrlarida alohida sifatlarni ustuvor rivojlanтирishga bag‘ishlangan yirik ishlар nashr etilmaganligiga, tayyorgarlik yillari bo‘yicha UJT va MJT vositalarining optimal nisbatlari to‘g‘risidagi ma'lumotlar umumlashtirilmaganligiga qaramay, metodik qoidalar mualliflari ularni ro‘yxatga kiritdilar va vaqt ko‘rsatishicha, xato qilmadilar. Lekin jismoniy sifatlarning rivojlanganligini e’tiborga olmagan holda texnikani takomillashtirish nazariysi, deyarli bir xil bo‘lgan yillik tuzilmaning yildan-yilga

qaytarilishi to‘g‘risidagi qoidalar (mualliflar ta‘biricha, «yillik sikllar») o‘zini oqlamadi.

Deyarli 2 yildan so‘ng M.Ya. Nabatnikova ishlarida avvalgi qoidalarga qaraganda yanada umumiyroq tushunchalarni belgilab beruvchi yangilangan to‘rtta metodik qoidalar paydo bo‘ldi.

*Birinchi metodik qoida* – yosh sportchilar tayyorgarligining oliy sport mahoratiga nisbatan maqsadga yo‘naltirilganligi. Unga ko‘ra, yosh sportchi rivojlanishining nafaqat yoshga xos qonuniyatlarini, balki sport takomillashuvi bosqichlari uchun xos bo‘lgan mezonlar asosida ko‘p yillik tayyorgarlikning turli bosqichlarida uning tayyorgarligi mos kelishi lozim bo‘lgan talablarni e‘tiborga olish zarur. Oliy sport mahorati talablarini e‘tiborga olish yosh sportchilar ko‘p yillik tayyorgarligi tizimida e‘tibor qaratish zarur bo‘lgan muhim omillarni aniqlashga imkon beradi. Maqsadli yo‘naltirishga tayanish o‘quv-mashg‘ulot jarayoni mazmuniga zarur kuzatishlarni o‘z vaqtida kiritishga imkon yaratadi.

Ko‘p yillik tayyorgarlikning hamma bosqichlarida tayyorgarlik vositalari, metodlari, tashkiliy shakllaridan foydalanish jarayonida izchillikni ta‘minlash lozim.

M.Ya. Nabatnikova fikricha, mashg‘ulot yuklamalarining ko‘p yillik dinamikasi ko‘p jihatdan boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida ularning dastlabki darajasiga bog‘liq, biroq umumiylama yulklama hajmining dastlabki ko‘rsatkichlari ko‘pincha baland bo‘lmaydi. Shu sababli kelgusida, chuqurlashtirilgan mashg‘ulotlar bosqichida tanlangan sport turida sur‘atlarining ancha o‘sishi sodir bo‘ladi va asta-sekinlik sakrovchan o‘sishga o‘tadi, bunday holat ko‘pincha bu narsa uchun noqulay o‘tish yoshida sodir bo‘ladi.

Agar oliy sport mahoratiga nisbatan maqsadli yo‘naltirilganlik to‘g‘risidagi metodik qoidaga amal qilinsa, bunday vaziyatdan qochib qutulish mumkin.

*Ikkinci metodik qoida* – yosh sportchilarning yoshga xos xususiyatlarga qarab imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish samarasi. Bu qoida mashg‘ulot jarayonini bevosita individuallashtirish bilan bog‘liq. Birinchi navbatda, muallif yosh sportchi o‘z imkoniyatlarini qay darajada amalgalash oshirayotganligiga diqqatni qaratishni taklif qiladi.

Mazkur qoida jismoniy sifatlar nisbatlarining mutanosibligi tamoyilini takrorlaydi. Ushbu holda qoidaning muhimligi katta

hajmdagi material asosida isbotlab beriladi. Muallifning fikricha, yosh va katta yoshdagagi sportchilarda tezlik imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmaslik mashg'ulot samaradorligi yetarlicha emasligi bilan bog'liq.

Buning sababi – ko'pgina murabbiylar asosiy jismoniy sifatlarining rivojlanish darajasini uzlusiz oshirib borishga asosiy e'tiborni qaratib, boshqa muhim jihat – uni amalgalashish samaradorligiga kam e'tibor qiladilar. Mashg'ulot jarayoni yosh sportchilar uchun aniq bir mahorat darajasiga xos bo'lgan nisbiy ko'rsatkichlar kattaliklari chegaralariga yetib borishni ta'minlashi lozim.

*Uchinchi metodik qoida* – asosiy jismoniy sifatlar rivojlanishining mutanosibligi. Bu qoida yosh sportchilarda ko'p yillik tayyorgarlikning barcha bosqichida jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasini optimal nisbatlarini ta'minlash zarurligini anglatadi. Muallifning fikricha, bu qoida muhim ahamiyatga ega, chunki turli xil jismoniy qobiliyatlarning rivojlanish darajasini shug'ullanuvchilarining sport takomillashuvi uchun foydali bo'lgan darajada qiyoslashga imkon beradi.

Siklik sport turlarida yosh sportchilarning har tomonlama masofaviy tayyorgarligiga alohida e'tibor berilishi lozim, chunki u yoki bu sifatlarning rivojlanishidagi katta mutanosiblik sport natijalarining yanada yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Mutanosiblikka qaratilgan ko'rsatkichning amalgalashish har xil yo'nalishdagi mashg'ulot yuklamalarining oqilona nisbatlarini nazarda tutadi.

Bunday yuklamalar funksional imkoniyatlarini to'liqroq namoyon bo'lishiga, har xil xususiyatga ega mashqlarni bajarish vaqtida energiya bilan bir xil ta'minlanishiga yordam berishi lozim.

*To'rtinchi metodik qoida* – sport-texnik mahoratni shakllanirishda istiqbolli ilgarilash. Boshlang'ich ixtisoslashuv va chuqurlash-tirilgan mashg'ulotlar bosqichlarida yosh sportchilar kelgusida muvaf-faqiyatli musobaqa faoliyati uchun zarur bo'lgan rejimda ko'nikmalar hamda harakat malakalarini asta- sekin o'zlashtirib borishlari lozim. Istiqbolli ilgarilash uchun berilgan ko'rsatmaning amalgalashish yosh sportchilarning sport-texnik tayyorgarliklarini takomillash-tirishga qaratilgan turli xil vositalarning oqilona uyg'unlashtirilishida hamda almashib qo'llanilishida aks etadi.

So'nggi, to'rtinchi metodik qoida bilan kitobxonlarni tanishtirayotib, muallif shunday xulosa qiladi: «Shunday qilib, o'smirlar

*sportida sport mashg'ulotining umumiy tamoyillari bilan bir qatorda bayon qilingan metodik qoidalarga amal qilish lozim».*

Yosh sportchilarining ko‘p yillik tayyorgarliklaridagi asosiy yo‘nalishlarni belgilab beruvchi metodik qoidalalar o‘smirlar sporti nazariyasining rivojlanishiga asos soldi. Biologik rivojlanishning kritik davrlarida alohida sifatlarni ustuvor rivojlantirish ahamiyatini isbotlab beruvchi yirik ishlar hali nashr etilmagan va UJT hamda MJT ning optimal nisbatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar umumlashtirilmagan bo‘lsa-da, mualliflar ularni metodik qoidalarga kiritganlar.

Amaliyotchilar mazkur qoidalarni qabul qildilar. Biroq deyarli bir xil yillik sikllarning yildan-yilga takrorlanish nazariyasi (ular hozirda yil tuzilmalari deb ataladi) o‘zini oqlamadi.

Ba‘zi metodik qoidalalar sport mashg‘uloti tamoyillarini takrorlasa-da (mashg‘ulot va musobaqa yuklamalarining asta-sekin o‘sib borishiga amal qilish, oliy sport mahoratiga nisbatan maqsadli yo‘naltirilganlik, UJT va MJT vositalari hajmining asta-sekin o‘sib borishi, mashg‘ulot vazifalari, vositalari va metodlari uzviyligi), ular BO‘SM hamda IBO‘OO‘SM ish faoliyati Nizomi, yosh sportchilar bilan ish olib borishni yaxshilashga mo‘ljallangan dasturlar hamda yo‘riqnomalarni yaratish bilan shug‘ullanayotgan murabbiylar va mutaxassislar tomonidan ijobiy baholandi.

Keyingi 90-yillarda, o‘smirlar sportining xususiy muammolarini o‘rganishda faollikning susayishiga qaramay, yetilishning anatomik-fiziologik va psixologik xususiyatlari, har xil sport turlarida bolalar hamda o‘smirlarda jismoniy sifatlar rivojlanishining kritik davrlari, har xil yoshda yuklamalarni me’yorlash, ayrim sport turlarida erta ixtisoslashuvning salbiy tajribasi, yosh suzuvchilarining ko‘p yillik tayyorgarligi muammolarini umumlashtirish va tahliliy qayta anglash kabi yo‘nalishlar bo‘yicha nazariy umumlashtirishlar davom etdi.

Bu bir guruh mualliflar – A.A.Kashkin, O.I.Popov va V.V.Smirnovlarga sport suzishda ko‘p yillik tayyorgarlikning metodik qoidalarini boshqacha ifodalashga imkon berdi. Ular 2004-yil nashr etilgan «Suzish» dasturida bayon qilingan:

– oliy sport mahoratiga nisbatan maqsadga yo‘naltirish uchun barcha yosh guruhlarning tayyorgarlik jarayonlari metodik qoidalari asosida tashkil etilishi lozim;

– barcha yosh guruhlardagi mashg‘ulot vazifalari, vositalari va metodlarining uzviyligi;

- asta-sekinlik tamoyiliga qat’iy amal qilgan holda mashg’ulot va musobaqa yuklamalari hajmi hamda shiddatining qadam-baqadam oshirib borilishi;
- sport ixtisoslashuvining o‘z vaqtida boshlanishi;
- umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalari hajmi o‘rtasidagi nisbatlarning asta-sekin o‘zgarib borishi: UJT ulushiga nisbatan MJT hajmi ulushining oshib borishi;
- ko‘p yillik tayyorgarlikning barcha bosqichlarida sportchilar jismoniy sifatlarining bir vaqtida rivojlantirilishi hamda mazkur yosh uchun qulay bo‘lgan paytlarda alohida sifatlarning ustuvor rivojlantirilishi;
- yoshga xos va jinsiy rivojlanish qonuniyatlarining e’tiborga olinishi;
- zo‘riqishli yuklamalardan so‘ng tiklanish jarayonlarini tezlashtiruvchi va ish qobiliyatining o‘sishini rag‘batlantiruvchi qo’shimcha vositalarni asta-sekin kiritib borilishi.

Yosh suzuvchilar ko‘p yillik tayyorgarligining turli bosqichlarida rejalashtirish jarayonini optimallashtirish maqsadida muallif bolalar, o‘smir yigit-qizlar bilan ko‘p yillik ish olib borishning to‘rtta tamoyiliga tayanishni tavsiya etadi.

*Harakat faolligini rivojlantirishga yo‘naltirilganlik tamoyili.*

Harakat faolligiga bajariladigan harakatlarning umumiy soni yoki miqdori sifatida qarash lozim. U bolalar va o‘smirlar sog‘lig‘iga ijobji ta’sir ko‘rsatadi, motorika, ko‘pgina vegetativ funksiyalarning rivojlanishini rag‘batlantiradi, bolalar va o‘smirlarning har tomonlhma rivojlanishlari hamda ish qobiliyatlarini aniqlab beradi, markaziy asab tizimi va endokrin apparati faoliyatini faollashtiradi.

Harakat faolligi darajasi ko‘proq 7 dan 12 yoshgacha o‘sib boradi.

Bu yoshda ko‘pgina harakat ko‘nikmalari va malakalari hosil bo‘la boshlaydi, shuningdek, bu davrda harakat sifatlari ko‘rsatkichlari o‘sishining jadal sur’atlari qayd qilingan. Yana shu narsa ma’lumki, katta yosh davridagi ish qibiliyati ko‘p jihatdan bolalik va o‘smirlilik yoshdagи harakat faolligi bilan aniqlanadi.

Aksariyat mutaxassislarining fikricha, harakat faolligi genetik omillarga va birinchi navbatda asab tizimi tipiga bog‘liq. Asab tizimi harakatchan va kuchli bo‘lgan bolalar bo‘sh yoki kuchli, biroq kam harakatli tipdagи bolalarga nisbatan faolroq harakatlanadilar.

Hozirgi kungacha bolalar gigiyenasi va o'smirlar gigiyenasi mutaxassislari orasida ushbu holatning rivojlanishi to'g'risida yagona fikr mavjud emas. Tadqiqotchilar sport bilan shug'ullanmaydigan va BO'SM da yengil atletika bilan muntazam shug'ullanadigan o'smirlar orasida harakat faolligi darajasini tadqiq qilganlar. Tekshiruvchilar bir oy davomida ertalab va uyqudan oldin bellariga harakatlanishlarni qayd qiluvchi qadam o'Ichagich taqib yurdilar.

Tadqiqot yakunida shu narsa aniqlandi, sport bilan shug'ulanuvchilarda sport mashg'ulotlariga jalb qilinmagan o'smirlarga qaraganda ko'p sonli harakatlar ishonchli tarzda aniqlanmadи. Mualliflarning xulosasiga ko'ra, harakat faolligini rivojlantirish imkonи yo'q, chunki bu genetik bog'liqlik omili. Biroq sportchilarning harakatlanishlari sport maktabida shug'ullanmaydiganlarga nisbatan asab-quvvat sarfi bo'yicha ancha ko'p bo'lishi kerak.

D.N. Davidenko jismoniy ish qobiliyatining harakat faolligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligi masalalariga o'z ishlarini bag'ishlagan. Sportchilarni (yengil atletika, sport o'yinlari, suzish bilan shug'ullanuvchilarni) ko'p sonli kuzatishlarni bajarib, D.N. Davidenko shunday xulosaga keladiki, sportchilarning harakat faolligi motivatsiya darajasi oshishi bilan ko'payishi mumkin.

Uning ma'lumotlariga ko'ra, sportchilarda eng katta jismoniy yuklamalarni bajarishga bo'lgan motivatsiya darajasining oshishi katta shiddatli jismoniy yuklamalar sharoithlarida ish vaqt chegarasining 2-3 marta, submaksimal shiddatli yuklamalarda 30-50% oshishiga olib keldi. Ayni paytda mashqlanmagan shaxslarda motivatsiya darajasining oshishi yoki ish vaqtini bir oz ko'paytirdi yoki birmuncha uni kamaytirdi.

D.N. Davidenko fikricha, bu ma'lumotlar asab imkoniyatlarini safarbar etish jarayonini boshqarishda emotsional omilning muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi. Inson faoliyati samaradorligining uning joriy holatiga bog'liqligi shunda namoyon bo'ladiki, hissiyotlar faoliyat natijasiga ijobjiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, yoki insomni ishini davom ettirishdan voz kechishga majbur qiluvchi himoya funksiyalarini bajarishi mumkin.

Muallif e'tirof etadiki, yuqori darajada kuch, tezlik, chidamlilik, koordinatsion qobiliyatlarning namoyon bo'lishi, birinchi navbatda, o'rgatish, ya'ni harakat faoliyatining turli tomonlarini takomillashiruvchi vaqtga xos bog'liqliklarning hosil bo'lishi bilan bog'liq. Bu

oxir-oqibat organizmning jismoniy-fiziologik va sport-texnik zaxiralari darajasining oshishida aks etadi. Markaziy asab tizimi funksiyalari tomonidan ta'minlanadigan psixik zaxiralarining rivojlanish darajasi va ularni safarbar etish qobiliyatni jismoniy ish qobiliyatining namoyon bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ish muallifi M.A. Kirlyan bilan hamkorlikda 1991-yilda tadqiqotlar olib borilib, elektron qadam o'chagichlar yordamida harakatlar sonini hisoblab chiqilib, faolligi o'r ganiladi. Tadqiqotlar 2 oy davomida olib borildi, BO'SM da shug'ullanuvchi 12-4 yoshdag'i 120 nafar bola (60 nafar o'g'il va 60 nafar qiz) kuzatildi. Yosh suzuvchilarining harakat faolligini qayd qilish muntazam ravishda 30-40 daqiqa davomida quruqlikda basketbol bilan shug'ullanish sharoitlarida qayd qilindi.

Har bir mashg'ulot boshida, uning o'rtasida va oxirida 10 sek. ichidagi tomir urishi o'chandi. Qadam o'chagichlar belda, tananing umumiy og'irlilik markazi o'mida o'rnatildi. Mualliflarning fikricha, bu narsa moslamaning xato ishlashini minimum darajaga kamaytiradi va bolalarga jismoniy mashqlarni bajarishga xalal bermaydi.

Tajriba guruhi mashg'ulotlari mazmunida, ayniqsa tajriba boshida, basketbolchining texnik harakatlarini o'r ganishga mo'ljallangan mashqlar katta hajmda qo'llanildi. Nazorat guruhida ko'p vaqt ikki tomonlama o'yinga ajratildi. Pedagogik tajriba natijalarining ko'rsatishicha, o'rgatish xususiyatiga ega vositalar qo'llanilmagan nazorat guruhida yetinchi mashg'ulotga kelib, faoliik pasayadi va natija nisbatan kamroq bo'ldi.

Tajriba guruhida harakat faolligi butun tadqiqot davri mobaynida to'xtovsiz o'sib bordi va tadqiqot oxiriga kelib nazorat guruhiga nisbatan ikki barobar ko'proq bo'ldi.

Nazorat guruhidagi o'quvchilar basketbolchining texnik va taktik harakatlarini o'zlashtira olmadilar. Yurak qisqarish tezligiga kelsak, yurak zarbalarining umumiy miqdori nazorat va tajriba guruhlarida ishonchli farqlarga ega bo'lindi. Bu tajriba guruhi bolalarining o'ta yuqori faolligi sharoitlarida yuklama teng darajada berilganligini ko'rsatish mumkin.

Suzish bo'yicha BO'SM da yengil atletika mashg'ulotlarini o'tkazishda ham xuddi shunday natijalar olindi. Maxsus yengil atletika mashqlari yordamida yugurish va sakrashlar texnikasi o'r ganilgan guruhda harakat faolligi mashg'ulotdan mashg'ulotga

to'xtovsiz o'sib borgan va harakatlarning umumiy yig'indisiga ko'ra o'quv mashqlarini bajarmagan bolalardagiga qaraganda 2 barobar ko'proq bo'ldi.

Mualliflarning taxminicha, yangi harakatlarga o'rgatish shug'ullanuvchilar harakat faolligining to'xtovsiz o'sishiga sabab bo'lgan, mashg'ulot jarayonida sport harakatlarini o'rganishning yo'qligi harakat faolligining pasayishini keltirib chiqaradi.

Yosh suzuvchilar bilan ilg'or amaliy ish tajribasi shuni ko'rsatadiki, harakat faolligi ko'proq har tomonlama jismoniy tayyorgarlikda namoyon bo'ladi. Ko'pkurash sport turlari bunga isbot bo'la oladi. Suzish, yengil atletika va qilichbozlik turlaridan zamonaviy beshkurash yoki uchkurash sport turiga o'tib ketgan sportchilarning jismoniy yuklamalarga moslashishining oshishini ko'rsatuvchi kuzatuvlar mavjud.

Sport suzishida ixtisoslikni vaqtinchalik o'zgartirishdan so'ng ba'zi mashhur suzuvchilarda (M.Biondi, M.Gross) faollik ancha oshgan. Ularda ixtisoslikni vaqtinchalik o'zgartirgandan so'ng sport natijalarining o'sishi davom etgan.

Yuqoridagi fikrlarga yakun yasab shunday xulosa qilish mumkin:

1. Siklik sport turi hisoblangan suzishda jismoniy tayyorgarlik vositalari to'plamining qayishqoqligi sababli harakat faolligini rivojlantirishga umumiy jismoniy tayyorgarlik asosiy ahamiyatga ega.

2. Sport faoliyati sohasi ko'nikmalarni o'zlashtirishga, keyin esa ularning yordamida harakat hajmini oshirishga asoslanganligi tufayli, harakat faolligini rivojlantirishning yangi harakat malakalarini o'zlashtirmay turib amalga oshirilishi mumkin emas.

3. O'quv-mashg'ulotlarga, o'quv mashqlari kiritilgan holda yuqori darajadagi jismoniy yuklamani olish maqsadida mashg'ulotlarning yuqori darajada zichligiga erishish lozim.

4. Harakat faolligini oshirishda muvaffaqiyatga erishish uchun mashg'ulotlarda shug'ullanuvchilarda yuqori darajadagi ijobiy motivatsiyani hosil qilish zarur va uni hosil qilish usullaridan biri – mashg'ulotlarga texnik, jismoniy tayyorgarlik hamda sport mehnatlarini kiritish mumkin.

### **3.Yosh suzuvchilarning mashg'ulotlarini rejalashtirish**

Yuqorida aytib o'tilgandek, jismoniy sifatlarini rivojlanishining biologik dasturi asosida irsiy genetik apparatiga asoslanadi.

Individumning rivojlanish bosqichlari, davrlari, fazalarining genetikaga bog'liqligi shunda ko'rinadiki, rivojlanishning turli xil bosqichlari har gen tuzilmalari (dasturlari) bilan nazorat qilinadi. Bu tuzilmalar avvalgi rivojlanishi bosqichlarining o'zaro ta'siri natijalari va ushbu rivojlanishning eng oxirgi bosqichida harakatga keltiruvchi omillarga bog'liq holda rivojlanishini boshqaradi.

Ontogenez (individum rivojlanishi) jarayonida son va sifat jihatdan izchil o'rganishlarni belgilash uchun hozirgi kunda yetarlicha mos bo'limgan atamalardan foydalanilmoqda: «faza», «bosqich», «stadiya», «asosiy yosh», «kritik davr» va boshqalar. P.G.Svetlov butun ontogenezni bir nechta tabiiy rivojlanish fazalariga bo'lishini taklif etadi. Xususan u shunda bo'linadiki, har bir yangi rivojlanish fazasi, rivojlanish biologik tayyor hujjatlarning genetik apparati darajasida qator voqealar zanjirning bir vaqtida kiritilishi bilan ifodalanishi kerak. Bunday nisbatni uzoq davom etadigan ontogenez bosqichlarning davrlari «kritik» yoki «sezuvchan» bosqichlari deb nomlangan. Hozirgi paytda «inqiroz» rivojlanish davri deganda, zamонавиј psixofiziologiyada genetik jihatdan va tashqi muhit vaqt bilan o'zaro bog'liq hujayra metabolizmi boshqaruvchi jarayonlar integratsiyasi davrlari tushuniladi. Buning natijasida morfologik va fiziologik o'zgarishlar ro'y beradi.

Kritik rivojlanish davrining boshqacha ta'riflari ham mavjud. Ba'zi mualliflar shartli ravishda bo'linadigan yoki davrlardan bittasidan ikkinchisiga o'tish paytlari bilan bog'laydilar. Boshqa mualliflar kritik davrlarni ontogenezda organizm potensiyalarining eng yuqori amalga oshirilishi fazasi sifatida va maxsus ta'sir organizmdagi yuqori javob reaksiyani keltirib chiqaruvchi davr sifatida qarab chiqadilar. Bu mualliflar «sensetiv davrlar», deb aytadilar. Ularning fikricha, bunday davrlar organizm rivojlanishining borishi uchun o'ta muhim hisoblanadi.

A.A.Gujalovskiy Jismoniy tarbiyaning ikkita farazini qarab chiqadi:

1.Kritik davrlar individum rivojlanishinin obyektiv biologik qonuniyatları hisobiga boshlanishi sababli bu davrlarda jismoniy

tarbiya samarasi xuddi avtomatik tarzda o'zgaradi va shu sababli shakllangan jismoniy tarbiya amaliyotiga qandaydir jiddiy o'zgarishlar kiritishni taqozo etmaydi.

Obyektiv jarayon bo'lismiga qaramay, bolalar va o'smirlarda sport formasining rivojlanishi o'spirinlar va kattalarga nisbatan ancha yaqqol namoyon bo'lmaydi. Shuning uchun BO'SM va IBO'OO'SM laringning amaliyotida yillik tuzilma musobaqlar taqvimiiga qarab moslashtiriladi. Biroq boshqa tomondan, yillik tuzilma yilning asosiy vazifalarini hal eta oladigan darajada tuzilishi kerak.

Boshlang'ich tayyorgarlik guruhlari uchun yillik tuzilma shunday tuziladiki, bunga jismoniy yuklamalar mashg'ulotdan mashg'ulotga, ya'ni texnik harakatlar egallab borilishiga qarab oshib boradi, shuningdek, topshiriqlar hajmi ko'payadi.

O'quv-mashg'ulot bosqichi boshida 11 yoshgacha bo'lgan qizlarda va 12 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalarda yillik mashg'ulotni ko'p sikllik varianti rejalashtiriladi. Yil davomida odatda to'rtta tayyorgarlik sikli rejalashtiriladi.

Har bir siklda tayyorgarlik davri 2 oy 2 hafta davom etadi; bitta hafta – musobaqa davri; bitta hafta – o'tish davri. Sikldan siklga bajarilayotgan mashqlar shiddati oshib borishi lozim. Uchinchi va to'rtinchi sikllarda tayyorgarlik davrlarda umumiy va maxsus qismlar rejalashtiriladi.

Bolalar pubertatoldi rivojlanish davriga bitta yillik sikl mashg'ulotini rejalashtirish maqsadga muvofiq. Bir sikllik rejalashtirishni 12-13 yoshdagi qizlar va 13-14 yoshdagi o'smirlar bilan ishlashda qo'llash maqsadga muvofiq. Bir sikllik rejalashtirishda tayyorgarlik davri 7oygacha davom etishi hamda umumiy tayyorgarlik (davomiyligi 4 oy va 2 hafta) va maxsus tayyorgarlik (davomiyligi 2 oy va 2 hafta) davrlarga bo'linishi mumkin, keyin musobaqa davri rejalashtiriladi (davomiyligi 3 oy va 2 haftagacha). Uchinchi davr o'tish davri (davomiyligi 1 oy va 2 hafta).

Bunday uzoq vaqt davom etadigan musobaqa davrida uning vazifalari funksional imkoniyatlar hamda maxsus chidamlilik darajasini belgilab beruvchi mexanizmlarni oshirish bilan chegaralanish mumkin emas. Unda katta hajmdagi shiddatli bo'Imagan yuklama bo'lishi kerak.

Sport takomilashuvi bosqichida turgan suzuvchilar uchun ikki siklli rejalashtirish qo'llaniladi. Birinchi siklda tayyorgarlik davri

(davomiyligi 6 oy) umumiy tayyorgarlik (davomiyligi 4 oy va 2 hafta) va maxsus (1 oy va 2 hafta) tayyorgarlik davriga bo'linadi. Keyin musobaqa (1 oy) va o'tish (2 hafta) davrlari rejalashtiriladi. Ikkinci tayyorgarlik siklida tayyorgarlik davri (2 oy va haftalar) umumiy (1 oy) va maxsus (1 oy 2 hafta) tayyorgarlik davrlariga bo'linadi. Ikkinci siklining musobaqa va o'tish davrlari bir oy davom etiladi.

Sport takomillashuvi bosqichining oxirgi yillarda bo'lgan kuchli suzuvchilar uchun qo'shaloq tayyorgarlik sikli qo'llaniladi. Birinchi siklda tayyorgarlik davri 5 oy davom etadi, bu yerda umumiy tayyorgarlik bosqichi 3 oy 2 hafta, maxsus tayyorgarlik bosqichi 1 oy va 2 hafta. Musobaqa davri 1 oy. Shundan so'ng yana tayyorgarlik davri 3 oy rejalashtiriladi, bu yerda umumiy tayyorgarlik davri 2 oy va 1 hafta, maxsus tayyorgarlik davri 3 hafta. Ikkinci siklda musobaqa davri 2 oy, o'tish davri 1 oy davom etadi.

Biz keltirgan misolda 13 yoshdagি qizlar uchun ikki siklli rejalashtirishni tanlab olamiz. Yillik tuzilmadagi bosqichlar davomiyligi sifatli tayyorgarlik uchun mos kelmaydi. Ushbu variantda ikki siklli tuzilgan musobaqalar taqvimiga moslashtirish zarur bo'ladi. Birinchi siklini umumiy tayyorgarlik davrini shunday kamaytirish kerakki, u dekabr oyi o'rtaida yakunlanishi lozim, ya'ni bu tayyorgarlik bosqichini 3 oy va 2 hafta ichida o'tkazish, maxsus tayyorgarlik bosqichini esa (1 oy) ikkinchi musobaqalar boshlanishiga qadar yakunlash zarur.

Yillik tuzilma aniqlangandan so'ng yildagi tayyorgarlikni asosiy vazifalarini belgilab olish zarur. Vazifalarda ushbu yoshdagи suzuvchilarning jismoniy sifatlar rivojlanishining kritik davrlarini, oldingi tayyorgarlik yilda hal etilmagan masalalarni e'tiborga olish, suzuvchilar bilan ishlashda ortirilgan ilg'or tajribadan va sportchilarni tayyorlashning nazariy asoslaridan foydalanish lozim.

O'quv-tayyorgarlik bosqichi sport takomillashuv bosqichiga to'g'ri kelishi sababli rejalashtirishda ham yoshga qarab, ham jinsiy belgilarga qarab tabaqa lashtirish zarur.

#### *10 yoshdagи qizlar va o'g'il bolalarni tayyorlash vazifalari*

1. Chalqancha krol, ko'krakda krol, brass va delfin (batterfley) usullarida suzish, start va burulishlar texnikasini takomillashtirish.

2. Jismoniy sifatlar bilan bevosita bog'liq bo'Imagan suzish harakatlari malakasini to'g'ri shakllantirish (gavda harakatlar, bosh harakatlari, tayyorgarlik harakatlari va h.k.).

3. Start signalida harakatlarni tez bajarishni yengillashtirilgan sharoitlarda ko'krakda va chalqancha krol usulida suzishda yuqori surati oyoqlarni harakatlantirishni rivojlantirish.

4. Nomaxsus vositalardan ko'proq foydalanib, nisbatan kichik (maksimalga nisbatan 20-40 %) qarshilikni yengib o'tish sharoitlarda harakatlanish kuchlanishlarini rivojlantirish yo'li orqali kuch imkoniyatlarni rivojlantirish.

5. Ko'proq harakatli o'yinlar va sport o'yinlaridan olingan o'rgatuvchi vositalardan foydalaniqgan holda umumiy chidamlikni rivojlantirish.

6. Bo'g'imlardagi harakatchanlikni umurtqa rotatsiyasi va koordinatsion qobiliyatlar rivojlantirish.

*11 yoshdagи qizlar va 11 hamda 12 yoshdagи o'g'il bolalarni tayyorlash vazifalari.*

1. Barcha usulda suzish texnikasini, startlar va burulishlar texnikasini individual imkoniyatlarni e'tiborga olgan holda takomillashtirish.

2. Ko'proq maxsus vositalar nisbatan kichik (maksimaldan 20-40%) kuchlanishini yengil o'tish sharoitlarda tez harakat kuchlanishlarini bajarish orqali tezlik kuch imkoniyatlarini rivojlantirish.

3. Nomaxsus vositalardan ko'proq foydalanib (sport o'yinlari, chang'ida sayr qilish, eshkak eshish va h.k.), umumiy chidamlilikni tarbiyalash.

4. Bo'g'imlardagi harakatchanlikni, umurtqa pog'onani quruqlikda va suvda bajariladigan mashqlar yordamida rivojlantirish.

5. Sprint suzishga bo'lган moyillikni aniqlash.

*12 yoshdagи qizlar va 13 yoshdagи o'g'il bolalarni tayyorlash vazifalari.*

1. Suzish mashqlarini birinchi va ikkinchi shiddat zonalarida bajarish orqali umumiy chidamlikni tarbiyalash, ya'ni katta hajmdagi suzishlardan foydalanib, umumiy ish qobiliyati darajasini oshirish.

2. Sport o'yinlari, chang'ida tayyorgarlik, eshkak eshish va suzish harakatlari bilan bog'liq bo'Imagan vositalar yordamida umumiy chidamlikni tarbiyalash.

**3.** Asosiy suzish usullarida harakat chaqqonligi, tejamkorligi va variantlarni tarbiyalash. Yuqori malakali suzuvchilarga xos bo‘lgan, lekin maxsus kuchni namoyon qilish bilan bog‘liq bo‘limgan harakatlarni shakllantirish.

*13 yoshdagi qizlar va 14 yoshdagi o‘g‘il bolalarni tayyorlash vazifalari.*

1. Ikkinci shiddat zonasida suzish orqali umumiyligi chidamlilikni va uchinchi, to‘rtinchi shiddat zonalarda suzish, shuningdek, boshqa sport turlarida (sport o‘yinlari, chang‘i va turistik sayohatlar, yengil atletikadagi farqlik va h.k.) olingan vositalar yordamida maxsus chidamlilikni tarbiyalash.

2. Quruqlikda va suvda bajariladigan maxsus mashqlar, shuningdek, boshqa sport turlaridan olingan mashqlar yordamida maksimal, sakrovchanlik va maxsus kuchning rivojlanishi.

3. Tanlangan va qo‘sishmcha suzish usullari, startlar va burulishlar texnikasini takomillashtirish. Katta suzuvchilarga xos bo‘lgan harakatlar (trayektoralar, bo‘g‘imlardan bukilish burchaklari, tezlanishlar va h.k.) texnikasining ayrim elementlariga ishlov berish.

4. Bo‘g‘imlardagi harakatchanlik va umurtqa pog‘onasini rivojlantirish.

5. Jangovarlik sifatlari, turli xil masofalarni taktik jihatdan to‘g‘ri suzib o‘tish ko‘nikmasini tarbiyalash.

6. 25-50 metr masofalarda tezlik sifatlarini rivojlanirish.

*14 yoshdagi qizlarni tayyorlash vazifalari.*

1. Musobaqa davridagi mashg‘ulotlarga organizimning funksiylarining yuqori safarbar qilinishini keltirib chiqaruvchi zarbdor yuklama va qattiq rejimli mikrosikllarni kiritish orqali o‘rtta va uzoq masofalarda umumiyligi hamda tezlik chidamliligini rivojlanirish.

2. Maksimalga nisbatan 40-50% ga teng yengib o‘tuvchi kuchlanishlar yordamida maxsus kuch chidamligini rivojlanirish, ortib boruvchi qarshilik, qisqa muddatli maksimal zo‘riqishlar, izometrik zo‘riqish metodi yordamida maksimal kuchni rivojlanirish, harakatga qarshilik ko‘rsatish kuchni kamaytirgan holda quruqlikda va suvda bajariladigan mashqlar bilan tezkor kuchni rivojlanirish.

3. Sport suzishning barcha turlarida startlar va burulishlarda yuqori malakali suzuvchilarga xos bo‘lgan harakatlarni shakllantirish.

4. 25-50 metr masofada tezlik sifatlarini rivojlanirish.

5. Tor ixtisoslikni tanlash.

6. Jangovarlik sifatlarini va asosiy masofada taktik jihatdan kurash olib borish ko'nikmasini tarbiyalash,

*15 yoshdag'i o'g'il bolalarni tarbiyalash vazifalari.*

1. Suzish mashqlarini ikkinchi shiddat zonasida bajarish orqali umumiy chidamlilikni hamda suzish mashqlarini bajarish orqali 3 va 4 shiddat zonalarida, shuningdek, boshqa sport turlaridagi vositalar yordamida maxsus chidamlilikni tarbiyalash.

2. Quruqlikda va suvda bajariladigan maxsus mashqlar, shuningdek, boshqa sport turlaridagi olingan mashqlar yordamida kuch chidamligi, maksimal kuch, sakrovchanlik va tezkor kuchni rivojlantirish.

3. Sport suzish usullarida, startlar va burulishlarda yuqori malakali suzuvchilarga xos bo'lgan harakatlanishlarni shakllantirish.

4. 25 va 50 metr masofalarda tezlik sifatini rivojlantirish.

5. Katta yuklamali ayrim mashg'ulot topshiriqlarini qo'llash orqali moslashish imkoniyatlarini rivojlantirish.

6. Jangovarlik sifatlarini va turli xil masofalarda taktik kurash olib borish ko'nikmasini tarbiyalash.

*15 yoshdag'i qizlarni tayyorlash vazifalari.*

1. Namoyon qilinayotgan qobiliyatlarga mos ravishda kengaytirilgan tor ixtisoslashish.

2. Quruqlikda va suvda bajariladigan maxsus hamda umumiy xususiyatiga ega mashqlar yordamida harakat tezkorligini rivojlantirish.

3. Quruqlikda va suvda bajariladigan maxsus mashqlar yordamida tezlik kuch sifatlarini rivojlantirish.

4. Ikkinci shiddat zonasida suzish orqali umumiy chidamlilikni rivojlantirish.

5. Asosiy va qo'shimcha masofalarda tezlik chidamligini rivojlantirish.

6. Yuqori shiddatli yuklamalarga moslashish.

*14 yoshdag'i o'smirlarni tayyorlash vazifasi.*

1. Muntazam o'sib boruvchi qarshilik, qisqa muddatli maksimal zo'riqishlar, izometrik zo'riqishlar metodi yordamida maksimal kuchlanishga nisbatan 60-80% og'irlilik bilan ishlashda maxsus kuch chidamliligini rivojlantirish, quruqlikda va suvda harakatlarga ham kuch bilan qarshilik ko'rsatish sharoitlarida bajariladigan mashqlar bilan tezkor kuchni rivojlantirish.

2. Organizm funksiyalarini chuqur safarbar qilinishini yuzga keltiruvchi qattiq mashg'ulot rejimida o'tadigan mashg'ulotlar orqali moslashish imkoniyatlarini rivojlantirish.

3. Tor sport ixtisosligini tanlash.

4. Suzish mashqlarini 3 va 4 shiddat zonalarida bajarish yordamida tezlik chidamligi va anayrob imkoniyatlarni rivojlantirish.

5. Ikkinci shiddat zonasida katta hajmdagi suzish mashqlari orqali umumiy chidamlilikni rivojlantirish.

6. Jangovarlik sifatlari va turli xil sifatlarda taktik kurash olib borish ko'nikmasini tarbiyalash.

*16 yoshdagи qizlar va 17 yoshdagи yigitlarni tayyorlash vazifalari.*

1. Avvalgi yilga nisbatan mashg'ulot ishining umumiy hajmini oshirish.

2. Katta yuklamalni mashg'ulotlarni ko'paytirish.

3. Organizm funksiyalarning chuqur safarbar qilinishini yuzaga keltiruvchi qattiq mashg'ulot rejimida o'tadigan mashg'ulotlar orqali moslashish imkoniyatlarini rivojlantirish.

4. Musobaqa amaliyotini kengaytirish.

5. Zo'riqishli yuklamalardan so'ng tiklanish jarayonlarini jadallashtiruvchi qo'shimcha vositalardan foydalanish.

6. Mashg'ulotlarda keskin raqobat va musobaqa vazifalarini yaratish yo'li orqali mashg'ulot jarayonidagi psixik zo'riqishlarga nisbatan moslashishni rivojlantirish.

Tayyorgarlik yillari bo'yicha belgilangan vazifalar o'quv rejasini kam xatolar bilan ochib berishga, uni vositalar, ya'ni aniq topshiriqlar bilan to'ldirishiga yordam beradi.

#### **4. O'quv rejasini ochib berish**

O'quv rejasini bir yillik maxsus jismoniy va sport-texnik tayyorgarlik bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlar sonini aniqlab olishdan boshlash zarur.

Har bir mashg'ulot o'rtacha 3 akademik soatdan davom etishini e'tiborga olib ( har bir akademik soat 45 min astronomik vaqtiga teng), quyidagini aniqlab olamiz MJT 828 s: 3 = 276 mashg'ulot, bu hisob-kitoblardan so'ng suzishning umumiy hajmini va harakatchan zonalari bo'yicha suzuvchilar yil davomida bajarishlari kerak bo'lgan

suzish hajmini aniqlab olamiz. Buning uchun, birinchi navbatda, umumiy hajmini aniqlab olamiz. 13 yoshdagi qizlar uchun o'quv rejasiga muvofiq u 1300 dan 1600 km gacha bo'lishi mumkin. O'rtacha raqmni tanlab olamiz 1450 km.

Keyin 13 yoshdagi qizlar uchun shiddat zonalarida bo'yicha hajmlarni hisoblab chiqaramiz.

Masalan, birinchi shiddat zonasida suzuvchilar umumiy yillik hajmga nisbatan 19%, suzib o'tishlari kerak. Kalkulator yo'q bo'lganda proporsiya tuzib olamiz:

Yillik hajmning 100% - 1450 km

Yillik hajmning 19% - X km

1450km x 19%

$$X = \frac{1450}{100} \cdot 19 = 275,5 \text{ km}$$

Qolgan shiddat zonalarning hajmlari ham hisoblab chiqariladi:

1 chi zona - 19% = 275,5km

2 chi zona - 49% = 710,5km

3 chi zona - 25% = 362,5km

4 chi zona - 5% = 72,5km

5 chi zona - 2% = 29km

Keyingi amal – bu «ishchi haftalar», ya'ni to'laqonli suzish yuklamasi bajariladigan haftalar sonini aniqlashdir. Buning uchun o'tish davri haftalarni aniqlaymiz va ularni yo'ldagi umumiy haftalar sonidan ayirib tashlaymiz.

Buning misolimizda 52 haftadan o'quv yili o'rtasidagi o'tish davrining 2 haftasini va o'quv yili oxirida avgust oyidagi davrining 4 haftasini olib tashlaymiz. Shunday qilib 52 hafta 6 hafta (o'tish davri) = 46 ish haftasi. Shunga e'tibor qaratish lozimki, kengi hisob-kitoblarni yengillashtirish uchun har bir oyni 4 haftalik deb hisoblash maqsadga muvofiq. 28 kundan oshiq bo'lgan kunlar, odatda bayramlar, mashg'ulotlarni o'tkazib yuborish va boshqa sabablarga ko'ra tushib qoladi.

Shundan so'ng haftadagi mashg'ulotlar sonini (o'ratacha, o'tish davrlarsiz) aniqlaymiz; MJT – 276 mashg'ulot 46 hafta = 6,0 mashg'ulot.

Rejallashtirishning keyingi bosqichida har bir mashg'ulot uchun suzishning shiddat zonalarini bo'yicha o'ratacha hajmlarini hisoblab chiqaramiz. Har bir oyda ko'pi bilan 4 hafta bor, har hafta 6 marta

suzish mashg'ulotlari o'tkaziladi. Bir yilda (taxminan, o'tish davrlarni hisoblamaganda): 16 haftada 6 mashg'ulot = 276 mashg'ulot.

Har bir mashg'ulot uchun shiddat zonalari bo'yicha o'rtacha suzish hajmlarini hisoblab chiqaramiz:

1 chi zona – 19% = 275,5km: 276 = 1km

2 chi zona - 49% = 710,5km: 276 = 2,6km

3 chi zona – 25% = 362,5km: 276 = 1,3km

4 chi zona – 5% = 72,5km: 276 = 0,3km

5 chi zona – 2% = 29km: 276 = 0,1km

Rejalashtirishning keyingi bosqichi ancha mehnat talab qiladigan va mas'uliyatlari bo'lib, har bir mashg'ulot uchun o'rtacha kattaliklardan chetga chiqqan holda tayyorgarlik davrlari va bosqichlari bo'yicha suzish hajmlarini aniqlash talab qilinadi, keyin esa mikro sikllar yoki kichik sikllar bo'yicha aniqlanadi. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, 1 chi va 2 chi shiddat zonalarida suzish bazaviy chidamlikni, 3 chi va 4 chi zonalarda suzish maxsus chidamlikni, 5 chi zonada suzish tezlik sifatlarini rivojlantiradi. Lekin suzish hajmlarini tayyorgarlik davrlari va bosqichlari hamda kichik sikllari bo'yicha maksimallashga kirishishidan avval har bir davrning vazifalarini bilish zarur.

### ***Tayyorgarlik davri***

Tayyorgarlik davrida:

1 – musobaqalarda ishtiroy etish uchun suzuvchilar tayyorgarligining barcha asosiy vazifalari hal etiladi.

2 – mustahkam funksional bazaga asos solinadi, u kelgusida suzuvchilarning musobaqa faoliyatiga tayyorlash uchun yo'naltirilgan maxsus ishning katta hajmini bajarishga imkon beradi.

3 – harakatlar texnikasi takomillashtiriladi.

4 – turli xil jismoniy sifatlar rivojlantiriladi.

5 – psixologik, nazariy va taktik tayyorgarlik amalga oshiriladi.

Har xil yoshdag'i va tayyorgarligi turli xil bo'lgan suzuvchilarni tayyorlashda maxsus mashg'ulotlar uchun jismoniy, psixik va harakatlanish sharoitlarini yaratuvchi mashqlar materiali asosida tuziladi. Tayyorgarlik davrida qo'llaniladigan jismoniy mashqlar asab-mushak zo'riqishlari xususiyatiga hamda harakatlar tuzilishiga ko'ra musobaqa mashqlaridan farq qiladi, chunki bu davrning asosiy

vazifasi sport natijalari darajasini belgilab beruvchi maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish emas, balki ularning asosiy bo'lgan qobiliyatlarini rivoj toptirishdir. Shuning uchun tayyorgarlik davrida turli-tuman umumiy va maxsus tayyorgarlik mashqlaridan keng foydalaniladi.

Tayyorgarlik davri tugashi va musobaqa davriga yaqinlashish bilan mashg'ulot vositalari va metodlari asta-sekin o'zgarib boradi, bunda asab-mushak zo'riqishlari xususiyatiga va harakatlar tuzilishiga ko'ra asosiy sport malakasiga yaqinlashtirilgan, tor ixtisoslashishiga olib boradigan musobaqa hamda maxsus jismoniy mashqlar ko'payib boradi.

Shu sababli tayyorgarlik davrini ikkita bosqichga bo‘lish qabul qilingan umumiy va maxsus tayyorgarlik bosqichlari.

## **Tayyorgarlik davrining umumiy tayyorgarlik bosqichi**

Tayyorgarlikning umumiy davrida mashg'ulotlar, asosan, keyingi ishlar uchun poydevor yaratish uchun yo'naltirilgan va suzuvchi organizmning asosiy funksional tizimlari imkoniyatlarini kengaytirishga, sport natijalariga oshish uchun jismoniy, texnik va psixologik shart-sharoitlarini yaratishga qaratilgan. Tayyorgarlik davrining bu bosqichida suzuvchining keyingi tayyorgarlik bosqichida qo'llaniladigan maxsus xususiyatiga ega katta jismoniy yuklamalarga bardosh bera olish qobiliyatini oshirish eng muhim vazifa hisoblanadi. Musobaqa mashqlarning «ulushi» bajariladigan umumiy ish hajmidan katta emas, chunki bu bosqichda umumiy tayyorgarlik mashqlari ziyoniga musobaqa mashqlaridan ortiqcha foydalanish keyingi natijalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, bazaviy chidamlilikning fiziologik asosi aerob ish unumdarligi hisoblanadi. U tezlik – kuch va anaerob imkoniyatlar, maxsus chidamlilik va boshqa sifatlarni oshirish kabi mashg'ulot vazifalarini hal etish uchun shart-sharoitlar yaratish demakdir. Albatta, boshqa sifatlar va qobiliyatlarni rivojlantirish ustida ishslash aerob imkoniyatlarni rivojlantirish darajasi katta hajimlariga yetib borgan paytda amalga oshirilishi kerak degan xulosa chiqarmaslik lozim. Tayyorgarlikning boshqa tomonlarini rivojlantirish parallel holda amalga oshirilishi zarur, lekin tayyorgarlik davrining bu bosqichida boshqa yo'nalihsdagi vositalarning ulushi aerob ish unumdarligini rivojlantirishiga yo'naltirilgan mashqlar ulushiga nisbatan katta emas. Umumiyligi tayyorgarlik bosqichida vositalar hajm kattaliklari bo'yicha

quyidagicha taqsimlanadi: avval aerob ish unumdorligini oshiruvchi vositalar, keyin laktat (glikoletik) ish unumdorligini oshirishiga yordam beruvchi vositalar va oxirgi navbatda, aloktad imkoniyatlarini oshirishiga imkon beruvchi mashqlar kiritiladi.

Tezlik – kuch sifatlarini rivojlantirishida ham shunga o‘xashash manzara kuzatiladi: avval asosiy mushak guruhlarning maksimal kuchini oshiruvchi mashqlardan foydalaniladi, keyin bir oz muddat o‘tgandan so‘ng kuchni rivojlantirishiga yo‘naltirildi mashqlar bilan parallel holda suzish ixtisosligiga mos holda tezlik – kuch imkoniyatlarini va kuch chidamlilagini oshirishga yordam beruvchi mashqlar qo‘llaniladi.

Tayyorgarlik davrining maxsus tayyorgarlik bosqichi.

Bu bosqichda:

- mashg‘ulot yuklamalari sport formasining dastlab shakllanishiga qaratilgan;
- mashg‘ulot topshirqlari musobaqa mashqlariga yaqinlash-tirilgan maxsus mashqlarning ulushi ortib borishi tomona o‘zgaradi, ushbu mashqlar musobaqa mashqlari hajmlarini hosil qiladi;
- birinchi bosqich asosida kompleks sifatlar – tezlik imkoniyatlari va maxsus chidamlikni rivojlantirish hamda ularni musobaqa faoliyatida uyg‘unlashtirish zarur;
- mashg‘ulot ishining umumiyligi hajmida sport natijasiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi tor ixtisoslashgan vositalarga katta o‘rin ajratiladi. Ushbu mashqlar mazkur suratlarini musobaqa davrida oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Vaqtning ko‘p qismi musobaqa texnikasini takomillashtirishiga qaratiladi, u past tezlikda suzishda mayjud bo‘lgan texnikadan ancha farq qiladi. Bu vazifa jismoniy sifatlarni rivojlantirish bilan birga hal etiladi. Bazan jismoniy sifatlari yaxshi rivojlangan suzuvchilar uchun xos bo‘lgan texnik malakalarni singdirish maqsadga muvofiq, chunki yangi harakatlarning kech shakllanishi jismoniy sifatlarning rivojlanishiga qaraganda ko‘p vaqt talab qiladi.

Musobaqa mashqlari tayyorgarlik davrining ikkinchi bosqichi davomida notejis taqsimlanadi: ularning soni tayyorgarlik davri tugab borishi bilan ortadi.

Ma’lumki, maxsus tayyorgarlik darajasi musobaqa faoliyati bilan chambarchas bog‘liq, shuning uchun musobaqa amaliyoti bilan bir qatorda musobaqa elementlari bo‘yicha (faqat qo‘llar, oyoqlar

yordamida suzish musobaqlari, rezinali amartizatorini tortish va boshqa) yoki aralash masofalarda chiqishlardan, qo'shimcha suzish usullari kiritilgan musobaqlardan keng foydalanish zarur. Bu o'quv musobaqlari yoki boshqacha aytganda kursovklar mas'uliyatli musobaqlar sharoitlariga juda yaqinlashtirilgan bo'lishi kerak. Shuni e'tiborga olish lozimki, mas'uliyatli startlar sportchining emotsiyonal jihatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, uning irodaviy sifatlarni shakllantiradi. Undan tashqari, sportchi mashg'ulotida nusobaqa sharoitlarining modellashtirilishi uni faol mashg'ulot faoliyatiga safarbar qiladi, bunda funksiyalarning rivojlanish mexanizmlari ishga tushadi va kuchli jismoniy moslashish ta'minlanadi.

Tayyorgarlik davrining bu bosqichida umumiy jismoniy tayyorgarlikni erishilgan darajada saqlab qolish zarurligini yoddan chiqarmaslik lozim. Bu mashqlanganlik darajasining to'xtovsiz o'sib borishining zarur sharti hisoblanadi.

Mashg'ulotning tayyorgarlik davri samaradorligini baholash sport natijalarining o'sishini, aniqlab beruvchi turli xil sifatlar va qobiliyatlarning namoyon bo'lishi mumkinligi to'g'risida ma'lumot beruvchi testlar ko'rsatkichlari bilan aniqланади. Oldingi yildagi yaxshi natijalarga erishish mashg'ulot jarayonini umuman samarali o'tgan yangi yilda sportchi yanada yuqoriroq sport natijalarini ko'rsatadi.

### ***Musobaqa davri***

Musobaqa davrida mashg'ulot individual xususiyatiga ega bo'ladi va shunga qaramay, bir qator umumiyligi qoidalarni o'z ichiga oladi. Musobaqa davri oldindan maxsus chidamlilik darajasini belgilab bernvchi asosiy funksional tizimlar hamda mexanizmlarning funksional imkoniyatlarini yanada oshirish vazifalari qo'yilmaydi (bir siklli rejallashtirish varianti bundan mustasno).

Ularning holatini avval erishilgan darajada saqlab turish lozim. Buning uchun katta hajmdagi shiddatli ish bajarish shart emas, chunki maxsus mashqlanganlik tayyorgarlik davridagi mashg'ulotlar ta'sirida yuzaga kelgan morfologik, fiziologik, biokimyoiy va psixologik o'zgarishlar natijasi hisoblanadi. Shu sababli musobaqlardan oldingi mikrosikllarni rejallashtirishda suzuvchi olingan yuklamalardan so'ng to'liq tiklanib olishi lozimligini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Muhim funksiyalarning tiklanishi va super kompensatsiya fazasining davomiyligi katta yuklamali mashg'ulotlar yo'nalishiga bog'liq. Suzishda tezlik yuklamalaridan keyingi tiklanish davri chidamlilik yuklamalaridan so'ng bo'ladigan tiklanish davriga nisbatan qisqaroq. Uni musobaqalar moshlanishidan 4 – 7 kungacha oldin rejalashtirish zarur. Bunday mashg'ułotdan so'ng yuklamani keskin kamaytirish lozim, ayniqsa, startdan 2 – 3 kun oldin. Bunda faol dam olish vositalardan, kam shiddatli suzishdan foydalanish mumkin. Musobaqadan bir kun oldin ish hajmini kichik holda saqlab qolib, uning harakatchanligi oshiriladi.

### *O'tish davri*

Moslashish jarayonlarining o'tish davrining asosiy vazifasi jismoniy va psixik toliqishini bartaraf etishda hamda suzuvchi organizmi moslashish mexanizmlarining o'ta zo'riqishini oldini olishdan iborat. Ushbu davrda sportchi tayyorgarligidagi ayrim kamchiliklarni yo'qotish va keyingi yilda shiddatli mashg'ulot ishlarini o'tkazishi uchun shart-sharoitlar yaratish vazifalari hal etiladi. Bu vazifalarni hal qilish sababi shundaki, kuchli mashg'ulot toliqishining yig'ilib qolishiga olib keladi. Bu mashg'ulot va musobaqa yuklamalari ta'sirida organizmda kechadigan ancha pasayishi bilan ifodalanadi.

O'tish davrida mashg'ulotlar va ulardagi yuklamalar kattaligi kamayadi. Mashg'ulot vositalarining nisbatan umumiy rivojlantiruvchi mashg'ulot tomonga o'zgaradi. Umum rivojlantiruvchi mashqlarning asosiy maqsadi to'liq faol dam olishini ta'minlashdan iborat. Mashqlar hissiyotning, qiziqish uyg'otuvchan bo'lish kerak. Turizmnинг har xil turlari, sport harakatli o'yinlar, baliq ovlash, qo'ziqorin terish va h.k. maqsadga muvofiq faol dam olish vositalari hisoblanadi. Bu vaqt ni suzuvchining o'zi tanlab olishiga ruxsat berish maqsadga muvofiq. Faol dam olish vositalari o'z-o'zidan mashqlanganlik darajasining o'sishiga olib kelmaydi, biroq keyingi yilda ish qobiliyatni darajasini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Har bir davrdagi vazifalar bilan tanishib chiqib, mashg'ulotdagи o'rtacha yillik yuklamani bilgan holda suzish hajmlarini shiddat zonalari bo'yicha taqsimlashga o'tamiz. Bizning misolimizda yuklama hisob-kitobiga avgustdagи 2 chi o'tish davriga to'g'ri kelgan 4 hafta va birinchi o'tish davridagi 2 hafta kirmaydi. 22–28-fevral kunlarida

to‘g‘ri kelayotgan bir hafta 22–28-iyunga to‘g‘ri kelayotgan bir hafta shiddatli suzishdan, ya‘ni 2 chi, 3 chi va 4 chi shiddat zo‘nalarida suzishdan ozod bo‘lishi kerak, chunki mas’uliyatli musobaqalar haftalar davomida 1 va 5 chi shiddat zonalarida suzishlarni amalga oshirishi kerak. Shuning uchun biz foydalanmaydigan uchta zona bo‘yicha yuklamalarni qo‘srimcha ravishda olib tashlashimiz zarur.

Shundan so‘ng bosqichlar orasida har bir tayyorgarlik vazifalariga muvofiq shiddat zonalari bo‘yicha o‘rtacha hajmlarini qayta taqsimlab chiqish zarur. Harakatlar texnikasini kichik tezlikda takomillashtirishi maqsadiga qaratilgan birinchi zonadagi suzishni o‘zgartirmasdan qoldirish maqsadga muvofiq. 5 chi shiddat zonasidagi hajmlarni ham shunday qoldirish lozim, chunki tezlik mashqlari barcha tayyorgarlik davrida qo‘llaniladi. 2 chi zonada suzish tayyorgarlik davrining umumiy bosqichida katta hajmda va uning maxsus bosqichida kichikroq hajmda berilishi mumkin. Musobaqa davrida esa yanada kichikroq hajm qo‘llaniladi. Bunday uyg‘unlik 5 – 3 – 2 ko‘rinishida belgilanadi. Bundan kelib chiqib, har bir bosqich va musobaqa davri uchun ikkinchi shiddat zonasidagi hajmni (kilometrda, ballarda) hisoblab chiqish zarur.

Misolimizda yillik tayyorgarlikni ikki siklli rejalashtirishda ikkinchi zona hajmlarining ko‘chishining ham birinchi, ham ikkinchi sikl uchun bajarish kerak. Bularni aniq hisob-kitoblarsiz, taxminan ham amalga oshirish mumkin, ko‘p hollarda shunday ham bo‘ladi. Biroq ko‘pchilik murabbiylar yana ham aniqroq hisob-kitoblarga tayanishni xohlaydilar.

Ular uchun umumiy hamda maxsus tayyorgarlik bosqichlari va musobaqa davri orasidagi ikkinchi zona uchun 5 – 3 – 2 hajmlar nisbatlarini hisoblab chiqarish usullaridan birini taklif qilamiz. O‘quv rejasiga muvofiq yilda ikkinchi shiddat zonasining umumiy hajmi 710, 51 sm.ga teng. 2 chi zonada o‘rtacha suzish hajmi kattaligi har bir mashg‘ulot uchun biz kiritgan to‘ldirishlar bilan 2.72 km. ga teng.

Har bir tayyorgarlik bosqichidagi haftalar sonini, keyin esa mashg‘ulotlar sonini aniqlaymiz. So‘ngra har bir tayyorgarlik bosqichida suzib o‘tiladigan kilometrlar sonini olib tashlaymiz. Mikro sikl yoki kichik tayyorgarlik bosqichi 3 – 4 kundan 7 – 14 kungacha bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha 7 kun (hafta) davom etadigan kichik bosqichlar qo‘llaniladi.

Kichik tayyorgarlik bosqichini tuzish ko'p omillariga bog'liq, birinchi navbatda, ularga alohida mashg'ulotdagi yuklamalar natijasida toliqish va tiklanish jarayonlarining xususiyatlarini kiritish mumkin. Kichik tayyorgarlik bosqichini tuzish uchun quyidagilarni bilish zarur: turli xil yuklamalar suzuvchiga qanday ta'sir ko'rsatyapti ulardan so'ng tiklanish jarayonlari kechishi dinamikasi va davomiyligi qanday?. Kattaligi va yo'nalishi bo'yicha har xil bo'lgan bir nechta mashg'ulotlarning umumiylari samarasini katta yuklamalardan so'ng tiklanish jarayonlarini tezlashtirish maqsadida mashg'ulotlardagi kichik va o'rtacha yuklamalardan foydalanish imkoniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar juda muhim hisoblanadi.

Mashg'ulot jarayonini to'g'ri tashkil etishda yuklamalar va dam olishning optimal nisbatlarini rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Katta va juda katta yuklamalar bilan o'tqazilgan mashg'ulotlar, turli xil organlarning va tizimlarning funksional holatida jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqarib, moslashish jarayonlarining kechishini rag'batlantiruvchi qo'zg'atuvchilar darajasini aniqlab beradi. Bu mashg'ulotlar orasidagi dam olish sportchi tana gomeostazini tiklashga imkon beradi va mashqlanganlik darajasini oshiruvchi funksional hamda tuzilmaviy o'zgarishlarni shakllantiradigan reaksiyalarning paydo bo'lishini yuzaga keltiradi. Kichik sikldagi yuklama va dam olish, ularning navbatma-navbat qo'llanilishi turli xil reaksiyalarni keltirib chiqarishi mumkin. Yuklama va dam olishning aniq almashinuvi mashqlanganlik darajasining maksimal oshishiga yordam beradi: kichik mashg'ulot samarasini berishi yoki umuman samara bermasligi; sportchi o'ta toliqishi va ortiqcha mashqlanish holatiga tushurib qo'yishi mumkin. Mikrosiklda katta va kichik yuklamalar oqilona uyg'unlashtirilgan holda qo'llaniladigan mashg'ulotlardan optimal miqdorda foydalanilganda bir necha tipdag'i reaksiya kuzatiladi. Agar mikrosiklda, kam miqdorda yuklamalar qo'llanilsa ikkinchi tipdag'i reaksiya yuzaga keladi. Katta yuklamalardan haddan ziyod foydalanilgan yoki ular noto'g'ri almashlab qo'llanilganda o'ta toliqish holati, ya'ni 3 chi tipdag'i reaksiya yuzaga keladi.

Avvalgi yuklamadan so'ng super kompensatsiya fazasidagi mashg'ulot yuklamasi katta mashg'ulot samarasini yuzaga keltiradi, deb hisoblanadi. Agar takroriy yuklama kechroq, ya'ni oldingi

yuklamadan qolgan iz to‘liq yo‘qolib ketgan paytda berilsa, samara katta bo‘lmaydi.

Organizm imkoniyatlari hali tiklanib ulgurmagan sharoitlarda takroriy yuklamalarning qo‘llanilishi o‘ta toliqishiga va ortiqcha mashqlanishiga olib keladi. Darhaqiqat, mikrosikldagi yuklamalar kattaliklari va ularning almashlab qo‘llanilishi masalasini hal etish murakkab muammolardan hisoblanadi.

Mashg‘ulot mikrosikllarida yo‘nalishi va kattaligi bo‘yicha har xil yuklamalar qo‘llaniladi. Shuning uchun mikrosiklni shunday tuzish kerakki, mashg‘ulotning u yoki bu bosqichiga mos bo‘lgan asosiy vazifalarini hal etishga imkon berishi lozim. Mikrosikl mazmuni ma’lum bir vaqt ichida odatda ko‘pi bilan bir oy ichida barqaror bo‘lishi kerak. Bu murabbiya yuklamaga bardosh bera olish qobiliyatini, sportchida rivojlanayotgan toliqish darajasini aniqlashga hamda shunga asoslanib kerakli tuzatishlarni kiritishga imkon beradi. Bitta mashg‘ulot bosqichdan ikkinchisiga o‘tishda, asosiy vazifalar o‘zgarganda mashg‘ulot mikrosikli tuzilmasi ham o‘zgaradi.

Bir kunda ikki martalik mashg‘ulotlar tashkil etilganda asosiy va qo‘sishma mashg‘ulotlar aniqlab olinadi. Asosiy mashg‘ulotlarda suzuvchi sifatlar va qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan katta hajmdagi ishni bajaradi. Asosiy mashg‘ulotlar suzuvchining mashqlanganligi o‘sishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Qo‘sishma mashg‘ulotlarda asosiylariga qaraganda yuqlama hajmi kichikroq bo‘ladi. Asosiy mashg‘ulotni kunduzi rejalashtirish yaxshiroq. Ertalabki soatlarda harakatli mashg‘ulotlar o‘tkazilganda suzuvchilarda kunning ikkinchi yarmida, uyg‘onishdan oldin uyqu buziladi. Buning sababi shiddatli ishdan oldin start oldi qo‘zg‘aluvchanligidir.

Ertalabki mashg‘ulotning birinchi qismi suzuvchining uzoq davom etadigan ishga chidamlilagini oshirishiga qaratilgan bo‘lishi lozim. Bunda masofaviy metoddan foydalilanadi. Mashg‘ulotning ikkinchi qismida, taxminan bir soatdan keyin tezlik texnikasini takomillshtirishga, tezlik imkoniyatlarini, shuningdek, anaerob ish unumdoorligi darajasini oshirishga mo‘ljallangan jismoni mashqlarni kiritish mumkin. Ko‘pgina kuchli suzuvchilarni tayyorlash tajribasi ko‘rsatadiki, ertalabki soatlarda har xil ustuvor yo‘nalishiga ega katta yuklamalar qo‘llaniladigan mashg‘ulotlarni vaqt-vaqt bilan o‘tkazish foydalidir. Bunday mashg‘ulotlarni o‘tkazish sutkalik rejimini o‘rganishga va salbiy oqibatlarga olib kelmaydi.

Mashg'ulotlarni shunday uyg'unlashtirish samarali, buni ikkinichi mashg'uloti mavjud mashqni yoki chuqurlashtirib yubormaydi, yoki katta yuklama qo'llanilgan birinchi mashg'ulotdan so'ng tiklanish jarayonlarning tezlashishiga yordam beradi. Agar qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazishganda boshqa yo'nalishdagi ish qo'llanilsa, buni samarali kuzatish mumkin.

6-jadvalda ustuvor yo'nalishdagi va kattalikka ega yuklamalar qo'llaniladigan asliy hamda qo'shimcha mashg'ulotlarni maqsadga muvofiq uyg'unligi keltirilgan (V.N Platonov, S.P Fesenko 1990).

Ikki martalik mashg'ulotlar yo'nalishi va kattaligi har xil bo'lган yuklamalar qo'llanilgan mashg'ulotlar uyg'unligi tuzilganida keltirish mumkin. Bunday uyg'unlik bajaraladigan ish hajmlarini 1,5 barobar oshirish o'ta toliqish holatlarini paydo bo'lishini ko'rmaslik mumkin.

### **Asosiy va qo'shimcha mashg'ulotlarning mumkin bo'lgan variantlari**

*2-jadval*

	Belgisi	Asosiy mashg'ulot	Qo'shimcha mashg'ulot
1	Yo'nalishi	Tezlik imkoniyatlarini oshirish tezlik texnikasini takomillashtirish	Ayrob imkoniyatlarini oshirish
	Yuklama kattaligi	Katta yoki kattaroq	O'rta kichik, ya'ni kichikroq
2	Yo'nalishi	Airob imkoniyatlarini oshirish yoki qisqa masofalarga suzuvchilarni maxsus chidamlilikni rivojlantirish	Airob imkoniyatlarini oshirish
	Yuklama kattaligi	Katta yoki kattaroq	O'rta yoki kichik
3	Yo'nalishi	Airob imkoniyatlarini oshirish yoki uzoq masofalarga	Tezlik imkoniyatlarini oshirish va takomillashtirish

		suzuvchilarning chidamliligin rivojlantirish	
	Yuklama kattaligi	Katta yoki kattaroq	O'rta yoki kichik
4	Yo'nalishi	Kompleks-tezlik airob imkoniyatla- rini oshirishga qaratilgan	Kompleks airob imkoniyatlarini oshirish
	Yuklama	Katta yoki kattaroq	O'rta yoki kichik
5	Yo'nalish kompleksi	Tezlik va aerob im- koniyatlarini paral- lel holda oshirish	Kompleks aerob imkoniyatlarini oshirish
	Yuklama kattaligi	Katta yoki kattaroq	Kattaroq o'rta yoki kichik
6	Yo'nalishi	Kompleks aerob va anaerob imkoniyat- larini parallel holda rivojlantirish	Kompleks tezlik imkoniyatlarini oshirish texnikasini takomillashtirish
	Yuklama kattaligi	Katta yoki kattaroq	O'rta yoki kichik

Shuni nazarda tutish lozimki, agar mashg'ulotlar yo'nalishi suratlarini oshirish mashg'ulot yuklamalardan keyingi holatini e'tborga olmasdan aniqlansa ish besamar ketadi, chunki buni u yoki bu qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yoq.

Mashg'ulot darsi – mashg'ulot uch qismga bo'linadi: tayyorlov asosiy va yakuniy. Asosiy qismda mashg'ulot hal etiladi aynan asosiy qismini mashg'ulot yo'nalishini aniqlab beradi. Asosiy qismining tuzulishiga qarab mashg'ulotlar uch xil turda bo'lishi mumkin:

1. faqat quruqlikda bajariladigan mashqlardan foydalanib o'tiladigan mashqlar;
2. quruqlikda va suvda bajariladigan mashqlardan foydalanib o'tiladigan mashqlar;
3. suvda bajariladigan mashqlar yordamida asosiy vazifalarni hal etadigan mashqlar.

Barcha mashg'ulotlarni yo'nalishiga ko'ra tanlangan va kompleks yo'nalishida bo'lishi mumkin. Tanlangan yo'nalishdagi mashg'ulotlarda yuklama shunday rejalashtiriladi, mashqlarni asosiy hajimlari qandaydir bitta vazifani hal etishga yordam berishi kerak.

Kompleks yo'nalishiga ega mashg'ulotlar dasturini tuzish ularda ikkita yordam beruvchi mashg'ulot vositalari mavjud bo'lishini ko'zda tutadi.

Faqat quruqlikda bajariladigan jismoniy mashqlardan foydalanib o'tiladigan mashqlardan ko'proq tayyorgarlik davrining umumiyligi qismida va davrida qo'llaniladi. Quruqlikda va suvda bajariladigan jismoniy mashg'ulotlardan faydalanaligan holda o'tkaziladigan mashg'ulotlar ko'proq tayyorgarlik davrining maxsus bosqichida qo'llaniladi.

Quruqlikda va suvda bajariladigan mashqlar asosiy qismida teng miqdorda yoki biri ikkinchisidan ko'proq qo'llanishi mumkin.

Quruqlikdagi mashqlar mashg'ulotlarning birinchi qismida o'tkaziladi. Ulardan keyin biroz dam oliniladi va suvda mashqlar bajariladi.

Kompleks yo'nalishiga ega mashg'ulotlarda vazifalar parallel holda yoki ketma-ket hal etilishi mumkin. Vazifalar ketma-ket hal etilganda qandaydir bir sifatini ribojlantirib beruvchi vositalar qo'llaniladi vazifalar parallel holda hal etiladigan mashg'ulotlarda esa mashg'ulot vositalari bir vaqt ni o'zida ikkita yoki bir nechta sifatlarni rivojlantirishda yordam beruvchi keng doirada ko'rsatadi. Bu holda mashg'ulotlar vositalarini ma'lum bir ketma-ketlikda taqsimlab olish zarur. Masalan, agar bitta mashg'ulot tezlik sifatlarini rivojlantiruvchi chidamlilik darajasini oshirish vazifalar qo'yilsa, avval tezlikni rivojlantirish uchun mashqlardan keyin esa chidamlilik darajasini oshirish uchun foydalanish lozim.

Bunday ketma-ketlik shu bilan asoslanadiki, tezlik qobiliyatlarini oshirish ustida ishlash katta kuch zo'riqishlarni texnik asab mushak kordinatsiyasini taqozo etadi. Suzuvchi toliqmagan bo'lsa, shu shartlarga amal qilish mumkin.

Toliqish rivojlanib borgan sari chidamlilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlarni bajarishga o'tish mumkin. Buni ishlatish jarayonlarida har xil funksional turlarini o'rgangan holatda bajariladi. Bu turli xildagi chidamlilikni rivojlantirish uchun maxsus shart-sharoitlar yaratadi.

Mashg'ulot yuklamasi kattaligi uning natijasida yuzaga keladigan toliqish asosida ifodalanadi. Suzishda quydagi mashg'ulot yuklamalarining turlari ajratiladi: jismoniy katta yoki malakalari katta; kattaroq, o'rta, kichik.

Katta yuklama organizmdagi funksional o'zgarishlar bilan tavsiflanadi, ish qobilyatining pasayishini ko'rsatadi bu esa toliqishni boshlanishidan darak beradi. Katta yuklama mezoni – suzuvchining rejalashtirilgan ishini bajarishidan bosh tortishidir.

Mashg'ulotda yuklamani bajarish jarayonida toliqish asta-sekin o'sib boradi. U yashirin qoplanuvchan chegaradan o'tgan paytda ish qobilyati pasayadi. Bu yaqqol toliqish borishidan dalolat beradi.

Tezlikni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarda, toliqish masofani surib o'tish tezligi maksimal bo'lgan tezlikka nisbatan 85 dan 90% atrofida bo'ladi. Maxsus chidamlilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarda alohida bo'linma va masalalarni surib o'tishda tezlikni musobaqa masofasini bosib o'tish uchun rejalashtiriladigan terminga nisbatan 3-4% ga pasayishi katta yuklama mezoni bo'lib hisoblanadi.

Masofa bo'laklari va uni surib o'tish tezligini rejalashtilayotgan 5-10% ga pasayishi hamda chidamlilikni rivojlantirishga yonaltirilgan mashg'ulotlar paytda ishni to'xtatish uchun zarur sharoit hisoblanadi.

Bunday ishni keyinchalik davom ettirish ikki sababga ko'ra maqsadga muvofiq emas: birinchidan bunda mashqlarning tavsif qilish samaradorligi pasayadi; ikkinchidan mashqlarni keyinchalik bajarish suzuvchini psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kattaroq yuklama suzuvchi organizimida funksional o'zgarishlar bilan ifodalanadi, bunga uning ish qobilyati sezilarli darajada pasaymaydi. Tezlikni kattaroq yuklama ta'sirini olish uchun bajarish muhim bo'lgan jismoniy mashqlar katta yuklama olish uchun talab qilinadigan yuklamaga nisbatan 70-80% ni tashkil etadi. O'rtacha yuklama yashirin yoki yaqqol toliqish to'g'risida dalolat beruvchi organizmdagi o'zgarishlar kuzatilmaydi. U suzuvchi tomonidan katta yuklama olish uchun bajarish zarur bo'lgan hajmning taxminan 50% bajarilgan sharoitda olingan hisoblanadi.

Kichik yuklama organizmning har xil termini qobilyatini faollashtiradi va ularni toliqtirishiga olib kelmaydi. Kichik yuklama olish uchun mashqlar hajmi katta yuklama olish uchun talab qilinadigan ish hajmiga nisbatan 20-30% ni tashkil etadi.

O'quv rejasiga muvofiq bir yilda maxsus jismoniy va sport-texnik tayyorgarlik 15 yoshdagi uchun 934 soatni tashkil etadi.

Bizningcha, haftada 6 ta mashg'ulotning davomiyligi 45 soatlik kichik sikl optimal varianti tanlanadi. 7 kun. 7 kunlik siklda haftadagi 6 marta mashg'ulotlari uchun ularni asosiy va qo'shimcha mashg'u-lotlarga bo'lish shart emas, shuning uchun harakat har bir mashg'u-lotning yo'nalishini va undagi yuklama kattaligini aniqlashdan iborat bo'ladi. Buning uchun umumiyligi tayyorgarlik bosqichining jadvali turib chiqiladi.

Haf-ta kuni	Mashqlar	Me'yori		Shid-dati	Shart. Birl.
		Vaqti (min)	Hajmi (metr)		
1	2	3	4	5	6
DUSHANBA	<b>I. Zalda</b>				
	1.1. Badan qizdirish.	5		22	15
	1.2. Egiluvchanlik uchun yakka va juftlik mashqlari.	10		18	10
	1.3.Og'irliklar bilan mashqlar.	15		18	15
	1.4. Estafetalar.	15		24	60
	<b>II. Basseynda</b>				
	2.1. 200M k/suz.	4m20c	200	26	22
	2.2. 1000M. krol (2 chi bo'lagi texnika uchun)	12(5+7)	1000	26-27	60
	2.3. 200M. krol +2x100M. Batt..texnika uchun	7	400	29	42
	2.4. 12x50 (batt. III, chalq.III, kkrol III dam -30c.	10	600	28	60
	2.5. 200M brass +3x100M. brass III, texnika uchun	8	500	28	48
	2.6. 4x25 hamma usulda (V).		100	32	8
	2.7.burilishlarni bajarish texnikasini takomillashtirish	1	200-	27	40
		8	300		
<b>Jami taxminan 3100 m.</b>		<b>Jami bir kunda 380 ball</b>			

1	2	3	4	5	6
SESHANBA	<b>I. Zalda</b> 1.1. Badan qizdirish. 10 1.2. Yo'ldirma to'p bilan mashq. 15 1.3. Rezinali amortizator bilan mashq. 20			20 19 19	20 15 20
	<b>II. Basseynda</b> 2.1. Badan qizdirish: 3x200м. K/suz/ usullar tes-kari ketma-ketlikda bajari-ladi. 12 2.2. 5x200м. dam-45 c, (II-III da yaxshilash bilan) texnika uchun. 18 2.3. 10x50м. dam- 40c. (II-III-IV). 8 2.4. 3x300м. II, texnika uchun. 18 2.5. 4x25м. V startdan. 1 2.6. Estafetani uzatish tex-nikasini takomillashtirish. 15	600 1000 500 900 100	26 27 30 28 32	60 80 56 108 8 21	
	<b>Jami taxminan 3100 м.</b>				<b>Jami bir kunda 397 ball</b>
	<b>I. Zalda</b> 1.1. Badan qizdirish. 10 1.2. Egiluvchanlik va epchillik uchun mashqlar. 10 1.3.Oyoqlar va tana mushaklarini mustahkamlash uchun mashqlar. 15 1.4. Sakrash mashqlari. 10			22 18 20 24	30 10 30 40

1	2	3	4	5	6
	<b>II. Basseynda</b>				
	2.1. Badan qizdirish 600 м. (25 batt.+75 chalq.)	16	600	22	48
	2.2. 10x 100m krol II dam - 70	15 4	1000 200	26 24	75 16
	2.3. 200m. k/csuzII.	11	500	22	33
	2.4. 300m.+4x50 O brass.	8m30c	400	28-32	54
	2.5. 8x50 m brass x (3-III+IV).	5	-	20	10
	2.6. Startdan uzoqqa sirg‘alib tushish bo‘yicha musobaqaqlashish.	5	-	21	10
	2.7. Suvga sakrash bo‘yicha o‘quv mashqi.				
	<b>Jami taxminan 2700 m.</b>				
			<b>Jami bir kunda 312 ball</b>		
	<b>I. Zalda</b>				
	1.1. Badan qizdirish.	10	-	19	10
	1.2. Aylanma mashg‘ulot.	20	-	20	40
	1.3. Mini basketbol o‘yin.	15	-	22	45
			<b>Jami 95 ball</b>		
	<b>II. Basseynda</b>				
	2.1. Badan qizdirish 400 м. krol +200m mashq.	14	600	21	28
	2.2. 12x 50m dam- 30s. II, (oxirgi 2 tasi III).	11m 20s	600	25-29	48
	2.3. 400m. II +300M II + 200m. III +100m. III oral.- 20- 40s.	20	1000	24-29	120-135
	2.4. 6x100m. dam 1min (II-III).	9m 30s	600	26-30 30-32	38-42
	2.5. Start bajarish texnika-sini takomillash.	8	50	29	56-64
	2.6. 50m. startdan IV.	40s			8
	<b>Jami taxminan 2850 m</b>				
			<b>Jami bir kunda 420ball</b>		

1	2	3	4	5	6
JIMA	<b>I. Zalda</b>				
	1.1. Badan qizdirish.	10	-	20	20
	1.2.Umumrivojlantiruvchi mashqlar.	10	-	22	30
	1.3.Tana va qo'llar mushaklarining egiluvchanligi hamda kuchini rivojlantirish uchun mashqlar.	10	-	20	20
	1.4 Rezinali amortizator bilan mashq.	15	-	22	45
	<b>Jami: 115 ball</b>				
	<b>II.Basseynda</b>				
	2.1. Badan qizdirish 600 m. (200m. chalq.+200m. brass +200m krol).	11M 30c 18M 40c	600 1100	20-21 25-26	22-24 75-93
	2.2. 300m. k/suz.+200m. brass +100m. batt.+200m. chalq. +300m., oral -60s.	12	600	29	
	2.3. 12x50 hajmi usullar bilan (III) dam -30s.	1	100	32	72
	2.4. 25M. ga hamma usulda estafetali suzish V.				8
<b>Jami taxminan 2400 m</b>		<b>Jami bir kunda 312 ball</b>			
SHANBA	<b>I. Zalda</b>				
	1.1.Badan qizdirish.	10	-	20	20
	1.2.Umumrivojlantiruvchi mashqlar.	5	-	22	15
	1.3.Egiluvchanlik va chaqqonlik uchun mashqlar.	5	-	19	5
	1.4. To'ldirma to'plar bilan mashqlar.	10	-	22	30
	1.5. Mini basketbol o'yin.	15	-	24	60
<b>Jami: 130 ball</b>					

1	2	3	4	5	6
	<b>II.Basseynda</b>				
	2.1. Badan qizdirish 500m. krol.	9-10 5-7	500 300	25 25	36- 40
	2.2. 80x50m. Texnika uchun mashq. (ko'krakda va chalqancha).	4+1=5	300	24-30	20- 28
	2.3. 200m O II+4+25 O.	15	800	25-27	
	2.4. 400m.k/suz. (50) II +4+100 k/suz; dam 1 min(III).	50 30	75	30 23	25 60- 75
	2.5. 75 m. startdan (IV).				
	2.6. To'p bilan o'yin.				6 90

**Jami taxminan 2000 m**

**Jami bir kunda 394 balgacha**

Namunaviy mikrosikl yuklamalarining yo'nalishi va kattaligi tuzilishining tahlili shuni ko'rsatadiki, mashg'ulot yuklamalarining umumiy kattaligi 312 dan 420 ball atrofida bo'ladi.

Jumladan, zaldagi mashg'ulot yuklamalari kattaligi 55dan 130 balgacha atrofida o'zgarib turadi. Hafta davomidagi yuklamalarning umumiy kattaligi 2244 balni tashkil etadi, jumladan, zaldagi yuklamalar kattaligi 605 balga teng.

Xulosa qilib murabbiya shuni eslatib o'tish lozmki, yuklamani tayyorlash, ya'ni ko'rib o'tiladigan masalalar uzunligini hamda ular orasidagi dam olish xususiyatini aniqlash murabbiy ishidagi eng murakkab vazifa sanaladi.

Yosh sportchilar bilan suzish ishlarini olib borish bosqichida, tashqi yuklamani individul idrok etishi namoyon bo'ladi. Muallif taklif etayotgan rejalashtirish murabbiya o'quv rejasining qay darajada bajarilayotganligini chuqur tuzulishga va zarur hollarda uni amalga oshirish davomida tuzatishlar kiritishiga imkon beradi.

Biroq shuni yodda tutish lozimki, biologik rivojlanish bosqichida turgan yosh suzuvchilar uchun eng asosiyisi tayyorgarlikning strategik vazifalariga mos holda to'g'ri tashkil qilingan mashsulot ishi hisoblanadi.

Yosh sportchilarning sport natijalarini to'xtovsiz o'stirishga intilishi ko'pincha xatolarga olib keladi va oqibatda yosh suzuvchilarning sport yutuqlarini rejalashtirib bo'lmaydi va ba'zan kutilmaganda namoyon bo'ladi.

### **Quruqlikda va suvda umumiy jismoniy tayyorgarlik bo'yicha yillik yuklamaning taqsimlanishi.**

Maxsus jismoniy va sport texnik tayyorgarlik bo'yicha mikrosikllarni ko'rib chiqib umumiy jismoniy tayyorgarlikni rejalash-tirishga o'tamiz. Harakatlar tarkibi oldingilaridek avval soatlar va mashg'ulotlar soni aniqlanadi. Keyin esa reja vositalar bilan to'ldiriladi.

O'quv rejasiga muvofiq bir xilda umumiy jismoniy tayyorgarlik 15 yoshdagi qizlar uchun 266 soat ajratiladi. Ulardan bir qismini suzish oldidan mashg'ulotlarga ajratish zarur. Suzish mashg'ulotlardan oldin eguluvchanlikni harakatlar koordinatsiyasi mushaklarni qizdirish uchun mashqlar bajariladi. Buning uchun 0,5 akademik soat yetadi. Demak, umumiy jismoniy tayyorgarlikka ajratiladigan umumiy soatlar sonidan suvdagi mashg'ulotlar soniga ko'paytirilgan 0,5 soatni olib tashlaymiz. Endi yil oldiga qo'yilgan vazifalarga muvofiq yil tuzilishini e'tbora olgan holda hal etilishi lozim bo'ladi. Vazifalarni hisobga olib umumiy jismoniy tayyorgarlik bo'yicha ishchi reja tuzish mumkin. Yildagi ikki siklli umumiy tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlar asosan tayyorgarlikning tayyorlov vositalari uchun rejalashtirilishi kerak.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalarini to'g'ri tanlashda xato qilmaslik uchun yana bir bor yildagi vazifalarga e'tibor qaratish hamda ularning qaysi birini boshida sport turlari vositalari bilan hal etish mumkinligini aniqlab olish lozim.

Birinchi vazifada uchinchi va to'rtinchi shiddat natijalarida bajariladigan nafaqat suzish mashqlardan, balki boshqa sport turlaridan foydalanib jismoniy sifatlarni rivojlantirish zarurligi ko'rsatiladi.

Ikkinci vazifada boshqa sport turlaridan olingan mashqlarni qo'llagan holda maksimal kuchni va kuch chidamligini rivojlantirishni kengaytirishda bo'g'imlardan harakatchanlikni va umurtqa rotatsiyasini rivojlantirish kerakligi belgilanib qo'yiladi.

Shundan kelib chiqib, murabbiy shunday sport turlarini tanlab olishi kerakki, ular yordamida oldinga qo'yilgan vazifalarni samarali hal qilishi mumkin bo'lishi kerak.

Masalan, bazaviy chidamlilik yengil atletika chang'i poygalari eshkak eshish va sport o'yinlari yordamida rivojlantiriladi, maxsus chidamlilik yolkada yugurish, sport o'yinlari (basketbol, futbol, qo'l to'pi va h.k.) yordamida kuch va eguluvchanlik gimnastika mashqlari yordamida rivojlantiriladi.

Maxsus jismoniy va sport texnik tayyorgarlik bo'yicha kichik sikllarni tuzishdan farqli ravishda umumiy jismoniy tayyorgarlikni rejalahshtirishdan reja konspektlarini tuzishdan iborat bo'ladi.

### **Birinchi siklining tayyorgarlik davri uchun umumiy jismoniy tayyorgarlik bo'yicha mashq'ulotlarning namunaviy rejasi**

*3-jadval*

Umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalari	Birinchi tayyorgarlik davri(haftalar)														
	Umumiylaytayyorgarlik bosqichi													Maxsus tayyorgarlik bosqichi	
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	
<b>Yengil atletika</b>															
Yugurish	+	+													
Fartlek			+	+	+										
Sakrash							+	+							
Metaniya								+	+						
<b>Gimnastika</b>															
Kuchni rivojlantirish	+	+	+		+	+	+		+	+	+	+		+	
Kuch chidamligini rivojlantirish		+		+		+		+		+		+			
Eguluvchanlikni rivojlantirish	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
Snaryadlarda mashqlar								+	+	+					
<b>Sport o'yinlari</b>															
Futbol	+	+	+	+											

Basketbol					+	+	+	+											
Qo'l to'pi									+	+	+	+							
<b>Chang'i sporti</b>																			
Klassik yurish bilan erkin harakatlanish																	+	+	
Umumiy jismoniy tayyorgarlik	<b>Birinchi tayyorgarlik davri(haftalar)</b>																		
	Umumiy tayyorgarlik bosqichi												Maxsus tayyorgarlik						
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	1	2	3	4	5
Klassik yurish bilan erkin harakatlanish																+	+		
Tog'dan tez uchib tushish																			+
Tramplindan sakrash																			+
Eshkak eshish																			
Halqa eshkak eshish																			
Akademik eshkak eshish																			
Baydarkada eshkak eshish																			
Suv polosi	+			+			+		+				+					+	
Suvda regbi va boshqa o'yinlar			+				+						+						+

Murabbiy rejalshtiradigan sport turini chuqur bilmaganida va yuqori sport natijasiga erishishi uchun u tanlab olgan o'quv adabiyotlаридан mashg'ulotdan oldin tanishib olishi kerak. Umumiylismoniy tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlar qanday tashkil etilganligiga va uning kop yillik tayyorgarlik bo'yicha qanchalik optimalligiga qarab, oliy sport mahorati bosqichidagi vazifalarning muvaffaqiyatlari amalga oshirilishi belgilanib olinadi.

Hozirgi paytda ma'lumki ko'p yillik tayyorgarlikning har bir bosqichi bo'yicha umumiylismoniy tayyorgarlik hajmining optimal mexorlariga amal qilgan holda dastur ishlab chiqqan murabbiylarda sportchilar yuqori sport natijalariga erishadilar. Bunda ularning optimal imkoniyatlari yoshi dunyoning o'nlab eng mashhur suzuvchilari yoshiga mos keladi. Va aksincha, natijalari yetarli bo'limganda, suzuvchilar yuqori sport natijalarini ko'rsatadilar hamda optimal imkoniyatlari yosh chegarasidan o'tib ketadi. Jahonning eng yaxshi suzuvchilari ko'p yillik tayyorgarliklari majmuining tahlili o'quv mashg'ulot ishlari bosqichida OJT ning hal qiluvchi aylanishiga ega ekanligini isbotidir.

Mamlakatimizda BOSM ishida OJT va MJT uyushmalari nisbatlari o'quv rejasidagi tavsiflarga mos kelmaydi. Ixtisoslashuvining dastlabki bosqichlarida OJT bo'yicha shu hajmni tavsija qilinadigandek ancha kam ko'pgina BOSMlар ish faoliyati tahlil qilinganida shu narsa aniqlanadiki, ixtisoslashuvining ish hajmining nafaqat o'tish tayyorgarligini yuqori talabidan, balki murabbiyning asosiy tayyorgarligidan ham kelib chiqqan mashg'ulotlarni tashkil etishda, bilimlarning yetishmasligi jismoniy rivojlanish vositalari sifatida boshqa sport turlaridan olingan mashqlar qo'llanilib, bunday harakatdan voz kechish sabablaridan biri hisoblanadi.

Boshqa sport turi bo'yicha yetarlicha metodik darajada o'tkazilgan mashg'ulot istalgan samarani bermaydi. Umumiylismoniy tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlarni rejalshtirishda harakat davomiyligini rivojlantirishga yo'naltirilganligi tamoyilini amalga oshirishga intilish lozim. Bu tamoyil birinchi navbatda yosh sportchilarda harakat qobiliyatlarini rivojlantirishni, ya'ni shug'ullanuvchilarda yuqori ijobjiy ko'nikmalarni egallab olishni nazarda tutadi. Bu mashg'ulotlarga sport elementlari: texnik tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik va albatta, musobaqa elementlarini kiritish yo'li orqali hal etiladi. Ko'nikmalar

insonning har qanday faoliyat sohasining asosi hisoblanadi. Ularni egallab olib, inson ta'lim harakatlarini amalga oshiradi. Ushbu harakatlar ijobjiy natijalarga erishishga yordam beradi va bu qoniqish hissini keltiradi. Sport faoliyati sohasi ham birinchi ko'nikmalarni egallab olishga keyin esa ular yordamida jismoniy sifatlarini rivojlantirishga asoslanadi. Shuning uchun ko'p yillik tayyorgarlikning muhim bo'lishi hisoblangan. Boshqa sport turlari yordamida jismoniy sifatlarni rivojlantirish bo'limida birinchi navbatda shu sport turlariga xos bo'lgan malakalarni rivojlantirish zarur. Chunki malakalar hosil bo'lib borgan sari nomaxsus vositalar yordamida jismoniy sifatlarni rivojlantirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish mumkin. Mashg'ulot zichligi yuqori bo'lganida o'quv mashqlari yordamida yetarlicha katta darajali jismoniy yuklamalarni olish mumkin.

Yuklama hajmlari va tezkor rejalashtirish uchun murabbiylarga bolalar va o'smirlarni zonalari bo'yicha to'liq o'mini tartiblarini e'tiborga olish tavsiya qilinadi. 9-15 yoshdagi suzuvchilar bilan ishslashda murabbiylar katta sportchilarga mo'ljallangan mashg'ulot yuklamalarni tasnifiga amal qilishlari mumkin.

#### 4-jadval

Yoshi	Fiziologik shidat zonasasi			
	Ayrob	Ayrob-anayrob	Anayrob-ayrob	Glikolitik
Tomir urish rejimlari ur\min				
R-1	R-2	R-3	R-4	
9-11 yosh	155-170	170-185	185-200	200 dan ko'piroq
12-13yosh	150-160	160-170	170-190	190 dan ko'piroq
14-15yosh	140-150	150-165	165-185	185 dan ko'piroq

## **5. Jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun maxsus mashqlar**

### ***Suzuvchining kuch-qobiliyatlarining turli faoliyatlarga bog'liqligi***

Suzish sportchi oldiga o'ziga xos talablarni qo'yadi. Bu talablar musobaqa faoliyati jarayonidagi dinamik kuchlanishlar xususiyati hamda davomiyligi bilan bog'liq. Turli xil masofalarda yuqori natijalarga erishish uchun suzuvchining maksimal va kuch chidamliligini rivojlantira olish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

*Maksimal kuch* deganda, sportchining shunday imkoniyatlari nazarda tutiladiki, maksimal erkin mushak qisqarishi sharoitida u bu imkoniyatlarni namoyon qila olishga qodir bo'ladi.

*Portlovchan kuch* deganda, maksimal tezlanish bilan qarshilikni engib o'tish qobiliyati tushuniladi.

*Kuch chidamliligi* – bu harakatlanishning optimal kuch vositalarini uzoq vaqt saqlab turish qobiliyatidir.

Kuch namoyon bo'lischening uchta shakli turli xil musobaqa masofalarini bosib o'tishda yuqori natijalarni ta'minlashda, shuningdek, tezkorlik imkoniyatlari hamda maxsus chidamlilik kabi sifatlarning namoyon bo'lishida har xil vazifani bajaradi.

Maksimal va portlovchan kuch ko'p jihatdan suzish paytida rivojlantiriladigan suzuvchining maksimal qurbi yetadigan tortish kuchi o'chamlariga, startdagи sakrash hamda burilishlar sifatiga ta'sir ko'rsatgan holda tezkorlik imkoniyatlari darajasi bilan bog'liq.

Kuchni namoyon qilishning bunday shakli suzuvchilarining 50, 100 m va 200 m, masofadagi natijalarini belgilab beruvchi eng muhim omillar qatoriga kiradi.

Musobaqa masofasi uzinligi oshishi bilan maksimal va portlovchan kuch ta'siri asta - sekin pasayadi, biroq 800 hamda 1500 m, masofani bosib o'tish paytida ancha ta'sirchan bo'ladi, shu sababli statlarni tayyorlashda ham bunday sifatlarni rivojlantirishga kam e'tibor berish yaramaydi.

Kuch chidamliligi ko'p jihatdan suzuvchilarining hamma masofalaridagi natijalarini (suzish usulidan qat'i nazar) belgilab beradi. Turli kuch qobiliyatlari darajasi mushak to'qimalari tuzilishi, mushaklarning fiziologik ko'ndalang maydoni, mushaklarning asab

markazlari tomonidan boshqarilishning takomillashganligi, ichki mushak va mushaklararo koordinatsiya darajasi, kuch talab qilinadigan ishni energiya bilan ta'minlash yo'lining samaradorligi orqali belgilanadi.

Kuch qobilyatlarining namoyon bo'lishi, tegishli mashqlarni bajarishda sport texnikasining takomillashuvi, shuningdek, boshqa jismoniy sifatlarning birinchi navbatda, tezkorlik qobiliyatları hamda egiluvchanlikning rivojlanish darajasiga chambarchas bog'liq.

Quruqlikda turli xildagi mashqlarni bajarish paytida namoyon bo'ladigan kuch sifatlarning yuqori darajasi suvda maxsus tayyorgarlik hamda musobaqa mashqlarini bajarishda yuqori darajasidagi kuch qobiliyatlarining namoyon bo'lishi kafolatlanmaydi. Ko'pincha zarur kuch sifatlari ega bo'lган, quruqlikda umumiy tayyorgarlik, yordamchi hamda ayrim maxsus tayyorgarlik mashqlarini bajara oladigan sportchilar start va burilish paytida qo'l harakatlarini bajarishda yuqori darajadagi kuchni namoyon qila olmaydilar.

Bunga kuch sifatlari, vegetativ funksiyalar hamda suzuvchining texnik mahorati o'rtasida o'zaro bog'liqlikning yo'qligi sabab bo'ladi. Ushbu holda kuch imkoniyatlarini yutuqqa erishish, uni o'stirish uchun shart - sharoit hisoblanadi.

Bu musobaqa faoliyatiga xos bo'lган harakat va vegetativ funksiyalarning maxsus namoyon bo'lishi bilan kuch tayyorgarligini «bog'lashga» qaratilgan maxsus ishini taqozo etadi.

Kuch sifatlarning rivojlanish darajasi, sport harakatlari texnikasining takomillashuvi, vegetativ tizimlar faoliyati darajasi o'rtasidagi «birlikda ta'sir ko'rsatish» tamoyilini qo'llashga imkon yaratadi. Mazkur tamoyil olimlar tomonidan har jihatidan ilmiy asoslab berilgan. Ushbu tamoyilning mohiyati shundan iboratki, jismoniy sifatlarni rivojlantirish vegetativ tizimlar imkoniyatlarini oshirish hamda sportchi texnik mahoratining asosiy tarkibini hosil qilish uchun uslubiy jarayonlarni ta'minlash zarur.

Agar ushbu tamoyilga amal qilinsa, o'sib borgan jismoniy va funksional tayyorgarlik darajasi texnik mahorat bilan uzviy bog'liqlikka ega bo'ladi.

Bunda yaxshi (silliq) yo'lga qo'yilgan tizim yaratiladi. Suzuvchilarning kuch tayyorgarligi jarayonda asosiy musobaqa mashqlarning koordinatsion xususiyatlariga muvofiq bo'lgan mashqlarning bajarilishi majburiy hisoblanadi.

Bunday muvofiqlik shunday mashqlarga xosdirki, bu mashqlarni bajarilishi jismoniy sifatlarini rivojlantirish bilan birga sport texnikasining asosiy parametrlarini ham takomillashtiradi.

Hamma mushak tizimi yoki ayrim mushak guruhlariga ta'sir ko'rsatishga yordam beradigan turli mashqlar kuch tayyorgarligi vositalariga kiradi. Umumi kuch tayyorgarligi vositalarini umumi qisman va mahalliy (lokal) ta'sir ko'rsatuvchi mashqlarga ajratish mumkin.

Umumi ta'sir ko'rsatuvchi mashqlarga shunday mashqlar kiradiki, ularni bajarish paytida inson mushaklarning umumi sonidagi 2/3 qismidan ko'prog'i ishtirok etadi. Qisman ta'sir ko'rsatuvchi mashqlarda 1/3 dan 2/2 gacha, lokal ta'sir ko'rsatuvchi mashqlarda hamma mushaklarning 1/3 qismigacha ishtirok etadi.

### *Kuch imkoniyatlarini tarbiyalash uslubiyati*

Umumi kuch tayyorgarligini oshirishga qaratilgan mashqlar turli-tuman moslamalar bilan yoki ularsiz bajarilishi mumkin. Shtanga, izokinetik trenajyorlar, to'ldirma to'plar, blokli moslamalar, spanderlar, rezinali amortizatorlar bilan bajariladigan mashqlar eng samarali hisoblanadi.

Yordamchi kuch tayyorgarligi vositalariga suzishda asosiy yoki qo'shimcha nagruzka oladigan mushaklar va mushak guruhlariga talab ta'sir ko'rsatishga imkon beruvchi turli xildagi og'irliliklar bilan bajariladigan mashqlar kiradi. Bu yerda lokal va qisman ta'sir ko'rsatuvchi mashqlarning imkoniyatlari juda keng. Ularni turli xil og'irliliklar hamda qarshiliklar bilan bajarish mumkin.

Maxsus kuch tayyorgarligi vositalarga shunday mashqlar kiradiki, ular suzishda asosiy nagruzkani ko'taradigan mushaklarning kuch imkoniyatlarini talab rivojlantirishga yordam beradi. Bu mashqlar quyidagilar : musobaqa masofasini maksimal, yengil yoki unga yaqin bo'lgan shiddat bilan suzib o'tish; turli xil og'irliliklar (tormozli moslamalar, lopatkalar va h.k.) bilan suzish; bog'liq holda (bir joyida berilgan tezlikda) maksimal, yengil yoki shunga yaqin shiddat bilan suzish; qo'llar va oyoqlar yordamida qisqa masofalarni tez suzib o'tish; bog'liqlik holda bir joyida yoki berilgan tezlikda; maksimal, yengil yoki shunga yaqin shiddat bilan suzish. Bunday vositalardan foydalanish suzuvchining nafaqat maxsus kuch sifatlarini oshirishga yordam beradi, balki umumi yoki yordamchi

tayyorgarlikdagi mashqlar yordamida erishilgan kuch imkoniyatlarini amalga oshirishning samarali yo'li hisoblanadi.

Turli trenajyor qurilmalarning joriy etilishi mushaklar ish tartibini yanada to'liqroq ajratib ko'rsatishga imkon yaratadi. Jumladan, hozirgi vaqtida quyidagi tartibda bajariladigan kuch yo'nalishdagi mashqlarni ajratish qabul qilingan, ya'ni:

1. Izometrik ( statik) tartib.

2. Izotonik (dinamik) og'irlilikni oshirish hamda yengib o'tuvchi va chekinuvchi xususiyatga ega ish uyg'unligidagi rejim.

3. Izotonik (mushaklar ishning chekinuvchi tartibida).

4. Izokinetik.

5. O'zgaruvchan qarshilik ko'rsatish tartibi.

Bunday ajratish juda qat'iy bo'lib, hamma tartiblardan, izometrik tartibdan tashqari dinamik xususiyatga ega bo'lgan ishlarning turli xil variantlari mavjud. Biroq uslubiyat trenajyor moslamalari va samadarligiga aniq farqlar malakali suzuvchilarning kuch tayyorgarligiga jarayonini bo'lish hamda tartibga keltirish uchun yordam beradi.

Izometrik tartibda trenirovka qilish. Mushaqarning izometrik ish tartibidagi foydalanishda kuchning o'sishi faqat qo'llanilayotgan mashqlarga mos bo'lgan harakat traekoriyasi qismiga nisbatan kuza tiladi.

Shuni hisobga olish lozimki, bu tartibda kuchni mashq qilish natijasida hosil qilingan kuch dinamik xususiyatlariga ega ishlarga taalluqli bo'lmaydi va maxsus harakatlarni bajarish paytida kuch sifatlarning amalga oshirish uchun maxsus trenirovkani davom ettirish taqozo etiladi.

Izometrik tartibda trenirovka qilishda kuch sifatlarning o'sishi sportchilar kuch imkoniyatlarining kamayishi bilan kuzatiladi. Bu kuch trenirovkasidan bir nechta haftadan so'ng aniq namoyon bo'ladi.

Izometrik tartibda trenirovka qilishning afzalliklari borasida shuni ta'kidlash joizki, bu tartibni suzuvchilar trenirovkasida juda cheklangan hamda qo'llashga to'g'ri keladi, ayrim mushak guruhlariga lokal ta'sir ko'rsatish imkoniyati mavjud. Lokal statik zo'riqishlarda asosiy sport texnikasi elementlarining aniq kinetik sezgirligi namoyon bo'ladi.

Bu kuch sifatlarni oshirish bilan birga uning alohida parametirlarini takomillashtirishga yordam beradi. Chegaraga yaqin

statik zo'riqishlarning davomiyligi dinamik sharoitlarda qayd qilingan zo'riqishlardan bir necha bor yuqori bo'ladi.

Maksimal kuchni rivojlantirish vazifasi hal qilinayotgan paytda statik tartibda trenirovka qilishda maksimal yoki unga yaqin darajadagi zo'riqishlardan foydalanishga intilish zarur.

Suzuvchilarning kuch tayyorgarligi vazifasini harakatlarning turli qoidalarga nisbatan rivojlantirishni taqozo etadi. Bu har bir fazasi bir-biriga yaqin bo'lgan mashqlar seriyalarini qo'llash zarurligini keltirib chiqaradi. Statik mashqlar har kuni yoki nisbatan hajmda takrorlashlar bilan (10-15 gacha) kunora bajarilishi mumkin. Ularning har birining davomiyligi maksimal kuchini rivojlantirishda 5-6 s. dan 10-12s, gacha kuch chidamlilagini rivojlantirishda 10-15 s. dan 30-40 s, gachani tashkil etadi. Izometrik mashqlarni bajarishda eng yaxshi nafas olish texnikasi quyidagicha; mashqlardan oldin chuqur nafas olish; nafasni bir necha sekund ushlab qolish, mashqning yakunlovchi qismida sekin nafas chiqarish.

Izometirk tartibda trenirovka qilish (og'irlilikning muntazam kattaligi va yengib o'tuvchi hamda chekinuvchi xususiyatiga ega bo'lgani ish uyg'unligida).

Dinamik tartibda an'anaviy og'irliliklar bilan masalan, shtang mashqlar bajarish paytida hamma harakatlar davomida qarshilik doimiy bo'ladi. Shu vaqtning o'zida suzuvchilarining turli harakat vazifalaridagi kuch imkoniyatlari, kuch berish kattaligi o'zgarishi sababli, muhim darajada o'zgaradi hamda mushaklar maksimal qarshilikni faqat harakat amplitudasining eng chekka nuqtalarida sezadilar.

Shtanga moslamalari yoki shunga o'xshash og'irliliklar bilan bajariladigan mashqlar tezkor ishga nisbatan kuch imkoniyatlarni rivojlantirish uchun unchalik muvofiq emas. Bu shu orqali tushuniladiki, bunday mashqlar doimiy katta bo'limgan toshlarda bajarilishi lozim. Faqat shundagina harakatning hamma amplitudasi bo'lib mushaklarga bosim berish ta'minlanadi. Shtanga yoki boshqa snaryadlar bilan yuqori tezlikda harakatlarni bajarish paytida samarasiz bo'ladi, chunki harakat boshlanishdan maksimal kuchlanishlarni qo'llash snaryadga tezlanish beradi.

Bundan tashqari, so'nggi o'rinnlarda turli harakatdagi mashqlarni bajarish paytida mushaklar deyarli nagruzka sezmaydi. Masalan,

shtangachi turli xilda ko'tarib tushurishlar, parallel bruslarda ko'tarilish-tushurishlar.

Bu hamma kamchiliklar inventarning oddiyligi, qulayligi mashqlarning turli-tumanligi bilan (ular shtanga, gantellar, blokli moslamalar, raqibning qarshilik ko'rsatishi bilan; gimnastika snaryadlari: bruslar, turnik va hokazolarda bajarilish mumkin) qo'llanadi.

An'anaviy dinamik kuch trenirovkasining turli - tuman vositalari mushak apparatiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi, kuch sifatlari va texnik mahoratlarning asosiy elementlarining birgalikda takomillashuvi ta'minlanadi.

Mushaklarning yengib o'tuvchi va chekinuvchi ish tartibi harakatlarini yetarlicha katta amplituda bilan bajarish uchun sharoitlar yaratadi. Bu kuch sifatlarining namoyon bo'lishi va ularni rivojlantirish uchun ijobiy omil hisoblanadi.

Mashqlarni oqilona tanlash yo'lli orqali (masalan, harakat amplitudasi cheklangan to'g'ri yo'nalishdagi mashqlardan foydalanish) mushaklarga nisbatan nagruzkaning (tezkor kuch shundagi enersiyalilik natijasida kelib chiqqan) kamaiyishi bilan bog'liq bo'lган mazkur tartib kamchiliklarni ma'lum darajada qoplash mumkin.

Ushbu tartibdagi kuch trenirovkasini oddiyligi hamda yengilligi (qulayligi) malakali suzuvchilar tayyorgarligiga an'anaviy dinamik xususiyatiga ega bo'lган kuch ishlarining katta hajmini belgilab beradi.

Biroq shuni aiytish joizki, ushbu tartibdagi trenirovka asosan asosiy fundamentni hosil qilish (birinchi navbatda, maksimal kuchni rivojlantirish) bilan bog'liq bo'lган umumiyl jismoniy tayyorgarlik vazifalarini hal etish uchun qo'llaniladi.

Maksimal kuchni rivojlantirishda katta og'irliklar bilan (maksimaldan 75-80%) kam marta takrorlangan holda bitta yondashishda 6-8 marta sekin suratda.

Mushak va ichki mushak koordinatsiyasini takomillashtirish hisobiga kuchni oshirish bilan bog'liq (yengib o'tuvchi ish qismi uchun 0.8-1.0 s, chekinuvchan ish uchun 1-2 sekund). Tanaffuslar davomiyligi 2-3 min, gacha.

**O'zgaruvchan qarshiliklar tartibiga trenirovka qilish.** Ushbu tartiblarning ajratilishi to'g'ridan-to'g'ri turli xildagi trenajyorlardan foydalanish bilan bog'liq. Ushbu trenajyorlarning qurilish xususiyatlari mushaklarning aniq imkoniyatlarini hisobga olgan holda

harakatning turli qismlarida og'irlik kattaligini o'zgartirish imkon beradi. Suzuvchilarning tayyorlash amaliyotida prujinali - richagi trenajyor keng qo'llaniladi. Bu Mertens - Xyuttel trenajyori bo'lib, undan har xil usulda suzishda qo'l harakatlarini imitatsiya qiluvchi turli-tuman mashqlari bajarish uchun foydalaniladi. Trenajyorning tuzilish xususiyatlari va prujinalar sonini o'zgartirilishi har xil qo'l harakatlarini bajarishda mushaklarning aniq imkoniyatlariga qarshilikni «moslashtirish» imkoniyatini beradi.

O'zgaruvchan tartibda trenirovka qilish uchun oxirgi yillarda «natarus» tipidagi trenajyor keng tarqalgan. Uning tuzilish xususiyatlari harakat bajarilishini ta'minlovchi mushak guruhlarining aniq imkoniyatlariga muvofiq holda qarshilikni keng diapazonida tartibga solishga yordam beradi. Qarshilikni o'zgartirish richaglar hamda ekssentriklarni qo'llash yo'li orqali oshiriladi.

Bunda ularning uzunligi harakat davomida o'zagartirib boriladi. O'zgaruvchan qarshiliklar tartibidagi trenirovkaning muhim ustunligi («Nautilus» ternajyori qo'llanilganda) shundan iboratki, bu trenajyrlarning tuzilish xususiyatlari harakatlarini mutlaqo katta amplituda bilan bajarilishni nazarda tutadi, shu tariqa ishning chekinuvchan qismida ishlayotgan mushaklarning maksimal cho'zilishini ta'minlaydi. Bu ikkita sabablarga ko'ra juda muhimdir: birinchidan, oldin yaxshi cho'ziltirilgan mushaklar yuqori darajadagi kuch sifatlarni namoyon qilishga qodir; ikkinchidan, bir vaqtning o'zida kuch sifatlarni hamda egiluvchanlikni namoyon bo'lishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Katta harakat amplitudasini an'anaviy mashqlarni oqilona tanlab olish hisobiga ta'minlash mumkin.

Masalan, turnikda tortilish yoki yotgan holda shatanga bilan qo'llarni bukib yozish mashqlarni bajarish paytida faqtgina ushslash kengligini o'zgartirish mumkin. Biroq mashqlar oqilona tanlansa ham, harakat amplitudasi, odatda, chegaradan uzoq. Shu vaqtning o'zida «Nautilus» ternajyorning har birining tuzilish xususiyatlari maksimal harakat amplitududasini ta'minlashga yordam beradi. Shu orqali kuch sifatlarning maksimal rivojlanishi hamda kuch va egiluvchanliklarning birligida rivojlanishga erishiladi. Shu bilan birga o'zgaruvchan qarshiliklar rejimida trenirovka qilishning bir qator kamchiliklari ham mavjud. Suzuvchi yondashishning har bir takrorlanishda doimiy ravishda og'irlik, balki ishslashga majbur. Masalan, agar Mertens-Xyuttel trenajyorlarida 30 kg, li og'irlikni

ta'minlovchi uchta prujina o'rnatilgan bo'lsa, unda suzuvchi birinchi hamda oxirgi harakatlarda (ular 50 dan ortiq bo'lishi mumkin) mashqlarni shu og'irlilik bilan bajarishga majbur bo'ladi. Boshqa trenajyorlardan foydalanishda ham ahvol shunday, ya'ni trenajyor og'irlikni har bir takrorlanishdagi mushaklarning aniq imkoniyatlariga moslashtirishga imkon bermaydi.

Bundan tashqari, Mertens-Xyuttel trenajyori teskari harakatlanish paytida mushaklarning cho'zilishini ta'minlaydi. «Nautilus» tipidagi trenajyorlar rivojlantirilayotgan kuchlanishlar nazorat qilishga imkon yaratmaydi: ular qo'llaniladigan og'irliliklar noto'g'ri o'rnatalishi tufayli mushaklarning haddan ortiq cho'zilishi va shikastlanishi sodir bo'lishi mumkin. Biroq ushbu moslamaning eng katta kamchiligi – bu uning qo'polligi, tayyorlash uchun qiyinchilik tug'dirishi, bitta trenajyorda har xil mashqlarni bajarish bo'lmassisligidadir (har bir trenajyorlar bitta mashqni bajarish uchun mo'ljallangan).

O'zgaruvchan og'irliliklar tartibidagi trenirovka turli xil kuchni; maksimal, portlovchan, kuch chidamliligini rivojlantirishga qaratilgan. Hammasi trenirovka nagruzkalarning asosiy tarkiblarini rejalashtirish uslubiyatiga bog'liq.

Suzuvchining kuch tayyorgarligini umumiylar maxsus tayyorgarlikka ajratish qabul qilingan. Umumiy kuch tayyorgarligi xususiyatiga ega bo'lgan mashqlar yordamida amalga oshiriladi va suzish jarayonida katta nagruzka oladigan turli mashq guruhlarning kuch imkoniyatlarini oshirish maqsadga ega. Umumiy kuch tayyorgarligi ushbu holda maxsus kuch tayyorgarligi uchun asos sifatida qaraladi.

Umumiy kuch tayyorgarligi malakali suzuvchi faqat uning ixtisosligi xususiyatlari, jismoniy sifatlarning namoyon bo'lishi xususiyatlari, musobaqa faoliyatidagi texnik malakalari hisobga olingan taqdirdagina muvaffaqiyat keltirilishi mumkin. Agar nafas hisobga olinmasa, umumiy kuch tayyorgarligi suzuvchining organizmning har tomonlama jismoniy rivojlanishi bo'limlaridan biri sifatida qaralsa, bu hol natijalarining pasayib ketishiga sababchi bo'lishi mumkin. Buni ayniqsa, malakali sportchilarni tayyorlashda e'tiborga olish zarur. Chunki ularda trenirovka jarayoni to'g'ri tashkil etilganda har bir umumiy rivojlantiruvchi mashq aniq maxsus kuchning namoyon bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qilishi lozim.

Bunda yuqori malakali sportchilarning umumiy kuch tayyorgarligi nafaqat umumiy, balki yordamchi xususiyatiga ega. Shuning uchun umumiy va maxsus kuch tayyorgarligi bilan bir qatorda yordamchi tayyorgarlikni ajratib ko'rsatish kerak. Bunday tayyorgarlik o'zining vazifalari hamda mazmuniga ko'ra umumiy va maxsus tayyorgarlik o'rtasida oraliq holatni egallaydi.

Maxsus kuch tayyorgarligi suzish uchun xos bo'lgan sharoitlarni hisobga olgan holda kuch sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Bunda nafaqat suzishda asosiy nagruzka ko'taradigan mushak guruhlari imkoniyatlarini rivojlantirish, balki kuchning namoyon bo'lish xususiyatlari hamda musobaqa texnikasining dinamik va makon-vaqt parametrleri o'rtasidagi uzviy bog'liqlik nazarda tutiladi.

Umuman, shuni aytish joizki, turli xildagi trenirovka mashg'ulotlarida kuch tayyorgarligi vositalarini rejalashtirishda ikkita asosiy qoidani hisobga olish zarur. Birinchisi-tegishli kuch sifatini muvaffaqiyatli oshirish uchun zarur bo'lgan uslubiy sharoitlarni ta'minlash. Ikkinchisi-kuch tayyorgarligi vositalari va uslublarning trenirovka mashg'ulotlarning boshqa vazifalariga muvofiqligi.

Turli xil ustuvor yo'nalishga ega bo'lgan kuch mashqlarni mashg'ulot davomida taqsimlash ketma-ketligi tegishli uslubiy sharoitlarga amal qilish zaruriyati bilan belgilanadi va u quyidagicha bo'lishi lozim: birinchi navbatda, portlovchi kuchni oshirishga qaratilgan mashqlar bajariladi, keiyin maksimal kuchni, va niyoyat, kuch chidamliligini rivojlantiruvchi mashqlar bajariladi.

Ushbu ketma-ketlik ham suvda, ham quruqlikda bajariladigan mashqlarga taalluqlidir. Bunda shuni hisobga olish zarurki, bitta kuch sifatini rivojlantirishga qaratilgan mashq tugagandan songgina boshqa sifatlarni rivojlantirishga o'tish mumkin.

Kuch tayyorgarligi vositalarining hajmi qat'iy individual tarzda belgilanadi va quiydagisi omillar bilan aniqlanadi:

1. Mashg'ulotning ustuvor yo'nalishi.
2. Trenirovka bosqichi va davri.
3. Sportchi yoshi va malakasi.
4. Turli kuch sifatlari darajasi.

5. Kuch xususiyatiga ega bo'lgan har xil mashqlarning ko'tarish imkoniyatlari.

Aytib o'tilgan omillar kuchga yo'naltirilgan mashqlarning bajarilish vaqtini belgilab beradi. Bu yerda 15-20 min, dan 1,5 soatgacha

chechinishlar mumkin. Sarflanish vaqtin, kuch tayyorgarligining yo‘nalishi va boshqa bir qator parametrlariga qarab alohida mashg‘ulotdagি mashqlar soni, yondashishlarning umumiy miqdori o‘zgarib turadi.

Turli xil kuch tayyorgarligi tomonlarini oshirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni uyg‘unlashtirishda shunga e’tibor berish lozimki, mikrosikllarni iloji boricha turlicha ustuvor yo‘nalishdagi mashqlar birga qo‘llanilishi zarur. Masalan, dushanba, chorshanba va juma kunlari ko‘proq portlovchan hamda maksimal kuchni oshirishga qaratilgan mashg‘ulotlar, seshanba, payshanba hamda shanba kunlari esa kuch chidamlilagini oshirishga qaratilgan mashg‘ulotlar o‘tkazilishi mumkin.

Kuch sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan trenirovka mashg‘ulotlari dasturini rejalashtirayotib, mashqlarni shundaiy taqsimlash lozimki, ish jarayonida har xil mushak guruhlarning ishtiroti ta’minlashi zarur.

Kuch tayyorgarligi uslubiyatining eng muhim qoidalaridan biri bitta trenirovka mashg‘ulotlaridan ikkinchisiga qadar birin-ketin qarshiliklarni muntazam oshirib borish yoki takrorlash soniga ko‘paytirishga intilish hisoblanadi. Bunda har bir yondashishda maksimal ish qobilyati ko‘rsatkichlarini namoyon etishga harakat qilish kerak.

Masalan, agar suzuvchi maksimal kuchni rivojlantirish ustuda ishlayotgan bo‘lsa hamda alohida mashqdagi harakatlarini 8 marta takrorlash qobilyatiga ega bo‘lsa, u buni 10-12 marta bajarishga intilish lozim. Bu natijaga erishilgandan so‘ng qarshilikni 3-5% ga oshirish zarur. Bu takrorlashlar sonini 6-8 gacha kamaytirish imkonini beradi. Bu yo‘l sportchi organizmining hamda imkoniyatlarini to‘liq safarbar etishga yordam beradi. Mushaklarning kuch imkoniyatlarini oshirish uchun turtki bo‘lib xizmat qiladi.

Har qanday turdagи kuchni rivojlantirishda hisobga olish lozim bo‘lgan eng muhim usuliy qoida shundan iboratki, harakat katta amplituda bilan bajarilishi shart. Faqat shundagina ishda qatnashadigan mushaklarning nagruzka bilan to‘liq ta’minlashni rivojlanishi, keyinchalik esa hamma harakat fazalarida kuchning namoyon bo‘lishi, shikastlanishning bartaraf qilinishi ta’minlanadi. Shuning uchun takrorlashdan - takrorlashga o‘tish paytida oshib borayotgan toliqish kuzatilganda harakat amplitudasini kamaytirish hisobiga

mashq bajarishni yengillashtirish kerak emas (bunday hol amaliyotda ko‘p uchraydi). Nisbatan standart (bir qolipdagi) kuch dasturini uzoq vaqt bajarish shunga olib keladiki, sportchi organizmi bunday nagruzkaga moslashib qoladi va bajarilayotgan mashqlar zarur trenirovka samarasini bermaydi. Trenirovka jarayoni doimo har xil shaklda tashkil etish yo‘li orqali kuch sifatlarning rejali asosida oshirishga erishish mumkin.

### *Suzuvchining chidamlilik. Chidamlilik tushunchasi. Chidamlilik to‘g‘risida tushuncha*

Chidamlilik – suzuvchi uchun zarur eng asosiy sifat hisoblanadi. Suzuvchining chidamliligi deb – uni masofani suzib o‘tishda charchoqqa qarshi tura olish qobilyati hisoblanadi.

Chidamlilikni qisqa va uzun masofada suzish tezligini bir-biriga taqqoslashtirish yo‘li orqali baholanadi.

#### *Chidamlilik ikkiga bo‘linadi: umumiyligini va maxsus chidamlilik.*

Suzuvchilarning chidamliligini talab qiluvchi hamda obyektiv metrik o‘lchovlar bilan baholanadigan o‘rtalik va uzoq masofaga suzish, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari, organizmdagi modda almashinuv jarayonlarning holatiga oid ko‘rsatkichlar qo‘llanadi, chidamlilik vositalar va vositalarsiz o‘chanadi.

Chidamlilikni vositali o‘lchash uchun ma’lum tezlik bilan suzish tavsiya qilinadi hamda o‘scha intensivlikni bo‘shashtirmay ushlay olish vaqtini hisoblanadi.

Suzishda bu turdagi chidamlilikni asosan 800 va 1500 metrga suzganda namoyon bo‘ladi va mashqlarning davom etish vaqtini 8 va undan katta daqiqalarda bajariladi. Suzish deyarli barcha muskullar harakat faoliyatida ishtiroy etadi.

Shuning uchun charchoq ayrim muskullar guruhida hamda organizmning barcha muskullarida bo‘lishi chidamlilikni maxsus va umumiyligini keltirib chiqaradi va shakl jihatdan bir xil bo‘lgan mashqlarni turli intensivlikda bajarish imkonini yaratadi.

Bunda chidamlilik ham turlicha namoyon bo‘ladi. Shuning uchun jismoniy mashqlarni bajarishda organizmning charchoqqa nisbatan talabi turlicha bo‘ladi. Chidamlilik talab qilinadigan mashqlarni bajarishda suzuvchining funksional imkoniyatlari, bir

tomondan, lozim bo'lgan harakat malakalari va texnikani egallaganligi darajasiga bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan, organizmning aerob va anaerob (kislород, kislородсиз) imkoniyatlariiga bog'liq.

Nafas imkoniyatlarning xususiyligi nisbatan yuqori emas, ular harakatni tashqi formasiga ham yetarli bog'liq bo'lmaydi.

Shuning uchun suzish yordamida o'zini aerob imkoniyatlari darajasini oshirgan shug'ullanuvchi boshqa harakatlarni bajarishda chidamlilikidan ijobiy nafas oladi.

Umumiyligi chidamlilik darajasi bir necha faktorlar bilan aniqlanadi. Eng muhimlari uchta: umumiyligi chidamlilikini biologik asosi organizmning aerob imkoniyatlari; harakatlarning ekonomiya darajasi; umumiyligi chidamlilikni psixologik asosi – sabr-toqatli bo'lishi.

Suzishda ko'pgina mashqlar natijasida ko'pincha – maxsus chidamlilikka bog'liq. Suzishda maxsus chidamlilik – juda murakkab, ko'p komponentli sifat bo'lib, musobaqa masofalariga bog'liq holdagi aniq tizimga egadir.

Umumiyligi chidamlilik tarbiyalashning asosiy shartlaridan bo'lib, bu uzoq muddat davomida trenirovka mashg'ulotlari yuklamasini berilgan rejimda bajarishdir, ya'ni ishni me'yorini katta quvvatda bajarish.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik suzuvchilarining mazkur turini bajarish uchun nima talab etilishga qarab, sportchi organizmining hamma funksional imkoniyatlarini, hamma organlari va sistemalarini yuqori darajada rivojlantirishga qaratilgan.

Lekin umumiyligi tayyorgarlikda kuchni, tezkorlik, chidamlilikni, chaqqonlikni, egiluvchanlikni rivojlantiruvchi mashqlar asosiy rol o'ynaydi. Xuddi shu jismoniy fazilatlarda suzuvchilarining butun organizmdagi organlar va sistemalar ish qobiliyatiga asoslanib, uning harakat qilish imkoniyati aks etadi.

Chidamlilikni rivojlantirish katta nagruzkalar hissasiga bardosh berishda tayyor turishni tarbiyalash bilan olib boriladi. Suzuvchilar mashg'ulotda ozmi-ko'pmi charchoqni his qilsa, ularda chidamlilik ortib boradi. Bu esa tashqi tomondan chidamlilikning ortib borishida namoyon bo'ladi.

Moslashuv o'zgarishlarning miqdori va qay maqsadda qaratilganligi, trenirovka nagruzkalarini natijasiga organizmdagi javob reaksiyasi xarakteri darajasi bilan belgilanadi.

Suzuvchi tayyorgarligini har bitta yangi bosqichda takomillashishiga qaratilgan ishlarni amalga oshirishdan iborat.

Bunda shu narsa kuzatiladiki, ya'ni umumiy chidamlilik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, shunga qarab yurak-qon tomirlari nafas va boshqa funksional tizimlar imkoniyati ham ortadi va ular aerob imkoniyatlar darajasini ta'minlab beradi, bu esa o'z navbatida xohlagan sport turlarida sport faoliyatini muvaffaqiyatli takomillashtirishga imkoniyat yaratadi.

Shuning uchun tabiiyki *umumiy chidamlilik* darajasi ustida ishslashning 1500, 800, 400m va sezilarli holda 200m masofalarda ko'rsatilgan natijalarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sirini ko'chirish.

Uzun va o'rta masofalarga suzuvchilarda umumiy chidamlilikni rivojlanishi suzuvchilarning ishni katta va me'yoriy shiddat bilan samarali bajarish imkoniyatlarini oshishi bilan bog'liqdir.

Umumiy chidamlilikni rivojlanishi uchun turli xildagi umum-tayyorlov, ko'makovchi, maxsus tayyorgarlik va musobaqa mashqlari qo'llanadi.

Ushbu tanlab olingan mashqlariga qo'yilgan asosiy talablar shundan iborat, ya'ni ish uzoq muddat davomiylikka ega bo'lishi, energiya bilan ta'minlovchi tizim imkoniyatlaridan mumkin qadar nisbatan to'liq foydalana bilish jarayonida yaqqol ko'zga tashlanuvchi charchoqqa erishish.

Yordam beruvchi, ko'makovchi va maxsus-ko'makovchi mashqlarni ham quruqlikda, ham suvda bajarish mumkin.

Quruqlikdagi bu mashqlar asosan kuch bo'lgan xarakterdagi mashqlardan iborat bo'lib, ular har xil turdag'i trenajorlardan iboratdir.

Suvda esa har xil bo'laklarga va masofalarga asosiy yoki qo'shimcha usullarda qarshiliklar bilan yoki atarsiz suzib o'tish yoki alohida qo'lda va oyoqda suzish va hokazolar.

Ushbu mashqlar maxsus chidamlilikni yaxshilab rivojlantirishga qaratilishi yoki uning ayrim komponentlarni takomillashtirishi mumkin.

Musobaqa mashqlari maxsus chidamlilikni yaxlit holda takomillashtirishda kuchli vosita bo'lib hisoblanadi.

Umumiy hamda maxsus chidamlilikni tarbiyalashda mashg'ulotlarda mashqlar soni, o'sishni umumiy hajmi, ishni xarakteriga, uni shiddatligini, suzuvchilarni mahorati va trenirovka qilmaslikka, yuklamaga bog'liq bo'ladi.

Umumiy chidamlilik deganda, spotchining nisbatan o'ta yuqori harakat bilan mashqni bajarishi, ya'ni 400-1500m suzish masofani tez bosib o'tishi tushuniladi. Bu esa asosan organizmni aerob imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi.

Aerob imkoniyatlar deganda nima tushunish kerak. Bu organizmni shunday qobiliyatlarki, bunda kislород ishtirokida hosil bo'lgan birikmalarni parchalashi hisobiga mushaklar ishini ta'minlab berishdir.

Aerob imkoniyatlardan asosiy ko'rsatgichlaridan biri bu kislороддан minimal foydalanish. U yurakni bir daqiqadagi va yurak urishi hajmi, yurak urish, qon aylanish tezligi, O'TS va hokazo faktorlarga bog'liq bo'ladi. Sport darajasiga o'tish bilan kislороддан minimal foydalanish kattaligi sport ustalarida 1 – 5.2-5.61 tashkil etadi.

Maxsus chidamlilikni namoyon bo'lishi asosan anaerob imkoniyatlariga bog'liq, u asosan shuni bajarish jarayonida kislород qarzdorligini miqdori bilan xarakterlidir.

Shunga muvofiq ish natijasida hosil bo'lgan kislород yetishmovchiligidagi alaktat va laktat qabul qilingan. Alaktat anaerob imkoniyatlari suzuvchilarning kuch, tezkorlikka bo'lgan chidamkorlikni funksional asosini tashkil etadi.

Laktat anaerob imkoniyatlar glikogen imkoniyatlar tezkorligiga bo'lgan chidamlilikni funksional asosini tashkil etadi.

### ***Umumiy chidamlilikni tarbiyalash uchun bir me'yorli o'zgaruvchan va oraliq usullardan foydalaniladi***

Bir me'yorli 1500m va undan ortiq masofalarga davomini uzlusiz suzib o'tishi ko'zda tutiladi. Yurak urishi 1ga 140ta to'g'ridan-to'g'ri umumiy chidamlilikni tarbiyalaydi.

O'zgaruvchan va oraliq uzunliklarni, bir me'yorli usuldan farqi shuki, har xil masofalarga suzganda bo'linib suzish kuzatiladi.

Bunda trenirovka nagruzkasi bir necha porsiyalarga bo'linadi va ular passiv dam olishlar bilan almashinib olib boriladi. Bu esa o'z navbatida ancha shiddatli mashqlarni bajarishga sharoit yaratib beradi.

Bu ikki usulni bir me'yorli usuldan farqi shuki, trenirovkaning davom etish vaqtini kamaytirish imkoniyatini va suzuvchi uchun zarur

bo'lgan muhim sifatlarni takomillashtirishga tavsif etadi (tezkorlari, kuch, kuchli va tezkorlikka bo'lgan chidamliligi).

O'zgaruvchan usul har xil shiddatdagi nagruzkalarni almashtirib berilishini ko'zda tutadi. Tayyorgarligi davrini 1-bosqichida «fartnen» anche uzun bo'lgan bo'limlarga urishi lga 150-170ta atrofida suzib o'tishni qabul qiladi.

Musobaqa davriga yaqin suzib o'tish bo'laklari anche qisqa, tezligi anche yuqori, YUQT daqiqasiga 170 dan 180 zarbagacha tashkil etadi.

Oraliq usuli «porsiya» ishni ko'p marotaba qaytarishini asosan 50, 100 va 200m masofalarni suzib o'tishdan iborat. «Porsiya» ishni shiddati (YUQT daqiqasiga 160 dan 180 zarbagacha) olib chiqish. Dam olish pauzalarida (ular aktiv yoki passiv bo'lishi mumkin) ularni davom etish vaqtin 5 sekunddan 45 sekundgacha, qaytarilish yoki takrorlanish soni 10-12 va 20-70 gacha.

Maxsus chidamlilikni tarbiyalash jarayonida (anaerob ish qobilyati) tanlangan masofada anaerob ish qobilyati va yuqori natija ko'rsatish uchun zarur bo'lgan mushaklardagi energetik jarayonini tejamkorligi ortadi.

Yuqori sport mahoratini egallash uchun suzuvchi «zapas tezlikka» ega bo'lishi kerak, negaki submaksimal zonada va katta quvvat bilan yuqori natijalarga erishish uchun qisqa bo'laklardagi tezlikni, butun yaxlit olingen o'rtacha tezlikdan yuqori bo'lishi kerak.

Maxsus chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan trenirovka mashg'ulotlarida oraliq, takroriy, o'zgaruvchan, musobaqa usullari qo'llaniladi.

Maxsus chidamlilikni baholash uslubiyatidan maxsus chidamlilik indeksi (MCHI) yordamida amalga oshiriladi, u quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\text{MCHI natijasi} = \frac{V \text{ masofa}}{V \text{ mutlaq}}$$

Bu yerda: MCHI – musobaqa masofani suzib o'tish natijalariga ko'ra maxsus chidamliligi indeksi.

V masofa – musobaqa masofasini suzib o'tishdagi o'rtacha tezligi; m\sek.

V mutlaq – suzuvchi 25m bo'lakda unga xos bo'lgan tezlikda suzib o'tgach mutlaq tezligi; m\sek.

MCHI qanchalik lga yaqinlashsa, shunchalik maxsus chidamlilik darajasi yuqori bo'ldi.

Maxsus chidamlilikni rivojlantirish ish jarayonida ayrim zo'riqish komponentlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Asosiy trenirovka mashg'ulotlari mashqlari bo'lib, formasi tizimi va organizmning funksional tartibiga ta'sir etish xususiyatlari bo'yicha maksimal musobaqalarga yaqinlashtirilgan maxsus tayyorlov mashqlari hisoblanadi. Bu mashqlarga birinchi galda quyidagilar kiradi: to'liq koordinatsiyada suzish, faqat oyoqlar yoki qo'llar harakati yordamida suzish.

Bu yerda mashqlarni qo'llashda istiqbolli dastur bo'lib, shuni hisoblamoq kerakki, ya'ni bo'laklar uzunligi doimiy yoki bo'lmasa asta-sekin pasayib boruvchi bo'lishi kerak.

Shu shiddati shunday rejalashtirilgan bo'lishi kerakki, ya'ni suzish tezligi musobaqada rejalashtirilgangacha yaqin bo'lishi lozim.

Trenirovka bo'laklari yoki masofalarni davomiyligi shunday tanlanadi, ya'ni suzuvchi musobaqada rejalashtirilgan tezlikka yaqin bo'lgan tezlikni ushlab turish qobiliyatiga ega bo'lsin.

Musobaqlarda 100 va 200m masofaga suzish uchun tayyorgarlik ko'rayotgan suzuvchilar uchun eng ommaviy mashqlar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

100 va 200m masofalarda, bo'laklarning davomiyligi 25, 50, 75m. 100 va 200m hisoblanadi; 400m masofa uchun 50, 100, 200m. 400m; 1500m masofa uchun 50, 100, 200, 400, 800m hisoblanadi.

Shunday qilib, maxsus chidamlilikni rivojlanish darajasini oshirish uchun qaratilgan ish hajmini rejalashtirishda aniq holatdan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Boshqa teng sharoitlarga ega bo'lganda mashqlar soni ularni seriyali bajarish hisobiga oshirish mumkin.

### ***Tezkorlik va suzuvchining maksimal tezligi haqida tushuncha berish***

Tezkorlik tushunchasi kishidagi harakatlarning tezlik xarakteriskasini, harakat reaksiyasining vaqtini belgilovchi funksional xususiyatlarning kompleksi tushumiladi.

Tezkorlikni namoyon bo'lishining uchta asosiy shakli mavjud:

- 1) harakat reaksiyasining latent (yashirin) vaqtி,
- 2) aiyrim harakatlar tezligi,

### 3) harakatlar chastotasi.

Kishining tezligi qobiliyatları umuman ancha spesifik bo‘ladi. Faqat bir-biriga qochishi mumkin. Maksimal tezlikda bajariladigan harakatlar fiziologik xarakteristikalarga ko‘ra sekinroq harakatlardan farq qiladi. Bular orasidagi eng muhim farq shundan iboratki, harakatlarni maksimal tezlikda bajarish davomida sensor bog‘lanishlar hosil bo‘lishi qiyinlashadi: reflektor joyi impulslarni tashlab ulgurolmaydi.

Tezlikni rivojlantirish mashqiga 5-10 daqiqa, kuch chaqqonlik va tezlikda esa kuch sifatlarini rivojlantirishga 15-20, tezlik - chidamliligiga 20-30, kuch chidamliligiga 30-40 va 1 daqiqa esa chidamlilikni rivojlantirish uchun mashq bajarilishi lozim.

Shuni hisobga olish kerak bo‘ladiki, jismoniy yuklamalar mashg‘ulotlar jarayonida yoshlarni organizmning funksional imkoniyatlarga muvofiq bo‘lishi zarur.

### *Harakat reaksiyasi tezligini rivojlantirish*

Juda tez va yuksak chastotada bajariladigan harakatlarda mushaklar eng faol ishlaydi.

Harakatlanuvchi reaksiya tezkorligi 2 turga bo‘linadi:

- 1) oddiy reaksiya tezkorligi;
- 2) murakkab reaksiya tezkorligi.

Tezkorlikni namoyon qilish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘yinlar, estafetalarni o‘tkazishda vazifalarni tartiblashtirish lozim bo‘ladi. Bu eslatma mashqning soni va yugurish davomiyligiga, tezligini oshirayotganda vazn kuchini yengishga qaratilgan.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotida tezkorlik kuchini rivojlantirishning kompleks usuliyati samarali hisoblanib, mohiyati nuqtayi nazardan tezkorlik va tezkorlik-kuchini talab qiladigan harakatli o‘yinlar hamda o‘yin mashqlaridan vosita sifatida foydalanish orqali turli xil mushak guruhlariga har tomonlama ta’sir etishdir.

Yoshlarda tezkorlik kuchini tarbiyalashda sakrash mashqlariga, tekis yerda ko‘p marotaba ketma-ket sakrashga ham ahamiyat berilgan.

Ular 5-6 martadan, har bir 20 sek. dan so‘ng takrorlanishi, seryali sakrashlarning dam olish oralig‘i 30-40 sek. gacha, oyoqni

bukmay to‘g‘ri oyoq bilan 3-5 min, seriyalari 20-40 sek. ular orasidagi dam olish oralig‘i 20-40 sek, bo‘lishini tavsiya etadi. Qo‘l, tana, oyoq mushaklariga ta‘sir o‘tkazuvchi maxsus gimnastika komplekslarini maktab jismoniy tarbiya darslarida tezlik-kuch sifatlarini rivojlantirish uchun qo‘llash lozimligini tavsiya qiladi.

U tezlik - kuchini rivojlantiruvchi mashqlarni yangi materialni o‘rganishdan oldin, mustahkamlash va oldin o‘zlashtirilgan materialni takomillashtirishdan avval bajarishni ta‘kidlaydi.

Oddiy reaksiya oldindan ma’lum bo‘lgan signalga ma’lum harakat bilan javob berishdir.

Tezkorlik sifatini tarbiyalash uchun 4 - 5 martani takrorlash bilan ikki seriyali yugurishni takrorlashlar orasida dam olish oralig‘i 10-20 sek, seriyalar orasida esa 30 - 40 sekund vaqtini, 2 - 4 marta takrorlashlarni 2 seriyada har birini 20-30 sek, oralig‘ida va seriyalar orasida dam olish 60-90 sek, bo‘lishni taklif qilmoqda.

Dam olish oralig‘i kichik bo‘lishni maqsadga muvofiq deb, ularni doimiy emas, turlicha qilib variantlashni taklif qiladi. Yaxshi tiklanishga ta‘sir etadigan omil-statik zo‘riqish ko‘rinishidagi faol dam deb hisoblanmaydi va o‘ta zo‘riqishdan mushaklar bo‘shashtirilishi amalga oshirilsa, tiklanish oson kechadi, deb isbotlanmoqda.

Suzish tezligini, temp va qadam uzunligi bir-biriga bog‘liq. Bir xil suzish tezlikda, qancha harakat tempi yuqori bo‘lsa, qadam uzunligi shunga kam yoki teskari. Har bir suzuvchi uchun optimal temp va qadam uzunligi bor bo‘lib, u yuqori suzish tezligiga erishadi. Masofalarda suzish tezligi harakat tempi va «qadam» uzunligiga bog‘liq.

Ma’lum bir vaqt ichida harakatlar siklini bajarish tempi, tezligini hosil qiladi.

Eshishni boshlashdagi yuqori temp, tezlik qo‘l va oyoq mushaklarining haddan tashqari zo‘riqishlarga olib keladi, «ushlanib qolishga» imkon bermaydi. Buning natijasida suvning «o‘pirilishi» vujudga keladi.

Bu esa eshish uzunligini kamaytiradi, harakatdagи muskullar va butun organizmning charchashini tezlashtiradi. Asta - sekin tezlashtirilgan eshish unumdorligini oshiradi va imkoniyatdan samarali hamda o‘z vaqtida foydalanishni ta‘minlaydi.

Binobarin, muskul tezlanishning asta - sekin suzishning umumiyligi tezligi ham oshadi. Yetarli muskul kuchga ega bo‘limgan

suzuvchilar eshishning maqsadga muvofiq yuqori tezligini sakrash uchun o‘z imkoniyatlaridan samarali foydalanishlari kerak. Buning uchun qo‘llarni bo‘g‘imlardan kerakli darajada bukib, yelka dastagi qisqartiriladi.

Absolyut tezlik suzishda yuqori sport natijalarini ko‘rsatishda bosh mezon bo‘lib hisoblanadi. Absolyut tezlik darajasi suzuvchining maxsus sharoitida o‘z funksional imkoniyatlarini samarali amalga oshirilishi bilan kuzatiladi.

Suzishda tezkorlikning namoyon bo‘lishidagi muhim uchta elementdan, shakllardan biri harakat tempidir, ya’ni sportchining yakka va uzlusiz takrorlanadigan harakatlarini yuqori tezlikda bajara bilish qobiliyatidir. Mashqlardagi harakat tempi qanchalik yuqori bo‘lsa, sportchining muskul sistemasidagi taranglashish va bo‘shash almashinuvni takomillashgan bo‘ladi.

Maksimal tezlik bilan bajarish mumkin bo‘lgan mashqlar tezkorlikni rivojlantirish vositalari sifatida qo‘llaniladi. Birinchi navbatda, uch guruh mashqlari: umumiy rivojlantiruvchi, o‘z sport turlaridagi maxsus mashqlar va boshqa sport turlaridagi mashqlar qo‘llaniladi. Bunda hech bo‘lmaganda uchta talabni hisobga olish lozim:

1. Mashqlar oxirgi tezlikda bajarilishi kerak.

2. Mashqlar shug‘ullanuvchilar tomonidan shunchalik yaxshi o‘zlashtirilgan bo‘lishi kerakki, harakat vaqtida harakatni bajarish usuliga emas, balki uni bajarish tezligiga zo‘r berish kerak.

3. Mashqning davom etishi (yoki masofaning uzinligi) shunday bo‘lishi kerakki, mashqni bajarish oxiriga kelib tezlik charchash natijasida pasaymasin.

Maksimal tezlikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni tez - tez, lekin kichikroq hamda o‘tkazib turish lozim. Harakatlar tezligini oshirishga qaratilgan mashqlar me’yorini to‘g‘ri belgilash, mashqlarning tezligini pasaytirmay, necha marta takrorlanishini, shuningdek, imkon chegarasi yoki unga yaqin tezlikni pasaytirmay bajariladigan uzlusiz mashg‘ulot ishlarning qancha davom etishini hisobga olish zarur.

Tezkorlikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar yosh sportchining subyektiv sezgilari, charchaganlikning tashqi belgilari yoki sekundomer ko‘rsatkichlari harakat tezligining pasayganligidan dalolat bergan vaqtida to‘xtatiladi. Bu pasayish mazkur mashg‘ulotda

tezkorlikni rivojlantirish ustida olib borilayotgan ishlarni to'xtatish uchun birinchi signal bo'sib xizmat qiladi. Maksimal tezlik bilan bajarish mumkin bo'lgan mashqlar tezkorligini rivojlantirish vositalari sifatida qo'llaniladi.

Birinchi navbatda, uch guruh mashqlari: umumiy rivojlantiruvchi, o'z sport turidagi maxsus mashqlar va boshqa sport turlaridagi mashqlar qo'llaniladi.

Tezlikning o'sish sharti bu eshish kuchining saqlanishi va uning effektiv qismining davomiyligi. Juda yuqori tempda bu parametlar yomonlashishi mumkin. Bundan tashqari, tempning ortish suzuvchi harakati yomonlashuviga olib keladi, o'ta qattiq nafas olishni buzilishiga olib keladi.

### *Suzuvchining egiluvchanligi. Egiluvchanlik rivojlantirish*

Egiluvchanlik deganda, suzuvchining tayanch - harakat apparatidagi xos bo'lgan va uning turli harakatlarini amplitudasini belgilaydigan morfofunktional xususiyatlari tushuniladi. Mazkur sifat bog'imlaridagi harakatchanlikni nazarda tutadi «Egiluvchanlik» atamasi butun tanadagi bog'imlar harakatchanligini yig'indisini baholash uchun ko'proq mos keladi. Gap alohida bog'imlar xususida ketganda, «harakatchanlik» degan so'zni ishlatish to'g'ri bo'ladi: boldir-tovon harakatchanligi, yelka bo'g'imlari harakatchanligi va harakat qilish.

Egiluvchanlikning yuksak darajada rivojlanganligi suzishda sport mahoratini ta'minlovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Bo'g'imlardagi harakatchanlik samarali texnik takomillashuvining zaruriy asosi hisoblanadi egiluvchanlik yetarli darajada bo'limgan hollarda harakat ko'nikmalarini o'zlashtirish jarayoni keskin susayib qoladi, ulardan, ba'zilari esa, ko'pincha suzishda samarali texnikaning hal qiluvchi tarkibiy qismi bo'lsa ham, umuman o'zlashtirilmaydi.

Bo'g'imlardagi harakatchanlik yetishmasligi tufayli harakat amplitudasining chegaralanib qolishi kuch, tezlik, chaqqonlikni namoyon bo'lish darajasini chegaralaydi, mushaklardagi hamda mushaklararo muvozanatni buzadi, ish samaradorligini pasaytiradi.

Egiluvchanlik umumiy va maxsus bo'lishi mumkin. Umumiy egiluvchanlik barcha bo'g'imlardagi harakatchanlikni nazarda tutadi,

u har qanday harakatni katta amplituda bajarishda imkon beradi. Maxsus egiluvchanlik alohida bo‘g‘imlardagi harakatchanlikka bog‘liq bo‘lib, sport turi xususiyatlari bilan belgilanadi.

Suzishning har qanday turiga ixtisoslashgan suzuvchilar uchun avvalo yelka va boldir-tovon bo‘g‘imlaridagi harakatchanlik juda muhim, umurtqa pog‘onasi, tos-boksa, tizza, tirsak hamda bilak bo‘g‘imlari harakatchanligi kamroq ahamiyatga ega.

Maxsus tadqiqodlar guvohlik berishga, suzuvchining yelka va boldir-tovon bo‘g‘imlari maksimal, tos-boksa hamda tizza bo‘g‘imlari katta tirsak va bilak bo‘g‘imlari ortiqcha darajadagi harakatchanlikka ega bo‘lishi lozim. Suzuvchiga egilluvchanlik yetarli darajada ekanligini ko‘rsatuvchi belgi uning turli harakatlar paytida bajarish mumkin bo‘lgan amplitudasining suzish chog‘idagi maxsus harakat faoliyatlarini samarali bajarish uchun xos bo‘lgan harakat kengligidan ancha yuqori bo‘lishdir. Bu farq egiluvchanlik zaxirasi deb ataladi.

Suzishning har xil usullari bo‘g‘imlaridagi harakatchanlik darajasigi o‘ziga xos talablar qo‘yadi. Masalan, krol va brass usulidagi nafas olish xususiyatlari tufayli umurtqaning bo‘yin qismi harakatchanligiga talab katta bo‘ladi, batterflay usulidagi nafas hamda tana harakatining o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra umurtqaning bo‘yin, ko‘krak va bel harakatchanligi yuqori bo‘lishi shart.

Brass usulidagi oyoqlar harakati texnikasi tos-boksa hamda tizza boldir-tovon bo‘g‘imlardagi harakatchanlikka qo‘yiladigan maxsus talablarni belgilaydi.

Faol va nofaol egiluvchanlikni o‘zaro farqlaydilar. Faol egiluvchanlik – bu muayyan bo‘lim orqali o‘tadigan mushaklar guruhi hisobiga katta amplitudali harakatlarni bajara olish qobiliyatidir.

Nofaol egiluvchanlik bo‘g‘imidagi eng yuqori harakatchanlikka tashqi kuchlar ta‘sir natijasida erishishi qobiliyati demak. Nofaol egiluvchanlik ko‘rsatkichlar har doim egiluvchanlik ko‘rsatkichdan yuqori bo‘ladi.

Faol egiluvchanlik turli jismoniy mashqlarni bajarish chog‘ida namoyon bo‘ladi, shuning uchun uning amaliy ahamiyati nofaol egiluvchanliklardan ko‘ra ancha yuqori. Bu ikkinchisi esa faol egiluvchanlikni rivojlantirish uchun zarur zaxira miqyosining aksidir.

Shuni hisobiga olish kerakki, faol va nofaol egiluvchanlik orasida sezilarsiz aloqa mavjud; nofaol egiluvchanlik darajasi yuqori bo‘laturib faol egiluvchanligi uncha rivojlangan suzuvchilar ko‘plab

topiladi va aksincha; nofaol egiluvchanlik darajasi faol egiluvchanlikni oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, lekin bu maxsus suzuvchilarning egiluvchanlik darajasini bevosita belgilaydigan omillarni takomillashtirish bilangina emas, ularning kuch qobiliyatlarini rivojlantirish aniq maqsadni talab qiladi.

Xususan, bunday holat faol va nofaol bo‘ladi egiluvchanlik orasida tafovut katta bo‘lgan sharoitlar yuzaga keladi, u qanchalik yuqori bo‘lsa, kuchning ko‘payishi shunga qarab bo‘g‘imlardagi harakatchanlikning oshishiga olib keladi. Shuningdek, anatomiq, imkon chegaradagi harakatchanlik ham mavjud bo‘lib, uning chegarasini tegishli, oqimlar tuzilishi belgilaydi.

Odatdagi harakatlarni bajarar ekan, inson imkon chegarasidagi harakatlarning uncha katta bo‘lmagan qismidan foydalaniлади, xolos. Sport usullari bilan suzishda harakatga bo‘lgan talab keskin oshadi va alohida texnik elementlarni bajarish chog‘ida anatomiq egiluvchanlikning 80-95% gacha yetadi.

### ***Egiluvchanlikni tarbiyalash uslubiyati***

Egiluvchanlikni rivojlantirish ustida samarali ishslash uchun bog‘imlarning tuzilish hamda ularning harakatchanlik darajasini chegaralovchi omillari haqida hech bo‘lmaganda umumiylasavvurga ega bo‘lish zarur.

Suyaklarning harakatchan birkuvlarida shunday tizimlar borki, ulardan biri bo‘g‘im yuzasi deb ataladi, bu – shu bo‘g‘imni hosil qilgan suyaklar bir-biriga birikadigan yuzasidir. Bo‘g‘imning harakatchanligi bo‘g‘im yuzasi deb ataladi.

Bo‘g‘im harakatchanligi bo‘g‘im yuzasi maydonning o‘lchamiga bog‘liq: ular bir-biriga qanchalik muvofiq bo‘lsa, bo‘g‘im harakatchanligi shunchalik past bo‘ladi. Ikkinci – bo‘g‘im yuzasini qoplab turadigan bo‘g‘imdir. Uchinchi bo‘g‘im hammasidan u zinch tolali biriktiruvchi to‘qimadan tuzilgan bo‘lib, golif singari bo‘g‘imni hosil qiladigan suyaklar biriktiruvini o‘rab turadi. Bo‘g‘im holatining ichki pardasini suyaklarning bo‘g‘im yuzasini «moiylab» turadigan sinoval suyak ajratib turadi.

Bo‘g‘im bo‘shlig‘i hosil qiluvchi suyaklarning bo‘g‘im yuzasi orasidagi toqsimon bo‘shliqdan iborat bo‘lib, har tomonidan ortib turadi. Ushbu asosiy tizimlardan tashqari yordamchilari ham bor;

bo‘ylamlari bo‘g‘im xaltasi qatlami yoki uning ustida, ba’zan bo‘g‘im bo‘shtlig‘i ichida, bo‘g‘im yuzlari orasida joylashgan tomonlari biriktiruvchi to‘qimalarning qalin bog‘lari; ba’zan bo‘g‘imlarda (umurtqa tizza bo‘g‘im) bo‘g‘im suyaklari yuzlari orasida joylashib, ularning o‘zaro muvofiqligini yanada to‘ldirib turadigan tog‘ay plastinkalar mavjud bo‘ladi.

Turli bo‘g‘imlarning tuzilishidagi o‘ziga xosliklar ular to‘qimalarning mosligi birinchi galda shu bo‘g‘imlarda egiluvchanlikning anatomik imkoniyatlari chegaralarini belgilaydi, lekin yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar bo‘g‘im xaltasi ularning cho‘ziluvchanlik xususiyatlarini yaxshilaydi, bo‘g‘im hosil qiluvchi suyak yuzalarini shaklini o‘zgartiradi.

Egiluvchanlikni muayyan darajadagi o‘zaro ziddiyatli mushaklarni zo‘riqqani natijasida cheklanadi. Demak, egiluvchanlik eng avvalo harakatni amalga oshiruvchi mushaklarni bo‘shashish bilan muvofiqlashtirish qobiliyatiga bog‘liq.

Ba’zi mulohazalarga ko‘ra, egiluvchanlik kuch qobilyatlarini yuzaga chiqarishga qarshilik qilarmish va aksincha mushaklar hajmiga asoslanadigan kuch sifatlarini egiluvchanliklarni darajasiga salibiyta’sir ko‘rsatarmish. Tajribada tadqiqodlarni amaliyot natijalarini ko‘rsatyaptiki, bu fikrlar haqiqatan uzoq. Mushaklar cho‘ziluvchanlik tomoniga yaxshilanib borish qobilyatini kuch sifatlarning ko‘proq namoyon bo‘lishiga yordam beradi.

Jismoniy tayyorgarliklar usuliyati to‘g‘ri olib borilgan holda kuch imkoniyatlari sportchining egiluvchanligi aslo chegaralanmaydi. Ayni paytda, uzoq masofalarga yuguruvchilarda mushaklar masofasi ham kam, bo‘g‘imlarning harakatchanligi darajasi ham eng past hisoblanadi.

Egiluvchanlikni rivojlantirish uslubiyati organizm yoshga ko‘ra rivojlanishdagi tarkibni hisobga olgan holda qurilishi lozim. Inson hayoti davomida bo‘g‘im yuzlari kattaligi, mushak va bo‘g‘imlar umurtqalararo disklar o‘lchamlari ancha o‘zgaradi, bu esa bo‘g‘imlarda harakatchanlik kattaligi hamda egiluvchanlikni rivojlantirishga moyillikdagi o‘zgaruvchanlikni keltirib chiqaradi, bo‘g‘imlarning eng ko‘p harakatchanligi kichik va maktab yoshdagisi bolalarda kuzatiladi. Bu esa 10-14 yoshdagisi bolalarda egiluvchanlikni rivojlanishi uchun yaxshi zamin hozirlaydi, mazkur holda uni rivojlantirish ustidagi

urinishlar katta maktab yoshdagiga nisbatan ikki baravar ko‘p samara beradi.

Egiluvchanlik darajasida sportchini jinsi ham katta ahamiyatga ega (u ayollarda erkaklarga nisbatan ancha yuqori bo‘ladi), tashqi muhit xususiyatlari, boshqa omillar ham rol o‘ynaydi. Egiluvchanlik darajasi kun davomida ham o‘zgarib boradi. Ertalab uyqudan turganda egiluvchanlik darajasi eng past bo‘lib, keyin u tobora oshib boradi, kunduzgi eng baland, kecha tomon yana kamayadi.

Maxsus badan qizdirish mashqlarning qo‘llanishi, har xil turli uqalashlar, muolajalar; iliq vanna va h.k. orqali egiluvchanlik darajasini yanada ko‘paitirish mumkin. Shu bilan birga, mashqlar orasidagi uzoq tanaffuslar birinchi galda faol egiluvchanlikni, pasa-yishga olib keladi. Malakali suzuvchilarda egiluvchanlikni rivojlantirishga qaratilgan ishni va aytib o‘tilgan omillar barchasini hisobga olish kerak.

Umum rivojlantiruvchi mashqlar turli-tuman bo‘lib, egilish, rostlanish, burilish va boshqalar asoslangan harakatlardan iboratdir. Bu mashqlar barcha bo‘g‘imlardagi harakatchanlikni oshirishga qaratilgan bo‘lib, ular sportchi suzish xususiyatlarini hisobga olmaydi.

Yordamchi mashqlarni tanlashda u yoki bu bo‘g‘imdagи harakatchanlik kattaligi, eng ko‘p harakatchanlikni talab qiladigan faoliyatidir; bukish, yozish, aylantirish va ularning xususiyatlariga e’tibor beriladi. Maxsus tayyorgarlik mashqlari musobaqa faoliyati xususiyatlari bilan bog‘liq asosiy harakat faoliyatiga qo‘yiladigan talablarga muvofiq ravishda tanlanadi.

### ***Egiluvchanlikni rivojlantirish uchun qo‘llaniladigan vositalar***

Egiluvchanlikni rivojlantirish vositalari qatoriga harakatlarni imkon chegarasi yoki chegaraga yaqin amplituda bilan bajarishga yo‘l beradigan umum rivojlantiruvchi, yordamchi va maxsus tayyorlovchi mashqni kiritish mumkin.

Har bir bo‘g‘imda harakatchanlikni oshirish uchun, odatda, o‘zaro yaqin mashqlar tizimidan foydalaniladi, ular egiluvchanlik darajasini cheklaydigan bo‘g‘im tizimlari va mushaklarga har tomonlama ta’sir ko‘rsatishini ta’minlash lozim.

Egiluvchanlikni rivojlantirishda qo‘llaniladigan vositalar ham yo faol yoki nosaol egiluvchanlikni rivojlantirishga yordam beradigan

mashqlarga bo'linishi mumkin. Nofaoil egiluvchanlikni o'stirishga sherik bilan yoki bo'g'implashtirishga buyumlar bilan bajariladigan gantel, espander, amortizatorlar va boshqa turli mashqlar ko'maklashadi, bunda albatta, sportchining o'zi ham kuch sarflaydi (masalan, tanadan oyoqlarga, oyoqlarni ko'krakka yaqinlashtirish, bir qo'l panjasini ikkinchi qo'l panjasini bilan bukish va h.k.) o'zi og'irligidan foydalaniadi: statik mashqlarni imkon chegarasidagi egiluvchanlikni talab qiluvchi holatda oyoqlarni tutib turish kabilar ham shu turga kiradi.

Faol egiluvchanlikni rivojlantirishga og'ir buyumlar bilan yoki purjinasimon harakatlar, egilishlar, sildirma to'plar, amortizatorlar, har xil, kuch trenajyorlar va boshqalar bilan harakat amplitudasini inersiya yordamida oshirish natijasida mashqlarni samaradorligini ko'tarish mumkin.

Egiluvchanlikni rivojlantirishda juda ko'p turli-tuman umum tayyorlovchi, yordamchi hamda maxsus tayyorlovchi mashqlardan foydalaniadi, ularning ta'sniflari maxsus qo'llanmalarda berilgan. Shu bilan birga, keyingi yillarda ko'pgina mamlakatlarda suzishning keng ommalashib ketishi egiluvchanlikni o'stirishga yo'naltirilgan xilma-xil o'ziga xos yordamchi va maxsus tayyorlovchi mashqlarning ishlabi chiqishi, bir tizimga tushib qo'llanilishiga olib keladi. Biz ham so'nggi yillarda Rossiya, Germaniya, AQSH ni yetakchi suzuvchilari egiluvchanlikni rivojlantirish bo'yicha to'plagan tajribalarni umumlashtirishga qaror qildik.

### *Egiluvchanlikni rivojlantirish uslubiyatining asosiy qoidalari*

Egiluvchanlikni rivojlantirish ustidagi ishlari 2 bosqichda olib borilishi mumkin; 1) bo'g'implarda harakatchanlikni oshirish bosqichi; 2) bo'g'implardagi harakatchanlikni erishilgan darajada ushlab turish bosqichi. Harakatchanlik asosan mashg'ulotni tayyorgarlik davridagi birinchi bosqichda rivojlantiriladi. Tayyorgarlik davrini 2- bosqichda va musobaqalar davrida odatda, bo'g'implar harakatchanligini erishilgan darajada ushlab turishga, shuningdek, egiluvchanlikni suzishda eng ko'p ko'rsatadigan bo'g'implar harakatchanligiga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Egiluvchanlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar alohida mashg'ulotlar dasturiga kiritilishi mumkin. Ammo ular ko'proq

quruqlikdagi kompleks mashg'ulotlarda egiluvchanlikni rivojlantirish bilan birga suzuvchilarni kuch tayyorgarligi amalga oshiradigan paytda rejalashtiriladi.

Egiluvchanlik mashqlari mashg'ulotlardan oldingi badan qizdirish harakatlarni tarkibiga kiritiladi, shuningdek, ertalabki badan tarbiyaning asosiy qismini tashkil etadi. Egiluvchanlikni rivojlantirish usulidagi ishlarni rejalashtirishda shuni bilish kerakki, faol egiluvchanlik nofaol egiluvchanlikka qaraganda 1,5-2 baravar sekinroq rivojlanadi, turli bo'g'imlar harakatchanligi anatomik me'yorning 90% darajasigacha o'stirish uchun zarur bo'lgan ishlarni keltirilgan muhiti mashg'ulotlarni rejalashtirish uchun taxminiy mo'ljal vazifani bajaradi. Ko'rsatilgan vaqt suzuvchi yoshi, bo'g'im va mushak to'qimasini birinchi navbatda mashg'ulotlar jarayonining qurilishga bog'liq.

Egiluvchanlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarning asosiy qoidalarini ko'rib chiqamiz, boshlashning ahamyati yo'q, lekin odatda, yirik mushak guruhlarini ishga soladigan mashqlar bajariladi. Lekin shuni yodda tutish kerakki, bir bo'g'im harakatchanligini oshiradigan mashqlarni bajarib bo'lgachgina, boshqa bo'g'im mashqlariga o'tish zarur bo'ladi.

Afsuski, bu qoidaga ko'pincha amalda rioya qilinmaydi va egiluvchanlik mashqlarini aylanma mashg'ulotlar tamoyilidan foydalanigan holda bajariladi; turli bo'g'imlar harakatchanligini rivojlantirilgan mashqlar seriyasi bajariladi, keyin esa shu seriya ikkinchi marta takrorlanadi.

Bir yil chegarasida faol va nofaol harakatchanlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ishlar nisbati o'zgaradi. Yillik siklning dastlabki bosqichlarida nofaol harakatchanlikni oshirish vositalari ko'proq bo'ladi, bu esa keyinchalik faol harakatchanlikni rivojlantirish ishlarida asos yaratadi. Kelgusida bu nisbatan faol egiluvchanlikni rivojlantirishga ko'maklashadigan mashqlar hajmini oshirishi tomoniga qarab o'zgarib boradi.

Bo'g'imlar harakatchanligini oshirishga, ko'rsatilgan omillardan tashqari, tegishli mushak guruhlaridan oldin uqalash, shuningdek, qizdiruvchi ishqalash usullarini qo'llash ham yordam beradi.

Malakali suzuvchilarni jismoni tayyorlash uslubiyatlari eng jiddiy muammolardan ustidagi ishlarni qo'shib olib borishdir. Maxsus adabiyotlarda takror-takror ta'kidlanishicha, egiluvchanlik va kuchni

rivojlantirish darajasini imkon qadar yuqori ko'rsatishgina emas, ular rivojida muvofiqlikni ta'minlash ham juda muhim. Mazkur talab buzilgani hamon rivojlanish darajasi pastroq bo'lgan bu sifatlarning biri ikkinchisini to'la-to'kis namoyon bo'lishiga imkon bermay qoladi. Masalan, oqimlardagi harakatchanlikni rivojlanish paytida ortda qolish suzuvchi uchun odatiy hol emas.

Amaliyot yarim adabiy manbalaridagi ma'lumotlar, shuningdek, biz o'tkazgan tadqiqotlar usulidan dalolat beradiki, faol egiluvchanlikni o'stirishga qaratilgan maxsus - tayyorlov mashqlarning ko'p-chilligi kuch sifatlarini namoyon bo'lishi uchun lozim bo'lgan talablarni qo'yaydi, balki ular egiluvchanlikni eng yuksak darajada namoyish etish sharoitlarini ta'minlashga, ya'ni ushbu sifatni namoyish etish uchun to'siqlik qiladigan kuchlarni yengib o'tishga yo'naltiriladi.

Ayni paytda, suzuvchining kuch nuqtayi nazaridan tayyorgarligi 90% holatlarda egiluvchanlik namoyish qiladigan chegaraviy yoki oldi darajani ham talab qilmaydigan mashqlar bajarishini ko'zda tutadi. Maxsus tayyorlov va ayniqsa, musobaqa mashqlarida kuch sifatlari namoyon bo'lar ekan, harakatlar amplitudasi tegishli darajada ta'minlamaydi, egiluvchanlikda yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun urinishlar suzuvchilarning kuch imkoniyatlari darajasini ham to'la namoyon etishga yo'l qo'yaydi.

Shuning uchun ham egiluvchanlikning rivojlanish uslubiyatini amalga oshirishda bu sifatning suzuvchida mavjud kuch qobiliyatlariga muvofiqligi to'g'risidagina emas, sport mashg'ulotlari jarayonida mazkur sifatlarning bir vaqtning o'zidagi rivojlanishi uchun sharoiti bilan ta'minlash ustida gapirish kerak bo'ladi.

Amalda bu kuch sifatlari rivojlanayotgan asosiy usuliy qoidalarga rioya qilish bilan birga kuchga yo'naltirilgan yordamchi va maxsus - tayyorlov mashqlarini shunday tanlash kerakki, ular keng qo'llaniladigan mashqlarni bir oz o'zgartirish yoki asbob-uskunalar, qurilmalarning holati yoxud tuzilishini sezilarsiz tahrir qilish hisobiga egiluvchanlikni erishilgan darajada tutib turish yoki rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni ta'minlash lozim.

Shunga o'xhash kuch tayyorgarligining egiluvchanlikka nisbatan kamchiliklari mazkur sifatlarni rivojlanirish ustida ishslash yo'li bilan to'ldirishi mumkin. Ammo kuch sifatlari, ham egiluvchanliklarni namoyon etishga beradigan umumiy xususiyatlarga ega

bo'lgan mashqlarni keng qo'llamasidan turib, ushbu sifatlarini ayni bir vaqtda rivojlanishini ko'zda tutadigan uslubiyat bora-bora ularning suvda maxsus-tayyorlov mashqlarni bajarishda namoyon bo'lishi imkoniyatlarini chegaralab qo'yadi.

Sport amaliyotida ko'p qo'llaniladigan kuch xususiyatlariga ega bo'lgan maxsus - tayyorlov mashqlarni tahlil etish shuni ko'rsatadiki, bunda egiluvchanlik rivojlaniladi-yu, lekin ularning darajasi chegaralanib qoladi.

Shu bilan birga qo'l va tananing dastlabki holatini o'zgartirish yoki asbob qurilmalarini tuzilishini almashtirish, ushbu niqsonning yo'q qilinishini ta'minlash mumkin.

Egiluvchanlikni rivojlantirish uslubiyatini ko'rib chiqar ekanmiz izokinetik rejimida bajariladigan kuch mashqlarning yana bir kamchiligini aytib o'tishimiz kerak.

Agar shtanga bilan, rezina amortizerli turli xil blok qurilmallari va hatto Mertens - Xyuttel uskunalarida kuch mashqlarni to'g'ri bajarib borish orqali yetarlicha cho'ziluvchanligiga erishish mumkin bo'lsa, izokinetik uskunalarda, buni egallah mumkin emas.

Bo'g'imlardagi harakatchanlikka yuqori talablar qo'ymaydigan mashqlarda kuch sifatlarning namoyon bo'lishi, eng avvalo, harakatlarni ta'minlaydigan mushaklar va ularning antagonistlari faoliyatidagi muvozanatda aks etadi.

Bu o'zgarishlarga faol va nofaol egiluvchanlikning rivojlanishlarga yordam beradigan tor yo'nalishdagi qo'llash bilan tezgina erishishi mumkin.

Bo'g'imlar harakatchanligini o'stirishga yo'naltirilgan ishlarni rejalashtirish paytida hisobga olish lozim bo'lgan yuklamalarning asosiy tarkibiy qismlarga qo'yiladigan talablar ustida qisqacha to'xtalamiz.

Nofaol egiluvchanlikning rivojlanishida eng samarali yo'l amplitudasi tobora oshib, mushak ishi esa kamayib boradigan ohista harakatlarni bajarishdir. Tashqi ta'sir kattaligi har bir suzuvchi uchun alohida, uning bo'g'imlari va cho'ziluvchi mushak guruqlarining o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda tanlash lozim. Erkin silkitish harakatlarga ega bo'lgan mashqlar u qadar samarali emas.

Buni shunday erkin silkish harakatlarni mavjud bo'lgan mashqlarda cho'zilish silkinayotgan qo'l yoki oyoqning inersiyasiga bog'liq bo'lib, mazkur harakatlarni tez sur'atida bajarish zaruriyati

bilan aloqador. Tezkor harakatlar cho'ziladigan mushak guruhlarni harakatlarning cheklanib qolishni belgilaydigan refleks namoyon bo'lishga olib keladi.

Faol egiluvchanlikni rivojlantirish uchun mushaklar hisobiga bajariladigan cho'zilish mashqlar bilan bir qatorda dinamik hamda statik kuch mashqlarni juda samarali, bunda ular muofiq tarzda tanlangan bo'lishi lozim.

Shuningdek, amplitudaning so'nggi nuqtasida statik holatlarini tutib sust dinamik mashqlarini ham qo'llash kerak. Bunday mashqlar silkinish va itarilgan harakatlarga nisbatan ancha samaralidir.

Bo'g'imlardagi harakatchanlikni rivojlantirishga yordam beradigan hamma vositalar bir xilda samara bermasada, amaliyot tajribasi, shuningdek, ilmiy ma'lumotlar yuklarni malakali suzuv-chilarni mashg'ulotlarda kompleks qo'llash zaruriyati xususida ko'rsatma beriladi. Bu egiluvchanlik darajasini oshirgan lokal qobiliyatlarning uyg'unligi rivojiga ijobiy ta'sir qiladi, mashg'ulot dasturlarini rang-barang etishga imkon beradi, uni hissiy jihatidan ko'rildi.

Alovida mashqlarning davomiyligi ko'p jihatidan ularning samaradorligini belgilaydi. Bo'g'imlardagi maksimal harakatchanlikni ta'minlaydi alovida mashqlarning shunday davomiyligini topish kerakki, ular bo'g'imlarda maksimal harakatchanlikni ta'minlasin. Turli mashqlarni bajarishda harakatchanlikni oshishidagi o'zgarishlarni tadqiq qilish natijasidan shu ma'lum bo'ldiki, dastlab harakatchanlik asta-sekin oshib boradi, maksimum darajasiga yetib ma'lum vaqt shu nuqtada turadi keyin esa asta pasayib boradi. Aytish kerakki, har xil bo'g'imlar uchun amplitudani maksimal darajada tutib turadigan harakatlar miqdori bir xil emas. Bo'g'imlarda harakatchanlikni rivojlantirish bosqichida hali erishilgan darajani tutib turish bosqichida ham har xil harakatlarni bajarishda rejalashtirish zarur bo'lgan harakatlar miqdori shu bilan belgilanadi. Mashqning davomiyligi faqatgina xususiyatlarga emas, sportchining ovqatlanish va jinsiga ham bog'liq. 12-14 yoshli malakali suzuvchilarga takrorlashlar soni katta yoshli sportchilarnikiga nisbatan 1,5-2 barobar kam bo'lishi mumkin. Bir xil mashg'ulot samaraligiga erishish uchun ayollar erkaklarga nisbatan 10-15% kamroq muddat davomida ishlari zarur bo'ladi. Mashqning o'ziga xos xususiyatlari muayyan bo'g'iming xususiyatlari, suzuvchining yoshi va jinsi, harakatlar

shiddatidan kelib chiqish, mashq 20 soniyadan 2-3 daqiqagacha va undan ortiq muddat davom etish mumkin. Faol turg' in mashqlar odatda, ko'p davom etmaydi, nofaol to'kib-yozishga asoslangan mashqlar uzoqroq vaqt mobaynida bajariladi.

### ***Alovida mashqlarni bajarishda ish sur'ati***

Egiluvchanlikni rivojlantirishda harakatlar sur'ati yuqori bo'imasligi kerak. Bunda mushaklar ko'proq cho'ziladi, u yoki bu bo'g'imga ta'sir muddati ko'payadi. Past sur'at, shuningdek, mushak va bo'g'imlarni jarohatdan ham asraydi. Bo'g'imlardagi harakatchanlik maksimal darajada namoyon bo'lishga yordam beradigan turli xil qo'shimcha og'irliliklardan foydalanishda garchi yaxshi shug'ullanigan yuqori malakali sportchilar uyida ham og'ir yuklarni qo'llash mumkin bo'lsada, baribir, ularning o'lchami cho'zilayotgan mushaklarning kuch imkoniyatlari darajasining 50% dan oshmasligiga e'tibor berish lozim.

Og'irlik o'lchami mashqning xususiyatlariga ham bog'liq; sust sur'atlar mashqlarni bajarishda og'irlilik o'lchamlari katta bo'lishi mumkin, silkish harakatlarni bajarishda esa 1-3 kg li og'irliklar bilan shug'ullanish yetarlidir.

### ***Alovida mashqlar oralig'idagi dam olishning davomiyligi va xususiyati***

Sportchining alovida mashqlar orasidagi dam olishini ta'minlash zarur. Tabiiyki, tanaffuslar muddati keng diapazonda, odatda 10-15 soniyadan 2-3 daqiqagacha bo'lishi mumkin va mashqlarning xususiyatlari davomiyligi ishiga jalb qilingan mushaklar hajmiga bog'liq. Masalan, umirtqadagi harakatchanliklarni oshirishga yonaltirilgan tanani ko'p marta engashtirish mashqi to'liq bo'ldi bo'g'imi ni majburlab cho'zish mashqiga nisbatan (u 15 soniya davom etdi) ko'proq dam olishni talab etadi.

Ammo mashqlar orasidagi tanaffuslar haddan tashqari uzoq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak, chunki bu bo'g'imlardagi harakatchanlik darajasini pasaytiradi, mashg'ulot samaraligi kamayadi. Amalda tanaffusning davomiyligi eng maql bo'lgan variantni

sportchining subyektiv hissiyotlariga, navbatdagi mashqlarni bajarish uchun tayyorgarligiga qarab aniqlansa bo‘ladi.

Tanaffuslar nofaol xususiyatlarga ega bo‘lishi yoki past sur’atli mashqlari bilan to‘ldirilishi maqsadga muvofiq. Qisqa muddatli tanaffuslarda odatda nofaol dam rejalashtiriladi, uzoq muddatli tanaffuslarda bo‘sashstiruvchi mashqlar, o‘z mushaklarini uqalash yoki o‘z-o‘zini uqalash amalga oshiriladi.

***Chaqqonlik va harakatlar koordinatsiyasi***  
***Chaqqonlik harakalari koordinatsiyalarini rivojlantirish***  
***uslubiyati va turlari***

Yangi harakatlarni tez egallab olish va birdaniga o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatiga chaqqonlik deyiladi.

Chaqqonlik darajasini oshirishda eng ko‘p tarqalgan vositalardan bo‘lib, akrobatika elementlari, sport va har. xil o‘yinlar, erkin gimnastika mashqlar va hokazo.

Bu jarayon eng muhim prinspga tayanishi lozim, ya’ni vosita va usullar tanlanadi, har doim biron bir yangilikni kiritish esdan chiqilmasligi lozim.

*Koordinatsiya qobiliyatida* – insonning tez, aniq, tejamli ekanligi tushuniladi. Koordinatsiya qobiliyatining turlari ko‘p. Suzuvchining mahoratiga ko‘ra, suzish ikkiga bo‘linadi:

1. Baholash qobiliyati. Bu vaqt, temp, ritm, suvni talab qiladi. Yuqori mutaxassislikka ega bo‘lgan suzuvchilar antiqa qobiliyatlarga ega bo‘lib, dinamik, vaqtinchalik harakatlarni yo‘lga qo‘yishda yordam beradi. Belgilangan masofani bosib o‘tishni ma’lum tezlikda vaqtidan foydalaniib, tempda, xatoga yo‘l qo‘ymasdan trenajyorda yoki suzishda 1-2% xatolikka yo‘l qo‘ymaslikka, suzish tezligini rivojlantirish kerak.

2. Suzuvchining mashg‘ulotda va musobaqa faoliyatida amalga oshadi, muskullar bo‘sashish qobiliyatiga ta’sir ko‘rsatadi.

Suzuvchining koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish darajasi ko‘pgina komponentlarga, sport tayyorgarligiga bog‘liq.

Suzuvchi birinchi navbatda o‘z harakatlarini kuzatishi, harakatlarni aniq rejalashtirish kerak.

Eng avvalo, motor (harakatlanuvchi) rivojlantirish xotirasiga ega bo'lishi, markaziy asab tizimi harakatlarni o'z vaqtida eslab qolishi kerak.

Motor xotirasi oliy toifali suzuvchilarda ko'pgina ko'nikma va malakaga ega bo'lib, mashg'ulotda va musobaqa jarayonida harakatlantiruvchi vazifani bajaradi.

Bularning hammasi suzuvchining koordinatsion qobiliyatining rivojlanishiga imkon beradi. Autogen mashg'ulot suzuvchilarni tayyorlash amaliyotida o'ziga ishonuvchanlikni, muskullarni bir xilda ushab turishni va emotsiyal holatini talab qiladi.

Formula, muskullar sistemasining qisqarishi, alohida muskularning qisqarishi yoki bir guruh muskullarning qisqarishi psixik toliqishni boshqarish, malakali suzuvchilarning koordinatsion qibiliyatini rivojlantirish.

### ***Suzuvchining koordinatsion qobiliyatini baholash testlari***

Vaqtni sezish bo'yicha baholash:

1. 6x50m dan 60 sekundgacha suzish; birinchi qismni maksimal tezlik bilan suzib o'tiladi (natijasi suzuvchiga aytildi, masalan, birinchi suzish bo'lakchasini 30ta eshib suzib o'tish kerak, ikkinchisini esa 20, uchinchisini 25, to'rtinchisini 30, beshinchisini 20, oltinchisini 25marta eshib suzib o'tiladi.

Xatolar soniga qarab baholanadi.

2. «Boikinetik» yoki «Mertens-Xyuttel» trenajyorida ish bajarilib, eshishlar muntazam qarshiliklar bilan (50, 60 yoki 70% maksimal) 6 urinish 60s dan: 1 urinish – 60ta harakat 1 daqiqada, 2 urinish – 20, 3 urinish – 30, 4 urinish – 40, 5 urinish – 50, 6 urinish – 60. Har bir urinish natijasi suzuvchiga aytib o'tiladi.

Hissiyotlarni rivojlantirishni baholashda:

1. Rezinali amortizator bilan suzish 5marta 30 sekunddan pauza bilan 1m ga 1-50% tortish kuchining maksimal darajasi: 2-90%, 3-60%, 4-80%, 5-70%. Har bir takrorlash tortish kuchi darajasi 5 daqiqa oralig'ida takrorlanadi.

2. Gidrodinamik basseyndagi suzish turli tezlik bilan suvg'a qarama-qarshi (10 marta 60 sek) birinchi takrorlashda qarama-qarshi tezlik beriladi, 60 sekund ichida taxminan 90% suzuvchiga maksimal darajada. Keyingi takrorlashda esa tezlik 0,1m-s o'zgaradi. Masalan:

boshlang‘ich darajasi – 1,8m-s, 2 marta takrorlashda 1,5; 3 marta 1,7; 4 marta 1,4; 5 marta 1,6; 6 marta 1,5; 7 marta 1,7; 8 marta 1,4; 9 marta 1,6; 10 marta 1,8 (Suzuvchi tezlikni aniq olishi kerak. Umumiy xatolar soni hisobga olinadi, 0,1m ga burilish bitta xato hisoblanadi).

3. «Biokinetik» trenajyorida ish bajarish talab qilinadi. Eshishni mustahkamlash, 9-10 marta harakatni takrorlaydi.

### ***Koordinatsion qobiliyatini tekshirish***

Suzuvchilarining koordinatsion qobiliyatini baholash jarayonida asosan to‘g‘ri harakatga asoslanadi va musobaqa uchun tayyorlangan mashqlardan foydalanadi.

Suzuvchi tomonidan texnikani to‘g‘ri bajarish, uni tuzilishi (charchashi, kutilmagan signalda harakatlarni bajarish, qiyin sharoitda mashqlar bajarish, masalan, yo‘lakda bir vaqtda 8-10 suzuvchining suzishi).

Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlanishini kuzatish jarayonida shuni nazarda tutish kerakki, alohida baho kriteriyasi mavjud emas.

Koordinatsion qobiliyatni rivojlanishini kuzatish, qoida bo‘yicha, quyidagi kompleks test bo‘yicha amalga oshiriladi, bunda suzuvchidan alohida jismoniy jihatlarining rivojlanishi va harakat malakalari, yuqori koordinatsion qibiliyatlar talab etiladi.

Koordinatsion natijalarini aniqlashda turli xil vazifalarni bajarish, vazifalarning darajasi murakkab koordinatsion mashqlar orqali aniqlanadi. Koordinatsion qobiliyat darajasini vaqtga qarab aniqlash mumkin, bu murakkab harakatlarni bajarishni talab qiladi. (temp, tezlik, suv, rivojlantirish sezgisi).

Koordinatsion qobiliyatni baholashda ko‘pincha turli kompleks mashqlar qattiqqo‘llik bilan baholanadi.

Asosiy vaqt koordinatsion qobiliyat me’yori bo‘lib, tezlik bilan sportchining barcha harakat usullarini kuzatishni talab qiladi.

Sportchining yuqori koordinatsion qobiliyati yangi harakatlan-tiruvchi ko‘nikmalarni hosil qiladi: harakatlantiruvchi xislatlar, tezlik, chidamlilik, egiluvchanlik, amaliyot va musobaqa jarayonida sodir bo‘lgan jarayonlarni amalga oshirishni talab etadi. Bularidan tashqari, turli xil mashqlar va metodik qo‘llanmalar tavsiya etiladi.

Suzuvchilarni tayyorlash jarayonida murakkab sport o'yinlarni (suv to'pi, basketbol, gandbol va boshqalar) umumiy tayyorgarlik xarakteridagi mashqlar (yugurish, chang'ida yurish, murakkab joylarda, tog' chang'i sporti) dan foydalanadi. Shuningdek, turli xil gimnastik mashqlar, akrobatika elementlaridan ham qo'llaniladi.

Malakali suzuvchilar mashg'ulotlar paytida qo'shimcha mashg'ulotlar rejalashtirilmaydi, koordinatsion qobiliyatni rivojlantirishi maqsadida. Kompleks mashqlar har kuni ertalabki gimnastika trenirovka mashg'ulotlari dasturiga kiritiladi.

Suzuvchining koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish kuchli sezgirlik bilan chambarchas bog'liq: svuni sezish, kenglikni vaqtini, tempni, ritmni birdek sezish kerak. O'z xatti-harakatlariga aniq va to'g'ri bajarishni talab qiladi.

### ***Sezgilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mashqlar***

Vaqtni sezish		Tempni sezish		Harakatlarni rivojlantirishni sezish	
mashqlar	Uslubiy ko'r-satmalar	Mashq-lar	Uslubiy ko'rsat-malar	Mashq-lar	Uslubiy ko'rsat-malar
Musobaqa-dagi maso-falarni suzib o'tish interval rejimida	Rejalashti-rilgan natijalarni, rejalash-tirilgan masofalar tezligini 95, 90, 85, 80, 75,50%masiml	har xil uzunlik-dagi maso-falarni bir xil tempda suzib o'tish	har ma-sofa bo'-laklarini bir xil tempda suzib o'tish	Mashq-larni tre-najyor-larda (merte-nsa – hyutel va bosh-qalar), shtanga bilan	asosiy vazifa sport-chini nazorat qilish
Grafik bo'yicha musoba-qadagi masofani	2 variant-da foyda-lanish: 1.masofani bir	bo'laklar-ni va maso-falarni hara-kat	musobaqa masofani o'rta tempda, temp 2,4,6	ichki harakat-larni har xil tre-na-jyorlarda	Sportchi ga vazifa berish hara-

suzib o‘tish	tekisda suzib o‘tish; 2.bo‘lak-lab suzish tezligini oshirish	tempida suzib o‘tish	harakat lidaqqa, yuqori yoki past musoba-qadagi	imitasiya qilish	katini ko‘tarish 50-100% mak-simal
Bo‘laklar ni va masofalarni o‘rta tezlikda suzib o‘tish	Qattiq nazorat	3-4 bo‘laklar-ni yuqori tempda suzish, natijalar o‘z holatda qolishi	1 bo‘lakni musobaqa-dagi tempda	Trena-jyorda kuchga mashq bajarish	

### Savollar:

1. Yosh suzuvchilarning ko‘p yillik tayyorgarligi bosqichlarini aniqlab bering.
2. Suzuvchilarning ko‘p yillik tayyorgarligi tamoyillari.
3. Jismoniy yuklamalar me’yorlarining tushunchasi.
4. Jismoniy sifatlarning jadal rivojlanishi.
5. Yosh suzuvchilarning mashg‘ulotlarini rejalashtirishi.
6. O‘quv rejasini ochib bering.
7. Tayyorgarlik davri.
8. Tayyorgarlik davrining umumiyl bosqichi.
9. Musobaqa davrining bosqichi.
10. O‘tish davrining bosqichi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Korbut. V.M. SUZISH. –T.:Darslik Lider Press, 2012. - B. 264.
2. Корбут В.М. SUZISH (sport-pedagogik takomillashuvi). –Т.: Lider Press, 2012. - B. 142.
3. Манин В.С. Цена победы / Учеб метод пособие по подготовке пловцов группы спортивного совершенствования и высшего спортивного мастерства – Ташкент. «Шарк» 2000.-64с.
4. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпиуском спорте. Общая теория и её практические приложения – Киев: Олимпиусская литература, 2004 - 808 с.
5. Садыков А.Г. Интенсификация процесса подготовки юных пловцов учебно-тренировочных групп 13-15 лет: Дисс... канд. пед. наук. –Т.:2009.-24с.

---

### **III. YUKLAMALAR KATTALIKLARINI ANIQLASH METODIKASI VA MASHG'ULOT TUZILMALARINI TUZHISH UCHUN ULARNING ME'YORLANISHI**

#### **1. Mashg'ulot yuklamalarini tizimlashtirish va ularning kattaliklarini aniqlash**

Yuklamalarni nazorat qilish va rejalashtirish sport mashg'ulotining eng muhim elementlaridan hisoblanadi. Har bir sport turida mashg'ulot vositalari tarkibiga o'nlab, hatto yuzlab mashqlar kiradi. Ularning har birini baholab, eng samaralisini tanlab olish yuklamalarni nazorat qilishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ushbu vazifani hal etish asosida mashg'ulot vositalarini tasniflash –belgilariiga (tavsiflariga) ko'ra guruhlarga taqsimlash yotadi. Yuklamalarni nazorat qilish uchun quyidagi tavsiflardan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Maxsuslashganligi, ya'ni ushbu mashg'ulot vositasining musobaqa mashqiga o'xshashlik darajasi.
2. Yo'nalishi – u mashg'ulot mashqning u yoki bu harakat sifatiga ta'sir qilishda namoyon bo'ladi.
3. Koordinatsion murakkabligi – u mashg'ulot samarasi kattaligiga ta'sir qiladi.
4. Kattaligi – u mashqning sportchi organizmiga ta'sir qilish darajasini belgilab beradi.

Mashg'ulot jarayonini tuzish uchun yuklamalar kattaligini bilish juda muhim yuklama kattaligi sportchilar organizmining toliqishi bilan bog'liq. Buning uchun esa yuklama me'yorlarining miqdoriy tavsiflariga ega bo'lish lozim.

Shu yordamida sportchilarning toliqish darajasini (ko'p toliqish, o'rtacha, kam va h.k.) aniqlab olish mumkin.

Suzishda yuklama kattaligi har bir boshqa shiddat zonasida suzib o'tiladigan masofa miqdori bilan (metrlarda yoki kilometrlarda) aniqlanadi.

I zona – kompleks zona, YUQT daqiqasiga 132 zARBAGACHA atrofida bo‘ladi, II zona – aerob-anaerob zona, YUQT daqiqasiga 138 dan 150 zARBAGACHA atrofida, III zona – aralash aerob-anaerob zona, YUQT daqiqasiga 156 dan 168 zARBAGACHA, IV – anaerob-glikolitik zona, YUQT daqiqasiga 174 dan 186 zARBAGACHA, V – anaerob-alaktat zONASI, YUQT daqiqasiga 192 zarba va yuqori.

Biroq har bir shiddat zONASI bo‘yicha suzib o‘tiladigan masofa miqdorini hisobga olib borish juda noqulay, miqdoriy taqqoslashni olib borib bo‘lmaydi va yuklama kattaliklari me’yorlarini aniqlash imkoniy yo‘q.

Ularni me’yorlashni M.A. Godik(1982), A.G. Sadikov(2009) tavsiyalari asosida amalga oshirish kerak. Bu kombinatsiyalashgan shkalaadir. Ushbu holda yuklama kattaligi hajmining (min) shiddatiga (ball) ko‘paytmasi orqali aniqlanadi va quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$A = T \cdot SH$$

bu yerda, A – yuklama kattaligi (shart. birl.); T – mashq bajarilishi davomiyligi (daqiqalarda), SH – mashq shiddati (ball). Kattalik me’yorlarini aniqlash shkalasi quyidagicha (1-jadval):

1-jadval

10 qt 10 sek ichida zarba	18/19	20/21	22/23	24/25	26/27	28/29	30/31	32/33	34/35	36/37
Shiddat zonalari ballarda	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

Mashg‘ulotlar, mashg‘ulot kunlari, haftalik MQlar va h.k. davomidagi yuklamalar kattaligini aniqlash uchun alohida mashqlar yoki ularning guruhlari (vazifalar) yuklama kattalik ko‘rsatkichlari hamda umumiy yig‘indisi olinadi.

Biz tomonimizdan o‘tkazilgan kuzatuvlar har xil ixtisoslikdagi (sprinterlar, o‘rta masofaga suzuvchilar, stayerlar) suzuvchilardan

iborat o'quv-mashg'ulot guruhlarida qo'llaniladigan o'ziga xos mashqlarni aniqlab olishga yordam berdi.

Ushbu mashqlar yuklama harakat zonasini e'tiborga olgan holda tizimlashtirildi va tasniflandi.

2-jadvalda suzish mashqlarini tavsiflari, motor vaqt (ularni suzib o'tish vaqt), mashg'ulot vazifasining umumiy vaqt (dam olish vaqt bilan birga), mashqlar shiddati va yuklama kattaliklarining hisoblab chiqarilgan qiymatlari berilgan.

2-jadvalda mashg'ulot vazifalari (seanslari)ni tuzish uchun suzishda qo'llaniladigan mashqlarning tavsiflari berilgan. Bu mashg'ulot vazifalari shiddat zonalari bo'yicha tasniflangan. Bu yerda ular hajmlarining va shiddatining optimal rejimlari ko'rsatib o'tilgan, bu ushbu mashqlarning mashg'ulot yuklamalari kattaliklarini hisoblab chiqarishga imkon berdi.

Mashg'ulot vazifalari yuklamalari kattaliklarini ko'paytirish orqali mashg'ulotlar, kunlar haftalik MTSdagi yuklamalar kattaliklarini ham aniqlab olish mumkin.

Tavsiya etilayotgan tasnifdan foydalangan holda mashg'ulot tuzilmalaridagi tanlangan (ustuvor) yo'nalishdagi yuklamalar kattaliklarini ham aniqlab olish mumkin.

### **Turli yo'nalishdagi o'ziga xos suzish mashqlaridan foydalangan holda yuklama kattaliklarini qiyosiy tavsiflari va hisob-kitob qiymatlari**

*2-jadval*

Yuklama shiddat zonası	Mashqlarning belgilanishi (kod)	Mashg'ulot mashqi (vazifasi turi)	Umumiy vaqt (min, sek)	Motor vaqt (min, sek)	Shiddati 10qt (10 sek ichida zarba)	Yuklama kattaligi (ball)
I zona	1.1.	2-3x80 m shid.2-3 min	28-48 min	26-42 min	19	26-42
I zona	1.2.	4-6x (300-400 m) shid. 2-3 min.	22-57 min	16-48 min	19	16-48

*2-jadvalning davomi*

1.3.	6-8x200 m, shid. 60-90 s	28-47 min	22-36 min	19	22-36
1.4.	400-800 m, k/pl (25-100)	10-18 min	9-18 min	20	18-36
1.5.	400-1200m, k/pl (50-100)	12-32 min	10-30 min	21	20-60
1.6.	6-10x (300-400 m) shid. 2-3 min	34-97 min	24-70 min	21	48-194
1.7.	10-15x200 m, shid. 60-90 s.	46-89 min	37-68 min	21	74-136
1.8.	600-1000 m, n/sp.	10-18 min	10-18 min	20	20-36
1.9.	3x1500 m, shid. 2-3 min	88-114 min	84-108 min	19	84-108
1.10.	3-5x800 m, shid. 2-3 min	43-82 min	39-70 min	19	39-70
I zona	Bir maromda suzib o'tish (m) 400	6-7 min	6-7 min	20	12-14
	800	13-14 min	13-14 min	21	26-28
	1000	14-18 min	14-18 min	21	28-36
	1500	22-26 min	22-26 min	21	44-52
	2000	28-38 min	28-38 min	21	56-76
	3000	50-66 min	50-66 min	21	100-132
	5000	90-110 min	90-110 min	21	180-220
	II zona				
2.1.	30-40x25 m, k.r.n. shid. 15-20 s	18-28 min	11-14 min	25	44-56
2.2.	20-30x50 m, O, shid. 10-15 s	30-50 min	27-42 min	24	108-168

*2-jadvalning davomi*

2.3.	10-16x100 <i>m</i> , O, shid. 15-20 <i>s</i>	21-27 <i>min</i>	18-32 <i>min</i>	25	72-128
2.4.	10-16x100 <i>m</i> , k/pl, shid. 20-30 <i>s</i>	22-42 <i>min</i>	18-32 <i>min</i>	24	72-128
2.5.	2-3x 800 <i>m</i> k/pl, (25- 100) shid. 30 <i>s</i> 3 <i>min</i>	30-50 <i>min</i>	29-42 <i>min</i>	25	116-168
2.6.	3-5x400 <i>m</i> k/pl, (25- 100) shid. 15-30 <i>s</i>	24-42 <i>min</i>	20-36 <i>min</i>	25	80-144
2.7.	6-10x200 <i>m</i> k/pl, shid. 20-40 <i>s</i>	24-50 <i>min</i>	22-42 <i>min</i>	25	88-168
2.8.	10-20x100 k/pl, shid. 10-30 <i>s</i>	32-46 <i>min</i>	30-40 <i>min</i>	25	120-160
2.9.	10-12x200 <i>m</i> , shid. 10-30 <i>s</i>	32-46 <i>min</i>	30-40 <i>min</i>	25	120-160
2.10.	4-6x (300-400 <i>m</i> ), shid. 10-40 <i>s</i>	21-58 <i>min</i>	20-54 <i>min</i>	25	80-216
2.11.	Bir maromda suzib o'tish (dis) 1500- 3000 <i>m</i>	26-62 <i>min</i>	26-62 <i>min</i>	25	104-248
2.12.	2-4x(800-1000 <i>m</i> ), shid. 60-90 <i>s</i>	30-90 <i>min</i>	28-88 <i>min</i>	25	112-352
2.13.	1-3x600 <i>m</i> , k/pl	15-37 <i>min</i>	12-36 <i>min</i>	24	48-144
2.14.	3-4x200 <i>m</i> , N	12-18 <i>min</i>	11-17 <i>min</i>	24	44-68
2.15.	600-800 <i>m</i> , N	13-19 <i>min</i>	12-18 <i>min</i>	24	48-72
2.16.	15-20x100 <i>m</i> , shid. 20-40 <i>s</i>	27-35 <i>min</i>	22-31 <i>min</i>	26	110- 155
2.17.	3x (150-200 <i>m</i> ), shid. 2-5 <i>min</i>	11-31 <i>min</i>	5-16 <i>min</i>	24	20-64
2.18.	1-2x400 <i>m</i> , shid. 1-2 <i>min</i>	7-17 <i>min</i>	6-15 <i>min</i>	25	26-60
2.19.	1 <i>min</i> belgilangan vaqtida bir maromda suzish	1 <i>min</i>	1 <i>min</i>	24	4

2-jadvalning davomi

		<i>3 min</i>	<i>3 min</i>	<i>3 min</i>	25	12
		<i>5 min</i>	<i>5 min</i>	<i>5 min</i>	26	25
		<i>10 min</i>	<i>10 min</i>	<i>10 min</i>	26	50
		<i>20 min</i>	<i>20 min</i>	<i>20 min</i>	26	100
<b>III zona</b>						
III zona	3.1.	600-800 <i>m</i> k/pl (25-50)	10-14 <i>min</i>	8-12 <i>min</i>	29	48-72
	3.2.	400+200 <i>m</i> O+100+100N, shid. 30-40 <i>s</i>	12-14 <i>min</i>	10-12 <i>min</i>	29	60-72
	3.3.	15-24x50 batt, shid. 15-30 <i>s</i>	17-38 <i>min</i>	13-27 <i>min</i>	29	78-162
	3.4.	12-16x100 <i>m</i> batt, shid. 20-60 <i>s</i>	20-39 <i>min</i>	16-24 <i>min</i>	29	94-144
	3.5.	6-8x150 <i>m</i> batt, shid. 20-60 <i>s</i>	13-27 <i>min</i>	10-20 <i>min</i>	28	60-120
	3.6.	4-6x200 <i>m</i> batt, shid. 30-90 <i>s</i>	12-26 <i>min</i>	10-19 <i>min</i>	28	60-114
	3.7.	2-3x400 (50 batt+50 <i>m</i> ), shid. 40-90 <i>s</i>	12-24 <i>min</i>	10-18 <i>min</i>	28	60-108
II zona	3.8.	4-6x200 (50 batt+50 <i>m</i> ), shid. 40-90 <i>s</i>	11-22 <i>min</i>	9-18 <i>min</i>	28	66-108
	3.9.	2x800 k/pl (25-100 <i>m</i> ), shid. 30-60 <i>s</i>	22-27 <i>min</i>	21-26 <i>min</i>	28	126-162
	3.10.	2-3x 400 k/pl (25-100), shid. 20-60 <i>s</i>	12-21 <i>min</i>	11-19 <i>min</i>	28	66-114
	3.11.	4-6x200 k/pl shid. 20-30 <i>s</i>	10-22 <i>min</i>	9-19 <i>min</i>	28	54-114
	3.12.	8-12x100 k/pl shid. 20-30 <i>s</i>	14-26 <i>min</i>	11-20 <i>min</i>	28	66-120
	3.13.	16-20x50, shid. 20-40 <i>s</i>	16-28 <i>min</i>	10-15 <i>min</i>	29	66-168
	3.14.	10-16x100, shid. 20-60 <i>s</i>	17-39 <i>min</i>	14-24 <i>min</i>	29	84-144
	3.15.	4-8x200, shid. 20-60 <i>s</i>	11-27 <i>min</i>	10-20 <i>min</i>	29	80-120

2-jadvalning davomi

3.16.	3-4x400, shid. 20-90 s	15-29 <i>min</i>	14-24 <i>min</i>	29	84-144	
3.17.	4-5x300, shid. 20-90 s	14-23 <i>min</i>	13-19 <i>min</i>	28	78-114	
3.18.	2-4x(800-1000m) shid. 30-120 s	20-56 <i>min</i>	18-50 <i>min</i>	28	108- 300	
3.19.	Bir maromda suzish 800- 1200 m	10-20 <i>min</i>	10-20 <i>min</i>	28	60-120	
3.20.	20-30x50 O, shid. 20-30 s	24-49 <i>min</i>	17-33 <i>min</i>	29	102-198	
3.21.	8-15x100 O, shid. 20-60 s	16-39 <i>min</i>	13-25 <i>min</i>	28	78-150	
3.22.	4-8x200 O, shid. 30-90 s	16-37 <i>min</i>	14-27 <i>min</i>	28	84-162	
IV zona						
IV zona	4.1.	3-6x (4x25 m), shid. 10-15 s, dam 3 min gacha	8-17 <i>min</i>	3-7 <i>min</i>	32	24-56
	4.2.	10-16x25K, shid. 30-40 s	7-15 <i>min</i>	2 min 10 s 4 min 20 s	32	17-35
	4.3.	10-16x25 O, shid. 30-40 s	8-15 <i>min</i>	3-5 min 20 s	31	21-36
	4.4.	4-6x50 batt, shid. 60-90 s	5-12 <i>min</i>	2-5 <i>min</i>	32	16-40
	4.5.	12-16x25, shid. 40-60 s	8-18 <i>min</i>	2 min 40 s -4 min 20 s	32	22-35
	4.6.	4-8x(4x50m)shid.10- 30s, dam 2-3 min	14-44 <i>min</i>	7-22 <i>min</i>	32	56-176
	4.7.	4-6x50, shid. 40-90 s	4-12 min	2-4 min	32	16-24
	4.8.	4-6x50 O, shid. 40-90 s	4-15 <i>min</i>	2 min 20 s 6 min	32	19-48

*2-jadvalning davomi*

4.9.	4-6x50 Q, shid. 40-90 s	5-14 <i>min</i>	2 min 20 s 7 min	32	19-56
4.10.	4-8x50, shid. 40-90 s.	4-15 <i>min</i>	2 min 5 min 10 s	32	16-43
4.11.	2-4x100, shid. 1-4 min	3-21 <i>min</i>	2-9 min	32	16-72
4.12.	3-5x100, shid. 40 s - 4 min	4-22 <i>min</i>	3-6 min	32	24-48
4.13.	4-8x50 batt,shid. 30-40 s.	4-12 <i>min</i>	2-7 min	31	14-49

*V zona*

V zona	5.1.	15-20x 10-15, shid. 40-60 s	12-22 <i>min</i>	2-4 <i>min</i>	34	18-36
	5.2.	6-8x50 (20 batt+30, I) shid. 30-40 s	7-20 <i>min</i>	4 (1+3)-7 (3+4) <i>min</i>	34	12-31
	5.3.	2-3x50, shid. 3-4 min	4-10 <i>min</i>	1-2 <i>min</i>	34	9-18
	5.4.	10-15 min bosh- lang'ich kuchlanish 15 m, shid. 10 s	3-5 <i>min</i>	1 min 10 s 3 min	34	11-25
V zona	5.5.	6-12x25, shid. 40-90 s	5-20 <i>min</i>	1 min 12 s 3 min	34	12-27
	5.6.	8-10x25	2-3 <i>min</i>	1 min 36 s 1 min 30 s	34	15-23
	5.7.	8-10x25	3-4 <i>min</i>	2 min 5 s – 3 min 15 s	34	19-30

*Eslatma:*

- 1) oral. – oraliqli seriyalarda bo'laklar borasidagi dam olish oralig'i;
- 2) dam – dam olish vaqt;
- 3) K – mashq to'liq harakat koordinatsiyasi bilan bajariladi;
- 4) O – mashq oyoq harakatlari yordamida bajariladi;
- 5) Q – mashq qo'l harakatlari yordamida bajariladi;
- 6) chalq. – chalqancha suzish;
- 7) batt. – butterflyay usulida suzish;
- 8) k/suz. – kompleks suzish;
- 9) k/suz. – (25), k/suz. (50) – 25 va 50 m dan so'ng usullarni almashtirgan holda kompleks suzish;
10. (I, II, III, IV, V) – yuklama zonalari;
11. 10 sek ichidagi zarbalar soni.

Suzishda chidamlilikni rivojlantirish uchun «tepalik» nomli o'zgaruvchan sur'atda suzish mashqlari, ularning turlari shiddat zonalarida bajarilishi, shuningdek, yuklamalar kattaliklari 3-jadvalda berilgan.

**«Tepalik» o'zgaruvchan suzishda mashg'ulot vazifalaridagi mashqlar turlari, ularning bajarilish vaqt va yuklamalar kattaliklarining hisob-kitob qiymatlari**

*3-jadval*

T/r	Vazifaning nomi	Suzuv-chilar yoshi	Umum. vaqt (min)	Motor vaqt (min)	Yuklama kattaligi (m. bir.)
1	2	3	4	5	6
1.	100 m II 500 m+400 m III+300 m III +200 m III+50 m IV shid. (Hammasi 2450m)	13-14	41-45	38-42	190-240
2.	3x(10x50 m) II-II-III shid. 15-15-10 (yaxshilangani) (Hammasi 4500 m) 3x(10x50 m) II 3x (10x50 m)III	13-14	108-124 42-48 24-28	75-90 27-33 21-24	267-224 81-99 105-126

*3-jadvalning davomi*

3.	10x100 <i>m</i> II shid. 20 <i>s</i> +5x100 <i>m</i> II, shid. 15 <i>s</i> +5x100 <i>m</i> , III, shid. 10 <i>s</i> .(hammasi 2000 <i>m</i> ) 10x100 <i>m</i> II, shid. 20 <i>s</i> ,5x100 <i>m</i> II, shid. 15 <i>s</i> 5x100 <i>m</i> III shid. 10 <i>s</i>	13-14	31-35 17-18 8-9 6-8	26-30 14-15 7-8 5-7	119-141 56-60 28-32 35-49
4.	20x50 <i>m</i> =5x (II+III+IV+V) shid. 10-20 <i>s</i> (hammasi 1000 <i>m</i> ) 5x50 <i>m</i> II shid. 10-20 <i>s</i> . 5x50 <i>m</i> III shid. 10- 20 <i>s</i> . 5x50 <i>m</i> IV shid. 10- 20 <i>s</i> .	13-14	15-27 5-7 4-6 3-4 <i>m</i> 20 <i>s</i>	13-20 4-5 3 <i>m</i> 20 <i>s</i> - 4 <i>m</i> 10 <i>s</i> 2 <i>m</i> 10 <i>s</i> 3 <i>m</i>	91-117 20-25 22-28 25-34
5.	800m=400 <i>m</i> +200 <i>m</i> +100 <i>m</i> +100 <i>m</i> (II- III) shid. 10-15 <i>s</i>	13-14	19-21	18-19	39-41
6.	100 <i>m</i> +200 <i>m</i> +400 <i>m</i> +800 <i>m</i> +400 <i>m</i> +200 <i>m</i> +100 <i>m</i> , shid. 60-90 <i>s</i> . (hammasi 2200 <i>m</i> )	13-14	53-73	47-64	94-128
7.	800 <i>m</i> +400 <i>m</i> +200 <i>m</i> +400 <i>m</i> +200 <i>m</i> shid. 40-60 <i>s</i> . (hammasi 2000 <i>m</i> )	13-14	46-67	44-60	88-120
8.	400 <i>m</i> +2x200 <i>m</i> +4x100 <i>m</i> +8x50 <i>m</i> shid. 30- 60 <i>s</i> dam 2-3 <i>min</i> (hammasi 1600 <i>m</i> )	13-14	36-47	23-29	76-106
9.	150 <i>m</i> +2x75 <i>m</i> +3x50 <i>m</i> , shid. 60-90 <i>s</i> (hammasi 450 <i>m</i> )	13-14	8-13	5-6 <i>m</i> 20 <i>s</i>	21-29

*3-jadvalning davomi*

10.	1800 $m=6x$ (25 $m$ $V+25 m$ I+50 $m$ $IV+50 m$ I+75 $m$ $IV+75 m$ I)	13-14	24-30	24-30	96-120
11.	100 $m+200 m+400$ $m+800 m+400 m+200$ $m+100 m$ (II-III) shid. 30-60 s. dam 2-3 min (hammasi 2200 $m$ )	15	41-52	38-46	118-145
12.	3 $m$ x(400 $m+300$ $m+200 m+100 m$ ) (II-III) shid. 20-30 s. dam 1,5-2 min (hammasi 3000-5000 $m$ ) 3x(400 $m+300 m+200$ $m+100 m$ ) II 3x(400 $m+300 m+200$ $m+100 m$ ) III 5x(400 $m+300 m+200$ $m+100 m$ ) II 5x(400 $m+300 m+200$ $m+100 m$ ) III	15	262-334  55-72 43-54 92-119 72-89	240- 304  51-66 39-48 85-110 65-80	1168- 1472  204-264 234-288 340-440 390-480
13.	400 $m+2x200$ $m+4x100 m+8x50 m$ (II-III-IV) shid. 30-40 s. dam 2-3 min	15	38-44	27-35	170-214
14.	2x(200 $m+2x100$ $m+4x50 m$ ) (III-IV) shid. 30-90 s. dam 5-7 min (hammasi 2400 $m$ ) 2x(200 $m+2x100$ $m+4x50 m$ ) III 2x(200 $m+2x100$ $m+4x50 m$ ) IV	15	39-55  21-30 18-25	27-35  15-20 12-15	159-220  75-100 84-120

### 3-jadvalning davomi

15.	4-8x(50 m+50 m, shid. 5-10 s.) (III-IV), dam 4-7 min 4x(50 m+50 m, shid. 5-10 s.) III 4x(50 m+50 m, shid. 5-10 s.) IV 8x(50 m+50 m, shid. 5-10 s.) III 8x(50 m+50 m, shid. 5-10 s.) IV	15	109-175 17-27 16-27 38-61 38-60 7-11	26-34 5-6 3 m 28 s-5 m 10-12 7-11	159-202 25-30 27-35 50-60 56-77
16.	4-8x(100 m+50 m, shid. 5-15 s.) (III-IV) dam 4-7 min 4x(100 m+50 m, shid. 5-15 s.) III 4x(100 m+50 m, shid. 5-15 s.) IV 4x(100 m+50 m, shid. 5-15 s.) III 4x(100 m+50 m, shid. 5-15 s.) IV	15	113-212 18-29 17-28 36-65 42-70	33-45 6-8 5-7 12-16 10-14	216-289 36-48 40-49 60-80 80-112
17.	100 m (II)+ 800 m (II)+ 600 m (III)+400 m (III)+200 m batt. (IV) shid. 20-40 s. (hammasi 300 m)	15	46-58	44-55	203-258

#### **Qisqartmalar va shartli belgilar:**

- 1) aral. – yo'laklar orasidagi dam olish oralig'i.
  - 2) dam – seriyalar va takroriy oraliqli mashqlar o'rtasidagi dam olish vaqtisi.
  - 3) yuklama zonalari rim raqamlarda berilgan (I, II, III, IV, V).

Sport suzishiga doir o'quv adabiyotlarda va dasturlarda yosh suzuvchilarning mashg'ulot jarayonida namunaviy haftalik mashg'ulot MTS lari qo'llaniladi.

4-jadvalda 3-o'quv yili guruhlari uchun mashg'ulot MTS ning namunaviy tuzilmasi berilgan. Bu yerda har bir mashq uchun yuklama shiddati va kattaligi belgilab berilgan.

### **3-o'quv yillikning o'quv-mashg'ulot guruhlari uchun mashg'ulot mikrosikli tuzilmasi**

*4-jadval*

Haf-ta kuni	Mashqlar	Me'yori		Shid-dati	Shart. birl.
		Vaqti (min)	Hajmi (metr)		
1	2	3	4	5	6
DUSHANBA	I. Zalda				
	1.1. Badan qizdirish.	5		22	15
	1.2. Egiluvchanlik uchun yakka va juftlik mashqlari.	10		18	10
	1.3. Og'irliklar bilan mashqlar.	15		18	15
	1.4. Estafetalar.	15		24	60
	II. Basseynda				
	2.1. 200 m k/suz.	4 m 20 s	200	26	22
	2.2. 1000 m krol (2 chi bo'lagi texnika uchun)	12 (5+7)	1000	26-27	60
	2.3. 200 m. O krol +2x100 m. O batt.texnika uchun.		400		42
	2.4. 12x50 (batt. III, chalq. III, krol III dam – 30 s.	7	600	29	60
	2.5. 200 m. O brass +3x100 m. brass III, texnika uchun.	10	500	28	48
	2.6. 4x25 O hamma usulda (V).	8	100	28	8
	2.7.Burilishlarni bajarish texnikasini takomillash-tirish.	1	200-300	32	40
	Jami taxminan 3100 m.			Jami bir kunda 380 ball.	

*4-jadvalning davomi*

SESHANBA	I. Zalda				
	1.1. Badan qizdirish.	10		20	20
	1.2. To'ldirma to'p bilan mashq.	15		19	15
	1.3. Rezinkali amortizator bilan mashq.	20		19	20
	II. Basseynda				
	2.1. Badan qizdirish: 3x200 m. K/suz/ usullar teskari ketma-ketlikda bajariladi.	12	600	26	60
	2.2. 5x200 m. dam – 45 s, (II-III da yaxshilash bilan) texnika uchun.	18	1000	27	80
CHORSHANBA	2.3. 10x50 m. dam – 40 s. (II-III-IV).	8	500	30	56
	2.4. 3x300 m. II, texnika uchun.	18	900	28	108
	2.5. 4x25 m. V startdan.	1	100	32	8
	2.6. Estafetani uzatish texnikasini takomillashtirish.	15		21	30
	Jami taxminan 3100 m.			Jami bir kunda 397 ball.	
	I. Zalda				
	1.1. Badan qizdirish.	10		22	30
JUMA	1.2. Egiluvchanlik va epchilik uchun mashqlar.	10		18	10
	1.3. Oyoqlar va tana mushaklarini mustah-kamlash uchun mashqlar.	15		20	30
	1.4. Sakrash mashqlari.	10		24	40

*4-jadvalning davomi*

PAYSHANBA	II. Basseynda	16	600	22	48
	2.1. Badan qizdirish 600 m. (25 batt.+75 chalq.)				
	2.2. 10x100 m. krol II dam -70 s.	15	1000	26	75
	2.3. 200 m. k/suz. II.	4	200	24	16
	2.4. 300 m.+4x50 O brass.	11	500	22	33
	2.5. 8x50 m. brass x (3-III+IV).	8 m 30 s	400	28-32	54
	2.6. Startdan uzoqqa sirg‘alib tushish bo‘yicha musobaqalashish.	5	-	20	10
	2.7. Suvga sakrash bo‘yicha o‘quv mashqi.	5	-	21	10
	Jami taxminan 2700 m.		Jami bir kunda 312 ball.		
	I. Zalda				
PAYSHANBA	1.1. Badan qizdirish.	10	-	19	10
	1.2. Aylanma mashhg‘ulot.	20	-	20	40
	1.3. Mini basketbol o‘yini.	15	-	22	45
			Jami 95 ball.		
PAYSHANBA	II. Basseynda				
	2.1. Badan qizdirish 400 m. krol +200 m. mashq.	14 11 m	600	21	28
	2.2. 12x50 m. dam – 30 s.	20 s	600	25-29	48
	II. (oxirgi 2 tasi III).				
	2.3. 400 m. II+300 m II+200 m. III+100 m. III oral. – 20- 40 s.	20 9 m	1000	24-29	120-135
	2.4. 6x100 m. dam 1 min. (II-III).	30 s	600	26-30	38-42
	2.5. Start bajarish texnikasini takomillash.	8	-	30-32	56-64
	2.6. 50 m. startdan IV.	40 s	50	29	8

*4-jadvalning davomi*

Jami taxminan 2850 m.		Jami bir kunda 420 ball.		
I. Zalda				
1.1. Badan qizdirish.	10	-	20	20
1.2. Umumrivojlantiruv-chi mashqlar.	10	-	22	30
1.3. Tana va qo'llar mu-shaklarining egiluvchanligi hamda kuchini rivojlantirish uchun mashqlar.	10	-	20	20
1.4. Rezinali amortizator bilan mashqlar.	15	-	22	45
Jami: 115 ball.				
II. Basseynda				
2.1. Badan qizdirish 600 m. (200 m. chalq.+200 m. brass +200 m krol).	11 m 30 s	600	20-21	22-24
2.2. 300 m. k/suz.+200 m. brass +100 m. batt.+200 m. chalq.+300 m., oral. – 60 s.	18 m 40 s	1100	25-26	75-93
2.3. 12x50 hajmi usullar bilan (III) dam – 30 s.	12	600	29	72
2.4. 25 m ga hamma usulda estafetali suzish V.	1	100	32	8
Jami taxminan 2400 m.		Jami bir kunda 312 ball.		
I. Zalda				
1.1. Badan qizdirish.	10	-	20	20
1.2. Umumrivojlantiruv-chi mashqlar.	5	-	22	15
1.3. Egiluvchanlik va chaq-qonlik uchun mashqlar.	5	-	19	5
1.4. To'ldirma to'plar bilan mashqlar.	10	-	22	30
1.5. Mini basketbol o'yini.	15	-	24	60
Jami: 130 ball.				

*4-jadvalning davomi*

II. Basseynda	2.1. Badan qizdirish 500 m. krol.	9-10	500	25	36-40
	2.2. 80x50 m texnika uchun mashq. (ko'krakda va chalqancha krol).	5-7	300	25	20-28
	2.3. 200 m. O II+4+25 O.	4+1=5	300	24-30	25
	2.4. 400 m k/suz. (50) II+4+100 k/suz; dam 1 min (III).	15	800	25-27	60-75
	2.5. 75 m startdan (IV).	50	75	30	6
	2.6. To'p bilan o'yin.	30	-	23	90
	Jami taxminan 2000 m.		Jami bir kunda 394 ballgacha.		


Namunaviy mikrosikl yuklamalarining yo'nalishi va kattaligi tuzilishining tahlili shuni ko'rsatadiki, mashg'ulot yuklamalarining umumiy kattaligi 312 dan 420 ball atrofida bo'ladi.

Jumladan, zaldagi mashg'uilot yuklamalari kattaligi 55 dan 130 ballgacha atrofida o'zgarib turadi. Hafta davomidagi yuklamalarning umumiy kattaligi 2244 ballni tashkil etadi, jumladan, zaldagi yuklamalar kattaligi 605 ballga teng.

Shiddat zonasi e'tiborga olingen maxsuslashgan yuklamalarning haftalik MTS (umumiy) hamda haftaning har bir kunidagi kattaliklar tahlili. Natijalari 1 - va 2-rasmlarda berilgan.

1-rasmida haftalik MTS ichida maxsuslashgan yuklama kattaliklari (ballarda) va har bir ishda zonasi bo'yicha suzib o'tiladigan hajmi diagrammalari keltirilgan L.P. Matveyev(1999).


1-rasmdan ko'riniб turibdiki, yuklama kattaligining ballardagi hisob qiymati va shiddat zonalari bo'yicha suzib o'tiladigan masofa hajmi bir xil emas. Maksimal ko'rsatkichlar II zonada (778 ball, 7500 m) va III zonada (552 ball, 4800 m), minimal ko'rsatkichlar esa V zonada (24 ball, 300 m) qayd qilingan.



*1-rasm. Haftalik MTSdagi maxsuslashgan yuklamalar kattaligi diagrammasi.*

*Eslatma:* Haftalik MTS uchun maxsuslashgan yuklama kattaligi ballarda va suzib o'tiladigan masofa hajmi metrlarda har bir shiddat zonasini bo'yicha berilgan.

Haftalik MTSdagi II shiddat zonasini yuklamalari kattaliklari dinamikasi quyidagi ko'rinishga ega. Dushanbada – 180 ball, seshanbada – 140, chorshanbada – 130, payshanbada – 130, jumada – 90, shanbada – 190 ball.



*2-rasm. Namunaviy haftalik mikrosikl sxemasi.*

III shiddat zonasini yuklamalari kattaliklari dinamikasi quyidagicha: dushanbada – 110, seshanbada – 110, chorshanbada – 70, payshanbada – 90, jumada – 90, shanbada – 110 ball. Keyingi

tadqiqotlarimizda biz namunaviy haftalik MTS yuklamalari tuzilishini tahlil qilib ko'rdik.

## 2. Yuklama kattaliklarini me'yorlash metodikasi

13-15 yoshdagi suzuvchilar uchun yuklamalarni me'yorlash muammosini hal etish maqsadida o'sib boruvchi kattalikdagi (shartli birlikda) yuklama berildi va yuzaga keladigan toliqish belgilari hamda ularning tashqi belgilariga ko'ra soni tahlil qilib chiqildi.

Turli kattaliklardagi yuklamalar ta'siridan so'ng toliqish belgilarning turlari 5-jadvalda berilgan V.N. Platonov(2000).

**Turli kattalikdagi yuklamalar ta'siridan so'ng toliqish belgilari (V.N. Platonov bo'yicha, 2000 y.)**

*5-jadval*

t/r	Ko'rsat-kichlar	O'rtacha yuklama	Katta yuklama	Juda katta yaqin maksimal yuklama
1	2	3	4	5
1.	Terining rangi	1.1. yengil qizarish	1.2. kuchli qizarish	1.3. juda kuchli qizarish yoki o'ta oqarib ketish
2.	Ter ajralishi	2.1. kam	2.2. tananing yuqori qismida kuchli ter ajralishi	2.3. tananing yuqori va pastki qismida kuchli ter ajralishi
3.	Harakat-lar	3.1. ishonchli	3.2. xatolarning yo'nalishi, aniqlikning pasayishi ishonchsizlikning paydo bo'lishi	3.3. koordinatsiyaning kuchli tuzilishi, harakatlarning sust baja-ralishi, aniq xatolar
4.	Jamlanganlik	4.1. me'yorida, tuzatish ko'rsatmalarini	4.2. tushuntirish paytida diqqatsizlik,	4.3. Jamlanganlikning o'ta susayishi, kuchli asa-

*5-jadvalning davomi*

		bajariladi, xo-tirjamlik, mashqlarni tushuntirishda va namoyish qilishda to‘liq e’tibor beriladi.	texnik va taktik malakalarga ishlov berishda idrok etishning sustligi, tabaqalashga bo‘lgan qibiliyatning sustlashish.	biylashish, diqqatning bo‘linishi juda sekin reaksiya .
5.	Umumiyo‘zini his qilish.	5.1. shikast yo‘q, hamma yuklama topshiriqlari bajarildi.	5.2. mushaklar-dagi holsizlanish, qiyin nafas olish, o‘sib boruvchi kuchsizlanish ish qobiliyatning aniq susayishi.	5.3. mushaklar-dagi qotib qoluvchi og‘irlik, bosh aylanishi, ko‘ngil aynishi
6.	Yutuqlar ga tayyor turish.	6.1. qat’iy mashg‘ulotni davom ettirish istagi	6.2. faoliikning susayishi, yanada uzoqroq tanaffuslarga intilish, ishni davom ettirishga tayyor turish ning susayishi.	6.3. to‘liq tinchlikni istash va ishni to‘xtatishni xohlash.
7.	Kayfiyat	7.1. ko‘tarin-ki, quvnoq jonlangan.	7.2. birmuncha «sust», lekin quvnoq, agar mashq-natiyalari kutilganidek bo‘lsa, oldinda turgan mashg‘ulotdan quvonish.	7.3. mashg‘ulotning qadr-qiymati va ma’nosiga nisbatan shubhalanish, yangi mashg‘ulotdan oldin qo‘rquvning paydo bo‘lishi.

*Eslatma:* toliqish belgilarining raqamli belgilari (1.1, 2.1, 4.2 va h.k.) raqamli kod bo‘lib, ular keyinchalik matnda qo‘llaniladi.

Yuklamalar me’yorlari kattaliklarini aniqlash bo‘yicha o’tkazilgan tajribada 72 nafar yosh suzuvchilar ishtirok etdilar. Ular quyidagi yosh guruhlariga ajratildi: 13 yosh – 24 kishi, 14 yosh – 24 kishi, 15 yosh – 24 kishi.

Har bir suzuvchiga maxsus va kattaligi o’sib boruvchi umumiy yuklama berildi. Bunda paydo bo‘ladigan toliqish belgilari xususiyati tekshirildi, mashg‘ulot va mashg‘ulot kuni davomidagi o’rta, katta hamda maksimal kattalikdagi yuklamalarni diagnostikalashda ularning miqdori hisoblab chiqildi (A.G’. Sodiqov).

Yosh suzuvchilarining toliqish xususiyatlarini diagnostika qilishda toliqish belgilarining taqsimlanishi va yuklama kattaliklarini me’yorlash natijalari 6-8-jadvallarda berilgan.

**Turli kattaliklardagi yuklamalardan so‘ng 13 yoshdagi  
suzuvchilarining holatini diagnostikalashda toliqish  
belgilarining taqsimlanishi**

*6-jadval*

T/ r	Yuklama kattaligi darajasi	Yuklama kattaligi oralig‘i (ballarda)	Toliqish belgilarining belgilanishi va sportchilarda ularning soni							
1.	O’rta	200-280	1.1 22	2.1 24	3.1 23	4.1 24	5.1 24	6.1 23	7.1 24	
2.	Katta	350-430	1.2 23	2.2 23	3.2 24	4.2 24	5.2 23	6.2 22	7.2 24	
3.	Maksi- mal	440-500	1.3 24	2.3 23	3.3 24	4.3 23	5.3 22	6.3 22	7.3 22	

**Turli kattalikdagi yuklamadan so‘ng 14 yoshdagи suzuvchilarning  
holatini diagnostikalashda toliqish belgilarining  
taqsimlanishi**

7-jadval

T/ r	Yukla- ma kattaligi darajasi	Yuklama kattaligi oralig‘i (ballarda)	Toliqish belgilarining belgilanishi va sportchilarda ularning soni							
1.	O‘rta	240-300	1.1 24	2.1 23	3.1 24	4.1 24	5.1 23	6.1 24	7.1 24	
2.	Katta	380-450	1.2 23	2.2 24	3.2 24	4.2 23	5.2 24	6.2 22	7.2 24	
3.	Mak- simal	460-540	1.3 22	2.3 22	3.3 24	4.3 23	5.3 22	6.3 22	7.3 22	

**Turli kattalikdagi yuklamadan so‘ng 15 yoshdagи suzuvchilarning  
holatini diagnostikalashda toliqish belgilarining taqsimlanishi**

8-jadval

T/ r	Yuklama kattaligi darajasi	Yuklama kattaligi oralig‘i (ballarda)	Toliqish belgilarining belgilanishi va sportchilarda ularning soni							
1.	O‘rta	250-330	1.1 24	2.1 24	3.1 24	4.1 23	5.1 24	6.1 23	7.1 24	
2.	Katta	400-480	1.2 22	2.2 22	3.2 23	4.2 22	5.2 22	6.2 20	7.2 22	
3.	Mak- simal	490-580	1.3 22	2.3 20	3.3 20	4.3 24	5.3 22	6.3 20	7.3 22	

*6-8-jadvallariga eslatma:* toliqish belgilarining belgilanishi va sportchilarda ularning soni ustunida berilgan raqamlarning belgilanishi, pastkisida esa ushbu belgilar namoyon bo‘lgan sportchilar soni keltirilgan.

Xuddi shunga o‘xshab mashg‘ulot kuni oxirida, ikkinchi mashg‘ulot tugagandan so‘ng toliqish belgilarini diagnostika qilindi. 1-mash-

g'ulotdan keyin suzuvchilar dam oladilar va 2-mashg'ulot belgila-nishiga qadar tiklandilar.

Mashg'ulot, mashg'ulot kunlari va mikrosikl uchun yuklama kattaliklarining me'yorlari 9-jadvalda keltirilgan.

Mashg'ulot, kunlar va haftalik MTSlar uchun ham kompleks, ham tanlangan yo'nalishdagi yuklamalarni rejalashtirish davomida yuk-lama kattaliklarining yuqoridagi me'yorlarini e'tiborga olish lozim.

Ma'lumki, yuklamalar kattaligi organizmi toliqish bilan bog'liq va bunda yosh sportchilar o'ta toliqishga va haddan ortiq mashqlanishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

13-15 yoshdagi suzuvchilarning mashg'ulot jarayoni tuzilmasi tahlili sprinterlar, o'rta masofaga suzuvchilar va stayerlar uchun yillik sikldagi mashg'ulot yuklamalari hajmlarini taqsimlash xususiyatlarini aniqlab olish imkonini berdi. Yanada to'liqroq tahlil shuni aniqlab berdiki, yillik sikldagi yuklamalarning umumiy hajmi yuqori malakali suzuvchilarni to'laqonli tayyorlash talablariga mos kelmaydi va IV, V shiddat zonalari yuklamalari yetarli darajada qo'llanilmaydi.

### **13-15 yoshdagi suzuvchilar tayyorgarligiga taalluqli bo'lgan mashg'ulot, mashg'ulot kunlari va haftalik mikrosikllar uchun yuklamalar kattaliklari darajasi**

*9-jadval*

T/ r	Yuk- lama kattaligi darajasi	Yuklama kattaliklari oralig'i (ballarda)								
		13 yosh			14 yosh			15 yosh		
		mashg'ulot	kun	mikrosikl	mashg'ulot	kun	MTS	mashg'ulot	kun	MTS
1	O'rta	200- 280	300- 380	1400- 1980	240- 300	390- 420	1500- 2100	250- 330	400- 500	1750- 2250
2	Katta	350- 430	480- 530	1800- 2880	380- 450	500- 620	1900- 3000	400- 480	540- 660	2400- 3280
3	Mak-simal	440- 500	540- 780	2880- 3940	460- 540	560- 800	3040- 4100	490- 580	680- 880	3600- 4460

### 3. Sport suzishida tanlangan yo‘nalishdagi yuklamalardan tashkil topgan mashg‘ulot jarayoni tuzilmalarini tuzish

So‘nggi yillarda har xil sport turlarida malakali sportchilarni tayyorlash tizimida bir tomonlama yo‘naltirilgan yuklamalar samarali qo‘llanilmoqda. Rivojlanib boruvchi tuzilmalardagi (mashg‘ulot mikrosikllarida va h.k.): mashg‘ulot dasturi shunday quriladiki, ikki yoki uch kun davomida ketma-ket bitta ustuvor yo‘nalishdagi yuklama qo‘llaniladi.


Muallif Yu.V Verxoshanskiy(1998) yuklamalarni bosib oshirib borish o‘rniga mikrosikllar tuzilmasida «mikrobloklar» ko‘rinishidagi yuklamalarni qo‘llashni taklif qiladilar.

Ushbu vaqtida mashg‘ulot yoki mashg‘ulot kunining umumiy Hajmiga nisbatan 70-85% gacha bo‘lgan bir xil ustuvor yo‘nalishdagi yuklama quyidagi sxema bo‘yicha qo‘llaniladi: birinchi kuni – maksimal yoki submaksimal kattalikdagi yuklama, ikkinchi kuni – o‘rta yoki kichik kattalikdagi yuklama.

3-rasmida bir haftalik mikrosikl doirasida bir tomonlama yuklamalarni tashkil etish sxemasi keltirilgan.

Bu yerda yosh suzuvchilar organizmida har xil darajada toliqish keltirib chiqaradigan yuklamalar kattaligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bu haqda qonda siydkhil to‘planishi dinamikasi ham dalolat beradi.

Ko‘rinib turibdiki, birinchi kuni maksimal yoki submaksimal kattalikdagi yuklama, ikkinchi kuni esa katta yoki o‘rta kattalikdagi yuklama qo‘llaniladi. Uchinchi kuni kichik yoki o‘rtacha kattalikdagi tiklanish yuklamasi qo‘llaniladi.



3-rasm. Bir haftalik mikrosikl doirasida mashqlantiruvchi ta’sirga ega «mikrobloklarni» tashkil qilish sxemasi.

Ushbu sxemada bir tomonlama yuklama shtrixlangan, kompleks, tiklantiruvchi yuklama esa yo'q. Keyinchalik bir tomonlama yuklamalar blokli yuklamali blok, kompleks, organizmni tiklashga yo'naltirilgan yuklama esa tiklantiruvchi blok deb yuritiladi.

Mashg'ulot vazifalari (seanslarini rejalashtirish davomida Yu.V.Verxoshanskiy (2005) mashg'ulot komplekslarining quyidagi variantlarini ajratishni taklif qiladi:

1) qisqa vaqt ichida dastlabki kuch bilan bajariladigan ishdan so'ng hosil bo'ladigan ijobiy ta'sirdan foydalanishga asoslangan komplekslar.

Bunday ish markaziy asab tizimi qo'zg'aluvchanligi yuqori bo'lgan sharoitda portlovchan yoki tezkor xususiyatga ega maxsus ishni keyinchalik bajarishga imkon beradi;

2) turli xil mashqlantiruvchi yo'nalishga ega vositalarning oqilona izchilligi hamda uyg'unligidan foydalanishga asoslangan komplekslar. Bunda ish va dam olish tartibli rejimda almashilab turiladi;

3) mashg'ulot mashqini takrorlash orasidagi dam olish oralig'ida sportchining oqilona harakatlaridan foydalanishga asoslangan komplekslar. Sportchi harakatlari metabolitlar oksidlanishining faollashuviga, markaziy asab tizimi qo'zg'aluvchanligining optimal darajasini saqlab turishga yordam beradi.

Mashg'ulot vazifalarini tuzish katta kasbiy mahoratni taqozo etadi. Bu mahorat rejalashtirilayotgan yuklamaning mashqlantirish imkoniyatini aniq baholay olishga, tezkor mashqlantiruvchi samaraning fiziologik mexanizmlarini, turli xil vositalar va metodlarni, shuningdek, organizmda kechadigan tiklanish jarayonlarini bilishga asoslanadi.

Vositalarning optimal me'yorlarini to'g'ri aniqlab olish, takroriy ish orasidagi dam olish oraliqlari davomiyligini hamda ularni to'ldirish usullarini bilish, sportchilarning toliqishi ortib borgan sari yuklamaning mashqlantiruvchi ta'sirining o'zgarib borish xususiyatini bilish juda muhim.

Sikllik sport turlarida A.P. Korjenevskiy, P.V. Kvashchuk va G.M. Ptushkinlar(1993) yoki sportchilar uchun bir tomonlama yo'nalishdagi mashg'ulotlarni bitta yuklama sifatida qaraladigan bloklarga birlashtirishni taklif etadilar.

Katta, o‘rtta va kichik shiddatli siklik mashqlarni rejalashtirishda o‘smir sportchilar yurak-tomir tizimi imkoniyatlarining pasayishini e’tiborga olish lozim hamda ikkinchi va uchinchi kunlarida ketma-ket ular organizmining ish qobiliyatini samarali rejimda bo‘lishini ta’minlash zarur.

Mualliflar tomonidan siklik sport turlari bilan shug‘ullanuvchi o‘smirlar uchun turli yo‘nalishdagi yuklamalarning quyidagi turlarini qo‘llash asoslab berilgan:

1) maksimal shiddatdagi yuklama zonasida tezlanishlar seriyasini bajarish. Bu musobaqa tezligida va hatto undan yuqoriroq tezlikda 15-25 sek vaqt bilan qisqa masofalardagi tezlik mashqlari. Mashq seriyalari orasidagi dam olish vaqt 3-5 min gacha;

2) uzoq bo‘laklarda, submaksimal shiddat zonasida tezlik mashqlari seriyasini bajarish. Bajarish vaqt 1 min 30 sek gacha, musobaqa yoki musobaqaga yaqin tezlikda (musobaqa tezligiga nisbatan 85-90%) seriyalar orasidagi dam olish vaqt – 5-7 min;

3) chidamlilikni oshirish uchun mashqlar bajarish: uzoq bo‘laklarni yugurib yoki suzib o‘tish, vaqt – 5 min dan 15 min gacha va yuqori, o‘rtta yoki katta shiddat zonasida bajariladi.

Shu narsa aniqlanganki, yosh sportchilar organizmining moslashish zaxirasidan oshib ketmaydigan yuklama kattaliklarining optimal rejimlarini izlab topish uchun quyidagi kompleksli tibbiy-pedagogik mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

– har qanday shiddat rejimida chidamlilikni namoyon qilish bilan bog‘liq bo‘lgan yuklamalarni bajarish paytida sistolik arterial bosimning o‘rtacha 15-20% ga pasayishi ishni to‘xtatish mezonini bo‘lib xizmat qiladi;

– tezlik sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yuklamalarni bajarishda tezlikning maksimalga nisbatan 5-10% ga pasayishi ishni to‘xtatish uchun mezon bo‘lib xizmat qiladi;

– chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan o‘rtacha va katta shiddatli siklik mashqlarning qo‘llanilishi ketma-ket uch kun davomida yuklama kattaliklari kamayishi bilan sodir bo‘lishi mumkin.

Ushbu holda kunlar davomida yuklama kattaligini o‘sib boruvchi kamayishi sportchi organizmining moslashish zaxirasining pasayish xususiyatiga mos kelishi kerak, bu o‘ta zo‘riqishni oldini oladi, shu bilan birga «maksimal yuklama» tamoyili to‘liq amalga oshadi;


– tezlik mashqlarini ikki kun ichida o'tkazish maqsadga muvofiq. Birinchi kuni yuklama maksimal yoki submaksimal kattalikda, ikkinchi kuni esa o'rta yoki kichik kattalikda bo'lishi mumkin.

Haftalik mikrosikl davomida shunday 4 ta kunni rejalashtirish mumkin, ular o'rtasida esa tiklantiruvchi yuklamalni mashg'ulot kunlarini rejalashtirish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi tavsiyalardan foydalangan holda biz umumiy chidamlilikni (stayerlar uchun), sprinterlar va o'rta masofaga suzuvchilar uchun tezlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mikrosikllarni tuzish sxemasini ishlab chiqdik.

Mashg'ulot yuklamasi mikrosiklda yuklamalni va tiklantiruvchi – mikrobloklar shaklida rejalashtirildi. Bunda shunday yuklamalar uyg'unlashtirildiki, ular yuklamali bloklardan so'ng moslashish jarayonlarining kechishini tezlashtirishga yoki turli yo'nalishdagi yuklamalarning o'zaro ijobiy ta'sirini kuchaytirishga imkon berishi kerak edi.

4-rasmda chidamlilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan haftalik mikrosiklni rejalashtirishning umumiy tuzilishi berilgan.



*4-rasm. Umumiy chidamlilikni (ish qobiliyatini) rivojlantirishga yo'naltirilgan mikrosikllarni tuzish. (mikrosikl kodi UCHMTS).*


Bu sxemada shtrixlangan qism – bu chidamlilikning namoyon bo'lishi bilan bog'liq bo'lган mashqlar. Bunday yuklama haftaning birinchi, ikkinchi va uchinchi kuni qo'llaniladi.

Keyin qisqa bo'laklarda tezlik mashqlaridan foydalaniladi (shtrixlangan qismi). Bu yerda har bir mashq seriyasidan keyin 10 qt to'liq tiklangunga qadar 5-7 min dam olish vaqtiga belgilanishi kerak.

Stayerlarni tayyorlash uchun chidamlilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan mezosikl kamida 3ta shunday mikrosikllardan tashkil topishi lozim.

5-rasmda sprinterlar tayyorlash uchun haftalik mikrosiklni rejalshtirishning umumiy tuzilishi berilgan. Bu yerda haftaning birinchi va ikkinchi kunlari qisqa bo'laklarda 15 sek gacha davom etadigan tezlik mashqlari qo'llaniladi, beshinchi va oltinchi kunlari esa 20-30 sek davom etadigan qisqa bo'laklarda mashqlar bajariladi.

Ular o'rtaqidagi dam olish vaqtiga birinchi va ikkinchi kunlari 1-3 min, 5 chi va 6 chi kunlari 5-7 min (to'liq tiklanguncha). Uchinchi va to'rtinchi kuni o'rta va kichik kattalikdagi kompleks yuklama qo'llaniladi.




**5-rasm. Sprinterlarni tayyorlash uchun asosiy mashg'ulot mikrosiklini tuzish (tezlik sifatlarini rivojlantirish) sxemasi (mikrosikl kodigi- PTQMTS).**

Sxemada tezlik, sprinterlik sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilan yuklama shtrixlangan. Kompleks yuklama shtrixlanmagan.

Birinchi va ikkinchi kunlari yuklamani musobaqa yuklamasiga nisbatan 105-110% shiddat bilan bajarishga harakat qilish lozim. 5 chi va 6 chi kunlari shiddat musobaqadagiga nisbatan 90-95% bo'lishi mumkin.

6-rasmda submaksimal shiddat zonasida tezlik sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulot mikrosikli sxemasi berilgan. Bu sxema o'rta masofaga suzuvchilar uchun tavsiya qilingan.

Ularning musobaqa faoliyatni ko'proq anaerob-glikolitik yuklama rejimida amalgaga oshiriladi.



*6-rasm. Submaksimal shiddat zonasida tezlik sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mikrosiklni tuzish sxemasi (o'rta masofaga suzuvchilar uchun) (mikrosikl kodi TQMTSKCH).*

Ushbu sxemada shtrixlangan qismida uzun bo'laklarda suzib o'tiladigan (1,5-2 min), musobaqa tezligida (yoki musobaqaga nisbatan 90-95%) bajariladigan tezlik mashqlari ko'rsatilgan.

### **Maxsus tayyorgarlik bosqichlarini tuzish uchun bir tomonlama yo'naltirilgan yuklamalar tizimining tuzilishi**

*10-jadval*

Ixtisoslik	№ Mezo-sikl	Haftalik mikrosiklning tartib raqami va turi			
		1	2	3	4
Sprinterlar	I	UCHMTS	UCHMTS	UCHMTS	KMTS
	II	PTQMTS	PTQMTS	PTQMTS	KMTS
	III	UCHMTS	UCHMTS	PTQMTS	TQMTSKCH
	IV	PTQMTS	PTQMTS	PTQMTS	KMTS

O'rta masofaga suzuvchilar	I	UCHMTS	UCHMTS	UCHMTS	KMTS
	II	TQMTSKCH	TQMTSKCH	TQMTSKCH	TQMTSKCH
	III	UCHMTS	UCHMTS	PTQMTS	TQMTSKCH
	IV	TQMTSKCH	TQMTSKCH	TQMTSKCH	KMTS
Starvelar	I	PTQMTS	UCHMTS	UCHMTS	UCHMTS
	II	UCHMTS	UCHMTS	UCHMTS	KMTS
	III	PTQMTS	TQMTSKCH	UCHMTS	UCHMTS
	IV	UCHMTS	UCHMTS	UCHMTS	KMTS

*Eslatma:* UCHMTS – chidamlilikni aerob imkoniyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan mikrosikl; PTQMTS – tezlik qobiliyatlarini (anaerob-alaktat imkoniyatlarni) rivojlantirishga yo'naltirilgan mikrosikllar. Bu yerda yuklamaning maksimal shiddat zonasida mashqlar qo'llaniladi; TQMTSKCH – submaksimal shiddat zonasini sharoitlarida tezlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mikrosikl. Bu yerda mashqlar anaerob-glikolitik imkoniyatlarni rivojlantirishga qaratilgan. KMTS – kompleksli mikrosikl. Bu mikrosiklda kompleks yo'nalishdagi yuklama qo'llaniladi: kuch qobiliyatları, egiluvchanlik suzish texnikasini rivojlantirish, start, burilishlarga ishlov berish, koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish. Odadta, bu yerda yuklama moslashish jarayonlarini yaxshilash uchun o'rtacha shiddat zonasida qo'llaniladi.

Shtrixlanmagan qismida qisqa bo'laklardagi tezlik mashqlari yuklamalari berilgan (15 sek). Bunday mashq seriyalari bajarilgandan so'ng tanaffus vaqt 3-5 min ni tashkil etishi lozim (A.G'. Sodiqov).

Yuqoridagilarga xulosa yasab aytish mumkinki, haftalik mikrosikllarda bir tomonlama yo'naltirilgan yuklamalarni rejalashtirishning tavsiya etilayotgan, metodikasi tanlangan yo'nalishidagi yuklamalardan iborat maxsus tayyorgarlik mezosikllari va bosqichlari tuzilmasini tuzib chiqishga imkon beradi.

Haftalik mikrosikllarda va tegishli mikrosikllarda tegishli mezosikllarda maxsus tayyorgarlik bloklarini tuzishning o'ziga xos xususiyatlari, tayyorgarlik davrining maxsus bosqichida yuklamalar tavsifi hamda ularning taqsimlanishi dinamikasi quyidagilardan iborat.

## **I. Sprinterlar uchun:**

*1-mezosiklda* yuklamaning asosiy yo'nalishi, chidamlilikni rivojlantirishni nazarda tutgan edi. (birinchi uchta haftalik mikrosiklda). 4-mikrosiklda kompleks yuklama qo'llanildi.

*2-mezosiklda* oldingi yuklamalarning mashg'ulot samarasi yuzaga kelgan vaziyatda anaerob-alaktat yuklama qo'llanildi (1, 2, 3-haftalik mikrosikllar). 4-mikrosiklda kompleks yo'nalishdagi yuklama berildi.

*3-mezosiklda* birinchi ikkita haftalik mikrosikllarda chidamlilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan yuklama, uchinchi va to'rtinchi mikrosikllarda mos ravishda anaerob -alaktat va anaerob glikolitik yo'nalishdagi yuklama qo'llanildi.

*4- mezosiklda* ikkinchi mezosikldagi kabi yuklama qo'llanildi.

## **II. O'rta masofaga suzuvchilar uchun:**

*1-mezosiklda* ko'proq chidamlilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan yuklama (1, 2, 3-haftalik mikrosikllar), 4-mikrosiklda esa kompleks yuklama qo'llanildi.

*2 va 4-mezosikllarda* ketma-ket birinchi uchta haftalik mikrosikllarda anaerob-glikolitik yo'nalishdagi yuklama rejalashtirildi (asosiy yo'nalishi), 4-mikrosiklda esa kompleks yuklama o'rtacha shiddat zonasida bajarildi.

*3-mezosiklda* birinchi va ikkinchi haftalik mikrosikllarda chidamlilikni rivojlantiruvchi yuklama uchinchi va to'rtinchi mikrosikllarda esa anaerob-alaktat hamda anaerob-glikolitik imkoniyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan yuklamalar qo'llanildi.

## **III. Stayerlar uchun:**

*1-mezosiklda* birinchi haftalik mikrosiklda anaerob-alaktat, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi mikrosikllarda esa chidamlilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan yuklama qo'llanildi.

*2-mezosiklda* birinchi uch haftalik mikrosikllarda yuklama chidamlilikni rivojlantirishga yo'naltirildi, to'rtinchi mikrosiklda esa kompleks yuklama qo'llanildi.

*3-mezosiklda* birinchi va ikkinchi mikrosikllarda mos ravishda anaerob-alaktat va anaerob-glikolitik yo'nalishdagi yuklama, uchinchi va to'rtinchi mikrosikllarda esa chidamlilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan yuklama qo'llanildi.

*4-mezosiklda* ikkinchi mezosikldagidek yuklamadan foydalanildi.

#### **4. Yosh suzuvchilarning tezkor, joriy va bosqichli nazoratini o'tkazish metodikasi**

Mashg'ulot yuklamalari hajmi va harakatni oshirish orqali yosh suzuvchilar mashg'ulot jarayonini jadallashtirish yosh sportchilarning tezkor, joriy va bosqichdagi holatini pedagogik nazorat qilishni taqozo etadi. Bundan maqsad sportchilar organizmining ortiqcha toliqish va ortiqcha mashqlantirilishini oldini olishdir.

Pedagogik nazorat shug'ullanuvchilarning jismoniy rivojlanishi dinamikasini, umumiy va maxsus tayyorgarliklari darajasini, organizmning funksional holatini, mashg'ulot yuklamalarining sportchilar imkoniyatlariaga mosligini baholash maqsadida o'tkaziladi.

Quyidagi nazorat turlari farqlanadi: tezkor, joriy va bosqichli yoki permanent 13-15 yoshdagи suzuvchilar holatini to'laqonli nazorat uchun biz quyidagi metodikani ishlab chiqdik.

*Tezkor nazorat*, tezkor nazorat mashg'ulot mashqlari yuklamalarni, ularning vaqt oralig'idagi hajmini, bajarilish shiddatini, vazifa, mashg'ulot, mashg'ulot kuni kattaligini qayd qilish uchun mo'ljalangan.

Tezkor nazorat jarayonida sportchi organizmidagi biokimyoiy o'zgarishlar kattaligi va yo'nalishini aniqlash, shu orqali mashg'ulot mashqlari yuklamalarining jismoniy hamda fiziologik parametrlari o'rtaisdagi nisbatni belgilab olish zarur.

Malakali suzuvchilar mashg'ulotlarida to'g'ridan-to'g'ri fiziologik va biokimyoiy o'lchashlardan (kislород иштимол qilinishi, qonda laktat miqdori yoki jamlanishi, qonda kislota ishqor muvozanati parametrlari va h.k.) foydalilanildi.

O'quv-mashg'ulot guruhlari yosh suzuvchilarning mashg'ulotlarida to'g'ridan-to'g'ri fiziologik va biokimyoiy o'lchashlardan har doim ham foydalana olinmaydi. Shuning uchun bu yerda 10 sek (tomir urishi) dinamikasini baholash eng axborotli va qulay ko'rsatkich hisoblanadi.

Odatda, bunday baholashni qo'l yordamida paypaslab o'tkazish mumkin. Mashg'ulotgacha mashg'ulot davomida va uning oxirida funksional orostatik sinovlar, shuningdek, 10 sek. ning tiklanish dinamikasini baholash orqali standart yuklamalardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan sinovlar qo'llaniladi.

O‘quv-mashg‘ulot guruqlarining yosh suzuvchilari uchun tezkor nazorat metodikasini ishlab chiqdik.

### **Tezkor nazorat olib borish metodikasi**

1. *Vazifasi* – yosh suzuvchilar organizmning kun davomidagi katta hajmi va shiddatli mashg‘ulotlarning o‘tkazilishiga nisbatan tayyorgarligini tekshirish, shuningdek, mashg‘ulot yoki mashg‘ulot kuni tugagandan keyin ularning holatini baholash.

*Bajarilishi* – shu maqsadda funksional orostatik sinov qo‘llaniladi. U quyidagidan iborat: sportchi 5 min. tinch yotadi (mashg‘ulot boshlanishi oldidan) va shundan so‘ng tomir urishi hisoblanadi.

10 sek. ning bu qiymati dastlabki hisoblanadi va unga qarab mashq jarayonida 10 sek. dinamikasi taqqoslanadi. Keyin sportchi o‘rnidan turadi va yana 10 sek. hisoblanadi. Bunda 10 sek. ning tezlashganligi kuzatiladi.

10 sek. ning dastlabki holati me’yorida 10 sek. ichida 10-13 zarba atrofida yoki daqiqa singa 60-78 zarba bo‘lishi kerak. Yotgan holatdan turgan holatga o‘tganda 10 sek. ning tezlashishi 10 sek. ichida 3 zarbadan yoki daqiqa singa 18 zarbadan oshmasligi lozim.

Ushbu vaziyatda sportchi belgilangan rejaga ko‘ra mashg‘ulot jarayonida qatnashadi. Agar 10 sek. ning dastlabki holati va uning tezlashishi me’yorida bo‘lmasa, unda yuklamalar kattaligi va shiddatini kamaytirish yoki sportchini tibbiy ko‘rikdan o‘tishga jo‘natish to‘g‘risida qaror chiqarish zarur.

Mashg‘ulotlar oxirida ham orostatik sinov o‘tkaziladi. Bunda tezlashish me’yorida 10 sek ichida 4 zarbadan yoki daqiqa singa 24 zarbadan oshib ketmasligi kerak. Bu sinov natijalariga ko‘ra sportchining ertasiga bo‘ladigan mashg‘ulotlarga tayyorligi to‘g‘risida qaror chiqariladi.

2. *Vazifasi* – yuklamalarning sportchi funksional tizimiga ta’sirini tahlil qilish va uning shiddatli va katta hajmdagi yuklamalardan iborat mashg‘ulot vazifalarini bajarishni davom ettirishga bo‘lgan tayyorgarligini baholash.

*Bajarilishi* – bu vaziyatda suzuvchi odatda, standart vazifalar seriyasini bajaradi, masalan, 25 m, 50 m, 100 m, 200 m va h.k. Masofani suzib o‘tish. Bunda 10 sek dinamikasi, mashq seriyalarini bajarish vaqtini va yuklama kattaligi nazorat qilinadi, shundan so‘ng

sportchi III yoki V shiddat zonasiga kiradi (YUQT daqiqasiga 192 dan 210 zARBAGACHA yoki 10 sek ichida 32-35 zarba).

Dam olish vaqtida YUQT ning dastlabki holatga nisbatan tiklanish dinamikasini nazorat qilish lozim. YUQT 1 min ichida daqiqasiga 120-320 zARBAGACHA (10 sek ichida 20-22 zARBAGACHA), dastlabki holatga nisbatan esa 6-7 daqqa ichida tiklansa, u me'yorida hisoblanadi.

Ushbu tahlil natijalariga ko'ra belgilangan reja bo'yicha mashg'ulotlarni davom ettirish yoki yuklama kattaligini pasaytirish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

3. *Vazifasi* – yuklamalarning kattaligi va yo'nalishini hisobga olish.

*Bajarilishi* – yuklamalar kattaligi shiddat zonalari bo'yicha hisobga olib boriladi. Bunda ushbu shiddat zonasidagi ish vaqt suzib o'tishlar hajmi (litrda) va yuklama kattaligi (shart. birl.) aniqlanadi.

#### Joriy nazorat olib borish metodikasi

Joriy nazorat sportchi organizmi funksional holatining joriy (har haftalik va har oylik) o'zgarishlarini qayd etish va tahlil qilish uchun o'tkaziladi.

Joriy nazorat vazifalari:

*Vazifasi* – oldingi yuklamalardan so'ng toliqish darajasini (o'tgan haftalik MTS uchun) va sportchnining rejlashtirilgan joriy mashg'ulot yuklamalarini bajarishga tayyorligini baholash.

*Bajarilishi* – ushbu holda Ruffye Dikson testidan va nafas olingan nafasni ushlab turish (Shtange sinovi) va nafas chiqarilganda nafasni ushlab turish (Genchi sinovi) sinovi bo'yicha foydalanish ancha qulayroq.

Shuningdek, maksimal nafas olingandan so'ng uni chiqarib yuborish mumkin bo'lgan maksimal havo miqdorini – o'pkaning tiriklik sig'imini (O'TS) aniqlash lozim.

Ruffye Dikson testi natijalari quyidagicha ishlanadi:

$$A = \frac{(P_1 + P_2 + P_3) \cdot 200}{10}$$

bu yerda, A – indeks, ya'ni matematik yo'l bilan olinadigan test qiymati;  $P_1$  – YUQT ning dastlabki holati;  $P_2$  – 20 ta o'tirib turishdan so'ng YUQT;  $P_3$  – 1 min dam olishdan so'ng – YUQT.

Natijalari: 1) Agar A=1-3 bo'lsa, bu juda yaxshi ko'rsatkich. Sportchi holati a'lo darajada; 2) A=4-6 sportchining holatini yaxshi deb baholash mumkin; 3) A=7-8 sportchi holati toliqish sifatida, lekin qoniqarli baholanadi; 4) A=9 va yuqori – bu holat qoniqarli hisoblanadi.

*Shtange sinovi* – nafas olinganda nafasni ushlab turish. Bu ko'rsatkich me'yorida 60-120 sek bo'lishi kerak.

*Genchi sinovi* – nafas chiqarilganda nafasni ushlab turish. Bu ko'rsatkich me'yorida 60-90 sek teng bo'lishi kerak.

*O'pkaning tiriklik sig'imi* (O'TS) – sportchida toliqish boshlangunga qadar O'TS ni dastlabki darajasini oldindan bilib olish zarur.

Ortiqcha toliqqanda, ortiqcha mashq qilinganda, o'tkir surunkali kasalliklarda O'TSning kamayib ketishi kuzatiladi. O'TSning dastlabki darajaga nisbatan 30-40% ko'proq kamayib ketishi qoniqarsiz hisoblanadi.

Ruffe Dikson testi, Shtange sinovi, Genchi sinovi va O'TS qiyatlari qoniqarsiz bo'lganda, oldinda turgan haftalik MTSdag'i mashg'ulotlar yuklamalari hajmini kamaytirish va shug'ullanuvchilarni tibbiy ko'rildan o'tkazish to'g'risida qaror chiqariladi.

### **Bosqichli nazorat olib borish metodikasi**

Bosqichli nazorat odatda, bir yilda 2-4 marta (yillik mashg'ulot sikli bosqichlari va davrlari tugagandan so'ng) o'tkaziladi. Bosqichli nazorat vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) shug'ullanuvchilarning jismoniy rivojlanishi, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligidagi o'zgarishlarni aniqligi;
- 2) biologik rivojlanish sur'atlarining individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda me'yorlarning yillik o'sishining muvofiqligini baholash;
- 3) mashg'ulot jarayoniga tuzatishlar kiritish va shug'ullanuvchilarni ko'p yillik tayyorgarlikning keyingi bosqichiga o'tkazish uchun individual tavsiyalar ishlab chiqish.

Bosqichli nazorat olib borish metodikasi va tegishli qarorlar qabul qilish maxsus adabiyotlarda keng yoritilgan.

Asosiy tajriba o'tkazish davomida biz shunga amin bo'ldikki, birinchi navbatda tezkor nazoratni, keyin esa joriy nazoratni to'laqonli o'tkazish orqali yosh sportchilar organizmini ortiqcha toliqishdan va ortiqcha mashqlanishdan saqlab qolish mumkin.

Tajriba jarayonida tajriba guruhining hamma yosh suzuvchilarini rejalashtirilgan mashg'ulot jarayoni dasturini muvaffaqiyatli bajar-dilar.

Suvda tortiluvchi kuchlanishlarni o'lhash uchun bog'langan holda suzish paytida dinamometriya metodikasi qo'llanildi. Tortish moslamasining, ikkinchi uchi basseyn qirg'oqchasiga suv sathidan 20-100 sm balandlikda mahkamlanadi.

Sportchi tanlangan suzish rejimida (to'liq koordinatsiya bilan, qo'l va oyoqlar yordamida) suzib o'tishi kerak. Bunda po'lat zanjir to'liq tortilishi lozim va quyidagi shiddat zonalarida ishlashi zarur: maksimal – 30 sek; submaksimal – 1 min; katta aerob – 5 min.

Ma'lum bir vaqt oraliqlarida dinamometr ko'rsatkichlari yozib olinadi. Katta shiddat zonasida tortilish kuchlanishlarini aniqlashda sportchi 5 min davomida tinch suzish (kompensator) sharoitlarda (YUQT daqiqasiga 120 dan 140 zarbagacha) joyida suzadi va maxsus signal bo'yicha 3-5 sek ichida maksimal sur'atda eshish harakatlarini amalga oshiradi va shu vaqtida tortilish kuchi o'lchanadi.

### **Savollar:**

1. Suzish yuklama kattaligi nimalarda o'lchanadi?
2. Suzishda ballik tizimning qo'llanilish samaradorligi nimada?
3. Sport suzishida o'zgaruvchan suzishda chidamlilikni rivojlan-tirishda qanday mashq turlari qo'llaniladi?
4. Yuklamalar kattaliklarini me'yorlashning qanday metodlarini bilasiz?
5. Suzishda qanday toliqish alomatlari turlarini bilasiz?
6. Yosh suzuvchilar maxsus tayyorgarligining haftalik mikroblok-larini tuzish xususiyatlari.
7. Suzishda tezkor nazoratning qo'llanilish metodikasi.
8. Suzishda joriy nazoratning qo'llanish metodikasi.
9. Suzishda bosqichli nazoratning qo'llanish metodikasi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Верхушанскиу Ю.В. Теория и методология спортивноу подготовки: Блоковая система тренировки спортсменов высокого класса // Теория и практика физическоу культуры – Москва, 2005.- №4. – С. 2-14.
2. Годик М.А. Педагогические основы нормирования и контроля соревновательных и тренировочных нагрузок: Автореф. дис... докт. пед. наук. – М.:1982.-42с.
3. Конов С.П. Эффективные методы педагогического контроля в совершенствовании физическоу подготовленности юных пловцов: Автореф. дис...канд. пед. наук. – М.: 1982. С 23.
4. Рахматов Н.А., Туйчибаев М.У., Кудратов Р.К. Спорт биокимёси. – Т., 2006.
5. Садыков А.Г. Интенсификация процесса подготовки юных пловцов учебно-тренировочных групп 13-15 лет: Дисс... канд. пед. наук.– Т.:2009.-24с.

---

## **IV. YOSH SUZUVCHILAR TAYYORGARLIGI MAKROSIKLIDA O'QUV-MASHG'ULOT JARAYONINI JADALLASHTIRISH METODIKASINI ASOSLASH**

### **1. Tajriba guruhlari yosh suzuvchilarning mashg'ulot makrosikllarining yuklamalari tuzilishining umumiy tavsifi**

Oldingi bobda aytib o'tganimizdek, bu mashg'ulot yuklamalarini ularning kattaligi va yo'nali shiga ko'ra tasniflash va tizimlashtirish; yosh suzuvchilarning tezlik imkoniyatlari va chidamliligin oshirish; mashg'ulot tuzilmalarida, jumladan, tayyorgarlik davrining maxsus tayyorgarlik bosqichida sprinterlar, o'rta masofaga suzuvchilar hamda stayerlar uchun bir tomonlarna yo'naltirilgan, tanlangan yo'nali shdag'i yuklamalarni qo'llash metodikalarini ishlab chiqdik.

Mashg'ulot jarayonida tuzilmalarning uchta darajasi ajratiladi:

- mikrotuzilma – alohida mashg'ulotlar, kunlar va mikrosikllar tuzilmasi;
- mezotuzilma – o'rtacha sikllar va mashg'ulot bosqichlari tuzilmasi;
- makrotuzilma – katta mashg'ulot sikllari tuzilmasi.

Shuning uchun sport mashg'ulotini tuzish muammosi mikro-, mezo- va makrotuzilmalarning oqilona rejalashtirilishiga borib taqalladi N.J.Bulgakova (1996), S.M.Vaytsevovskiy (1985), Yu.V.Verxoshanskiy (2005), F.A. Kerimov (2009), A.G'. Sodiqov (2009).

Bizning metodikamizda tanlangan yo'nali shdag'i yuklamalar quyidagi vazifalarning hal etilishini nazarda tutgan: 1) mutlaq portlovchan shiddatni (suzuvchilar organizmining anaerob-alaktat energetik imkoniyatlarni) rivojlantirish; 2) kuch chidamliligin (anaerob-glikolitik energetik imkoniyatlarni) rivojlantirish; 3) chidamlilikni (aerob imkoniyatlarni) rivojlantirish; 4) sport natijasi yoki musobaqa faoliyati darajasini oshirish.

Yosh suzuvchilarda yillik siklda odatda, ikkita mas'uliyatli musobaqa o'tkaziladi, shu sababli yilda 2 ta makrosikl rejalashtirish maqsadga muvofiq (ikki siklli rejalashtirish).

Makrosiklida uchta davr ajratiladi: tayyorgarlik, musobaqa va o'tish.

Har bir makrosikl asosiy vazifaga ega bo'lishi, u shu bosqichdagi mashg'ulotga bo'yundirilishi lozim.

III bobda biz tayyorgarlik davri uchun maxsus tayyorgarlik bosqichlari tuzilmasini asoslab bergen edik. Bu bosqichlarda tanlangan yo'nalishdagi yuklamalar qo'llanilgandi.

Yuqoridagilardan foydalanib, biz yillik tayyorgarlik siklining makrosikli uchun yuklamalar tuzilmasini ishlab chiqdik va tajriba guruhlarining 13-15 yoshdagi suzuvchilar shunga asoslanib mashg'ulot o'tkazdilar.

Tajriba guruhlari uchun makrosikl yuklamalari tuzilmasi.

#### *I. Tayyorgarlik davri – davomiyligi 16 haftalik MTS.*

1.1. *Sprinterlar uchun* – 1 chi, 2 chi va 3 chi haftalik MTS larda chidamlilikni rivojlantiruvchi bir tomonlama yo'naltirilgan yuklamalar rejalashtiriladi. Yuklama kattaligi quyidagicha:

1-MTSda – o'rtacha, 2-MTSda – maksimal, 3-MTSda – katta, 4-MTSda – kompleks yuklama qo'llaniladi, uning kattaligi o'rtadan past darajada. Bu yosh suzuvchilar organizmida moslashish jarayonlarining kechishini yaxshilash uchun zarur; 5, 6, 7-MTSlarda yuklama portlovchan tezlik imkoniyatlarini (anaerob-alaktat yuklama) rivojlantirishga qaratilgan.

Ushbu vaziyatda bir tomonlama yuklama qo'llaniladi. Mikrosikllardagi yuklamalar kattaligi quyidagicha: 5-MTSda – katta yoki birmuncha yuqori; 6-MTSda – maksimal; 7-MTSda ham maksimal; 8-MTSda kompleks yuklama qo'llaniladi, uning kattaligi o'rtadan past darajada; 9, 10-MTSlarda yuklama chidamlilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan yuklama kattaligi quyidagicha:

9-MTSda – o'rtacha; 10-MTSda – katta; 11-MTSda – portlovchan tezlik imkoniyatlarini rivojlantirish (anaerob-alaktat) ko'zda tutilgan; 12-MTSda – kuch chidamliligi (anaerob-glikolitik imkoniyatlar).

Yuklama kattaligi: 11-MTSda – maksimal, 12-MTSda – o'rtacha; 13, 14, 15, 16 chi haftalik mikrosikllarda 5, 6, 7 va 8-MTSlardagi yuklama qo'llaniladi.

1.2. *O'rta masofaga suzuvchilar uchun*: 1, 2, 3 va 4-haftalik mikrosikllarda sprinterlar tayyorgarlik davrining xuddi shu mikrosikllarida qo'llanilgan yuklamadan foydalaniladi: 5, 6 va 7-

MTSda yuklama kuch chidamlilikini (anaerob-glikolitik imkoniyatlarni) rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Yuklama kattaligi quyidagicha: 5-MTSda o'rtadan yuqori; 6-MTSda maksimal; 7-MTSda – katta; 8-MTSda – o'rtacha kattalikdagi kompleks yo'nalishga ega yuklama qo'llaniladi.

9, 10, 11 va 12-MTSda sprinterlar uchun mo'ljallangan xuddi shunday sikllardagi yuklamalar qo'llaniladi; 13, 14, 15 va 16-MTSda – shu davrning 5, 6, 7 va 8-MTSlari uchun mo'ljallangan yuklama rejalashtiriladi.

*I.3. Stayerlar uchun:* 1 chi haftalik MTSda anaerob-alaktat imkoniyatlarni, portlovchi tezlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan yuklama qo'llaniladi. Yuklama kattaligi – o'rtadan yuqori; 2, 3, 4, 5, 6 va 7-MTSlarda aerob imkoniyatlarni (chidamlilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan yuklama) rejalashtiriladi.

*O'rtacha:* 3-MTSda – katta, 4 chi va 5-MTSda – maksimal, 6-MTSda – o'rtacha, 7-MTSda – katta yoki maksimal, 8-MTSda – kompleks yuklama qo'llaniladi, kattaligi o'rtadan past; 9-MTSda – yuklama anaerob-alaktat imkoniyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan, kattaligi – o'rtadan yuqori; 10-MTSda yuklama kuch chidamlilikini (anaerob-glikolitik imkoniyatlarni) rivojlantirishga yo'naltirilgan, kattaligi – o'rtadan yuqori;

11, 12, 13, 14, 15 va 16-MTSlarda ushbu davrning 2, 3, 4, 6, 7 va 8-MTS lari uchun mo'ljallangan yuklama rejalashtiriladi.

### *II. Musobaqa davri – davomiyligi 7 haftalik MTS.*

Bu davrda, odatda, quyidagi bosqichlar mavjud: 1) maxsus tayyorgarlik bosqichi, bizda uning davomiyligi, 4 haftalik MTSdan iborat; 2) musobaqa oldi yoki musobaqaga bevosita tayyorgarlik bosqichi uning davomiyligi 2-3 haftalik MTS.

Maxsus tayyorgarlik bosqichidagi mashg'ulot bazaviy xususiyatga ega va ko'p jihatdan tayyorgarlik davrining maxsus tayyorgarlik bosqichi mashg'ulotni takrorlaydi.

Asosiy farqi shundaki, bu kunda bajariladigan kunlik ish hajmi tayyorgarlik davri bosqichida mavjud kattaliklardan ortiqroq. 13-15 yoshdagи suzuvchilar uchun maxsus tayyorgarlik bosqichi tuzilishi quyidagicha:

### **I. Sprinterlar uchun:**

Birinchi uchta haftalik MTSda anaerob-alaktat imkoniyatlarni (portlovchan tezlik sifatlarini) rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus

yuklama (umumiyligi mashg'ulot hajmiga nisbatan 80-90% gacha) qo'llaniladi. Yuklamalar kattaligi: 1-MTSda – katta; 2-MTSda – maksimal; 3-MTSda – maksimal yoki katta.

4-MTSda birinchi ikki kunda kompleks yo'nalishdagi yuklama qo'llaniladi, kattaligi – o'rtadan yuqori, qolgan to'rt kun esa nazorat startlarini davom ettirish zarur.

## **II. O'rta masofaga suzuvchilar uchun:**

Birinchi uch haftalik mikrosiklarda anaerob-glikolitik yo'nalishdagi (kuch chidamlilikini rivojlantirishga yo'naltirilgan) maxsus yuklama qo'llaniladi. Yuklamalar kattaligi quyidagicha: 1-MTSda – katta, 2-MTSda – maksimal, 3-MTSda – katta.

4-MTSda birinchi ikki kunda o'rtacha kattalikdagi kompleks yuklama qo'llaniladi, qolgan to'rt kunda esa nazorat startlari o'tkaziladi.

## **III. Stayerlar uchun:**

Birinchi haftalik mikrosiklda birinchi ikki kunda anaerob-alaktat yuklama qo'llaniladi (asosan qisqa masofalardagi bo'laklarni musobaqa tezligida suzib o'tish): yuklamaning umumiyligi kattaligi – o'rtadan yuqori.

Qolgan to'rt kunda aerob yo'nalishdagi yuklama qo'llaniladi, kattaligi – katta yoki maksimal 2, 3 va 4-MTSlarda yuklama aerob imkoniyatlarni (maxsus chidamlilikni) rivojlantirishga yo'naltirilgan. Yuklamalar kattaligi quyidagicha: 2-MTSda – katta, 3-MTSda – maksimal, 4-MTSda – o'rtacha, 4-MTSda oxirgi uch kunda nazorat startlarini o'tkazish zarur.

Musobaqa davrining bevosita tayyorgarlik bosqichida maxsus tayyorgarlik bosqichi yuklamalardan so'ng tiklanish, asosiy musobaqalarga psixologik tayyorgarlik ko'rish, asosiy vazifa hisoblanadi. Bunda yuklamalar kattaligi o'rtacha darajagacha kamayadi. Yosh sportchilar organizmida moslashish jarayonlarining kechish dinamikasini yaxshilovchi yuklamalarni ko'proq qo'llash zarur.

## **IV. O'tish davri – 2-4 MTS.**

O'tish davrining vazifalari quyidagilardan iborat:

1) mashg'ulot va musobaqa yuklamalaridan so'ng to'laqonli dam olish;

2) sportchining navbatdagi makrosikl boshlanishiga qadar optimal darajadagi tayyorgarligini ta'minlash uchun mashqlanganlikni ma'lum bir darajada saqlab turish;

### 3) to'laqonli psixik tiklanish va h.k.

Birinchi makrosiklning o'tish davri muddati ikkinchi makrosikl tuzilmasiga o'tishi mumkin.

II makrosikl yuklamalarining tuzilishi asosan yillik sikldagi I makrosikl yuklamalari tuzilishini takrorlaydi.

### 2. 13-15 yoshdagи suzuvchilar tayyorgarligi makrosiklida qo'llaniladigan yuklamalar samaradorligini baholash

Yuqorida bayon qilingan 13-15 yoshdagи suzuvchilar tayyorgarligining yillik makrosikli tuzilmalarida yuklamalarni rejalashtirish tizimi samaradorligini baholash asosiy pedagogik tajriba doirasida amalga oshirildi.

Nazorat va tajriba guruhlari tarkibida har bir guruhda (sprinterlar, o'rta masofaga suzuvchilar va stayerlar 15 nafar sportchidan ishtirot etdi. Jami – 90 kishi.

Tajriba davomida nazorat guruhlari bolalar-o'smirlar sport mакtablarining o'quv-mashg'ulot guruhlari uchun mo'ljallangan tayyorgarlik dasturiga muvofiq mashg'ulotlar olib bordi, ya'ni ularda an'anaviy metodika qo'llanildi.

Tajriba guruhlari esa o'quv-mashg'ulot jarayonini jadallashtirish asosida yuklamalar rejalashtirish tizimidan foydalangan holda shug'ullandi.

Sportchilarning tayyorgarlik darajasini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanildi. Ularning barqarorligi test-retest tizimi bo'yicha tekshirildi.

1-jadvalda tanlab olingan ko'rsatkichlar ularning mosligi va barqarorlik koeffitsiyenti qiymatlari berilgan.

### Asosiy pedagogik tajribada fodalanilgan yosh suzuvchilar tayyorgarligining har xil tomonlari ko'rsatkichlari

1-jadval

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	O'Ichov birligi	Barqaror. koef.
1.	50 m masofani suzib o'tish vaqtি	sek	0,994
2.	100 m masofani suzib o'tish vaqtি	sek	0,988
3.	400 m masofani suzib o'tish vaqtি	sek	0,982

*1-jadvalning davomi*

4.	800 m masofani suzib o'tish vaqtি	<i>sek</i>	0,936
5.	1500 m masofani suzib o'tish vaqtি	<i>sek</i>	0,918
6.	Suvda tortilish kuchi (30 sek. test)	<i>kg</i>	0,868
7.	Suvda tortilish kuchi (1 min. test)	<i>kg</i>	0,804
8.	Suvda tortilish kuchi (5 min. test)	<i>kg</i>	0,764
9.	O'pkaning tiriklik sig'imi (O'TS)	<i>sm</i>	0,892
10.	Kislородни максимал исте'mol qilish (KMIQ)	<i>ml/min</i>	0,724
11.	Vaqtni idrok etishni baholash.	<i>ballar</i>	0,708
12.	Oddiy reaksiya vaqtি.	<i>sek</i>	0,915
13.	Murakkab reaksiya vaqtি.	<i>sek</i>	0,838

O'pkaning tiriklik sig'imi kislороднинг максимал исте'mol qilinishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar, vaqtini idrok etishni baholash, oddiy reaksiya va murakkab reaksiya vaqtি ilmiy adabiyotlarda ko'rsatib o'tilgan metodikalar bo'yicha aniqlandi.

Asosiy pedagogik tajriba davomida yuqorida aytib o'tilgan testlar yordamida yillik tayyorgarlik makrosiklidan oldin va keyin tekshiruv o'tkazildi, shuningdek, ko'rsatkichlardagi farqlar ishonchliligi aniqlandi.

2-jadvalda va 1-rasmida tajriba guruhlari sprinterlarida tajriba boshida va u oxirida aniqlangan tortilish kuchining o'rtacha qiymatlari qiyosiy dinamikasi berilgan.

**Yosh sprinterlarda suvda tortish kuchi o'rtacha qiymatlarining  
(30 sek.test) qiyosiy dinamikasi**


*2-jadval*

	Guruh-lar	Statist.tavsif	Vaqti (sek), suvda tortish kuchi (kg)								
			5»	10»	15»	20»	25»	30»	F <sub>max</sub>	-F <sub>o'r</sub>	△ F
1-tekshiruv	Nazorat	X	14,2	13,2	11,8	12,4	10,9	11,0	15,2	12,2	2,92
		δ n	2,0	3,0	1,5	1,4	1,48	1,2	2,09	0,8	1,4
		V%	14,1	22,7	12,7	11,2	13,5	11,3	13,8	6,6	48,5

*2-jadvalning davomi*

	Tajriba	X	13,4	12,8	11,4	11,3	12,0	11,0	15,0	12,0	3,0
		$\delta n$	3,2	1,6	1,64	1,22	1,62	1,4	2,7	1,5	1,52
		V%	23,9	12,5	14,4	10,8	13,5	12,7	18,0	12,2	50,67
2-teksiruv	Nazorat	X	14,4	14,8	12,6	12,8	11,2	11,4	16,3	12,9	3,42
		$\delta n$	2,2	2,6	2,6	1,9	1,9	1,2	1,81	0,75	1,44
		V%	15,2	17,6	20,6	14,9	17	10,5	11,1	5,9	42,1
2-teksiruv	Tajriba	X	19,8	19,6	18,8	17,6	17,2	15,6	21,4	18,1	3,3
		$\delta n$	2,5	1,4	2,6	2,1	1,7	1,1	1,5	1,0	0,7
		V%	12,6	7,14	13,8	11,9	9,9	7,05	7,0	5,5	21,2

2-jadval natijalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, tajriba boshida nazorat va tajriba guruhlarida tortilish kuchi ko'rsatkichlari darajasi taxminan bir xil edi. ( $F_{o,r}$  nazor=12,2 kg,  $F_{o,r}$ tajr.=12,0 kg), tajriba oxirida esa tajriba guruhnini suzuvchilarda bu ko'rsatkich ancha yaxshilandi ( $F_{o,r2}$ =12,9 kg,  $F_{o,r2}$ tajr.=18,1 kg).




*1-rasm. Nazorat va tajriba guruhlari sprinterlarida suvda tortilish kuchi (30 sek test) o'rtacha qiyatlarining qiyosiy dinamikasi.*

3-jadvalda va 2-rasmida o'rta masofaga suzuvchilarning suvda tortilish kuchi dinamikasi berilgan.

**O'rta masofaga suzuvchilarida suvda tortilish kuchi o'rtacha  
qiymatlarining (1 min test) qiyosiy dinamikasi**

*3-jadval*

	Gu-ruhlar	Statist. Tavsif	Vaqti (sek), suvda tortilish kuchi (kg)						$F_{max}$	Fsr	$\Delta F$
			10''	20''	30''	40''	50''	60''			
1-tekshiruv	Nazo-rat	X	13,8	12,6	11,6	12,0	11,0	9,2	14,9	11,7	3,2
		$\delta n$	1,8	2,4	1,5	2,2	1,5	0,6	1,3	0,6	1,0
		V%	13,04	19,05	12,9	18,3	13,6	6,5	8,7	5,1	31,25
	Taj-riba	X	14,1	11,8	11,0	11,6	10,8	9,6	15,0	11,5	3,5
		$\delta n$	2,9	1,6	2,1	1,7	1,6	1,9	2,0	0,9	1,7
		V%	20,6	13,5	19,1	14,6	14,8	19,8	13,3	7,8	48,6
2-tekshiruv	Nazo-rat	X	16,4	14,8	13,6	12,6	11,4	10,4	16,9	13,2	3,8
		$\delta n$	2,6	1,8	1,8	1,9	1,8	1,3	1,9	0,8	1,7
		V%	15,8	12,2	13,2	15,1	15,8	12,5	11,2	6,1	44,8
	Taj-riba	X	18,6	18,8	17,2	17,0	16,4	17,0	21,1	17,5	3,6
		$\delta n$	3,4	3,6	3,1	2,9	2,7	2,8	2,2	1,8	1,6
		V%	18,3	19,1	18,0	17,0	16,4	16,5	10,4	10,2	44,4



**2-rasm. Tajriba va nazorat guruhlari sportchilarida (o'rta masofaga suzuvchilar) suvda tortilish kuchi (1 min. test) o'rtacha qiymatlarining qiyosiy dinamikasi.**

Ushbu holda tajriba boshida nazorat va tajriba guruhlari suzuvchilarida tortilish kuchi qiymatlari taxminan bir xil ( $F_{o'1}$ nazor.=11,7 kg,  $F_{o'1}$ tajr.=11,5 kg), tajriba oxirida esa tajriba guruhni suzuvchilarda tortilish kuchi vaqtiga juda yaxshi ( $F_{o'2}$  nazor.=3,2 kg,  $F_{o'2}$ tajr.=17,5 kg).


4-jadvalda va 3-rasmida stayerlarning suvda tortilish kuchi ko'rsatkichlari dinamikasi berilgan.

Yosh stayerlarda sprinterlar hamda o'rta masofaga suzuvchilar singari, suvda tortilish kuchi ko'rsatkichlarning rivojlanishi tajriba guruhi nazorat guruhiga qaraganda yaxshiroq ( $F_{o'1}$ nazor.=10,8 kg;  $F_{o'1}$ tajr.=11,0 kg;  $F_{o'2}$  nazor.=11,9 kg;  $F_{o'2}$ tajr.=16,3 kg).

### **Yosh stayerlarda suvda tortilish kuchi (5 min. test) o'rtacha qiymatlarining qiyosiy dinamikasi**

*4-jadval*

	Guruh-lar	Sta-tist. Tav-sif	Vaqt (sek), suvda tortilish kuchi (kg)								
			1'	2'	3'	4'	5'	$F_{max}$	$F_{o'r}$	$\Delta F$	
1-tekshiruv	Na-zorat	X	9,8	12,0	10,8	11,0	10,4	12,8	10,8	2,0	
		$\delta n$	0,9	1,4	2,1	1,2	1,4	1,3	0,4	1,2	
		V%	9,2	11,7	19,4	10,9	13,5	10,2	3,7	60	
	Tajriba	X	11,9	11,6	9,8	10,6	10,9	12,9	11,0	1,9	
		$\delta n$	1,0	0,8	2,5	1,9	1,5	1,6	1,0	0,7	
		V%	8,4	6,9	25,5	17,9	13,8	12,4	9,1	36,8	
2-tekshiruv	Na-zorat	X	12,8	12,4	11,8	11,6	10,9	13,9	11,9	2,0	
		$\delta n$	1,1	1,5	2,2	1,4	1,1	0,9	0,7	0,6	
		V%	8,6	12,1	18,6	12,1	10,1	6,5	5,9	30	
	Tajriba	X	16,9	17,2	14,8	16,6	16,0	18,0	16,3	1,7	
		$\delta n$	1,1	1,4	1,3	1,1	1,2	1,1	0,6	0,7	
		V%	6,5	8,14	8,8	6,6	7,5	6,1	3,7	41,2	



**3-rasm. Nazorat va tajriba guruhlari sportchilarida (stayerlar) suvda tortilish kuchi (5 min test) o'rtacha qiymatlarining qiyosiy dinamikasi.**

Tajriba davomida  $F_{o'r}$  - sprinterlar, o'rtacha masofaga suzuvchilar va stayerlarda suvda tortilish kuchining o'rtacha qiymatlari ko'rsatkichidagi farqlar ishonchliligi aniqlandi. Buning uchun Student t-mezoni qiymatlari hisoblab chiqarildi va jadvaldagi qiymatlar bilan taqqoslandi.

Natijada shu narsa aniqlandiki, nazorat guruhlari suzuvchilarida  $F_{o'r}$  ko'rsatkichda farqlar ishonchliligi kuzatilmadi. Tajriba guruhlari suzuvchilarida esa farqlar ishonchliligi hamma hollarda kuzatildi.

t-mezon qiymatlari quyidagicha:

- sprinterlarda:  $t_{st}=3,9$  ( $R/0,01$ );
- o'rtacha masofaga suzuvchilarda:  $t_{st}=3,8$  ( $R/0,01$ );
- stayerlarda:  $t_{st}=4,0$  ( $R/0,01$ ).

5 va 6-jadvallarda nazorat va tajriba guruhlari yosh suzuvchilarning sport natijalari, jismoniy rivojlanish reaksiyasini belgilab beruvchi ko'rsatkichlar qiymatlarining qiyosiy dinamikasi berilgan.

**Nazorat guruhlari yosh suzuvchilarida tayyorgarlik ko'rsatkichlarining o'rtacha qiymatlari va farqlar ishonchliligi qiyosiy dinamikasi**

*5-jadval*

T/ r	Ko'rsatkichlar nomi	Sprinterlar			O'rta masofaga suzuvchilar			Stayerlar		
		Dast holat	Oxir teksh	t qis	Dast holat	Oxir teksh	t qis	Dast holat	Oxir teksh	t qis
1.	50 m masofani suzib o'tish vaqtি	32,4±3,16	29,6±2,5	1,7	-	-	-	-	-	-
2.	100 m masofani suzib o'tish vaqtি	69,4±7,4	64,2±5,3	1,22	-	-	-	-	-	-
3.	400 m masofani suzib o'tish vaqtি	-	-	-	304±27	296±27	0,81	-	-	-
4.	800 m masofani suzib o'tish vaqtি	-	-	-	658±60	642±59	2,88	-	-	-
5.	1500 m masofani suzib o'tish vaqtি	-	-	-	-	-	-	1208±73,9	1192±79,34	0,8
6.	O'pkaning tiriklik sig'imi (O'TS)	3554±584	3850±566	0,7	3574±342	3951±307	2,35	3641±439	3957±354,6	1,3
7.	Kislородни maksimal iste'mol qilish (KMIQ)	1959±222	2113±242	1,2	2074±344	2141±320	0,62	2253±341	2384±322	2,2

8.	Vaqtni idrok etishni baholash.	$3\pm0,97$	$4,7\pm0,94$	1,55	$3,4\pm0,95$	$4,8\pm0,9$	1,47	$3,73\pm1,28$	$5,4\pm0,95$	2,38
9.	Oddiy reaksiya vaqtini.	$203\pm12,3$	$192\pm13$	1,5	$212\pm11,4$	$191\pm13,2$	1,6	$217\pm23,2$	$197\pm13,6$	1,6
10.	Murakkab reaksiya vaqtini.	$220\pm11$	$209\pm15$	1,06	$220\pm16,3$	$211\pm17,2$	1,2	$225\pm15$	$217\pm15,4$	0,74

**Tajriba guruhlari suzuvchilarida tayyorgarlik ko'rsatkichlarining o'rtacha qiymatlari va farqlari  
ishonchliligi qiyosiy dinamikasi**

6-jadval

185

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	Sprinterlar			O'rta masofaga suzuvchilar			Stayerlar		
		Dast holat	Oxir teksh	t qis	Dast holat	Oxir teksh	t qis	Dast holat	Oxir teksh	t qis
1.	50 m masofani suzib o'tish vaqtini	$33,1\pm3,24$	$26,0\pm2,1$	3,6	-	-	-	-	-	-
2.	100 m masofani suzib o'tish vaqtini	$70,4\pm4,72$	$59,4\pm4,0$	3,12	-	-	-	-	-	-
3.	400 m masofani suzib o'tish vaqtini	-	-	-	$302\pm31,3$	$278\pm23,3$	2,21	-	-	-
4.	800 m masofani suzib o'tish vaqtini	-	-	-	$665\pm53,2$	$608\pm41,9$	2,34	-	-	-

5.	1500 m masofani suzib o'tish vaqtı	-	-	-	-	-	-	$1214 \pm 81,08$	$1101 \pm 63,3$	2,63
6.	O'pkaning tiriklik sig'imi (O'TS)	$3452 \pm 358$	$4034 \pm 441$	2,56	$3480 \pm 540,2$	$4280 \pm 423$	2,27	$3450 \pm 409$	$4399 \pm 322$	2,74
7.	Kislorodni maksimal iste'mol qilish (KMIQ)	$1947 \pm 381$	$2361 \pm 402$	2,87	$2100 \pm 325$	$2500 \pm 236$	2,66	$2160 \pm 233$	$2750 \pm 295$	3,03
8.	Vaqtni idrok etishni baholash.	$2,8 \pm 0,83$	$6,53 \pm 1,36$	3,08	$3,6 \pm 0,71$	$7,07 \pm 1,24$	2,31	$3,53 \pm 0,88$	$7,53 \pm 0,88$	4,89
9.	Oddiy reaksiya vaqtı.	$208 \pm 20,1$	$172 \pm 23,4$	3,5	$206 \pm 19,3$	$178 \pm 12,8$	3,32	$215 \pm 17,8$	$180 \pm 17,7$	1,78
10.	Murakkab reaksiya vaqtı.	$222 \pm 19,2$	$193 \pm 14$	2,85	$223 \pm 18,2$	$196 \pm 13,04$	3,6	$226 \pm 18,8$	$200 \pm 17$	3,29

*Eslatma:* Yillik sikl haftalari bo'yicha yuklama hajmi 5ta shiddat zonası bo'yicha suzib o'tilgan kilometrlarda beriladi (1-jadvalda shu zonalar tavsifi keltirilgan).

Mazkur jadvallarda keltirilgan ma'lumotlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhi sportchilarida nazorat guruhi suzuvchilarining yaxshilanishi ancha salmoqliroq.

Sport natijalari, O'TS, KMIQ, vaqtini idrok etishni baholash, oddiy va murakkab reaksiya vaqtini ko'rsatkichlarining rivojlanishi tajriba guruhlari suzuvchilarida nazorat guruhlarinikiga nisbatan 20-40%ga (R/0,05) yuqori.

Tajriba guruhi suzuvchilarida farqlar ishonchliligi 20 tadan 19 ta testda kuzatiladi. Stayerlarda oddiy reaksiya vaqtini ko'rsatkichi bundan mustasno.

Nazorat guruhlari suzuvchilarida (20 ta holatdan) faqat quyidagi ko'rsatkichlarda farqlar ishonchli: 1) o'rta masofaga suzuvchilarda 800m.ni suzib o'tish natijasi; 2) o'rta masofaga suzuvchilarda O'TS ko'rsatkichi; 3)stayerlarda KMIQ; 4) stayerlarda vaqtini idrok etishni baholash.

Boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha farqlar ishonchliligi kuzatilmaydi. Yuqoridagilarga xulosa yasab aytish mumkinki, asosiy pedagogik tajribaning deyarli hamma tomonlari 13-15 yoshdagi yosh suzuvchilar mashg'ulot jarayonini jadallashtirishning tanlangan metodikasi samarali ekanligini tasdiqlaydi.

### **Savolar:**

1. Suzishda qanday mashg'ulot jarayoni tuzilmalarining turlari mavjud?
2. Suzishda sprinterlar uchun makrosikldagi yuklamalar tuzilmalari.
3. Sport suzishida o'rta masofaga suzuvchilar uchun makrosikldagi yuklamalar tuzilmalari.
4. Suzishda stayerlar uchun makrosikldagi yuklama tuzilmalari.
5. Yosh suzuvchilarni tayyorlashda tanlangan yo'nalishdagi yuklamalarning qo'llanilish samaradorligini baholash.
6. Sprinterlarning kuch tayyorgarligini aniqlash metodikasi.
7. O'rta masofaga suzuvchilarining kuch tayyorgarlikni aniqlash.
8. Stayerlarning kuch tayyorgarlikni aniqlash.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Булгакова Н.Ж. Спортивное плавание: Учебник – М.: Фон, 1996. – 430с.
2. Вауцевскиу С.М. Система спортивноу подготовки пловцов к Олимпиуским играм (теория, методика, практика).: Автореф. дис... . д-ра. пед. наук. – М., 1985.-52 с.
3. Конов С.П., Плотников В.П., Лыщик В.Ю., Ливицкиу А.Н. Определение силы тяги в плавании как метод контроля за специальноу физическоу подготовленностью и техническим мастерством спортсмена //Соглом авлод уилига ва 2000 уил Сиднеуда булиб утадиган XXVII.
4. Родионов А.В., Керимов Ф.А. Практика психологии спорта. – Т.: Lider Press, 2008. - С. 236.

## XULOSA

1. Tajribada asoslangan yosh suzuvchilarning tayyorgarlik makrosiklida o'quv-mashg'ulot jarayonini jadallashtirish metodikasi quyidagi vazifalarni hal etishni, ya'ni:

- mutlaq portlovchan kuchni (organizmning anaerob-alaktat energetik imkoniyatlarini);
- kuch chidamlilikini (anaerob-glikolitik energetik imkoniyatlarini);
- chidamlilikni (aerob imkoniyatlarni) rivojlantirishni;
- sport natijasi yoki musobaqa faoliyati darajasini oshirishni nazarda tutadi.

2. Asoslandiki, sprinterlar uchun makrosikl yuklamalari tuzilmasi 16 haftalik MTS lardan iborat. Ulardan 1-3 MTSlar chidamlilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan, 4-MTSda kompleks yuklama qo'llaniladi, 5-7 MTSlarda tezlik imkoniyatlari rivojlantiriladi, 8-MTSda esa kompleks yuklamadan foydalaniladi, 9-10 MTSlar chidamlilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan, 11-MTSda tezlik imkoniyatlarini yaxshilash ko'zda tutilgan, 12-MTSlarda esa kuch chidamliligi rivojlantiriladi, 13-16 MTSlarda esa 5-8 MTSlardagi yuklama qo'llaniladi.

O'rta masofaga suzuvchilar uchun 1-4-MTSlarda sprinterlardagi shu haftalik yuklamalar qo'llaniladi. 5-7 MTSlarda yuklama kuch chidamlilikini (anaerob-glikolitik imkoniyatlarini) rivojlantirishga yo'naltirilgan.

8-MTSda o'rtacha kattalikdagi kompleks yuklama qo'llaniladi. 9 dan 12-MTSlarda sprinterlar uchun mo'ljallangan xuddi shu sikllardagi yuklamadan foydalaniladi. 13-16-MTSlarda 5-8 MTSlardagi yuklamalar rejorashtiriladi.

Stayerlar uchun 1-9-MTSlarda anaerob-alaktat imkoniyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan yuklama qo'llanildi, 2 dan 7-MTSGacha

aerob imkoniyatlarni chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan yuklamadan foydalanildi.

8-MTSda kompleks yuklama qo'llanildi, 10-MTSda yuklama kuch chidamliligini rivojlantirishga qaratildi, 11-16-MTSlarda 2, 3, 4, 6, 7 va 8-MTS- larda qo'llanilgan yuklamadan foydalanildi.

3. Yosh suzuvchilarining tayyorgarliklarini baholashda pedagogik nazorat olib borish uchun quyidagi testlardan foydalanish zarurligi aniqlandi; 50 m, 100 m, 400 m, 800 m, 1500 m masofalarga suzish vaqt; 30 sek (maks. shiddat), 1 min (submaksimal shid.) va 5 min (katta shiddat) ichida bajariladigan testlar davomida suvda tortilish kuchini o'lhash, O'TS, KMIQ ko'rsatkichlari, vaqt ni idrok etishni baholash; oddiy va murakkab reaksiya vaqt.

4. Qiyosiy pedagogik tajriba natijalari yosh suzuvchilarining mashg'ulot jarayonini jadallashtirish metodikasidan foydalanish samara berishini aniq isbotladi. Sport natijasi, O'TS, KMIQ, vaqt ni idrok etishni baholash, oddiy va murakkab reaksiya vaqt ni ko'rsatkichlari tajriba guruhi suzuvchilarida 20-20% ga ( $R/0,05$ ) ortdi va nazorat guruhi ko'rsatkichlaridan oshib ketdi.

Nazorat guruhi suzuvchilarida farqlar ishonchliligi 20 ta testdan faqat quyidagi ko'rsatkichlarda kuzatildi: o'rta masofaga suzuvchilarida 800 m.ga suzishda va O'TSda, stayerlarda esa KMIQ va vaqt ni idrok etishni baholashda kuzatildi ( $R/0,05$ ).

Tajriba guruhi suzuvchilarida esa farqlar ishonchliligi stayerlarda oddiy reaksiya vaqt ni ko'rsatkichidan tashqari qolgan 19 testda kuzatildi.

## AMALIY TAVSIYALAR

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari 13-15 yoshdagi suzuvchilarining o'quv-mashg'ulot jarayonini jadallashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi:

1. O'quv-mashg'ulot jarayonini jadallashtirish quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

- mutlaq portlovchan kuchni (anaerob-alaktat energetik imkoniyatlarni) rivojlantirish;
- kuch chidamlilikini (anaerob-glikolitik imkoniyatlar) rivojlantirish;
- chidamlilikni (aerob imkoniyatlarni) rivojlantirish;
- sport natijasi yoki musobaqa faoliyati darajasini oshirish.

2. Tayyorgarlik davrining yuklamalari tuzilmasi sprinterlar uchun 16 haftalik MTSdan iborat, ulardan 1-3-MTSlar chidamlilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan, 4-MTSda kompleks yuklama qo'llaniladi, 9-10-MTSlarda chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan, 11-MTSda tezlik sifatlari yaxshilanadi, 12-MTSda kuch chidamliligi rivojlantiriladi, 13-16-MTSlarda 5-8 MTSdagi yuklamalardan foydalaniлади.

3. O'rta masofaga suzuvchilar uchun 1-4-MTSlarda sprinterlar qo'llagan yuklamadan foydalaniлади, 5-7-MTSlarda yuklama kuch chidamlilikini rivojlantirishga qaratilgan. 8-MTSda o'rtacha kattalikdagi kompleks yuklama qo'llaniladi. 9 dan 12-MTSgacha sprinterlar qo'llanilgan yuklamadan foydalaniлади. 13-16-MTSlarda 5-8-MTSdagiga o'xshash yuklama rejalashtiriladi.

4. Stayerlar uchun 1-9-MTSlarda anaerob-alaktat imkoniyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan yuklamadan foydalinish zarur, 2-7-MTSlarda esa aerob imkoniyatlar (chidamlilik) rivojlantiriladi.

8-MTSda kompleks yuklama qo'llaniladi, 10-MTSda yuklama kuch chidamliligini rivojlantirishga yo'naltirilgan 11-16-MTSlarda 2, 3, 4, 6, 7 va 8-MTSlarda qo'llanilgan yuklamalardan foydalaniladi.

5. Yosh suzuvchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonini samarali boshqarish maqsadida pedagogik nazorat olib borish uchun quyidagi testlardan foydalanish zarur: 50 m, 100 m, 400 m, 800 m, 1500 m masofani suzib o'tish vaqt; suvda tortilish kuchini o'lchash (30 sek 1 min, 5 min); antropometrik ko'rsatkichlari: O'TS, KMIQ va vaqtning idrok etishni baholash, shuningdek, oddiy va murakkab reaksiya vaqtini.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Закон Республики Узбекистан «О физической культуре и спорте» от 27.06.2000 (новая редакция). – Т., 2000, 21 с.
2. Указ Президента Республики Узбекистан от 24 октября 2002 года №УП 3154 «О создании фонда развития детского спорта Узбекистана». – Т., 2002.
3. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему развитию физической культуры и спорта в Узбекистане» от 27 мая 1999. – Т., 1999.
4. Государственная программа развития физической культуры и спорта. – Т., 1998, 23 с.
5. Жисмоний тарбияни ривожлантириш давлат дастури. – Т.: Шарқ, 2001, 17 б.
6. Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиёти-нинг пойдевори. – Т.: Шарқ, 1997, 63 б.
7. Каримов И.А. Гармонично развитое поколение – основа прогресса Узбекистана //По пути безопасности и стабильности развития. Т.6. – Т.: Узбекистан, 1998,. 313 с.
8. Айрапетьянц Л.Р., Пулатов Ш.А. Научно-технологические основы подготовки юных спортсменов на начальном этапе обучения //Фан-спортга – Т., 2005, №1, 6-8 с.
9. Булгакова Н.Ж. Спортивное плавание: Учебник – М.: Фан, 1996, 430с.

10. Вайцеховский С.М. Система спортивной подготовки пловцов к Олимпийским играм (теория, методика, практика).: Автореф. дис... д-ра. пед. наук.– М., 1985, 52 с.
11. Верхошанский Ю.В. На пути к научной теории и методологии спортивноу тренировки // Теория и практика физической культуры. –Москва, 1998,- № 2, 21-27 с.
12. Верхошанский Ю.В. Программирование и организация тренировочного процесса. – М.: ФиС, 1985, 76 с. ил.
13. Верхошанский Ю.В. Теория и методология спортивной подготовки: Блоковая система тренировки спортсменов высокого класса // Теория и практика физической культуры – Москва, 2005, №4, 2-14 с.
14. Водяникова Н.А., Никитушкин Н.Н. Практика применения модульного обучения в системе повышения квалификации специалистов по физическоу культуре и спорту // Теория и практика физ. культ. – 2004 №12, 41-44 с.
15. Воутенко Ю.Л. Динамика тренировочных нагрузок и работоспособность юных пловцов: Автореф. дис... канд. пед. наук. – М., 1985, 24 с.
16. Волков Л.В. Спортивная подготовка детей и подростков. – К.: Вежа, 1998, 190 с.
17. Годик М.А. Педагогические основы нормирования и контроля соревновательных и тренировочных нагрузок: Автореф. дис... докт. пед. наук. – М., 1982, 42с.

18. Журавик Анджей (РП) Оценка срочного тренировочного эффекта специальных плавательных упражнений по биоэнергетическим показателям: Автореф. дис...канд. пед. наук. – М., 1990, 22 с.
19. Керимов Ф.А. Спорт соҳасидаги илмий тадқиқотлар. – Т.: «Zar qalam», 2004, 334 б.
20. Керимов Ф.А. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. – Т.: Lider Press, 2009, 264 б.
21. Клешнев Н.В., Тверяков И.А. Особенности в аспекте планирования процесса подготовки высококвалифицированных пловцов// Теория и практика физической культуры. – 2008, №3, 62-66 с.
22. Конов С.П. Эффективные методы педагогического контроля в совершенствовании физической подготовленности юных пловцов: Автореф. дис...канд. пед. наук. – М., 1982, 23 с.
23. Конов С.П., Плотников В.П., Лыщик В.Ю., Ливицкий А.Н. Определение силы тяги в плавании, как метод контроля за специальной физической подготовленностью и техническим мастерством спортсмена //Соғлом авлод йилига ва 2000 йил Сиднейда бўлиб ўтадиган XXVII.
24. Korbut. V.M. SUZISH.-T.:Darslik Lider Press, 2012. - B. 264.
25. Корбут В.М. SUZISH (sport-pedagogik takomillashuvi). –Т.: Lider Press, 2012, 142 б.

26. Корженевский А.Н., Квашук П.В., Птушкин Г.М. Новые аспекты комплексного контроля и тренировки юных спортсменов в циклических видах спорта // Теория и практика физической культуры. – 1993, № 8, 28-33 с.
27. Лыщик В. Ю., Гаппаров З.Г. Индивидуальные психологические особенности эмоциональной напряженности пловцов и её влияние на соревновательную деятельность // Соғлом авлод йилига ва 2000 йил Сиднейда бўлиб ўтадиган XXVII тайёргарлиги масалаларига бағишиланган V Республика илмий амалий анжумани: Илмий мақолалар тўплами. – Т., 2000, 285-295 с.
28. Манин В.С. Цена победы / Учеб метод пособие по подготовке пловцов группы спортивного совершенствования и вышедшего спортивного мастерства – Ташкент: «Шарқ» 2000, 64 с.
29. Матвеев Л.П. Основы общей теории спорта и системы подготовки спортсменов. — К.: Олимпийская литература, 1999, 320 с.
30. Морозов С.Н. Показатели основных сторон подготовленности пловцов-спринтеров и стайеров, как критерии управления тренировочным процессом на этапе углубленной специализации: Автореф. дис...канд. пед. наук – М., 1989, 24 с.
31. Никитушкин В.Г. Формирование программно-нормативного обеспечения спортивных школ по Олимпийским видам спорта // Теория и практика физической культуры. – 2003, №10, 35-37 с.

32. Платонов В.Н. Плавание – Киев.: Олимпийская литература, 2000, 290 с.
33. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и её практические приложения – Киев: Олимпийская литература, 2004, 808 с.
34. Попов О.И. Построение тренировочных программ квалифицированных пловцов на основе нормирования объема и интенсивности нагрузки: Автореф. дис...канд. пед. наук – М., 1987, 24 с.
35. Раҳматов Н.А., Сайдов Т.М. Ўзбекистон Республикаси Олимпиада ўринбосарлари билим юрти сузиш бўлими ўкувчилардан энергия алмашиниш жараёнларини ўрганиш натижалари //Соғлом авлод йилига ва 2000 йил Сиднейда бўлиб ўтадиган XXVII тайёргарлиги масалаларига бағишиланган V Республика илмий-амалий анжумани: Илмий мақолалар тўплами. – Т., 2000, 127-130 с.
36. Раҳматов Н.А., Тўйчибаев М.У., Кудратов Р.К. Спорт биокимёси. – Т., 2006.
37. Родионов А.В., Керимов Ф.А. Практика психологии спорта. – Т.: Lider Press, 2008, 236 с.
38. Садыков А.Г. Интенсификация процесса подготовки юных пловцов учебно-тренировочных групп 13-15 лет: Дисс...канд. пед. наук. – Т., 2009, 24 с.

39. Туйчибаев М.У., Рахматов Н.А., Ливицкий А.Н. Влияние физической нагрузки на содержание мочевины в крови спортсменов-гребцов //Педгогик таълим. – Т., 2003, № 2, 42-45 с.
40. Bouchard C., Taylor A.W., Simoneau J.A., Dulac S. Testing anaerobic power and capacity //Physiological Testing of the High-Performance Athlete. - Human Kinetics, 1997. - P. 175-221.
41. Colwin C.M. Swimming into the 21th Century. - Human Kinetics Publisher, Champaing, Illinois, 1992. - P. 1-100.
42. Hochachka P., Somero G. Biochemical Adaption 1988. - P. 568.
43. Science of Coaching Swimming //John Leonard (ed). - Illinois Leisure Press Champaign, 1992. - P. 162.
44. Wilmore J.N., Costill P.L. Physiology of Sport and Exercise - Champaign Human Kinetics, 1994. - P. 549.

## MUNDARIJA

<b>Kirish .....</b>	<b>3</b>
<b>I. Yosh suzuvchilar mashg‘ulot jarayonini jadallashtirish metodikasining nazariy asoslash</b>	
1. Suzishda mashg‘ulot jarayonini jadallashtirish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlar.....	5
2. Sport suzishida mashg‘ulot jarayonini tuzish va mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish asoslari .....	13
3. Sportchining funksional imkoniyatlarini rivojlantirishdagi tavsiyalar .....	17
4. O‘quv-mashg‘ulot guruhlari yosh suzuvchilarining sport tayyorgarligini takomillashtirish .....	22
5. Sport suzishida umumiylar va maxsus jismoniy ish qobiliyatini aniqlash usuliyati. ....	36
<b>II. Yosh suzuvchilarning ko‘p yillik tayyorgarligi</b>	
1. Yosh suzuvchilarning ko‘p yillik tayyorgarligi bosqichlari....	54
2. Suzuvchilarning ko‘p yillik tayyorgarligi tamoyillari.....	58
3. Yosh suzuvchilsrning mashg‘ulotlarini rejalashtirish.....	71
4. O‘quv rejasini oshib berish.....	77
5. Jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun maxsus mashqlar.....	101
<b>III. Yuklamalar kattaliklarini aniqlash metodikasi va mashg‘ulot tuzilmalarini tuzish uchun ularning me’yorlanishi</b>	
1. Mashg‘ulot yuklamalarini tizimlashtirish va ularning kattaliklarini aniqlash .....	137
2. Yuklama kattaliklarini me’yorlash metodikasi .....	155
3. Sport suzishida tanlangan yo‘nalishdagi yuklamalardan tashkil topgan mashg‘ulot jarayoni tuzilmalarini tuzish .....	160
4. Yosh suzuvchilarning tezkor, joriy va bosqichli nazoratini o’tkazish metodikasi .....	168
<b>IV. Yosh suzuvchilar tayyorgarligi makrosiklida o‘quv-mashg‘ulot jarayonini jadallashtirish metodikasini asoslash</b>	
1. Tajriba guruhlari yosh suzuvchilarning mashg‘ulot makrosikllarining yuklamalari tuzilishining umumiylar tavsifi ....	174
2. 13-15 yoshdagisi suzuvchilar tayyorgarligi makrosiklida qo‘llaniladigan yuklamalar samaradorligini baholash .....	178
Xulosa .....	189
Amaliy tavsiyalar .....	191
Foydalilanilgan adabiyotlar .....	193

**A.G‘.SODIQOV**

**YOSH SUZUVCHILARNING  
TAYYORGARLIK BOSQICHLARIDAGI  
MASHG‘ULOT YUKLAMALARINI  
REJALASHTIRISH**

**Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2015**

Muharrir:	M.Hayitova, L.Abdurahmanova
Tex. muharrir:	M.Xolmuhamedov
Musavvir:	D.Azizov
Musahhih:	N.Hasanova
Kompyuterda sahifalovchi:	Sh.Mirqosimova

E-mail: [tipografiyacnt@mail.ru](mailto:tipografiyacnt@mail.ru) Tel: 245-57-63, 245-61-61.  
Nashr.lits. AIN<sup>1</sup> №149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 14.04.2015.  
Bichimi 60x84 <sup>1/16</sup>, «Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog‘i 12,0. Nashriyot bosma tabog‘i 12,5.  
Tiraji 300. Buyurtma №30.

**«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.  
100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-uy.**



**Sodiqov Akbar G'ayratovich** – 1979-yil 8-dekabr kuni Toshkent shahrida tavallud topgan. 2009-yili Pedagogika fanlari nomzodi unvoniga sazovar bo‘ldi. Qisqa vaqt ichida 3 ta metodik qo‘llanma, 1 ta uslubiy qo‘llanma, 4 ta maqolalar chop etgan, xalqaro va respublika miqyosidagi konferensiyalarda ishtirok etib kelmoqda. O‘zbekiston ayollar terma jamoasiga murabbiylik qiladi, shogirdlari suzish bo‘yicha Osiyo chempionatlari g‘oliblari bo‘lishgan.

ISBN 978-9943-983-35-9

**FAN VA  
TEKNOLOGIVALAR**

A standard linear barcode representing the ISBN 978-9943-983-35-9. Below the barcode, the numbers 9 789943 983359 are printed vertically.